

O.M. MADALIYEV

# PROKUROR NAZORATI

*UMUMIY QISM*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK INSTITUTI

O.M. MADALIYEV

---

---

# PROKUROR NAZORATI

---

---

**Darslik**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus  
ta'lim vazirligining Muvofiqlashtirish kengashi  
tomonidan nashrga tavsiya etilgan*

**UMUMIY QISM**

YUK 347.963(075)

BBK 67.72(50')

M14

Ushbu darslik yuridik oliy o'quv yurtlari talabalariga mo'ljallangan bo'lib, «Prokuror nazorati» fanidan tayyorgarlik ko'rish va kurs ishlarini bajarishlariga ko'maklashish uchun tayyorlangan.

Darslik bakalavriyat yo'nalishining 5380100-magistratura yo'nalishi-ning 5380111-yurisprudensiya ixtisosligi bo'yicha bilim oluvchilarga, aspirantlar, yurisprudensiya sohasidagi oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari uchun mo'ljallangan.

*Mas'ul muharrir:* **Z.F. INOG'OMJONOVA** — Toshkent Davlat yuridik institutining «Jinoyat protsessi» kafedrasini mudiri, yuridik fanlari doktori, professor.

*Taqrizchi:* **F.H. RAHIMOV** — O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining Oliy o'quv kurslari kafedra boshlig'i, yuridik fanlari doktori.

ISBN 978-9943-16-053-8

© O.M. Madaliyev.

© Toshkent Davlat yuridik instituti, 2012-y.

© «ILM ZIYO» nashriyot uyi, 2012-y.



## KIRISH

«Prokuror nazorati» darsligi fan bo'yicha O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin o'zbek tilida tayyorlangan dastlabki darsliklardan bo'lib, Davlat ta'lim standartida belgilangan asosiy o'quv materialini qamrab olib, bilimlarni talabalar tomonidan mustaqil o'zlashtirib olishga, ularda ko'nikma va malakalarni shakllantirishga, kerakli o'quv materialini mustaqil izlash va topishga hamda amaliy faoliyatda qo'llashni o'rgatish va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Prokuror nazoratining Umumiy qismida qayd etilgan va qiyoslash uchun xorijiy mamlakatlar prokuratura organlari faoliyatining asosiy prinsiplarining berilishi ta'lim oluvchilarni faol bo'lishga va tanqidiy fikrlashga undaydi. Darslikda takrorlash uchun savollar berilishi, kazu va masalalarning yechish uchun keltirilishi, shuningdek, o'tilayotgan darslarning sxemalar tarzida ifodalanishi talabalarga faqat nazariy ma'lumot berish bilan cheklanmaslik imkoniyatini beradi.

Darslikning Maxsus qismida esa amaliy ko'nikmalarni shakllantiruvchi muammoli savollar, loyihalar, mashqlar va ijodiy topshiriqlar berilgan. Darslikda savollarning test tarzida ham berilganligi ta'lim oluvchi bilimni o'zi baholashi va mustaqil ta'lim olishi uchun imkoniyat yaratadi. Darslikda o'quv materiali aniq maqsad va vazifalarga yo'naltirilgan.

Darslikda «Prokuror nazorati» fani bo'yicha prokuror nazorati hujjatlarining mazmuni va tushunchasi berilib, ushbu hujjatlar namunalari ilova tarzida keltirilganligi, keltirilgan namunalarni yuksak darajadagi salohiyat nuqtayi nazaridan yanada takomillash-tirish mumkinligi darsliklar oldiga qo'yilgan dalillardan — namunalar-ga, namunadan—farazga, farazdan—izlanishga, izlanishdan—amaliy qo'llashga, abstrakt-ilmiy bilimdan—aniq kasbiy bilim-ga, bilimdan—amaliy ko'nikmaga o'tish ta'minlanishi lozimligi haqidagi talablarga to'liq mos keladi. •



Darslikda barcha o'quv materiallari tushunarli va ravon tilda, mantiqiy va tizimli tarzda bayon etilgan bo'lib, muhim ma'lumotlar ajratib ko'rsatilgan.

Darslikning Umumiy qismida milliy xususiyatlar hisobga olinishi zarurligi haqidagi talabga binoan, O'zbekiston Respublikasi hududida qadimdan tarixan prokuror nazoratiga o'xshash bo'lgan faoliyat va prokuror lavozimiga o'xshash bo'lgan mansab lavozimlari haqida qiyosiy fikr-mulohazalar berilgan. «Prokuror nazorati» fani bo'yicha berilgan kazuслar, masalalar, savollar, test savollari, topshiriqlar va vazifalar keng ko'lamli ta'lim oluvchilar bajaradigan amaliy ishlarni juftlikda yoki kichik guruhlarda tashkil etish imkoniyatini beradi.

**«Prokuror nazorati»** — keng tarmoqli huquqiy fanlar ichida, bir tomondan, prokuror nazorati haqidagi qonunchilikni o'rganuvchi mustaqil huquqiy fan sifatida va ikkinchi tomondan, huquqiy fanlarning bir sohaviy tarmog'i sifatida hamda uchinchi tomondan, qonunlar ijrosini amalga oshiruvchi prokurorlar faoliyatini ham nazariy, ham amaliy tomondan o'rganadigan huquqiy bilimlar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi.

**Prokuror nazorati** deyilganida, birinchidan, prokuratura organlari vazifasini, asosiy funksiyasini amalga oshiruvchi davlat faoliyatining maxsus bir turini tushunsak, ikkinchidan huquqiy fan tarmog'ining bir bo'lagi va o'quv intizomi tariqasida tushuniladi.

**Prokurorlar faoliyati** deyilganida, prokuratura organlari tizimida ishlaydigan mansab lavozimi va maxsus unvonga ega bo'lgan barcha prokuratura xodimlari faoliyati tushuniladi. Mavzular bo'yicha prokuratura faoliyatining ba'zi yo'nalishlari, yoinki prokuratura faoliyatining ayrim vakolatlari O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 56-moddasida nazarda tutilgan talablarga binoan, ma'lum bir prokurorlarning o'zigagina tegishli ekanligini nazarda tutish lozim (masalan, protest kiritish, o'zgartirish, chaqirib olish).

Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun «Prokuror nazorati» fanini chuqurroq o'zlashtirish ushbu fanning boshqa bir qancha yuridik fanlar bilan uzviy bog'liqligi tufayli zarur hisoblanadi. Ushbu darslik boshqa yuridik fanlarni ham yaxshi o'zlashtirish va foydalanishga yo'llanma tariqasida yordam beradi. Darslik ikki qismdan iborat bo'lib, Umumiy va Maxsus qismlarga bo'lingan. Darslikning mazkur qismi prokuror nazorati fanining Umumiy qismiga tegishli bo'lib, prokuror nazorati fanini o'qitishdan maqsad talabalarga «Prokuror

nazorati» fani tushunchasi, mohiyati, mazmuni va vazifasini anglatish, prokuratura organlarining amaliy faoliyati, prokuror ishining taktika va usullari bilan tanishtirish hamda boshqa yuridik qonunlarni chuqur o'zlashtirish, mantiqiy tafakkurga ega bo'lishga erishtirish, o'quv kursining asosiy nazariy qoidalarini mustahkamlash, talabalar tomonidan qonunchilikni qo'llash maqomlarini egallash, talabalarni amaliyotda konkret hodisalarga nisbatan qonunni to'g'ri qo'llashga o'rgatish, qonun buzilish hollarini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish uslublarini o'rganish, prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishi bo'yicha prokuror nazorati hujjatlarining o'ziga xos xususiyatlari va ularni qo'llashning asoslarini ajratib olishdan iborat.

Darslikda 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunida alohida bob tariqasida yangidan joriy qilingan «Fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati»ning mohiyati va mazmuni yoritib berilgan. Darslikda talabalarining mukammal egallashlari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning asarlari va ma'ruzalarida prokuratura idoralari va xodimlariga qo'yilgan talablar ko'rsatib berilgan.

Prokuratura organlari faoliyatini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining ayrim buyruqlari, ko'rsatmalari va nizomlari mazmuni yoritib berilgan. O'rganilayotgan mavzularga oid O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining ayrim buyruqlari o'qituvchilar va talabalar tomonidan noto'g'ri talqin etilishining oldini olish maqsadida to'liq matnda berilgan.

Mavzularni yoritishda talabalarga prokuror nazorati faoliyati, prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida bir xil va to'g'ri tushuncha hosil qilish uchun mavzularga oid O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari, ko'rsatmalari va nizomlaridan foydalanilgan.

Darslikda prokuror nazorati hujjatlariga tushuncha berish, mazmunini yoritish bilan birga, ushbu hujjatlarni qo'llash asoslari, tartibi va hujjatni protsessual rasmiylashtirishga oid talablar ko'rsatib berilgan. Shuningdek, darslikda prokuratura organlari tizimi va prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha keyingi yillarda kiritilgan o'zgartirishlar yoritib berilgan.

Darslikdan prokuratura organlari faoliyatini ilmiy asoslantirilgan holda tashkil etish, prokuror nazoratini samarali va to'g'ri shakllantirish va boshqarishda foydalansa bo'ladi. Prokuror nazorati

faoliyatining turli yo'nalishlari bo'yicha prokuratura faoliyatini takomillashtirishga oid taklif va mulohazalar, tavsiyalar prokuratura organlari tizimida amalga oshirilgan ijobiy amaliyot natijalariga asoslangan.

Prokuror, tergovchi, har qanday yurist o'quv muassasasi dargohidan boshlab, notiqlik san'ati asoslarini egallagan bo'lishi, aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, jinoyat, fuqarolik, xo'jalik nizolariga oid ishlarni sudlarda ko'rilishida ma'ruza (nutq) qilganida yuridik tilda ravon va tushunarli tarzda o'z fikr-mulohazalarini bayon eta bilishi lozim. Shuning uchun darslikda mazkur masala yuzasidan batafsilroq to'xtalib, prokurorning jinoyat ishlari yuzasidan sudda qiladigan ayblov nutqi unsurlariga alohida e'tibor qaratib o'tilgan.

«Prokuror nazorati» fanini o'rganuvchi sud-huquq islohotlari jarayonida qonunchilikni takomillashtirish faol davom etayotgan hozirgi davrda qabul qilinayotgan yangi qonunlar va normativ hujjatlarni chuqurroq o'zlashtirishi lozim. Shu munosabat bilan yangi qabul qilingan qonunlardagi prokuror nazorati faoliyatiga oid qonun va qonunosti hujjatlar, ulardagi o'zgartirishlar hisobga olib borilishi kerak.

Darslikda mavzular bo'yicha foydalanilishi lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxati, rahbariy adabiyotlar, qonunlar va normativ materialar, maxsus adabiyotlar tizimi berilgan. Darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan «Prokuror nazorati» fani bo'yicha dasturga muvofiq to'liq tayyorlangan.

**UMUMIY  
QISM**

*1-bob.* **«PROKUROR NAZORATI» FANINING UMUMIY QISMI TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA VAZIFALARI**

**1.1. «Prokuror nazorati» fanining tushunchasi, predmeti, tizimi, maqsadi va vazifalari**

O'zbekiston Respublikasida prokuror nazorati kursining predmeti bo'lib, prokuratura faoliyatini tashkil etish prinsiplarini, uning organlari tuzilishi va tizimini, funksiyalarini, vazifalarini, ishlarini, qonunlarning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirishdagi prokuror vakolatini belgilovchi huquqiy normalar hisoblanadi. Yuqorida ko'rsatilgan normalar nazariyasini va ularning amaliyotga qo'llanishini o'rganish bu kursning asosiy maqsadidir. Biroq, bu fan oliy o'quv yurtlarining talabalari uchun mo'ljallangan ekan, uning mazmuni prokuraturaning davlat organlari tizimida tutgan o'rni, nazorat predmeti, tashkil topishidan iborat.

**Prokuror nazorati** deyilganida, O'zbekiston Respublikasi nomidan, uning hududida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarining aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi prokuratura organlarining davlat organi sifatidagi maxsus faoliyati tushuniladi. Aynan shu faoliyatni ilmiy o'rganish, faoliyatni ilmiy shakllantirish va rejalashtirishda ushbu fandan foydalaniladi. Fan yordamida prokuratura faoliyatining yo'nalishlari bo'yicha ilmiy asoslangan usul va uslublar o'rganiladi.

«*Prokuror nazorati*» fanining tizimi *Umumiy* va *Maxsus qism*dan iborat.

*Umumiy qismga:*

- prokuror nazorati prokuraturaning asosiy vazifasi tushunchasi;
- prokuraturaning davlat organlari tizimida tutgan o'rni va ahamiyati;
- O'zbekistonda prokuraturaning tarixiy rivojlanishi va bosqichlari;
- rivojlanishiga doir ilmiy qarashlar;

- prokuratura organlarining tashkiliy va faoliyat prinsiplari, ularning funksiyalari;

- prokuratura faoliyatining asosiy yoʻnalishlari kiradi.

*Maxsus qism* quyidagi mavzularni oʻz ichiga olgan:

- qonunlar ijrosi ustidan nazorat (Umumiy nazorat);

- fuqaroning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi ustidan nazorat;

- jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat;

- ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy taʼsirning boshqa choralarini ijro etish chogʻida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat;

- jinoyat, fuqarolik, xoʻjalik sudlarida ishlarni koʻrishda prokuror ishtiroki;

- jinoyatchilikka qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish;

- chet davlatlar prokuratura organlarining faoliyati va tashkil etilishi;

- Oʻzbekiston prokuratura organlarining chet el huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan xalqaro hamkorligi.

*«Prokuror nazorati» fani boʻyicha darslikning Umumiy qismi maqsad va vazifalari:*

- prokuror nazorati kursining mazmuni, predmeti va tuzilishini;

- «Prokuror nazorati» fanining maqsadi va vazifalarini;

- Oʻzbekiston Respublikasida prokuratura organlari tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlarini;

- prokuratura faoliyatining huquqiy asoslarini;

- prokuror nazoratining mohiyati va vazifalarini;

- «Prokuror nazorati» fanidan nazariy masalalarni;

- Oʻzbekiston Respublikasining «Prokuratura toʻgʻrisida»gi Qonuniga asosan prokurorlik vazifalarini;

- taʼsir chorasini koʻrish, aniqlangan qonun buzilishlariga nisbatan tegishli prokuror nazorati hujjatlarini tuzishning mazmunini;

- prokurorning protsessual harakatlarini tashkil etish va oʻtkazishning mazmuni;

- oʻzining kasbiy malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, qonunlarni va ularni amaliyotda qoʻllanishini bilishi va qoʻllay olish yuzasidan prokuror nazoratining Umumiy qismiga bogʻliq boʻlgan «Prokuror nazorati» fanining Maxsus qismiga oid normativ hujjatlar mazmunini;

- prokurorlik nazoratini takomillashtirishning huquqiy yuridik muammolarini tahlil qilish va hal qilishni;

- prokuror vazifalarini mustaqil bajara olishni;

- fuqarolarning taklif, ariza va shikoyatlarini ko‘rib chiqib, yuqori darajada hamda to‘g‘ri hal qilish uslublarini o‘rgatishdan iboratdir.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining «Prokuror nazorati» fani Umumiy qismiga taalluqli bo‘lgan ba’zi sohaviy buyruqlari, ko‘rsatmalari, yo‘riqnomalari, nizomlarining qisqacha mazmuni va mohiyatini hamda qo‘yilayotgan talablarni.

MDH va xorijiy mamlakatlarda prokuratura organlarining faoliyati tushunchasi va prokuratura faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasidagi «Prokuror nazorati» fanining Umumiy qismi bo‘yicha qiyosiy taqqoslash orqali prokuratura faoliyatini (prinsiplarini) takomillashtirish uslub va shakllari bilan talabalarni chuqur tanishtirish hisoblanadi.

«Prokuror nazorati» fanining Umumiy qismini o‘qitishdan maqsad talabalarni prokuratura organlarining amaliy faoliyatida asosiy tamoyillar va ularni Maxsus qismda belgilangan prokuror faoliyatini amalga oshirish usullarini o‘rganishdagi o‘ziga xos ahamiyati bilan tanishtirish va boshqa yuridik qonunlarni chuqur o‘zlashtirishga erishishdan iborat.

«Prokuror nazorati» fani Umumiy qismining asosiy vazifasi — mantiqiy tafakkurga ega bo‘lishga erishtirish, o‘quv kursining asosiy nazariy qoidalarini mustahkamlash, talabalar tomonidan qonunchilikni qo‘llash maqomlarini egallash, talabalarni amaliyotda konkret hodisalarga nisbatan qonun tamoyillarini to‘g‘ri qo‘llanishiga erishtirish, qonun buzilishlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

«Prokuror nazorati» fanining Umumiy qismini o‘rganish natijasida talabalar amaldagi qonunchilikni, prokuror nazorati nazariyalarini, muayyan qonunlar ijrosini tekshirish metodini va amaliyotini keng, chuqur o‘zlashtirishni prokuror nazoratining Umumiy qismida belgilangan tamoyil va prinsiplar bilan birga olib borishlari kerak.

Bakalavr talabalar «Prokuror nazorati» fanining Umumiy qismi bo‘yicha:

- prokuror nazorati kursining mazmuni, predmeti va tuzilishi;

- prokuror nazoratining Umumiy qismi maqsadi va vazifalari nimalardan iborat ekanligi haqida;

- O‘zbekiston Respublikasida prokuratura organlarining tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lishi;

- prokuratura faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari, ularning mazmun va mohiyatini;

- «Prokuror nazorati» fanining Umumiy qismiga taalluqli bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining sohaviy buyruqlari mazmun va mohiyatini o'zlashtirgan bo'lishi lozim.

«Prokuror nazorati» fanini o'rgangan bakalavr talaba yana:

- «Prokuror nazorati» fanidan nazariy masalalarni;

- O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuniga asosan prokurorlik vazifalarini;

- aniqlangan qonun buzilishlariga nisbatan tegishli prokuror nazorati hujjatlarini tuzish va rasmiylashtirishning prokuratura organlari tizimi bo'yicha subyektlari kimlar bo'lishi mumkinligi;

- prokurorning protsessual harakatlarini tashkil etish va o'tkazishni amalga oshirish vakolati prokuratura organlari tizimi bo'yicha qaysi prokurorlarga tegishli bo'lishi mumkinligi;

- o'zining kasbiy malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, amaldagi qonunlarni, ularga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarni o'zlashtirib borishi va ularni amaliyotda to'g'ri qo'llashni bilishi va qo'llay olishi kerak.

Shuningdek, bakalavr talaba:

- prokurorlik nazoratini takomillashtirishning huquqiy, ilmiy-nazariy muammolarini tahlil qilish va hal qilish bo'yicha mustaqil fikr bildirish salohiyatiga ega bo'lishi;

- prokurorning vazifalarini amalga oshirish yuzasidan berilgan topshiriqlarni mustaqil bajara olishi;

- prokuratura faoliyatining yo'nalishlari bo'yicha har bir yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda prokuror nazorati hujjatlari loyihasini tuzishi;

- fuqarolarning taklif, ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqib, yuqori darajada hamda to'g'ri hal qilish yuzasidan yetarli ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

## **1.2. «Prokuror nazorati» fanining boshqa yuridik fanlar bilan o'zaro aloqadorligi**

«Prokuror nazorati» fani boshqa bir qator yuridik fanlar bilan yaqindan aloqadordir. «Konstitutsiyaviy huquq»da prokuraturani tashkil etuvchi, belgilovchi asosiy holatlar, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va prokurorlarni tayinlash tartibi hamda boshqa davlat organlari tizimida prokuraturaning tutgan o'rni va o'zaro uloqasi o'rganiladi.



«Davlat va huquq nazariyasi»da prokuraturaning qonuniylik va tartibni saqlovchilik rolining muhimligi ko'rsilsa, «Prokuror nazorati»ga esa davlat faoliyatining bir turi sifatida qaraladi.

«Davlat va huquq nazariyasi» fanida prokurorning davlat organlari ichida tutgan o'rni, uning hech qaysi bir davlat hokimiyati tizimiga kirmasdan, qonunlarning ustuvorligini ta'minlovchi va davlatda qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi yagona davlat tashkiloti ekanligi o'rganiladi.

«Huquqni muhofaza qiluvchi organlar» fanining bitta mavzusi prokuratura organi, uning vazifalari, funksiyalari, tizimiga bag'ishlangan. Bu fanda prokuratura to'g'risida umumiy tushuncha beriladi.

«Jinoyat protsessi» fanida jinoyat ishi qo'zg'atishdan tortib, hukmni ijro etish bosqichigacha prokurorning protsessual holati yoritib berilgan. Jinoyat ishlarini yuritishning Jinoyat protsessual kodeksida belgilangan tartibi barcha sudlar, prokuratura, tergov, surishtiruv organlari, advokatura, shuningdek, fuqarolar uchun yagona hamda majburiydir.

Sudlar, prokurorlar va tergovchilarning xorijiy davlatlarning tegishli muassasalari bilan aloqada bo'lish tartibi ham Jinoyat protsessual kodeksida belgilangan bo'lib, unga ko'ra, «Sud yoki tergov organlariga bevosita kelib tushgan chet el muassasalarining topshiriqlari tegishli O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yoki O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi bilan kelishilgan holdagina ijro etilishi mumkin.

Chet el muassasasining boshqa davlat hududida jinoyat sodir etgan va O'zbekiston Respublikasiga qaytib kelgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atish to'g'risidagi topshirig'ini O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi ko'rib, ish qo'zg'atish to'g'risidagi talabning asoslilikini tekshiradi».

O'zbekiston Respublikasi jinoyat protsessual qonunchiligi talablariga ko'ra, prokurorning protsessual mavqeyi, tutgan o'rni naqadar ahamiyatli, dastlabki hamda qo'shimcha tergov mobaynidagi har bir protsessual harakatning qonuniyligi ustidan bevosita rahbarlikni amalga oshiruvchi, shu harakatlarning qonuniyligi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi shaxs bu — prokurordir.

Jinoyat ishi yuzasidan birinchi instansiya sudlarida ishlarning ko'rilishida, sudlar tomonidan chiqarilgan g'ayriqonuniy, asoslantirilmagan yo adolatsiz sud qarorlariga nisbatan protest kiritish vakolati, apellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida ishlarni

ko'rilishidagi vakolatlarini amalga oshirishi, shuningdek, sud qarorlarini ijro etish chog'idagi qonunlar ijrosi ustidan nazorat faoliyati ham jinoyat protsessual qonunchiligi bilan birgalikda sud qarorlarini ijro etishga oid boshqa qonunlar bilan ham tartibga solinib, bu jarayonda ham prokuror nazoratining o'z o'rnini mavjud. Shuning uchun prokurorning jinoyat protsessida tutgan o'rnini hamda jinoyat protsessi fani bilan o'zaro aloqadorligi xususida juda ko'p to'xtalish mumkin.

«Fuqarolik protsessi», «Xo'jalik protsessi» fanlarida prokurorning sudagi vakolatlari yoritilgan.

«Ma'muriy huquq» fani prokurorning qonuniy talablarini bajarmaslik oqibatida kelib chiqadigan oqibatlarni o'rganadi. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi 317-moddasidan 324-moddasigacha prokurorning protesti bilan bog'liq normalarga bag'ishlangan. Masalan, 317-modda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida protest bildirish deb nomlanib, unda qayd etilishicha, prokuror ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan:

1) tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi qarori ustidan — tuman (shahar) sudi raisiga yoki yuqori turuvchi sudga;

2) boshqa organ (mansabdor shaxs) qarori ustidan — qaror chiqargan organga (mansabdor shaxsga) yoki yuqori turuvchi organga (mansabdor shaxsga) protest bildirishi mumkin.

Xo'jalik sudining ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha hal qiluv qarori ustidan O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik protsessual kodeksida belgilangan tartibda protest keltiriladi.

Prokurorning protest bildirishi ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan qabul qilingan qaror ijrosini protest ko'rib chiqilgunga qadar to'xtatib turadi. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususidagi berilgan shikoyat yoki bildirilgan protestni vakolatli organlar (mansabdor shaxslar), shikoyat va protest tushgan kundan boshlab, o'n kun muddat ichida ko'rib chiqadilar. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror xususida berilgan shikoyat yoki bildirilgan protestni ko'rib chiqish paytida organ (mansabdor shaxs) chiqarilgan qarorning qonuniyligi, asosliigi va adolatliligini tekshiradi, deb belgilangan.

Umuman olganda, qonun talablari bo'yicha prokuror har qanday ma'muriy jazo qo'llash vakolatiga ega bo'lgan organ yoki

mansabdor shaxsning qabul qilgan nujjatining qonuniyligi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Albatta, sud organining ustidan emas, balki, uning tomonidan qabul qilingan ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi hujjatning qonuniyligini ta'minlash bo'yicha prokuror protest kiritish va to'g'ri qaror qabul qilishiga o'z vakolatlari doirasida ko'maklashish bilan nazorat faoliyatini amalga oshiradi. Ko'rinib turibdiki, «Ma'muriy huquq» fani ham prokuror nazorati uchun alohida joy ajratgan.

«Jinoyat huquqi», «Fuqarolik huquqi», «Mehnat huquqi», «Tadbirkorlik huquqi» fanlari va boshqa yuridik fanlar bilan prokuror nazoratining bevosita bog'liqligi, shu fanlarni prokuror tomonidan yaxshi o'zlashtirgan bo'lishi kerakligi bilan mushtaraklashib ketgan.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida (9-modda) O'zbekiston Respublikasi hududida mehnat to'g'risidagi qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazorat olib borish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar tomonidan amalga oshiriladi deb belgilab qo'yilgan.

Albatta, O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar tomonidan amalga oshirilishi, nafaqat, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni, balki O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham bevosita mustahkamlab qo'yilgan normadir.

O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 4-moddasi oila, onalik, otalik va bolalikning muhofaza qilinishiga bag'ishlangan bo'lib, unda qayd etilishicha, «O'zbekiston Respublikasida oila, onalik, otalik va bolalik davlat himoyasidir». Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan aynan oila, onalik, otalik va bolalikni davlat himoyasiga olish borasida qator sohaviy buyruqlar qabul qilingan. Voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlari sifatida qonunda belgilanmagan bo'lsa ham, amaliyotda asosiy yo'nalishlardan biriga aylanganiga birmuncha vaqt o'tdi. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining voyaga yetmaganlarni himoya qilish bo'yicha davlat komissiyasining raisi sifatidagi faoliyati beqiyosdir. Albatta, «Prokuror nazorati» fani bu masalalar yuzasidan ham alohida bilimlar majmuasiga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 33-moddasida «ishda ishtirok etuvchi shaxslar» belgilangan bo'lib, unda qayd etilishicha «tarafalar, uchinchi shaxslar, ularning vakillari,

protsessda boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etadigan prokuror, davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolar ishda ishtirok etuvchi shaxslar deb tan olinadi». Taraf sifatida protsess ishtirokchisiga berilgan huquqlar hamda prokurorning fuqarolik ishlarini sudlarda ko'rilishidagi alohida vakolatlari ham protsessual qonunchilik bilan belgilab berilgan. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining mazkur masala yuzasidan ham tegishli sohaviy buyrug'i va Nizomi mavjud. Ko'rinib turibdiki, fuqaroviy protsessual munosabatlar «Prokuror nazorati» fanining alohida bir o'rganish tarmog'i hisoblanadi.

Shuningdek, «Jinoyat-ijroiya huquqi» fanida prokurorning mahkumlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni ijro etish muassasalarida qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi yuzasidan bo'lgan huquq va majburiyatlari belgilangan.

Jinoyat-ijroiya huquqida Jinoyat-ijroiya kodeksining 17-moddasida prokuror nazoratiga oid norma mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sir choralari ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar qonunda belgilangan tartibda amalga oshirishi qayd etilgan. «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunda ham prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida jinoiy jazolarni va boshqa jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralari ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni prokuror tomonidan amalga oshirilishi belgilangan. Har ikki fan ham ushbu masala yuzasidan tegishli bilimlarni beradi. Ko'rinib turibdiki, bu fan ham bevosita «Prokuror nazorati» fani bilan o'zaro bog'liqdir.

Bundan tashqari, «Prokuror nazorati» fani «Xo'jalik huquqi», «Yer huquqi», «Ekologiya huquqi» bilan ham bevosita bog'liqdir.

«Bojxona huquqi»da bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha qaror ustidan prokurorning protest keltirish huquqi va prokuror nazorati bo'yicha vakolati belgilangan (189-modda). Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha bojxona organi mansabdor shaxsining qarori ustidan qonun hujjatlariga muvofiq, nazorat tartibida prokuror protest keltirishi mumkinligi va uning tartib-qoidalari «Prokuror nazorati» fani tomonidan ham o'rganiladi.

Belgilangan muddatda shikoyat berish yoki protest keltirish jazoni qo'llash to'g'risidagi qarorning ijrosini, agar qonun hujjat-

larida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, shikoyat yoki protest ko'rib chiqilgunga qadar to'xtatib qo'yishga oid qoidalar, shuningdek, jazo berish to'g'risidagi qaror ustidan shikoyat qilingan yoki protest keltirilgan taqdirda, qaror shikoyat yoki protest qanoatlantirmay qoldirilganidan keyin ijro etilishiga oid qoidalar bojxona huquqi bilan ham belgilangan (193-modda).

Xo'jalik protsessual kodeksining 34-moddasida «Ishda ishtirok etuvchi shaxslar» doirasi belgilab qo'yilgan. Unda ko'rsatilishicha, «tarafalar, uchinchi shaxslar, prokuror, davlat organlari va boshqa organlar o'z zimmlariga yuklatilgan vakolatga ko'ra, shuningdek, arizachilar hamda yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi va tashkilotlar hamda fuqarolar bankrotligi to'g'risidagi ishlardan manfaatdor boshqa shaxslar ishda ishtirok etuvchi shaxslar deb hisoblanadilar». O'z o'rnida prokuror «ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari»ga ega hamda uning prokuror sifatidagi huquq va majburiyatlari, uning protsessdagi tutgan o'rni, protest kiritish vakolatlari va sud qarorlariga nisbatan o'z vakolatlari doirasida ta'sir qilish choralari belgilanishi «Prokuror nazorati» fanining ham predmeti hisoblanadi.

Yurisprudensiyaga taalluqli bo'lgan barcha fanlarni bevosita yoki bilvosita «Prokuror nazorati» fani bilan o'zaro bog'liq desak xato bo'lmaydi. Chunki prokuror faoliyatining o'zi, umuman olganda, O'zbekiston Respublikasi hududida amalda mavjud bo'lgan barcha qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan prokuror nazorati amalga oshirilishining o'zidan ko'rinib turibdiki, yurisprudensiya sohasidagi barcha fanlar «Prokuror nazorati» fani bilan o'zaro bog'liqlikdadir.

Mustaqillik O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi tizimiga ham o'zgarish olib keldi, mamlakatimizda mavjud bo'lgan boshqaruv, huquq-tartibot idoralari sohasida qator islohotlar o'tkazilmoqda va u tom ma'noda mustaqil Respublika ravnaqi uchun xizmat qilmoqda. Qabul qilinayotgan barcha qonunlarning ijrosi ustidan nazoratni zamon bilan qadam-baqadam olib borilishi esa, o'zaro bog'liqlikni talab etadi.

### **1.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida prokuratura haqida**

I.A. Karimovning «... barcha fuqarolarning qonun oldidagi huquqiy tengligini va qonunning ustunligini, jamiyat manfaatlari himoya qilinishi va aholining xavfsizligini kafolatlaydigan huquqiy davlatni

barpo etish, qonuniylik va huquq-tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquqlari va erkinliklari, qattiq intizom, ichki uyushqoqlik va mas'uliyat ustuvor bo'lmasa, qonunlar va an'analar hurmat qilinmasa, huquqiy davlatni tasavvur etib bo'lmaydi<sup>1</sup>, degan so'zlari hayotda o'z isbotini to'la-to'kis topmoqda.

Shu o'rinda, «har bir inson qalbida nafs balosidan, shayton vasvasidan yiroq bo'lish, imon va insof, vijdon va adolatparvarlik tuyg'ularini uyg'otish zarur. Agar odamlar ongida shu insoniy tuyg'ular qaror topmas ekan, ana shunday oliyanob fazilatlar jamiyatimizda hukmron bo'lmas ekan, davlat tomonidan o'tkaziladigan har qanday chora-tadbirlar ham, sud-prokuratura idoralarning faoliyati ham kutilgan samarani bermaydi<sup>2</sup>, degan so'zlarini ham eslab o'tish joizdir.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 29-avgustdagi ikkinchi chaqiriq oltinchi sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti «Adolat — qonun ustuvorligida» deb nomlangan o'z ma'ruzasida «...prokuratura xalqning ustidan nazorat qilmasligi, aksincha, unga xizmat qilmog'i darkor. Prokuratura vakolatining doirasini, uning faoliyatini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini aynan ana shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda belgilash zarur», «...prokuratura idoralari fuqarolarning huquqlari kamsitilishi holatlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida boshqaruv va kontrol organlarining huquqiy hujjatlari qonuniyligini nazorat qilib borishi zarur. Bu prokurorlarning asosiy vazifasi va burchidir<sup>3</sup>» deb, alohida uqtirgan edi.

Prokurorlar xalqni nazorat qilishlari emas, balki ularning huquq va erkinliklarini muhofaza qilishga qaratilgan qonunlarning ijrosini nazorat qilishlari va o'z faoliyat yo'nalishlarini aynan shunga qaratishlari lozim. Avvalambor, dunyo tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, prokuratura organi dastlab aynan fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun tuzilgan edi. Lotinchada «*prokuro*» so'zi, «g'amxo'rlik qilaman», «ta'minlayman», «himoya qilaman» ma'nosini bildiradi. Hozirgi, Yurtboshimiz qo'yayotgan talablar ham aynan shundan iboratdir. Prokuratura idoralari qonunarni aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirib, o'z faoliyat yo'nalishlarida asosiy mazmunni aynan fuqarolarning huquq va

<sup>1</sup> I.A. Karimov. O'zbekiston — buyuk kelajak sari. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. T., «O'zbekiston», 1998, 16-bet.

<sup>2</sup> I.A. Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. T., «O'zbekiston», 1999, 253-bet.

<sup>3</sup> I.A. Karimov. Adolat — qonun ustuvorligida. «Xalq so'zi» gazetasi, 2001-yil 30-avgust.

manfaatlarini, fuqarolarimizdan tashkil topgan davlatimiz manfaatlarini himoya qilishga qaratishlari lozimligi talab qilinmoqda.

I.A. Karimovning «O‘zbekiston—bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li» asarida «qonunning ustuvorligi — huquqiy davlatning asosiy prinsipidir. U hayotning barcha sohalarida qonunning qat’iyan hukmronligini nazarda tutadi. Hech bir davlat organi, hech bir xo‘jalik yurituvchi va ijtimoiy siyosiy tashkilot, hech bir mansabdor shaxs, hech bir kishi qonunga bo‘ysunish majburiyatidan xalos bo‘lishi mumkin emas. Qonun oldida hamma barobardir. Qonunning ustuvorligi shuni bildiradiki, asosiy ijtimoiy, eng avvalo, iqtisodiy munosabatlar faqat qonun bilan tartibga solinadi, uning barcha qatnashchilari esa hech bir istisnosiz huquq normalarini buzganligi uchun javobgar bo‘ladi»<sup>1</sup>, deb ta’kidlangan. Qonun ustuvorligini ta’minlashda esa sudlarda jinoyat ishlari ko‘rilishida prokuror ishtirokining o‘z o‘rni bor.

Sudlarda jinoyat ishlari ko‘rilishida prokuror ishtirokining asosiy maqsadi — ish bo‘yicha haqiqatni aniqlash, sodir etilgan jinoyat uchun jazoning muqarrarligini ta’minlash, aybsiz shaxslarni javobgarlikdan ozod qilish va adolat o‘rnatishdir. Buning uchun, o‘z navbatida, «huquq-tartibot organlarining o‘zlari qonunlarga so‘zsiz rioya qilishlari lozim»<sup>2</sup>.

«Qonun qabul qilish — bu ishning yarmi, xolos. Ularning hayotga to‘la tatbiq qilinishiga erishish darkor. Buning uchun qabul qilingan qonunlarning kundalik turmushimizda amalga oshishini ta’minlovchi ta’sirchan mexanizm yaratish lozim»<sup>3</sup>.

«Men o‘z burchi, o‘z xizmat vazifasiga ko‘ra qabul qilingan qonunlarning bajarilishiga mas’ul bo‘lgan shaxslar haqida alohida to‘xtalishni istardim. Bular — qonunni muhofaza qiluvchi idoralar va ma’muriy organlarning xodimlaridir. Ayni shu xodimlarning xatti-harakatiga qarab, ko‘pchilik jamiyatda qonun kuchiga, qanday amal qilinayotganiga, huquqiy mexanizmlar nechog‘liq kuchli ekaniga, huquqiy jamiyat qay darajada yetukligiga baho beradi»<sup>4</sup>.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. O‘zbekiston — buyuk kelajak sari. O‘zbekiston — bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li. T., «O‘zbekiston», 1998, 126-bet.

<sup>2</sup> I.A. Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T.8. T., «O‘zbekiston», 2000, 7-bet.

<sup>3</sup> I.A. Karimov. Xalqimiz jipsligi — tinchlik, taraqqiyot garovi. (Birinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o‘n ikkinchi sessiyasidagi ma’ruza, 1998-yil 28-avgust.) T., «O‘zbekiston», 1998, 7-bet.

<sup>4</sup> O‘sha joyda, 10—11-betlar.

Sudlarda jinoyat ishlarining ko'rilishida prokuror ishtiroki jinoyat ishlarini sud muhokamasida har tomonlama, xolisona, to'la va obyektiv ravishda ko'rib chiqish lozimligi haqidagi qonun talablariga so'zsiz rioya qilinishiga, «Fuqarolarning qonun va sud oldida tengligi to'g'risida»gi Qonun talablariga amal qilinishiga va fuqarolarning huquq va manfaatlarining qonuniy muhofazasini ta'minlashga, sudlar tomonidan har bir jinoyat ishi bo'yicha qonuniy, asoslantirilgan va adolatli hukm chiqarilishiga qaratilgandir. «...Xalqimiz har qanday qiyinchilikka chidaydi, lekin hech qachon adolat buzilishiga chidamaydi»<sup>1</sup>. Prokuror jinoyat ishi yurituvida jinoiy ta'qibni amalga oshirar ekan, sudlarda jinoyat ishlarining ko'rilishida davlat ayblovini quvvatlaydi, fuqarolarning huquq va manfaatlarini davlat tomonidan muhofaza qilish vazifasini bajaruvchi organ sifatida, ularning huquq va manfaatlarining kafolati sifatida ishtirok etadi va odil sudlovni amalga oshirishda ko'maklashadi.

Sud-huquq islohoti navbatdagi bosqichining vazifalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasida so'zlagan nutqida aniq ifodalab berildi: «Fuqarolarning qonuniy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sudlarning va huquq-tartibotni muhofaza qilish organlarining faoliyatida asosiy mazmunga aylanmog'i kerak. Sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylanib, haqiqatan ham mustaqil bo'lib qolishi lozim»<sup>2</sup>.

Shubhasiz, sud muhokamasida asosiy rolni sud majlisida raislik etuvchi yoki sud hay'ati o'ynaydi. Chunki aynan ular sud muhokamasi mobaynida taraflar tomonidan protsessual qonun talablariga qat'iy rioya qilinishini talab qilish va tartibni buzgan protsess ishtirokchilariga nisbatan tegishli chora ko'rish vakolatiga ega bo'lgan mas'ul shaxs hisoblanadilar. «Eng muhimi, shu qonunlarning bajarilishi uchun javobgar bo'lgan hokimiyat tuzilmalarining mas'uliyatini oshirish zarur»<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Barqaror taraqqiyotga erishish — ustuvor vazifa (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 1998-yil 25-fevral). T., «O'zbekiston», 1998, 47-bet.

<sup>2</sup> I.A. Karimov. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. Milliy davlatchilik, istiqolol mafkurasi va huquqiy madaniyat to'g'risida. T., IIV Akademiyasi, 1999, 381—382-betlar.

<sup>3</sup> I.A. Karimov. Xalqimiz jipsligi — tinchlik, taraqqiyot garovi. (Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n ikkinchi sessiyasidagi ma'ruza, 1998-yil 28-avgust.) I., «O'zbekiston», 1998, 7-bet.



2002-yilning 29-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasida Yurtboshimiz «shuni unutmaylikki, biz davlatning nazorat funksiyalarini qancha kuchaytirsak, nazorat bilan shug'ullanuvchi davlat tuzilmalari va organlarini qancha ko'paytirsak, amaldorlarning zo'ravonligi va korrupsiya shuncha avj olaveradi. Shuning uchun biz jamoatchilik nazoratini, davlat faoliyati, shu jumladan, uning kuch ishlatuvchi tuzilmalari faoliyati ustidan ham jamiyat nazoratini har tomonlama kuchaytirishga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Bu masalada bundan boshqa muqobil yo'l yo'q»<sup>1</sup>, deb ta'kidlab o'tdi.

Prezidentimiz I.A. Karimov o'zining «O'zbekiston — buyuk kelajak sari» nomli asarida «qonunchilik va huquq-tartibot tantana qilmas ekan, huquqiy davlat qurishni tasavvur qilib bo'lmaydi... Qonunning ustuvorligi—huquqiy davlatning asosiy prinsipidir»<sup>2</sup>, deb ta'kidlab o'tganlar.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning «O'zbekistonda butun huquq va sud tizimini takomillashtirish dasturini mamlakat ichidagi jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kuchli chora deb hisoblamoq darkor. Bir tomondan, qonunning mutlaq ustunligi va fuqarolarning huquqlari kafolatli himoya qilinishi ushbu dasturning maqsadi bo'lishi lozim»<sup>3</sup>, deb aytganlarini ta'kidlab o'tish joizdir.

«O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li» deb nomlangan 2007-yil 30-avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasida prokuratura organlari uchun ham e'tiborga olinishi zarur bo'lgan besh tamoyil bayon etilgan. Unda ko'rsatilib shicha, «yangi davlat va jamiyat qurishda amalda o'zini to'la oqlagan quyidagi besh tamoyil asos qilib olindi:

- *birinchidan*, iqtisodiyotning mafkuradan xoliligi va uning siyosatdan ustunligi. Boshqacha qilib aytganda, avval iqtisod, keyin siyosat;
- *ikkinchidan*, davlatning o'zi eski tuzumdan yangi tuzumga o'tish davrida bosh islohotchi bo'lishi, ya'ni uning mamlakatni

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. «Xalq so'zi» gazetasi, 2002-yil 30-avgust.

<sup>2</sup> I.A. Karimov. O'zbekiston — buyuk kelajak sari. T., «O'zbekiston», 1998, 126-bet.

<sup>3</sup> I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1997, 94-bet.

davlatchilik, ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida yangilashga qaratilgan islohotlarning tashabbuskori bo'lish vazifasini o'z zimmasiga olishi;

- *uchinchidan*, qonun ustuvorligi yoki barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi;

- *to'rtinchidan*, kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, davlatning aholini ijtimoiy nochor qatlam va guruhlarini qo'llab-quvvatlash borasida mas'ul bo'lishi;

- *beshinchidan*, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, «shok terapiyasi» deb atalgan turli usullardan voz kechish. Boshqacha qilib aytganda, mamlakat inqilobiy yo'ldan emas, balki tadrijiy yo'ldan rivojlanishi kerak. Insoniyat tarixi shundan guvohlik beradiki, har qanday inqilobiy yo'l hamisha xalqqa zulm va zo'ravonlik, qon to'kish va talafotlar keltirgan»<sup>1</sup>.

*«O'z-o'zidan ayonki, yangi davlat barpo etishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalangan, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo'lidagi murakkab va keng ko'lamlı vazifalarni hal etishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlash masalasi muhim prinsipial va hal qiluvchi ahamiyatga ega.*

Yurtimizda o'z Vatanining taqdiri, uning buguni va kelaji uchun mas'uliyatni chuqur his etadigan, mustaqil va yangicha fikrlaydigan kadrlarga ehtiyojni qondirish vazifasi biz mustaqillikka erishgan birinchi kunlardanoq o'ta muhim va hal qiluvchi masalaga aylangan edi.

Ana shu maqsadlardan kelib chiqqan holda, 1997—2009-yilgacha davrga mo'ljallangan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi qabul qilinganidan barchangiz yaxshi xabardorsiz».

«O'tish davri va milliy davlatchilikni barpo etish sharoitida obyektiv zarurat bo'lgan kuchli davlatdan — kuchli fuqarolik jamiyatiga izchil va bosqichma-bosqich o'tishga erishish ushbu davrda davlat tizimini isloh etishning asosiy va hal qiluvchi vazifasi bo'lishi darkor».

«Mamlakatimizda sud-huquq tizimini huquqiy davlatni shakllantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida chuqur isloh etish va erkinlashtirish bo'yicha yangi konsepsiya hayotga tatbiq qilindi. Sudlar ixtisoslashtirildi, fuqarolik va jinoiy ishlar bo'yicha alohida sudlar tashkil etildi, sudlar sud qarorlarini ijro etish kabi o'zlariga xos bo'lmagan vazifalardan ozod qilindi.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T.16. T., «O'zbekiston», 2008, 3—57-bet.

Jinoiy jazo tizimini erkinlashtirishga doir chora-tadbirlar ham ulkan sotsial va ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga ega bo'ldi»<sup>1</sup>.

Yurtboshimiz I.A. Karimovning «Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish — oliy saodatdir» deb nomlangan 2007-yil 6-noyabrda Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi IV quriltoyidagi ma'ruzasida:

«Men bugun faqatgina Vatanimizning taraqqiyotini yanada yuksaltirishga qaratilgan eng muhim va dolzarb maqsad-vazifalarimiz haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchiman...

... *Beshinchidan.* Mamlakatimizda sud-huquq tizimini huquqiy davlatni shakllantirishning tarkibiy qismi sifatida chuqur isloh etish va erkinlashtirish bo'yicha boshlagan ishlarimizning ta'siri va samarasini kuchaytirish, eng asosiysi, sud tizimi mustaqilligini ta'minlash muhim vazifamiz bo'lib qoladi.

Jumladan, o'lim jazosini bekor qilish, fuqarolarni qamoqqa olishda sanksiya berish huquqini prokuraturadan sudlarga o'tkazish to'g'risida qabul qilingan qonunlar ijrosini to'liq ta'minlash, shu yo'nalishda samarali tizimni shakllantirish bizning faoliyatimizda katta ahamiyat kasb etadi.

Bir so'z bilan aytganda, «adolat — qonun ustuvorligida» degan shiorimizni amaliy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan sa'y-harakatlarimizni zamon talablari darajasiga ko'tarish yo'lida yangi, amaliy qadamlar qo'yishimiz zarur»<sup>2</sup> deyilgan so'zlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Islom Abdug'aniyevich Karimovning «o'z hayotimizni vatan istiqboli, farovon kelajagi uchun bag'ishlab yashash insoniy va fuqarolik burchimizdir»<sup>3</sup>, deb nomlangan dasturida ham qayd etilgan.

#### **1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning VI sessiyasida so'zlagan «Adolat — qonun ustuvorligida» ma'ruzasida qo'yilgan vazifalar**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning Oliy Majlisning 2001-yil 29-avgust kuni bo'lib o'tgan II chaqiriq VI sessiyasidagi «Adolat — qonun ustuvorligida» deb nomlanuvchi ma'ru-

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida (O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li ma'ruzasini). T. 16. T., «O'zbekiston», 2008, 3—57-betlar.

<sup>2</sup> O'sha joyda, 101—102-betlar.

<sup>3</sup> O'sha joyda, 116-bet.

zasida prokuratura idoralari xususida «prokuratura qonunni, uning talablarini qat'iy himoya qiluvchi idora hisoblanadi. U huquqiy islohotlarning o'tkazilishida, huquqiy davlat, demokratik jamiyat qurish ishida hal etuvchi o'rin tutadi», deb bergan ta'riflari bu idoraning tutgan o'rnini, salohiyatini belgilaydi.

«Demokratik jamiyatda alohida fuqarolar emas, balki ularning qonuniy huquq va manfaatlari qanday himoya qilinayotgani prokurorlik nazoratining obyekti hisoblanadi»<sup>1</sup>, deb ta'kidlab o'tilgan. Bundan tashqari, ushbu ma'ruzada: «Sud bugungi kunda avvalgidek hukmron kommunistik tizimning qatag'on va jazolash apparati emas, balki u har bir inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini ishonchli tarzda qo'riqlash va himoya qilishga qaratilgan chinakam mustaqil davlat institutiga aylanmoqda».

«1993-yili qabul qilingan «Sudlar to'g'risida»gi birinchi qonundayoq aybsizlik prezumpsiyasi, himoyaga bo'lgan huquq, sud jarayonidagi tortishuv va oshkoralik kabi umume'tirof etilgan tamoyillar belgilab qo'yilgan edi. Ular keyin jinoiy protsessual va boshqa kodeks hamda qonunlarda rivojlantirildi. Islohotlarning mana shu bosqichida sud ish yuritishining, tom ma'nodagi mustaqil va faqat qonun oldida javob beruvchi sud tizimining qonuniy asoslari yaratildi».

«Afsuski, sudyalar, prokuratura va tergov organlari xodimlari, bir so'z bilan aytganda, qabul qilingan yangi qonunlarni hayotga tatbiq etishi lozim bo'lgan kishilarning dunyoqarashi va tafakkuri ancha qiyinchilik bilan o'zgaryapti. Buni aniq tan olish kerak. Bizning bosh vazifamiz — o'tmish asoratlaridan imkoni boricha tezroq qutulishdir. Eng avvalo, jazolashning repressiv, ozodlikdan mahrum qilish hollarini qisqartirish hisobiga qonunchilikning adolat va insoniylik kabi tamoyillarining kuchayishini va amalda qo'llanishini ta'minlashimiz zarur».

«Bugun bizning huquqiy doktrinamiz mutlaqo yangicha, demokratik tamoyillarga asoslangan. U eng avvalo, O'zbekiston Konstitutsiyasi talablariga ko'ra inson huquqlarining ustunligini ta'minlaydi. Inson himoyaning bosh subyekti bo'lib, uning hayoti va sog'lig'iga suiqasd qilish og'ir jinoyat hisoblanadi».

«Qonunni buzgan odamdan uni takrorlamaslik haqida tilxat olish, garov kabi boshqa ehtiyot choralarini, jarima kabi jazolarni qo'llash o'zini oqlashini unutmazlik kerak».

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Adolat — qonun ustuvorligida. «Xalq so'zi» gazetasi, 2001-yil 30-avgust.

«Tergovni zo‘ravonlik bilan olib borish, ya‘ni oldin hibsga olib, jamiyatdan ajratib, keyin uning aybini isbotlashga kirishish kabi o‘tgan zamondan qolgan yaramas tajribaga barham berilishi zarur».

«Huquq-tartibot organlari xodimlari tomonidan o‘z vakolatlarini suiiste‘mol qilishlariga yo‘l qo‘ymaslik, organlarni bunday nopok shaxslardan tozalash, rivojlangan demokratik mamlakatlarda qo‘llanib kelayotgan tamoyillar va talablarga javob beradigan mezonlar asosida huquqbuzarlik va jazo tizimini qayta ko‘rib chiqish zarur».

«Jinoyat qonunchiligi bo‘yicha jinoyatlar uchun jazo tayinlashni liberallashtirish lozim».

«Jinoyat qonunchiligida iqtisodiy sohada jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan iqtisodiy ta‘sir choralari qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Ozodlikdan mahrum qilish o‘rniga jazoning jarima turini qo‘llashni kengaytirish, jarima miqdorini oshirib, eng avvalo, yetkazilgan moddiy zararni qoplashga qaratilgan boshqa ta‘sir choralaridan foydalanish zarur».

«Jazo belgilashning muqobil turlarini qo‘llashni kengaytirish jinoyat qonunchiligimizni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘ladi».

«O‘zbekistonda «o‘lim jazosi»ni qo‘llashga doir jinoyat qonunchiligi siyosati butun jahonda kechayotgan jarayonlarga to‘la mos keladi. Faqat to‘rt jinoyat bo‘yicha: 1) agressiya, 2) genotsid, 3) terrorchilik, 4) og‘irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o‘ldirishda o‘lim jazosi qoldirildi» (ayni vaqtda ushbu masala yuzasidan yanada liberallashtirish siyosati olib borilib, faqatgina terrorchilik va og‘irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o‘ldirish jinoyati uchungina o‘lim jazosi qoldirilgan).

«Qonunni buzgan oila boshlig‘ining qilmishi uchun uning xotini, bola-chaqasi aziyat chekmasligi va javob bermasligi kerak. Inson huquqining mohiyati ham, avvalambor mana shundadir. Biz sinfiy kurash g‘oyalari, davlat manfaatlarining mutlaq ustunligiga asoslangan va hali-beri ongimizdan batamom yo‘q bo‘lib ketmagan kommunistcha yondashuvlardan voz kechishimiz kerak. Ya‘ni agar biron-bir oila boshlig‘i qonunni buzishda ayblanadigan bo‘lsa, uning butun oilasi va yaqinlari ham jinoyat tamg‘asi va sharmisorlik azobini ko‘tarib yurishiga qarshimiz. Biz otaning nomunosib xulqi uchun oila a‘zolari, eng avvalo, hayotga yorug‘ niyat va katta umidlar bilan endigina qadam qo‘yayotgan yoshlarning jamiyatdan uzilib qolishiga aslo yo‘l qo‘ymasligimiz kerak. Bu bizning bosh maqsadimizdir».

«Voyaga yetmaganlar, ayollar va keksalarga nisbatan qoʻllanadigan jazo tizimini erkinlashtirish jarayoni izchil davom ettirilishi zarur».

«Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligini erkinlashtirish va demokratlashtirishda ishlarni koʻrib chiqish tartibini soddalashtirish, jinoiy ishlarni tergov qilish va sudda koʻrish muddatlarini qisqartirish dolzarb vazifalardan biridir».

«Davlat muassasalari, birinchi navbatda, prokuratura xodimlari bir haqiqatni qulogʻiga quyib olganki, ular mana shu xalqning bir qismi, hech kimdan, oddiy odamlardan ortiq joyi yoʻq. Ularni shu xalq voyaga yetkazgan. Bas shunday ekan, prokuratura xodimlari ularni nazorat qilishlari emas, balki ularga xizmat qilishlari kerak».

«Prokuratura vakolatining doirasini, uning faoliyatini takomillashtirishning asosiy yoʻnalishlarini aynan ana shu nuqtayi nazardan kelib chiqqan holda belgilash zarur».

«Demokratik jamiyatda alohida fuqarolar emas, balki ularning qonuniy huquq va manfaatlari qanday himoya qilinayotganligi prokurorlik nazoratining obyekti hisoblanadi».

«Prokuratura idoralari fuqarolarning huquqlari kamsitilishiga yoʻl qoʻymaslik maqsadida boshqaruv va kontrol organlarining huquqiy hujjatlari qonuniyligini nazorat qilib borishi zarur. Bu — prokurorlarning asosiy vazifasi va burchidir».

«Prokurorlar faoliyatiga ular tomonidan qoʻzgʻatilgan jinoiy ishlar yoki javobgarlikka tortilgan fuqarolar soniga qarab emas, balki tegishli hududda qonunchilikka amal qilinishining holatiga qarab baho beriladi».

«Qonunni himoya qilish, sud, prokuratura organlarining asosiy vazifasi, avvalo, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, ularning oʻz huquqlarini qonunlarni yaxshi bilishlariga erishish, huquqbuzarlikning oldini olish boʻyicha samarali ish olib borishdan iboratdir».

Yuridik kadrlar, birinchi navbatda, prokuratura organlari uchun mutaxassislar tayyorlashning amaldagi tizimi, uning kamchiliklari haqida toʻxtalib oʻtmoqchiman.

Bugun huquqshunos kadrlar tayyorlash bir qator oʻquv muassasalarida — Toshkent Davlat yuridik institutida, Qoraqalpogʻiston, Samarqand va Fargʻona Davlat universitetlarining yuridik fakultetlarida, boshqa oʻquv dargohlarida amalga oshirilmoqda. Andijon va Namangan Davlat universitetlarida bor-yoʻgʻi 3 tadan fan nomzodi ishlaydi, xolos.

Ixtisoslashgan yuridik adabiyotlarni, darslik va uslubiy qo'llanmalarni nashr etish ishi ham mutlaqo talab darajasida emas. Toshkent Davlat yuridik instituti faqat ta'lim yo'nalishidagi o'quv yurti bo'lib qolmay, jiddiy ilmiy baza asosida huquqiy tizimni isloh qilish bilan bog'liq dasturlar, qarorlar loyihalari tayyorlanadigan ilmiy va tashkiliy markazga aylanishi lozim. Umid qilamizki, huquqshunoslik instituti, mamlakatimizning boshqa yirik o'quv va ilmiy markazlari bor salohiyatini milliy huquqshunoslik maktabini yaratishga qaratadi.

Bu dargohda huquqshunoslik fani ilmiy va amaliyotining dolzarb muammolariga doir ochiq va keng bahs-munozaralar olib boriladi, huquqiy tizimni takomillashtirish, qonunlar tayyorlashning istiqbolli dasturlari tayyorlanadi. «Huquqbuzarlik qilgan inson hali yosh, dunyoqarashi va huquqiy ongi endigina shakllanayotgan, qonunlarga itoat qiluvchi kishi qilib tarbiyalash mumkin bo'lgan paytda aniq maqsadni ko'zlab, uning tarbiyasi bilan shug'ullangani yaxshi emasmi? Bu masalaning hal etilishi prokuratura idoralari, butun huquqiy tizimimiz va umuman, jamiyatimiz uchun asosiy faoliyat yo'nalishi bo'lmog'i kerak»<sup>1</sup>, deb aytganlarini ta'kidlab o'tish joizdir.

?

#### NAZORAT SAVOLLARI

1. «Prokuror nazorati» fanining umumiy tushunchasi.
2. «Prokuror nazorati» fanining keng tarmoqli huquqiy fanlar ichida tutgan o'rni.
3. Prokurorlar faoliyati deyilganda nima tushuniladi?
4. O'zbekiston Respublikasida prokuror nazorati kursining predmeti bo'lib nimalar hisoblanadi?
5. «Prokuror nazorati» fanining mazmunini nima tashkil etadi?
6. «Prokuror nazorati» fanining tizimi necha qismdan iborat?
7. «Prokuror nazorati» fanining boshqa bir qator yuridik fanlar bilan o'zaro aloqadorligini aytib bering.
8. Bakalavr talabalar «Prokuror nazorati» fani bo'yicha qanday tasavvurlarga ega bo'lishi kerak?
9. «Prokuror nazorati» fanini o'rgangan bakalavr talaba nimalarni o'zlashtirib borishi va ularni amaliyotda qanday to'g'ri qo'llay olishi kerak?
10. «Prokuror nazorati» fanini o'rgangan bakalavr talaba yana nimalar haqida yetarli ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak?
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida prokuratura haqida qanday fikrlar bildirilgan, umuman, huquqni muhofaza qiluvchi organlar oldiga qanday talab qo'yilgan?
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Adolat — qonun ustuvorligida» deb nomlangan ma'ruzasida prokuratura oldiga qo'yilgan talablar haqida aytib.

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Adolat — qonun ustuvorligida. «Xalq so'zi» gazetasi, 2001-yil 30-avgust.

# «Prokuror nazorati» fani

Umumiy qism

Maxsus qism

## Umumiy qism

Prokuror nazorati prokuraturaning asosiy vazifasi tushunchasi

Prokuraturaning davlat organlari tizimida tutgan o'ri va ahamiyati

O'zbekistonda prokuraturaning tarixiy rivojlanishi va bosqichlari

Rivojlanishiga doir ilmiy qarashlar

Prokuratura organlarining tashkiliy va faoliyat prinsiplari,  
ularning funksiyalari

Prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlari tushunchasi



**«Prokuror nazorati» fani bo'yicha darslikning  
Umumiy qismi maqsadi va vazifalari**

«Prokuror nazorati» kursining mazmuni,  
predmeti va tuzilishini

«Prokuror nazorati» fanining maqsadi va vazifalarini

O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlari  
tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlarini

Prokuratira faoliyatining huquqiy asoslarini

Prokuror nazoratining mohiyati va vazifalarini

«Prokuror nazorati» fanidan nazariy masalalarni

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'ri-  
risida»gi Qonuniga asosan prokurorlik vazifalarini

Ta'sir chorasini ko'rish, aniqlangan qonun  
buzilishlariga nisbatan tegishli prokuror nazorati  
hujjatlarini tuzish mazmunini

Prokurorning protsessual harakatlarini tashkil  
etish va o'tkazishning mazmuni

O'zining kasbiy malakasini muntazam ravishda  
oshirib borishi, qonunlarni va ularni amaliyotda  
qo'llashni bilishi yuzasidan prokuror nazoratining  
Umumiy qismiga bog'liq bo'lgan «Prokuror nazorati»  
fanining Maxsus qismiga oid normativ hujjatlar  
mazmunini qo'llay bilishi

Prokurorlik nazoratini takomillashtirishning huquqiy-  
yuridik muammolarini tahlil qilish va hal qilishni

Prokuror vazifalarini mustaqil bajara olishni

Fuqarolarning taklif, ariza va shikoyatlarini ko'rib  
chiqib, yuqori darajada hamda to'g'ri hal qilish  
uslublarini o'rgatishdan iboratdir

«Prokuror nazorati» fani bo'yicha  
darslikning Umumiy qismi maqsadi  
va vazifalari, shuningdek,

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining «Prokuror nazorati» fani Umumiy qismiga taalluqli bo'lgan ba'zi sohaviy buyruqlari, ko'rsatmalari, yo'riqnomalari, nizomlarining qisqacha mazmuni va mohiyatini hamda qo'yilayotgan talablarni

MDH va xorijiy mamlakatlarda prokuratura organlarining faoliyati tushunchasi va prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasidagi «Prokuror nazorati» fanining Umumiy qismi bo'yicha qiyosiy taqqoslash orqali prokuratura faoliyatini (prinsiplarini) takomillashtirish uslub va shakllari bilan talabalarni chuqur tanishtirish hisoblanadi

«Prokuror nazorati» fanining Umumiy qismini o'qitishdan maqsad talabalarni prokuratura organlarining amaliy faoliyatida asosiy tamoyillar va ularni Maxsus qismda belgilangan prokuror faoliyatini amalga oshirish usullarini o'rganishdagi o'ziga xos ahamiyati bilan tanishtirish va boshqa yuridik qonunlarni chuqur o'zlashtirishga erishishdan iborat

«Prokuror nazorati» fani Umumiy qismining asosiy vazifasi — mantiqiy tafakkurga ega bo'lishga erishtirish, o'quv kursining asosiy nazariy qoidalarini mustahkamlash, talabalar tomonidan qonunchilikni qo'llash maqomlarini egallash, talabalarni amaliyotda konkret hodisalarga nisbatan qonun tamoyillarini to'g'ri qo'llanishiga erishtirish, qonun buzilishlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishdan iborat

«Prokuror nazorati» fanining Umumiy qismini o'rganish natijasida talabalar amaldagi qonunchilikni, prokuror nazorati nazariyalarini, muayyan qonunlar ijrosini tekshirish metodini va amaliyotini keng, chuqur o'zlashtirishni prokuror nazoratining Umumiy qismida belgilangan tamoyil va prinsiplar bilan birga olib borishlari kerak

**Bakalavr talabalar «Prokuror nazorati»  
fanining Umumiy qismi bo'yicha**

Prokuror nazorati kursining mazmuni,  
predmeti va tuzilishi

Prokuror nazoratining Umumiy qismi maqsadi va  
vazifalari nimalardan iborat ekanligi haqida

O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlarining  
tashkil etilishi va rivojlanish bosqichlari to'g'risida  
tushunchaga ega bo'lishi

Prokuratura faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik  
hujjatlari, ularning mazmun va mohiyatini

«Prokuror nazorati» fanining Umumiy qismiga  
taalluqli bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Bosh  
prokurorining sohaviy buyruqlari mazmun va  
mohiyatini o'zlashtirgan bo'lishi lozim

## Maxsus qism

Qonunlar ijrosi ustidan nazorat (Umumiy nazorat)

Fuqaroning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi ustidan nazorat

Jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat

Ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga ijro etilishi ustidan nazorat

Jinoyat, fuqarolik, xo'jalik sudlarida ishlarni ko'rishda prokuror ishtiroki

Jinoyatchilikka qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish

Chet davlatlar prokuratura organlarining faoliyati va tashkil etilishi

O'zbekiston prokuratura organlarining chet el huquqni muhofaza qiluvchi organlari bilan xalqaro hamkorligi

«Prokuror nazorati»  
fanini o'rgangan bakalavr  
talaba yana

«Prokuror nazorati» fanidan  
nazariy masalalarni

O'zbekiston Respublikasining  
«Prokuratura to'g'risida»gi Qonuniga  
asosan prokurorlik vazifalarini

Aniqlangan qonun buzilishlariga nisbatan  
tegishli prokuror nazorati hujjatlarini  
tuzish va rasmiylashtirishning prokuratura  
organlari tizimi bo'yicha subyektlari  
kimlar bo'lishi mumkinligini

Prokurorning protsessual harakatlarni  
tashkil etish va o'tkazishni amalga  
oshirish vakolati prokuratura organlari  
tizimi bo'yicha qaysi prokurorlarga  
tegishli bo'lishi mumkinligini

O'zining kasbiy malakasini muntazam  
ravishda oshirib borishi, amaldagi  
qonunlarni, ularga kiritilayotgan o'zgar-  
tirish va qo'shimchalarni o'zlashtirib  
borishi hamda ularni amaliyotda to'g'ri  
qo'llay olishi kerak

**Shuningdek,  
bakalavr talaba**


Prokurorlik nazoratini takomillash-  
tirishning huquqiy, ilmiy-nazariy  
muammolarini tahlil qilish va hal  
qilish bo'yicha mustaqil fikr bildirish  
salohiyatiga ega bo'lishi

Prokurorning vazifalarini amalga  
oshirish yuzasidan berilgan  
topshiriqlarni mustaqil bajara olishi

Prokuratura faoliyatining yo'nalishlari  
bo'yicha har bir yo'nalishning o'ziga  
xos xususiyatlarini hisobga olgan holda  
prokuror nazorati hujjatlari  
loyihasini tuzishi

Fuqarolarning taklif, ariza va shikoyat-  
larini ko'rib chiqib, yuqori darajada  
hamda to'g'ri hal qilish yuzasidan  
yetarli ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak

**«Prokuror nazorati» fanining boshqa yuridik fanlar bilan o'zaro aloqadorligi**



**«Prokuror nazorati»  
kursining predmeti**

Prokuratura faoliyatini  
tashkil etish  
prinsiplari

Prokuratura organlari  
tuzilishi va tizimi

Qonunlarning ijrosi  
ustidan nazoratni  
amalga oshirishdagi  
prokuror vakolatini  
belgilovchi huquqiy  
normalar hisoblanadi

**Prokuror nazorati  
deyilganda**

O'zbekiston Respubli-  
kasi nomidan, uning  
hududida O'zbekiston  
Respublikasi Konsti-  
tutsiyasi va boshqa  
qonunlarini aniq va  
bir xilda bajarilishi  
ustidan nazoratni  
amalga oshiruvchi  
prokuratura organla-  
rining davlat organi  
sifatidagi maxsus  
faoliyati tushuniladi

Prokuror nazorati  
faoliyatini ilmiy  
o'rganish, faoliyatni  
ilmiy shakllantirish  
va rejalashtirishda  
fandan foydalaniladi

Fan yordamida proku-  
ratura faoliyatining  
yo'nalishlari bo'yicha  
ilmiy asoslangan  
usul va uslublar  
o'rganiladi



**Yana prokuror nazorati deyilganda**

Birinchidan, prokuratura organlari vazifasini, asosiy funksiyasini amalga oshiruvchi, davlat faoliyatining maxsus bir turi tushuniladi

Ikkinchidan, huquqiy fan tarmog'ining bir bo'lagi va o'quv intizomi tariqasida tushuniladi

**«Prokuror nazorati»**

Keng tarmoqli huquqiy fanlar ichida, bir tomondan, prokuror nazorati haqidagi qonunchilikni o'rganuvchi mustaqil huquqiy fan sifatida

Ikkinchi tomondan, huquqiy fanlarning bir sohaviy tarmog'i sifatida

Uchinchi tomondan, qonunlar ijrosini amalga oshiruvchi prokurorlar faoliyatini ham nazariy, ham amaliy tomondan o'rganadigan huquqiy bilimlar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi

**Prokurorlar faoliyati deyilganda**

Prokuratura organlari tizimida ishlaydigan mansab lavozimi va maxsus unvonga ega bo'lgan barcha prokuratura xodimlari faoliyati tushuniladi. Mavzular bo'yicha prokuratura faoliyatining ba'zi yo'nalishlari, yoinki, prokuratura faoliyatining ayrim vakolatlari O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 56-moddasida nazarda tutilgan talablarga binoan, ma'lum bir prokurorlarning o'zigagina tegishli ekanligini nazarda tutish lozim (masalan, protest kiritish, o'zgartirish, chaqirib olish).

---

---

## **2-bob. DAVLAT XIZMATINING ALOHIDA TARMOG‘I SIFATIDA PROKUROR NAZORATI**

### **2.1. Prokuror nazoratining mazmuni va vazifalari**

Davlat huquqiy institutlari tizimida prokurorlik tizimini, prokuratura funksiyasini, uning huquqiy maqomini, tashkil etilishini, faoliyatining shakl va uslublarini aniqlashda prokuraturaning o‘rni katta ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta‘minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat («Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunning 2-moddasi).

Prokuror nazorati, bu — O‘zbekiston Respublikasi nomidan, uning hududida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarining aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi prokuratura organlarining davlat organi sifatidagi maxsus faoliyatidir.

Prokuror nazorati — davlat faoliyatining mustaqil, o‘ziga xos turi hisoblanadi. Ushbu faoliyatni prokuratura organlaridan boshqa hech bir davlat idorasi, tashkiloti, jamoat tashkilotlari yoinki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlari, shuningdek, mansabdor yoki jismoniy shaxslari amalga oshira olmaydilar.

Prokuror nazoratining mustaqilligi har qanday davlat tashkiloti, siyosiy tashkilot yoki jamoat tashkilotlaridan xoli tarzda, faqatgina qonun bilan belgilangan vakolatlari doirasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari va qonunosti hujjatlari talablariga nazorat obyektlari tomonidan rioya qilinishi, qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratning amalga oshirilishida ham ifodalanadi.

Prokuror nazoratining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundan iboratki, davlat faoliyati turi sifatida biron-bir hokimiyat tizimiga

kirmaydi. Prokuratura organlari o'z funksiyasi va vazifasi nuqtayi nazaridan qonun chiqaruvchi, ijro hamda sud hokimiyatining ba'zi bir belgilarini o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa-da, ko'rsatilgan har uch hokimiyat tizimiga ham kirmaydi.

**Prokuror nazorati davlat nomidan**, ya'ni hujjatlarida davlat nomidan deb qayd etilmasa-da, O'zbekiston Respublikasi davlati nomidan amalga oshiriladi. Prokuror O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni ma'lum bir idora nomidan yoki shu idora manfaati yo'lida emas, balki davlat nomidan, davlat va jamiyatimiz manfaati yo'lida amalga oshiradi. Shuning uchun prokuratura organlari hamda prokuror tomonidan bajariladigan faoliyatga davlat tomonidan amalga oshirilgan faoliyatdek munosabatda bo'linadi.

Prokuror nazoratining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib:

1) mavjud bo'lgan barcha qonunlarni va qonunosti hujjatlarining yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ularning faoliyat doirasidan qat'i nazar, aniq va to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash;

2) prokuror nazorati — davlat faoliyatining bir yo'nalishi;

3) prokuror nazorati — oliy qonun chiqaruvchi va oliy ijro hokimiyati organlariga, O'zbekiston Respublikasi oliy mansabdor shaxslariga, umumiy yurisdiksiya sudlariga, xo'jalik sudlariga va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga nisbatan tatbiq etilmasligi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi o'zida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunuvchi va O'zbekiston Respublikasi nomidan uning hududida Konstitutsiyaga rioya etilishi va qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi, prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimini namoyon qiladi.

O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi qonunning oliyligini, qonuniylikni, yagonaligini va mustahkamligini, fuqaro va insonning (shaxsning) huquq-erkinliklarini qonun bilan qo'riqlanuvchi jamiyat hamda davlatning manfaatlarini ta'minlash maqsadida quyidagilarni amalga oshiradi:

- vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O'zbe-

kiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarga muvofiqligi ustidan nazoratni;

- vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan fuqaroning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi ustidan nazoratni;

- jinoyatlar to‘g‘risidagi arizalar va xabarlarini ko‘rib chiqish hamda hal qilish va tergovni olib borishning qonun hujjatlarida belgilangan protsessual tartibi, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlarning qonunlarni ijro etishlari ustidan nazoratni;

- ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoyiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta‘sirning boshqa choralarini ijro etish chog‘ida qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazoratni;

- barcha sud instansiyalarida jamiyat va davlatning manfaatlarini samarali himoya qilinishini ta‘minlash maqsadida ishtiroki;

- jinoyatchilikka qarshi kurash borasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi qonunlarda o‘rnatilgan boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida prokuratura davlat hokimiyatining tashkil etilishi bo‘limiga kiritilganligi uning mustaqil strukturaga ega ekanligini bildiradi. Hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga taqsimlanishi, boshqa mustaqil huquqiy institutlarning mavjudligini aslo inkor etmaydi. Bunday huquqiy institutlardan asosiysi bu prokuraturadir. U kim tomondan qonun buzilishidan qat‘i nazar, ularni bartaraf qiladi va tegishli jazoni qo‘llaydi.

Prokuraturaning ijro etuvchi yoki sud hokimiyatiga bo‘ysunishi davlat tizimini tubdan o‘zgartirib, qonunlarning buzilish xavfini kuchaytirib yuborar edi. Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish kerakki, prokuratura davlat organlari strukturasi muhim o‘rin egallaydi.

Prokuraturaning munosabati ijro etuvchi hokimiyat bilan aloqada yaqqol ko‘rinadi. Bu, asosan, boshqa huquqni muhofaza qiluvchi, shuningdek, nazorat qiluvchi organlar bilan munosabatiga tegishlidir. Hamma huquqni muhofaza qiluvchi, nazorat qiluvchi organlar

cheklangan huquqiy munosabatlar doirasida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. Prokuraturaning vakolatlari universal xarakterga ega bo'lib, huquqiy munosabatlarning butun doirasiga qo'llaniladi. Buzilgan qonunni bartaraf etish choralari qo'llashda, o'zlarining predmetli vakolatlari yoki o'rnatilgan vakolatlari doirasidan chetga chiqish zarurati paydo bo'lsa, nazorat qiluvchi organlar prokuratura organiga murojaat qilishga yoki ish materiallarini berishga majbur. Masalan, jinoyat ishini qo'zg'atish to'g'risidagi ishlarda.

Prokurorlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar va nazorat organlarining aybdorlarni javobgarlikka tortishda, huquqni buzuvchilarga nisbatan chiqarilgan qonun va aktlarning qonunga muvofiqligi, shuningdek, qonunga rioya etishlari ustidan nazoratni amalga oshiradilar. Prokuraturaning nazorat funksiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi faoliyatiga tatbiq etilmaydi.

### *Prokuror nazoratining asosiy tushunchalari*

«Prokuror nazorati» nazariyasi va amaliyoti ilmiy, o'quv va amaliyot jarayonida foydalanilayotgan qator tushuncha va terminlarni ishlab chiqqan. Bu tushunchalar hamma vaqt ham amaliyotchilar va nazariyotchilar tomonidan bir xilda qabul qilinmasligi mumkin. Bu esa, o'z o'rnida prokuror nazorati samaradorligiga ma'lum darajada salbiy ta'sir qilishi bilan kuzatilishi mumkin. Shuning uchun prokuror nazoratining ba'zi terminologiyalarining ma'nosi, mazmuni va mohiyati, tushunchasi haqida to'xtalib o'tish zarur.

Eng ko'p qo'llaniladigan tushuncha, bu — «prokuror» so'zi, termini tushunchasidir.

**Prokuror** — bu prokuratura organlarida «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining tegishli sohaviy buyrug'i bilan tartibga solingan qonunosti hujjatlari talablari asosida belgilangan tartib va qoida bo'yicha O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlariga doimiy yoki vaqtincha ishga qabul qilingan hamda o'ziga birlashtirilgan mansab vakolatlari, majburiyatlarini amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir.

«Prokuror» deyilganida, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, uning o'rinbosarlari, viloyat va ularga tenglashtirilgan prokurorlar, ularning o'rinbosarlari, tuman (shahar) prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar hamda ularning o'rinbosarlari, prokurorlarning katta yordamchilari va yordamchilari, prokuror-kriminalistlar, boshqarma prokurorlari va bo'lim prokurorlari, sud

muhokamasida «prokuror» sifatida ishtirok etadigan prokuratura xodimi tushuniladi. Jinoyat ishlari bo'yicha davlat ayblovini quvvatlovchi shaxs ham prokuror deb ataladi.

Shuningdek, fuqarolik va ma'muriy ishlarda hamda xo'jalik nizolariga oid ishlarni sudlarda ko'rilishida taraf sifatida ishtirok etish vakolati yuklatilgan prokuratura xodimi ham prokuror deb ataladi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 56-moddasida «ayrim atamalarning talqini» berilgan bo'lib, unda ko'rsatilishicha, «Prokuratura organlari xodimlari» degan atama zamirida darajali unvonlarga (harbiy unvonlarga) ega bo'lgan prokuratura organlari va muassasalarining barcha xodimlarini, shuningdek, prokuratura ish o'rganuvchilarini tushunish kerak.

5, 6-moddalardagi, 7-moddaning ikkinchi qismidagi, 22, 23, 25, 26-moddalardagi, 31-moddaning ikkinchi, beshinchi, oltinchi, yettinchi xatboshilaridagi, 33-moddadagi, 43-moddaning birinchi qismidagi hamda 44-moddaning birinchi qismidagi «prokuror» degan atama zamirida o'z vakolatlari doirasida ish olib borayotgan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, quyi turuvchi barcha prokurorlar, ularning o'rinbosarlari, bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo'limlarning boshliqlari, ularning o'rinbosarlari, bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo'limlarning katta yordamchilari, yordamchilari, katta prokurorlari va prokurorlarini tushunish kerak.

28-moddaning birinchi qismi ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi, beshinchi, oltinchi, yettinchi, to'qqizinchi va o'n uchinchi xatboshilaridagi, ikkinchi qismidagi «prokuror» atamasi zamirida o'z vakolatlari doirasida ish olib borayotgan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, quyi turuvchi barcha prokurorlar, ularning o'rinbosarlari, bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo'limlarning boshliqlarini tushunish kerak.

1-moddadagi, 7-moddaning to'rtinchi qismidagi, 8-moddaning ikkinchi qismidagi, 28-modda birinchi qismining o'ninchi, o'n birinchi, o'n ikkinchi, o'n to'rtinchi, o'n beshinchi va o'n oltinchi xatboshilaridagi, 29-moddaning ikkinchi qismidagi, 31-moddaning uchinchi, to'rtinchi va sakkizinchi xatboshilaridagi, 34, 35, 36, 38, 39, 40, 41, 42-moddalardagi «prokuror» atamasi zamirida o'z vakolatlari doirasida ish olib borayotgan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar, shuningdek, ularning o'rinbosarlarini tushunish kerak.

28-moddani birinchi qismi sakkizinchi xatboshisidagi «prokuror» atamasi zamirida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o‘rinbosarlarini, viloyatlar, Toshkent shahri prokurorlarini va ularga tenglashtirilgan prokurorlarni tushunish kerak, deyilgan.

Prokuratura organlarida prokurorlardan tashqari, **prokuraturaning xodimlari** ham ishlaydilar. Bularga, prokuratura organlarida ishlovchi, mansab unvoniga ega bo‘lgan (harbiy prokuraturalarda harbiy unvonlarga ega) xodimlar kiradilar. Prokuratura xodimlari qatoriga prokuratura organlari tizimiga qarashli ilmiy va pedagogik faoliyatni amalga oshiruvchi muassasalar xodimlari ham kiradi. (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Oliy o‘quv kurslari.)

Prokuror nazorati tushunchasi bo‘yicha:

1) prokuratura organining maxsus davlat faoliyati sifatidagi asosiy funksiyasi (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo‘ysunuvchi prokurorlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat, berilgan vakolatlar doirasida tekshirishlar o‘tkazish va aniqlangan qonun buzilishi darajasiga muvofiq tarzda prokuror nazorati hujjatlarini qo‘llash);

2) huquqshunoslik fanlarining bir sohasi (prokuror nazorati — ushbu faoliyatni tashkil etish, tartibga solish, amalga oshirish bo‘yicha uslub, usul, qonunchilik haqidagi bilimlar majmuasini o‘rganadigan yurisprudensiyaga oid fanlarning bir tarmog‘i);

3) o‘quv fani sifatida namoyon bo‘ladi (oliy va o‘rta maxsus o‘quv dargohlarida o‘qitiladigan fan. Mazmuni va mohiyati bo‘yicha «Prokuror nazorati» fani ikki qismga Umumiy va Maxsus qismlarga bo‘linadi. Umumiy qismda prokuror nazorati fani tushunchasi, prokuratura faoliyati tariqasidagi prokuror nazorati tushunchasi, prokuror nazoratining prinsiplari, prokuror nazoratining huquqiy asoslari va h.k.lar).

## **2.2. Qonunlarga rioya etish — prokuror nazoratining predmeti sifatida**

Prokuratura deyarli barcha davlatlarda mavjud bo‘lib, huquqni himoya qiluvchi nufuzli organ hisoblanadi. Uning faoliyati davlatning erki, tuzumi, mafkurasini o‘zida ifoda etuvchi qonunlar mohiyati bilan belgilanib kelingan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunda ko‘rsatilganidek,

O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 118-moddasiga asosan «O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi». Qomusimizning 119 va 120-moddalarida esa prokuratura organlari o'z vakolatlarini Respublika Bosh prokurori boshchiligida yagona markazlashtirilgan tizim sifatida, har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslardan mustaqil holda, faqat qonunga bo'ysunib amalga oshirishlari o'z aksini topgan.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligining hukmronlik qilishi qonunlar talablarini og'ishmay ijro etish natijasidagina mustahkam, o'z mustaqilligini himoya qila oladigan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlay oladigan davlat qurilishini ta'minlaydi. Har qanday davlat o'z tuzumidan kelib chiqqan holda qonunlarning ijrosini ta'minlovchi kafolatlar tizimini tuzadi. Prokurorlik nazorati bizning davlatimizdagi bu tizimning asosiy bo'g'inlaridan biridir.

Prokurorlik nazorati prokuratura tashkil etilishi munosabati bilan hosil bo'lmaydi, aksincha, davlatda qonunchilik bor ekan bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan qonuniylikning bir xilligi va uni ta'minlashga qaratilgan nazorat funksiyasini tashkil etish zarurati hosil bo'ladi.

Davlat boshqaruvining oliy organlari, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa idoralar fuqarolarning huquq va erkinliklarini, xalq hokimiyatini, huquq-tartibotni ta'minlashga vakolatli bo'lishsada, Konstitutsiyaga rioya etilishi, qonunlarning ustuvorligini, bir xilda bajarilishini, qonuniylikning mustahkamlanishini ta'minlash uchun ularning ijrosi ustidan nazorat davlat tomonidan faqat yagona prokuratura organlariga yuklatilgan.

Prokuror nazorati huquqiy munosabatlari davlatning qaysi idorasi, qaysi davlat organi huquqbuzarlikni belgilashi, qonun bilan g'ayriqonuniy harakat yoki harakatsizlikni ifodalashidan qat'i nazar, vujudga keladi. Prokuratura idoralarining birlamchi vazifalari qonunning yagonaligini ta'minlash, buzilgan huquq va erkinliklarni tiklash va qonun buzilishini bartaraf etish choralari ko'rishdir.

Davlatimizning sud-huquq siyosatidagi muhim, keng qamrovli o'zgarishlarni amalga oshirish borasidagi siyosati huquqni muhofaza qiluvchi idoralar faoliyatini ham qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi.



Qabul qilingan qator qonunlar, xususan, «Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida»gi, «Advokatura to'g'risida»gi, «Advokatlar faoliyatining kafolatlari va vakolatlarining ijtimoiy himoyasi to'g'risida»gi Qonunlar, yangi tahrirdagi «Sudlar to'g'risida»gi Qonunning qabul qilinishi, prokuraturaning qonunlar bajarilishini nazorat qilish bo'linmalarining ishi o'zining ijobiy va yaratuvchanlik rolini yo'qotib, ko'pincha jazolash xususiyatlarini kasb etib qolayotganligi, prokuraturaning ayrim xodimlari o'z vakolatlarini noto'g'ri talqin eta boshlaganlari «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunga zamon talablariga javob beradigan o'zgartirishlar kiritilishini talab etdi.

**Prokuror nazoratining predmeti.** O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 4-moddasida ko'rsatilgan prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlarida belgilangan huquqiy munosabatlar — prokuror nazoratining predmeti bo'lib, har bir asosiy yo'nalish o'z mazmuniga ko'ra, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ularning egallagan lavozimi va mavqeyiga qarab turlichadir.

Qonunlar ijrosi ustidan nazorat bo'yicha prokuror nazorati predmeti — vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 20-moddasi).

Qonunlar ijrosi ustidan nazorat predmeti Qonunning 20-moddasida belgilangan bo'lib, prokuratura faoliyatining maqsadi hamda vazifalari tubdan o'zgardi. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, «prokuratura xalqning ustidan nazorat qilmasligi, aksincha unga xizmat qilmog'i darkor». Shuning uchun ham totalitar rejimdan qolgan asoratdan, ya'ni fuqarolar ustidan nazorat qilish vakolatidan voz kechildi. Endilikda prokuratura xodimlarining bosh maqsadi har bir vakolatni amalga oshirishda fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish hisoblanadi.

Qonunning 4-moddasida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat olib borish prokuratura faoliyatining mustaqil yo'nalishi darajasida belgilanishi,

shuningdek, «fuqaroning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi ustidan nazorat» qilishni yangi tahrirdagi qonunga alohida bob sifatida kiritilishi asosiy qonunimizda belgilangan fuqaroning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan normani amalda qo'llashda prokuratura rolining kuchayganligini tasdiqlaydi.

Fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi ustidan nazorat bo'yicha prokuror nazorati predmeti vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan fuqaroning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 20-moddasi).

Jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat bo'yicha prokuror nazorati predmeti jinoyatlar to'g'risidagi arizalar va xabarlarini ko'rib chiqish hamda hal qilish va tergov olib borishning qonun hujjatlarida belgilangan protsessual tartibi, shuningdek, jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning qonuniyligi, jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlarning qonunlarni ijro etishlari ustidan nazorat hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 20-moddasi).

2001-yil 29-avgustdagi yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunida «umumiy nazorat» termini qo'llanilmagan. Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi nazorat predmeti hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 20-moddasi).

Qonunlar ijrosini tekshirish qonunlarning buzilayotganligi to'g'risidagi arizalar va boshqa ma'lumotlar asosida, shuningdek, qonuniylik prokuror tomonidan choralar ko'rilishini talab qiladigan holatda ekanligidan kelib chiqqan holda qonunda belgilangan tartibda

o'tkaziladi. Xo'jalik faoliyatiga va boshqa faoliyatga prokurorning bevosita aralashishiga, shuningdek, idoraviy boshqaruv va tekshiruv organlarining vazifalarini bajarishiga yo'l qo'yilmaydi (O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 23-moddasi). Prokurorlik nazoratining ushbu tarmog'ida prokurorlar o'zlariga yuklatilgan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishlari uchun ularga zarur bo'lgan vakolatlar berilgan.

Prokurorga u o'zi noqonuniy va asoslantirilmagan deb hisoblagan qarorni to'g'ridan to'g'ri bekor qilish yoxud o'zgartirish huquqi berilmagan. Prokurorga berilgan vakolatlar qonun buzilish hollarini o'z vaqtida aniqlash, aniqlangan qonun buzilish hollariga nisbatan ushbu qonun buzilish holatini bartaraf etish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning e'tiborini jalb etish, huquqbuzarlarni qonun bilan belgilangan tartibda javobgarlikka tortish va huquqbuzarliklarni keltirib chiqargan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish choralarini ko'rish imkonini beradi. Ushbu sohadagi prokurorning vakolatlari, asosan, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 22-moddasida shakllantirilgan.

Prokuratura qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga kirmaydi. Prokuratura — davlat organi. U aynan mustaqil davlat organi sifatida prokurorlik nazoratini amalga oshiradi. Xo'sh, prokuror nazorati deyilganda nima tushuniladi? Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuni aytish kerakki, prokuror nazorati — bu O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida o'rnatilgan holatga rioya qilish, O'zbekiston Respublikasi hududida amaldagi qonunchilikka muvofiq, buzilgan qonuniylikni bartaraf etish choralarini, o'rnatilgan qonunlarga muvofiq aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish choralarini, prokuraturaning va uning qonunda belgilangan huquqiy ta'sir choralarini qonun bilan o'rnatilgan tartibda bajarish vakolatini amalga oshirish uchun davlat hokimiyatining maxsus vakolatli organi faoliyati turidir.

Demak, Konstitutsiyada belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni faqat maxsus davlat organi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi. Bu faoliyat esa **prokuror nazorati**, deb ataladi. Prokuror nazorati o'zining obyekt va subyektiga ega.

**Prokuror nazoratining obyekt**i prokuraturaning vakolati yoyilgan, ya'ni qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati faoliyati qaratilgan hokimiyat organlari, korxonalar, muassasa va tashkilotlar,

xo‘jalik yurituvchi subyektlar, yuridik va jismoniy shaxslar yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Bu yerda vakolati yoyilgan deyilgan, jumladan, muayyan prokuratura organining vakolat doirasi tushuniladi. Masalan, tuman prokuraturasi o‘z hududidagi obyektlarni tekshirishi, nazorat qilishi kerak. Umumiy asosda prokuror nazoratining obyekti vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va mansabdor shaxslarning yig‘indisi bilan belgilanadi. Prokuror, prokuror nazoratining obyektlarini huquqiy tatbiq qilishi, ya‘ni qonunlarga rioya etishi yoki ijro etishi, shuningdek, ular tomonidan chiqarilgan huquqiy aktlarning qonunga muvofiqligi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

Prokuror nazoratining subyekti, bu prokuror nazorat faoliyatini amalga oshiruvchi mansabdor shaxs — prokuror (prokuror nazoratini amalga oshirayotgan prokuraturaning mansabdor shaxsi) hisoblanadi. Prokuror nazoratining subyekti — bu qonunda o‘rnatilgan tartib va asosda, o‘zining vakolati doirasida nazorat vakolatlari va o‘ziga yuklatilgan vazifani amalga oshiruvchi prokuratura organining mansabdor shaxsidir. Bunda bir qator hollarda protsessual munosabatlarga kirishish uchun u yoki bu shaxsning shu prokuratura organida qanday aniq mansabni egallaganligi ahamiyatga ega bo‘lmaydi.

Prokuraturaning birlik va markazlashganlik prinsipiga asosan, prokuror o‘zining vakolati doirasida o‘zining nazorat vakolatiga tegishli funksiyalarini bajarish uchun qonunda ko‘rsatilgan, shaxsan o‘zi bajarishi kerak bo‘lgan hollardan tashqari, vakil jo‘natishi mumkin. Aynan shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 33-moddasida jinoyat protsessual faoliyat maqsadlari uchun prokuror deyilganda, Bosh prokuror, unga bo‘y-sunuvchi prokurorlar, uning yordamchi va o‘rinbosarlari, o‘zlari-ni vakolati doirasida faoliyat yuritadigan bo‘lim va boshqarma prokurorlari tushuniladi.

Faqatgina u yoki bu nazorat protsessual harakatlarni yoki qarorlarni amalga oshirish aniq belgilangan prokurorga yuklatilgan bo‘lsagina, o‘shanda aniq mansabdor shaxs nazarda tutiladi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 480-moddasi «Jinoyat ishining yuqori sud tomonidan ko‘rilishida prokurorning ishtiroki» deb nomlanib, unda ko‘rsatilishicha, «jinoyat

ishining apellatsiya, kassatsiya yoki nazorat tartibida ko'rilishida prokuror qatnashadi.

Ishning ko'rilishida:

1) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi hay'atlarida — tegishli O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori tomonidan vakolat berilgan prokuror;

2) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi jinoyat ishlari bo'yicha Oliy sudi, jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy sudi rayosatlarida tegishli O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori yoki uning o'rinbosari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari, O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori;

3) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori qatnashadi» deyilgan. Ko'rinib turibdiki, jinoyat protsessining aynan shu jarayonida qatnashishi mumkin bo'lgan, prokuror sifatida ishtirok etishi mumkin bo'lgan subyekt kim bo'lishi mumkinligi qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksining 383-moddasida ko'p voqeali jinoyat ishlari bo'yicha prokurorning vakolatlari belgilangan bo'lib, unda ko'rsatilishicha, «prokuror yoki uning o'rinbosari ko'p voqeali jinoyat ishlari bo'yicha ayblovning ayrim voqealari yuzasidan muayyan shaxsga nisbatan to'plangan dalillarni ayblov xulosasi tuzish uchun yetarli deb e'tirof etsa, shu voqealar bo'yicha tergovni tamomlash va ishni sudga yuborish haqida yozma ko'rsatma berishga haqli». Ko'rinib turibdiki, «prokuror yoki uning o'rinbosari»ga tegishli protsessual vakolat qayd etilgan. Xuddi shuningdek, Jinoyat protsessual kodeksining 384-moddasida «ayblov xulosasi bilan kelgan jinoyat ishi yuzasidan prokuror hal etishi lozim bo'lgan masalalar» qayd etilgan bo'lib, prokuror yoki uning o'rinbosari tergovchidan ayblov xulosasi bilan kelgan jinoyat ishini o'rganib chiqishi va qator protsessual qonunchilik talablariga jinoyat qonunchiligiga rioya qilinganligini tekshirishi va nazorat qilishi belgilangan.

Shuningdek, Jinoyat protsessual kodeksining 385-moddasida, «ayblov xulosasi bilan kelgan jinoyat ishi yuzasidan prokurorning

qarori» deb nomlanib, Prokuror yoki uning o‘rinbosari ayblov xulosasi bilan kelgan jinoyat ishini ko‘pi bilan besh sutkada ko‘rib chiqishi va tegishli qaror qabul qilishi belgilangan.

Jinoyat protsessual kodeksining 388-moddasida prokuror yoki uning o‘rinbosari ayblov xulosasini tasdiqlab, jinoyat ishini tegishli sudga yuboradi, deb belgilangan. Ko‘rinib turibdiki, bu vakolatlar ham prokuror va uning o‘rinbosarining vakolatiga taalluqlidir. Ayblov xulosasi bilan kelgan jinoyat ishini nazorat tartibida tekshirish va protsessual qarorlardan birini qabul qilish vakolati aynan prokuror va uning o‘rinbosariga tegishli ekanligini ko‘ramiz. Bu vakolatlarning subyekti prokuror va uning o‘rinbosaridir.

Jinoyat ishi yuzasidan g‘ayriqonuniy, asoslantirilmagan va adolatsiz sud qaroriga nisbatan protest kiritish vakolati ham aynan prokuror va uning o‘rinbosarlariga tegishli ekanligi qayd etilgan. Masalan, Jinoyat protsessual kodeksining 479-moddasi sud qarorlari ustidan shikoyat berish va protest bildirish huquqi hamda uning ta‘minlanishi deb nomlanib, unda ko‘rsatilishicha, «ushbu kodeksning 497<sup>2</sup>, 498 va 516-moddalarida nazarda tutilgan protsess ishtirokchilari birinchi instansiya sudning hukmi va ajrimi ustidan belgilangan tartibda apellatsiya yoki kassatsiya tartibida shikoyat berish yoki protest bildirishga, shuningdek sud qarorlarini nazorat tartibida qayta ko‘rib chiqishni iltimos qilishga haqlidir. Bu holda ular o‘z vajlarini tasdiqlovchi qo‘shimcha materiallar taqdim etishlari mumkin»ligi, 497<sup>2</sup>-moddasida hukm ustidan apellatsiya tartibida shikoyat berish va protest bildirish huquqiga ega bo‘lgan shaxslar qayd etilgan bo‘lib, «mahkum, uning himoyachisi, qonuniy vakili, shuningdek, jabrlanuvchi, uning vakili sudning qonuniy kuchga kirmagan hukmi ustidan shikoyat berishga, prokuror va uning o‘rinbosari esa, protest bildirishga haqlidir», deyilgan.

Shuning uchun prokuror nazoratining subyekti bo‘lib, qonunlarni ijro etishi va rioya qilishini prokurordan hamda prokuraturadan tashqari yuridik va jismoniy (mansabdor) shaxslar bo‘lishlari mumkin emas. Yuqoridagilarga asoslanib prokuror nazoratining mazmunini qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat tashkil etishini bilish mumkin.

Butun faoliyati jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan, qonun buzilishlarni tezkor ravishda bartaraf etadigan, qonunchilik va huquq-tartibotni mustahkamlash borasidagi jamiyat talablari qondirilishiga javob beradigan prokuratura organlari

davlatimiz va jamiyatimizga kerak ekanligi yana bir bor isbotlandi. Ushbular qonunning 1- va 2-moddalarida o'z ifodasini topdi.

Prokuraturaning huquqni himoya qilish funksiyalari kuchaytirildi. Shu maqsadda qonunga maxsus bob kiritilib, unda inson va fuqarolar huquq va erkinliklarini bevosita himoya qilish hamda bu borada qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish vakolatlari o'z ifodasini topgan.

Ta'kidlash lozimki, prokurorning huquqni himoya qilish funksiyalari, shu jumladan, sudga da'vo arizasi taqdim etish vakolati avvalambor, alohida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan shaxslar, ya'ni voyaga yetmaganlar, qariyalar, kasallar, nogironlar va boshqa sabablarga ko'ra o'z huquqini shaxsan himoya qilish imkoniyatiga ega bo'lmagan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi. Insonparvarlik nuqtayi nazaridan bu yangiliklar o'ta muhim ahamiyatga molikdir. Prokurorning nazorat va protsessual vakolatlarini, uning imkoniyatlarini inson va fuqaroning huquqlari himoyasiga yo'naltirib, davlatimiz inson huquqlari himoyasi kafolatlarini qat'iy ta'minlanishidan manfaatdor ekanligini yana bir bor namoyish etdi. Bu esa o'z navbatida, prokuratura organlariga katta mas'uliyat yuklaydi va ulardan boshqaruv, nazorat hamda boshqa organlar tomonidan fuqarolarning huquqlari kamsitilishi holatlariga yo'l qo'ymasliklarini, buzilgan huquqlarni esa tegishli vakolatlardan samarali foydalanib, qat'iyatlilik bilan himoya qilishni talab etadi.

**Prokurorning vakolatlari deyilganida**, uning qonun bilan belgilangan tartibda mansab-lavozimini, faoliyat doirasini hisobga olgan holda huquq va majburiyatlarining majmuasi tushuniladi.

**Prokuror nazoratining huquqiy vositalari** — odatda, bir xil tushunchani anglatadi. Prokuror nazoratining huquqiy vositasi sifatida prokuror nazorati hujjatlari hisoblangan — protest, taqdimnoma, qaror, ariza, ogohlantiruvni tushuniladi.

**Protest** — qonunlar ijrosi ustidan nazorat faoliyatini amalga oshirishda foydalaniladigan huquqiy hujjat bo'lib, g'ayriqonuniy, asoslantirilmagan va adolatsiz sud qarorlariga nisbatan kiritiladi. Xususiyl protest huquqiy vosita sifatida jinoyat ishlari bo'yicha sudning jinoyat ishini qo'shimcha tergovga yuborish haqidagi ajrimiga nisbatan kiritiladi.

**Taqdimnoma** — aniqlangan qonun buzilishini zudlik bilan bartaraf etish zarur bo'lgan holda hamda tekshirishda aniqlangan qonun buzilish hollarining kelib chiqish shart-sharoitlarini bartaraf etish, kelgusida shu kabi qonun buzilish hollariga yo'l qo'ymaslik

uchun tegishli chora-tadbirlar belgilash uchun kiritiladigan huquqiy hujjatdir.

**Qaror** — intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha, ma'muriy javobgarlikka tortish bo'yicha hamda jinoiy javobgarlikka tortish yuzasidan qabul qilinadigan prokurorning huquqiy hujjati hisoblanadi.

**Ariza** — prokuror tomonidan sudga prokurorning kiritgan protesti bo'yicha protest ko'rib chiqilmaganida yoki rad etilgan hollarda g'ayriqonuniy hujjatni qonunga muvofiqlashtirishni so'rab murojaat qilishda foydalaniladigan prokurorning huquqiy hujjatidir. Masalan, ma'lum bir tuman hokimining g'ayriqonuniy hujjatini bekor qilish uchun tuman hokimi nomiga prokuror shu hujjatni bekor qilishni ko'rsatib, o'zining protestini kiritadi. Tuman hokimi shu protestni ko'rib chiqmasa yoki ko'rib chiqib, protestni rad etsa, unda prokurorning o'zi g'ayriqonuniy deb hisoblagan hujjatni sud tomonidan bekor qilinishi yoki o'zgartirilishini talab qilib, fuqarolik sudiga ariza bilan murojaat qiladi.

**Ogohlantiruv** — prokuror fuqarolarning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga, huquq va erkinliklariga, jamiyat hamda davlat manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan g'ayriqonuniy xatti-harakatlar tayyorlanayotganligi xususida ishonchli shaxslar va fuqarolarni qonunning buzilishiga yo'l qo'ymaslik haqida yozma ravishda ogohlantirish uchun qo'llanadigan prokuror nazorati hujjatidir. Ushbu hujjatni qo'llash bilan prokuror ogohlantiriluvchiga huquqbuzarlik sodir etganlik uchun javobgarlikni tushuntiradi.

### **2.3. O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri)**

2001-yilning 29-avgust kuni O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) qabul qilindi va 2001-yil 27-oktabrda matbuotda e'lon qilinib, kuchga kirdi. Qonundagi qator asosiy o'zgartirishlarni qayd etib o'tish prokuraturaning hozirgi vazifalari to'g'risida to'liqroq tushunchaga ega bo'lishga imkoniyat beradi.

*Birinchi*dan, fuqarolar prokuraturaning nazorat obyektidan chiqarildi, qonunga maxsus bob kiritilib, unda prokuraturaga fuqarolar huquq va erkinliklarini bevosita himoya qilish vakolati yuklatildi.

*Ikkinchi*dan, jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha prokuratura idoralarining vakolatlari



huquqiy asoslari va mexanizmi berildi. Qonun talabiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini ta'minlash maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatni, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan tegishli organlarning faoliyatini muvofiq- lashtiradi. Buning uchun Muvofiqlashtiruvchi kengash chaqiradi, ishchi guruhlar tashkil etadi, zarur axborot, shu jumladan, statistika ma'lumotlarini talab qilib oladi, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

*Uchinchidan*, O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni talablaridan kelib chiqqan holda sudda prokuror ishtirokining tub mohiyati va bosh maqsadi aniq qilib belgilandi. Unga ko'ra, fuqarolarning, korxonalar, muassasalar va tashkilot- larning huquqlari hamda qonuniy manfaatleri sud yo'li bilan samarali himoya qilinishini ta'minlash maqsadida barcha instansiya sudlarida ishlar ko'rilayotganda prokuror qonunda belgilangan tartibda ishtirok etadi.

*To'rtinchidan*, prokurorlik tekshirishlari o'tkazilishi asoslari konkretlashtirib belgilandi, ya'ni:

1. Qonun talablari buzilganligi haqidagi arizalar yoki boshqa ma'lumotlar.

2. Prokurorlik choralari ko'rilishini talab qiladigan qonuniylik ahvoli.

*Beshinchidan*, prokurorlik ta'sir choralaridan biri bo'lgan «amrnoma» prokuror nazorati hujjatlari tarkibidan chiqarildi. Uning o'rniga «taqdimnoma» deb nomlanuvchi prokuror nazorati hujjatidan foydalanish belgilandi. Qonun talabiga ko'ra, taqdimnoma darhol ko'rib chiqilishi va ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida bir oylik muddat ichida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinishi lozim.

Prokuror tomonidan kiritiladigan qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart- sharoitlarni bartaraf etish to'g'risidagi taqdimnoma qonun buzilishini bartaraf etish vakolatlariga ega bo'lgan organga yoki mansabdor shaxs nomiga kiritiladi.

«Ariza» deb nomlanuvchi prokuror nazorati hujjati joriy qilindi. Prokurorning «protesti» vaqtida ko'rib chiqilmaganida yoinki, rad qilinganida, prokuror tomonidan g'ayriqonuniy deb hisoblangan hujjatni sud tomonidan g'ayriqonuniy deb topish uchun sudga «ariza» bilan prokurorning murojaat qilish tartibi belgilandi.

Qonun talabiga ko'ra, prokuror fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega. Prokurorning arizasi sud tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ko'rib chiqiladi. Prokuror arizasidan davlat boji olinmaydi.

*Oltinchidan*, Bosh prokuror qabul qilgan, individual xususiyatga ega bo'lmagan buyruqlar va boshqa hujjatlarning qonuniyligini tekshirish vakolati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga berildi. Konstitutsiyaviy sud O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining qabul qilgan buyruqlari, nizom va ko'rsatmalari, yo'riqnomasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlariga zid ravishda bo'ladigan bo'lsa, uni bekor qilish haqida qaror qabul qilishi mumkin. Lekin, individual xususiyatga ega bo'lgan buyruqlar bundan mustasnodir.

*Yettinchidan*, qonundan «umumiy nazorat» iborasi chiqarilib, u «qonunlar ijrosi ustidan nazorat» jumlasini almashtirildi.

*Sakkizinchidan*, Respublika Bosh prokurorining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati oldida hisobdorligi belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga:

- qonuniylik hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida — muntazam ravishda;
- o'ta og'ir jinoyatlar va favqulodda hodisalar to'g'risida — zudlik bilan;
- prokuratura organlari amalga oshirgan ishlar to'g'risida — har olti oyda axborot taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga o'z faoliyati haqida muntazam ravishda hisobot beradi.

*To'qqizinchidan*, huquqbuzarliklarning oldini olish prokuror asosiy vazifalarining biri sifatida qonunda belgilandi va u qonuniylikni ta'minlashda fuqarolarning huquqiy bilim va tashabbuskorligini oshirish masalasiga bog'landi.

*O'ninchidan*, soliq intizomini mustahkamlashga, soliq sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek, davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararining o'rnini qoplashga qaratilgan qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat qilish vazifalari yuklatildi.

Qonunga 2-bob tariqasida yangi bob kiritildi. Bu bobning nomi «Fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya etilishi ustidan prokuror

nazorati» deb atalib, prokuror nazoratining predmeti va obykti bevosita fuqarolarimizning huquq va erkinliklariga vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan rioya qilinishi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun, boshqa huquqiy hujjatlar hamda Respublika Bosh prokurorining buyruq va ko'rsatmalari talablaridan kelib chiqqan holda prokuratura idoralari zimmasiga quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish yuklatilgan:

- qonun ustuvorligini ta'minlash;
- qonuniylikni mustahkamlash;
- fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish;
- huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikani amalga oshirish.

Qonunda o'z aksini topgan ushbu vazifalar prokuratura organlarining nazorat sohalari va asosiy yo'nalishlaridagi faoliyatini to'liq qamrab oladi. Ya'ni prokuratura organlarining faoliyati qonun ustunligini har tomonlama qaror toptirishga, huquq-tartibotni mustahkamlashga, Konstitutsiyada mustahkamlangan inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini, shuningdek, davlat mustaqilligini, ijtimoiy davlat tuzumi, milliy guruhlar va hududiy tuzilmalarni g'ayriqonuniy tajovuzlardan muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan.

Qonunda, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining, shuningdek, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar, shaharlar prokurorlarining hamda yuqori turuvchi prokurorlar tomonidan ularning vakolat muddati davomida kamida ikki marta kompleks o'rganib chiqilishi, prokurorlar faoliyatini baholashning asosiy mezonlari qonuniylikning holati va fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklari, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning ta'minlanishi hisoblanishi, o'z faoliyati davrida tegishli hududda qonunlar ijrosi ustidan lozim darajada nazorat o'rnatilishini ta'minlab bera olmagan shaxslar prokuror lavozimiga takroran ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmasligi belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarini tashkil etish, ularning vakolatlari va faoliyat ko'rsatish tartibi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2001-yil 29-avgustda qabul

qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunida ochiq, atroflicha belgilab qo‘yilgan. Mazkur Qonunda prokuror nazoratining maqsadi va vazifalari; prokuratura faoliyatining asosiy yo‘nalishlari; prokuraturaning tashkiliy faoliyat prinsiplari; prokurorlarning nazoratni amalga oshirish va qonun buzilishlariga prokurorlik ta‘sir ko‘rsatish huquqiy vositalari aniq belgilab berilgan.

#### **2.4. O‘zbekiston Respublikasida prokuratura organlarining tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari**

O‘zbekiston Respublikasi hududiga prokuratura tariqasidagi davlat organining kirib kelish tarixiga nazar tashlasak, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Rossiya tomonidan Buxoro amirligi, Xiva va Qo‘qon xonligidan iborat O‘rta Osiyo bosib olingunga qadar, bu yerda prokuratura deb nomlangan maxsus idora bo‘lmagan. «Har bir inson qalbida nafs balosidan, shayton vasvasasidan yiroq bo‘lish, imon va insof, vijdon va adolatparvarlik tuyg‘ularini uyg‘otish zarur. Agar odamlar ongida shu insoniy tuyg‘ular qaror topmas ekan, ana shunday oliyjanob fazilatlar jamiyatimizda hukmron bo‘lmas ekan, davlat tomonidan o‘tkaziladigan har qanday chora-tadbirlar ham, sud prokuratura idoralarining faoliyati ham kutilgan samarani bermaydi»<sup>1</sup>.

O‘rta Osiyoda, prokuratura deb nomlangan idora va prokuror deb ataluvchi mansab yoki lavozim bo‘lmagan bo‘lsa-da, shariat qonunlarining bajarilishini nazorat qilib turuvchi maxsus lavozim va ushbu vazifani amalga oshiruvchi shaxslar bo‘lgan. Tarixdan ma‘lumki, xalqning ma‘naviyati, madaniyati, turmush darajasi oshib borgani sari inson huquqlarini himoyalashni kafolatlashga bo‘lgan e‘tibor ham yuksalib boradi.

Shu o‘rinda, yurtboshimiz I.A. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda 2006-yil 7-dekabrda «Inson manfaatlarini ta‘minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish — ustuvor vazifamizdir», deb nomlangan ma‘ruzasida, «Biz bugun izchillik bilan amalga oshirayotgan tinch va farovon hayot qurish yo‘li va bu yo‘lning asosiy qonunchilik negizlari haqida gapirganda, bamisoli tog‘day tayanch bo‘ladigan ikkita mezon-maqsadni o‘zimizga yaqqol tasavvur qilamiz.

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7. T., «O‘zbekiston», 1999, 253-bet.

*Birinchi* — yuksak darajada taraqqiy topgan demokratik davlatlarning o'zini har tomonlama oqlagan tajribasini tanqidiy tahlildan o'tkazib, o'zimizga qabul qilish va joriy etish, shu asosda hayotimizni qurish.

*Ikkinchi* — qadimiy va boy tariximiz, qadriyatlarimiz, otabobolarimiz azaldan asrab-avaylab kelgan va biz ham bugun amal qilayotgan muqaddas din-u diyonatimiz, urf-odat, udum va an'analarimizga rioya etgan holda, har qanday holat va boshimizga tushgan sinovda ham o'zligimizni yo'qotmasdan, biz kimning, qanday buyuk zotlarning avlodi ekanimizni unutmagan yashash, farzandlarimizni ham shu asnoda tarbiyalash va hayotga yo'llanma berish.

Mana shu ikkita yo'nalish — zamon talab qiladigan demokratik prinsiplar va milliy xususiyatlarimiz — qadriyatlarimizni o'zaro uyg'un tarzda birlashtirishdek o'ta muhim va strategik ahamiyatga ega bo'lgan vazifani ro'yobga chiqarish, qat'iyat va izchillik bilan hayotimizning barcha jabhalarida joriy etish — bular biz tanlagan yo'lni belgilab berayotgan asosiy omillari va sharti, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz», deganlarini eslab o'tish joizdir.

Islom tarixi guvohlik berishicha, VII asrdayoq inson huquqlarini himoyalashga asoslangan tizim vujudga kelgan. Xalifa Umar (r.a.) tomonidan shikoyatlarni ko'rib chiqish va nizolarni hal qilish uchun Muhtasib mansabining tashkil etilishi fikrimiz dalilidir<sup>1</sup>.

«Muhtasib» so'zi arab tilidagi asli «hasaba» fe'li o'zagidan yasalgan. Uning ism shakli «hisba» — hisob-kitob, ajr, evaz, mukofot, o'lchov va og'irlik o'lchovlarini nazorat qiluvchi mansab ma'nosini anglatadi. Muhtasibning harakat nomi shakli «ixtisob» so'zi hisob, hisoblash, mamnunlik, itoatkorlik ma'nolarini bildirsa, muhtasib o'lcham va og'irlik o'lchovlarini nazorat qiluvchi mansabdor, inspektor ma'nosida foydalaniladi<sup>2</sup>.

Qur'oni Karim Oli Imron surasining 104-oyatida Alloh Taolo shunday amr qiladi: «Sizlarni yaxshilikka da'vat qiladigan, amri ma'ruf va nahiy munkar ishlarini olib boradigan (bir) ummat bo'lgan! Aynan ular tole topuvchilardir»<sup>3</sup> (yaxshilikka buyuruvchi va yomonlikdan qaytaruvchi shaxslar bo'lishi lozimligi ta'kidlan-

<sup>1</sup> *Din Gotter*. Ombudsman hamda demokratlashtirish va inson huquqlari. 1999, № 1, 27—28-bet.

<sup>2</sup> *Lison al-Arab*. 3-kitob. Bayrut, 1997, 164-bet.

<sup>3</sup> *Abdulaziz Mansur*. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasini. T., Toshkent islom universiteti, 2001, 63-bet.

moqda). Hisba, ya'ni muhtasiblik tizimining tashkil topishiga yuqoridagi oyat dalil sifatida qaraladiki, Alloh Taoloning o'zi insonlar o'rtasida turli buzg'unchilik, soxtakorlik, jabr-u sitamlarning, harom ishlarning oldini olish maqsadida insonlarni yaxshilikka undovchi va yomonliklarni tark qilishga chaqiruvchi kishilar guruhi bo'lishiga buyurgan.

Yuqoridagi oyatdan, yaxshilikka undash va yomonlikdan qaytarish, nafaqat, muhtasibning, balki barcha musulmonlarning vazifasi ekanligi ham tushuniladi. Bu vazifani ko'ngilli bajaruvchilarni **mutatavvi'** deb ataladi.

**Muhtasibning mutatavvi'dan farq va ustunligini Movardiy shunday keltiradi:**

1. Muhtasib va hisbaning boshqa a'zolari ham davlat rahbari yoki hokimiyat organlari tomonidan tayinlanadi. (Hozirgi bizning qonunchiligimizga nazar tashlansa, Bosh prokuror va uning o'rinbosarlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanib, Senat tomonidan tasdiqlanadi. Viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tayinlanadi.)

2. Oyatda keltirilgan yaxshilikka undash va yomonlikdan qaytarish ularning asosiy vazifasi bo'lib, odamlar yaxshi amallardan uzoqlashganda, ularni da'vat qilishga mas'ul hisoblanadi. (Prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirish, huquqiy targ'ibot hisoblanadi.)

3. Muhtasib vazifasini bajarmaganda javobgarlikka tortiladi. (Prokurorlar tomonidan ham o'z xizmat vazifasini lozim darajada bajarmaganligi uchun intizomiy va jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkinligi qonunchiligimizda nazarda tutilgan.)

4. Muhtasib sodir etilayotgan munkar ishlarni aniqlashi, ularni qaytarishi va yaxshi amallarni ochiq tark qilganlarni topib, ularga buyurishi kerak (jinoiyat yoki boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish va ularni keltirib chiqargan shart-sharoitlarni bartaraf qilish vazifasi prokurorga ham yuklatilgan).

5. Muhtasib ushbu asosiy vazifalarni to'liq amalga oshirishi uchun o'ziga yordamchi yollashi mumkin. Yordamchisiga qattiqqo'l va qat'iy munosabatda bo'lishi lozim. (Prokurorlarning amaldagi prokuratura faoliyatini belgilab beruvchi ko'rsatma va nizomlariga asosan, yordamchilari va katta yordamchilari mavjud. Bundan tashqari, jamoatchi yordamchilarni ham ishga jalb qilinishi mumkin.)

6. Munkar ishlar ochiq haddan ziyod oshganda muhtasib ogohlantirishi, jazo chorasini qo'llashi kerak. (Prokuror ta'sir choralariidan biri bu «ogohlantiruv» hujjati bilan rasmiy ogohlantirish hisoblanadi.)

7. Muhtasib hisba xarajatlarini baytul-moldan oladi. (Prokuratura organlari xodimlarining oylik maoshlari ham davlat budjetidan olinadi.)

8. Muhtasibga shariatdan tashqari urf-odatlariga, tegishli ishlarda o'z mustaqil fikriga tayanish huquqi beriladi<sup>1</sup>. (Prokurorlar ham faqat qonunga bo'ysunadilar va dalillarga baho berishda o'zlarining mustaqil ichki ishonchlariga amal qiladilar.)

Hisba tizimi faqir va zaif kishilarning, o'jizlarning huquqlarini himoya qilishi lozim bo'lgan muassasa vazifasini bajargan.

Prokuratura organlarining ham asosiy vazifalaridan biri fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish va zarur bo'lsa, ularning manfaatlarini himoya qilib, sudda ularning nomlaridan vakillik qilish, ularning manfaatlari yo'lida da'vo arizasi bilan murojaat qilish hisoblanadi.

Movardiy va Farro' «hisba»ni quyidagicha ta'riflaydi:

«Hisba bu — amr bilan ma'ruf (yaxshilikka buyurish). Agar yomonlik namoyon bo'lganda, yomonlikdan (munkar ishlardan) qaytarishdir»<sup>2</sup>.

Hisba tizimi islom marosimlarini, urf-odatlarini, shariat qonunlarining bajarilishini, bozorlardagi narx-navo va o'lchov asboblarning to'g'riligini nazorat qilish, ibodat va ba'zi diniy marosimlarni bajarmagan kishilarni darra bilan urib jazolashga hukm chiqarish va o'sha yerning o'zida hukmni ijro ettirish kabi vazifalarni bajarishni o'ziga qamrab olgan.

G'azzoliy o'zining «Ixyo ulum ud-din» asarida hisba tizimining to'rt asosiy unsurini keltirgan:

I. Muhtasib tavsifi.

II. Hisba jarayoni tartibi.

III. Muhtasib vakolatlari.

IV. Hisba jazo chorasi bosqichlari.

Jazo choralari yaxshi amallar tark qilingandagi munkar ishlar sodir etilayotganligi aniqlanishi bilan qo'llaniladi. Uning bosqichlarini G'azzoliy shunday keltiradi:

• Amri ma'ruf, naxiy munkar amallarini tushuntirish.

<sup>1</sup> *Al-Movardiy*. Al-ahkomi as-Sultoniya. 315-bet.

<sup>2</sup> *Zarif al-Hosimiy*. Nizom al-hukm'fiy shari' va tarix al-islamiy.

- Og‘zaki taqiqlash.
  - Allohning jazosini eslatib nasihat qilish. (Prokurorning jinoyatlarni oldini olish yuzasidan huquq-targ‘ibot faoliyatiga o‘xshaydi.)
  - Qo‘pollik qilmasdan, yomon so‘zlarni ishlatmasdan yuqori ovozda tanbeh berish (hozirgi zamonda «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonun talablariga ko‘ra, «Ogohlantiruv» prokuror ta’sir chorasini qo‘llashga o‘xshab ketadi).
  - Shariatga zid kiyingan, shariat (ya’ni o‘sha davrda amalda bo‘lgan qonun) taqiqlagan narsalarni ko‘tarib yurganlarni qo‘l bilan qaytarish.
  - Qattiq ogohlantirish. (Prokurorning intizomiy jazoga tortish to‘g‘risidagi qaroriga o‘xshaydi.)
  - Jismoniy jazo qo‘llash (jarohat va qon to‘kilishi darajasida bo‘lmasligi kerak).
  - Qoziga topshirish<sup>1</sup>. (Sudga prokuror tomonidan ishni ko‘rib chiqish uchun topshirishga o‘xshaydi.)
- Movardiyning kitobida keltirishicha, muhtasib shuningdek, to‘rt mazhab bo‘yicha taqiqlangan ishlarni, narsalarni bilishi va o‘z mustaqil fikrini shariatga zid bo‘lmagan holda bayon eta olishi kerak.
- Ibn Haldun o‘zining «al-Muqaddima» asarida muhtasib vazifalaridan quyidagilarini keltirib o‘tgan:
- ezgulikka undash, yomonlikdan qaytarish (prokurorning kriminologik funksiyasi — jinoyatlarni oldini olish yuzasidagi faoliyati);
  - yomon ishlarga yarasha jazo berish (adolatlilik, qonuniylikni ta’minlash borasida sudlarda prokuror ishtirokini ta’minlash, sudlarga asoslantirilgan qarorlarni qabul qilishida ko‘maklashish faoliyati prinsipi);
  - yo‘lto‘sarliklarni taqiqlash, yuk tashuvchi hayvonlar va kemalarga haddan ortiq yuk ortishni taqiqlash (transport prokurorining funksiyalari);
  - qulaydigan devor va binolarni buzish uchun buyruq berish (umumiy nazorat faoliyati);
  - yo‘lovchilar uchun xatarli va zararli bo‘lgan narsalarni oradan ko‘tarish (umumiy nazorat faoliyati);
  - qurilishlarda xavfsizlik qoidalarini nazorat qilish (umumiy nazorat faoliyati);

---

<sup>1</sup> Internet WWW. Islam.uz@ Islamik-World.Net Dr. V.Zuhayliy. Al-fiad al-islamiy va adillatuhu, 8/6263



• maktablarda kichik o'quvchilarni uradigan o'qituvchilarni jazolash kabi shaharda aholining umummanfaatlarini himoyalash vazifalarini bajargan<sup>1</sup> (voyaga yetmaganlarga oid qonunlar ijrosi ustidan nazorat).

Ibn Taymiya fikricha, muhtasib bajaradigan vazifalar uchun shariatda muayyan cheklashlar belgilangan emas, balki hayot sharoiti bir shahardan boshqa bir shaharga nisbatan farqli bo'lganligi uchun u bajaradigan vazifalar urf-odat asosida belgilangan<sup>2</sup>.

Muhtasibning biror-bir da'voni kutib o'tirmay, ochiq noqonuniy harakatlarni ko'rishi bilanoq o'z ishini boshlashi, uning ustunlik jihati bo'lsa ham, unga ushbu ish yuzasidan hukm chiqarish huquqini bermaydi. (Prokuror ayblovni quvvatlab, jinoiy ta'qib funksiyasini amalga oshirsa ham, bevosita o'zi ish yuzasidan hukm chiqara olmaydi, ishni sudga yuboradi.)

Muhtasib o'z vazifasini bajarmasa gunohkor bo'ladi. Takrorlangan suratda shikoyatga e'tibor bermasa, o'z vakolatini qo'ldan berib muruvvat va odilligi yo'qoladi va e'tiborsiz bo'lib qolgani uchun qonunan muhtasib hisoblanmaydi<sup>3</sup>. («Prokuratura to'g'risida»gi Qonun talablariga mos.)

Movardiyning kitobida keltirilishicha, muhtasibning ishdan bo'shatilishiga, shuningdek, xizmat vazifasiga xiyonat qilishi, ishni adolatsizlik bilan bajarganligi, insonlar o'rtasida muhtasiblik mavqeyini yo'qotishi, hisba vazifasini bajarishga ma'nan va jismonan ojiz bo'lib qolishi yoki boshqa qobiliyatliroq muhtasibning paydo bo'lishi sabab bo'lishi mumkin<sup>4</sup>. (Prokuratura organlari xodimlarini ishdan bo'shatishning qonuniy asoslariga to'g'ri keladi.)

Muhtasiblik, ya'ni hisba tizimi asrlar davomida rivojlanib, musulmon mamlakatlarida hozirgacha muhim mavqeni egallab kelmoqda. Muhtasiblar sog'liqni saqlash, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, jamoa huquqbuzarliklarining oldini olish va sanitariya qoidalariga rioya qilinishini nazorat qilish vazifasini amalga oshirganlar (**umumiy nazorat faoliyati**).

Muhtasiblar xalqning ichida bo'lib, aholining har kungi ahvolidan xabardor bo'lishadi. Bevosita o'zlari guvoh bo'lib turgan noqonuniy xatti-harakatlarga o'sha joyning o'zida barham berishgan.

<sup>1</sup> *Ibn Xaldun*. Al-Muqaddima. 201-bet.

<sup>2</sup> *Ibn Taymiya*. Al-Xisbatu fil islam. Qohira, 1935, 18-bet.

<sup>3</sup> *Ibn Taymiya*. Al-Xisbatu fil islam. Qohira, 1935, 50-bet.

<sup>4</sup> *Al-Movardiy*. Al-ahkomi as-Sultoniya. 120—129-betlar.

Al-Qalaqshandiyning Subxul A'sha asarida shunday keltiriladi: Movardiy o'zining «al-Ahkom as-Sultoniya» asarida deydi: «Men seni to'liq qoniqtiraman, ya'ni uning insonlar tomonidan huquqi poymol bo'lganda ularga qarshi turishga kifoya qiladigan kishini (ya'ni o'sha davrda muhtasibni) shunday deb nomlagan». Dunyo tarixiga murojaat qiladigan bo'lsak ham, Qadimgi Rim davlatiga nazar tashlasak ham, prokuratura organining dastlabki tashkil qilinishing o'zi aynan fuqarolarning huquq va manfaatlarini, davlat manfaatlarini hamda, eng avvalo, qonunning ustuvorligini himoya qilish uchun tuzilgan edi.

Ko'rinib turibdiki, davlat va jamiyat, inson va fuqarolarning huquqlarini ta'minlovchi qonunlar ijrosi ustidan nazorat vazifasi O'rta Osiyoda XIX asrda emas, bundan qariyb 1200 yil avval ham maxsus shaxslar tomonidan amalga oshirilgan. Prokuror, prokuratura degan terminologiyalardan foydalanilgan bo'lmasa-da, albatta, o'z davriga yarasha jamiyatdagi qonunlarning ijrosini nazorat qilib turuvchi davlat organlari tomonidan amalga oshirilgan. Shuning uchun O'rta Osiyoda to'g'ridan to'g'ri prokuror nazorati deb nomlangan institut, shu terminologiyaning qo'llanishi 1867-yilda qabul qilingan Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi vaqtinchalik Nizom loyihasida nazarda tutilgan, xolos. Lekin bu davrda prokuratura maxsus organ sifatida hali tashkil etilmagan edi. Prokurorlik vazifasini o'z tashabbuslariga ko'ra, harbiy gubernatorlar olishgan.

Turkiston o'lkasining (Sirdaryo viloyati, Zarafshon okrugi, Amudaryo bo'limi) uch mustaqil ma'muriy hudud bo'linishiga ko'ra uch «prokuror»: Sirdaryo gubernatorining o'zi, Zarafshon okrugi boshlig'i va Amudaryo bo'limi boshlig'i bor edi. Ushbu mansabdor shaxslar ishlarni sudlovlilik bo'yicha tegishliligini qayta ko'rib chiqishlari, ularni ma'muriy tartibda hal qilishlari va o'zlarining qarashlari bo'yicha harakatdan to'xtatishlari mumkin edi.

1887-yil adliya vazirining buyrug'iga ko'ra, Rossiya adliya vaziriga ma'muriy tartibda bo'ysunuvchi Sirdaryo, Yangi-Marg'ilon, Samarqand, Vernensk viloyat sudlari qoshida prokuraturalar tashkil etildi. Rus podshosining Turkistondagi prokuraturasi ma'muriy-hududiy tamoyilga ko'ra tashkil etilgan edi. Okrug sudi qoshidagi prokuror sud palatasidagi prokurorga bo'ysunar edi, u esa o'z o'rnida — bevosita adliya vaziriga bo'ysunar va uning oldida hisobdor

edi. Barcha prokurorlar podsho tomonidan lavozimiga tayinlanar va lavozimidan ozod qilinar edilar<sup>1</sup>.

Turkistondagi prokuratura Rus podsholigi prokuraturasining asosiy qismini tashkil etib, uning qonunlarini tatbiq qilib va qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirar edi. Prokuratura organlari xodimlarining kamligi, ularning mahalliy odamlarning tilini va urf-odatlarini bilmasligi, ular manfaatlarining bir xil emasligi prokuratura organlari va tub aholi o'rtasida yaxshi munosabatni keltirib chiqarmas edi. Rossiya prokuraturasining tashkil etilishi Rossiyadagi Pyotr I tomonidan amalga oshirilgan davlat islohotlari bilan bog'liq edi. Hukumat Senatining tashkil etilishi munosabati bilan, qonunlar ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida maxsus organni tashkil etish zarurati paydo bo'ldi. Dastlab bu institut fiskallar edi, keyinchalik esa prokurorlarga aylandi.

Bosh prokuror lavozimining kiritilishi 1722-yilda Pyotr I tomonidan amalga oshirildi. Bosh prokurorga Senat faoliyatidagi qonunchilik, keyinchalik esa barcha davlat organlari tomonidan qonunchilikka rioya qilinishi ustidan nazorat qilish vazifasi yuklatilgan. Qonun buzilishi holati aniqlanadigan bo'lsa, Bosh prokuror ushbu qonun buzilish holatini bartaraf etishni avval taklif etishi, unga bo'ysunilmagan holatlarda esa «protest keltirishi va bu ishni to'xtatishi» lozim edi. Bora-bora prokurorlar davlat xizmati ichida muhim o'rin egallay boshlashadi. Prokurorlar korpusi paydo bo'la boshladi. Prokurorlarni general-gubernatorlarning tavsiyasiga ko'ra, Senat saylar edi. Ular markaziy va mahalliy muassasalar faoliyatlari ustidan nazoratni olib borar va aniqlangan kamchiliklar haqida general-gubernatorga hisob berar edilar. Qonun buzilish holatini aniqlagan prokuror dastlab og'zaki ravishda ushbu qonun buzilish holatini bartaraf etishni taklif etar, ushbu taklif bajarilmasa, unda ushbu qonun buzilish holatini bartaraf etish uchun vakolatli organga, undan so'ngra esa taalluqli hay'atga yoki Senatga yozma ravishda protest kiritar edi. G'ayriqonuniy hujjatga nisbatan kiritilgan protest ushbu hujjat harakatini to'xtatar edi. Agarda qonun buzilishi holati haqida yuqori turuvchi prokurorga kelib tushsa, unda u ishni tez va to'g'ri hal qilish choralari ko'rishi lozim edi.

Taxminan shu davrning o'zida markaziy bilan yonma-yon gubernatorial prokuraturalari tashkil etiladi, ularning boshlanishiga

---

<sup>1</sup> M. Mahbubob. O'zbekistonda prokuratura organlarini tashkil etilishi va rivojlanishi. Yuridik fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T., 1993.

saroyhovli (nadvorniy) sudlarining prokurorlari tashkil etilishi sabab bo'ldi. Adliya vazirligi (1802-y.) tashkil etilishi bilan adliya vaziri bir vaqtning o'zida general prokuror lavozimini ham egallay boshladi, gubernal prokuraturasi esa adliya vazirligining joylardagi organiga aylana boshladi.

1864-yili prokuratura «sudlar huzuridagi joylar»da nazorat qilish vakolatini qo'lga kiritdi. 1864-yil 20-noyabrdan sud o'rnatuvlari ta'xisiga ko'ra, sudlarda prokuror nazoratini ober-prokurorlar, prokurorlar va general-prokuror bo'lmish adliya vazirining oliy nazorati ostidagi ularning o'rtoqlari olib bora boshladilar. Ana shu vaqtdan boshlab quyidan yuqoriga bo'ysunuvchi, yagona boshga ega, mahalliy va ma'muriy hamda sud organlari institutlaridan mustaqil bo'lgan prokuratura tashkilotining asosi paydo bo'la boshladi.

Prokuratura shunday shaklda 1917-yilgacha mavjud bo'ldi. Sudlar to'g'risidagi 1-Dekret bilan prokuratura tugatildi. Uning faoliyati to'rt yildan ko'proq vaqt qayta tiklanmadi. Prokuraturaning tashkil etilishi to'g'risidagi fikrlarni sovet davlatining besh yillik tajribasidan so'ng izlash lozim bo'ladi. Tarixiy tajriba qonunchilik ustidan nazorat qilishni amalga oshiruvchi mustaqil organ — prokuraturani tashkil etish zarurati haqidagi fikrga yetaklab keldi.

Har bir tarmoqni boshqarishda tashkil etilgan nazorat qonuniylikni ta'minlash uchun yetarli kafolatlarni yaratmas edi, chunki u idoraviy tashkilot edi. Uyezd ijroiya qo'mitalari va viloyat ijroiya qo'mitalarining adliya bo'limlariga yuklatilgan qonunchilikka rioya qilinishi ustidan nazorat ham unchalik darajada samarali emas edi. Davlat oldida qonunlarni aniq ijro etilishi ustidan nazorat qilishni takomillashtirish vazifasi paydo bo'ldi, chunki shu kungacha amal qilgan qonuniylikni ta'minlash tizimi o'zini oqlamadi, u qonuniylik uchun olib borilayotgan maqsadli kurashni ta'minlay olmadi. Qonuniylikni amalga oshiruvchi, markaziy hokimiyat nomidan harakat qiluvchi, yagona uslubga ega bo'lgan va mahalliy hokimiyatga bo'ysunmaydigan maxsus tashkilot tashkil etish zarurati paydo bo'ldi.

Turkiston ASSRning davlat prokuraturasi tashkil qilinishi haqidagi dekret loyihasi ustida ishlash 1922-yil boshida avj olib ketdi. 1922-yil 9 mayda<sup>1</sup> Turkiston Respublikasi Sovnarkomi va

---

<sup>1</sup> «Известия ТуркЦИК» от 1922 года 3 июня.

Markaziy Ijroiya qo'mitasi 1922-yil 3-iyunda qonuniy kuchga kirgan Turkiston ASSRning davlat prokuraturasi haqidagi Nizomni tasdiqladilar<sup>1</sup>. 1922-yilning iyun oyida Turkiston ASSRda prokuratura ham markazda, ham joylarda tashkil etildi<sup>2</sup>. Shundan boshlab Turkistonda prokuraturaning tashkil etilishi boshlandi.

Turkistonda prokuraturaning tashkil etilishi ushbu mintaqada davlat faoliyatining sifatli bo'lgan yangi shaklining va prinsipial yangi davlat funksiyasining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Prokuratura organlariga umumiy nazoratdan tashqari, har qanday mansabdor shaxsga nisbatan o'z tashabbusiga ko'ra ham, ariza va shikoyatlarga ko'ra ham sud ta'qibini qo'zg'atish va shu shaxslarni ushlab vakolati berildi.

Nizomga muvofiq, butun prokuraturaning boshida Turk-respublika prokurori hisoblangan adliya xalq komissari turar edi. Davlat prokuraturasi bo'limini Adliya xalq komissariati hay'ati a'zosi — adliya xalq komissari o'rinbosari boshqarar edi. Turkiston ASSR Markaziy Ijroiya qo'mitasining 1922-yil 1-avgustdagi qarori bilan respublika hududida RSFSR Jinoyat protsessual kodeksi amalga kiritildi. Ushbu kodeksda jinoyatlarni tergov qilishni nazorat qilish bo'yicha prokurorga berilgan juda ham katta vakolatlar aniq belgilab berildi.

ButunbuxMIQsining 1922-yil 21-noyabrdagi qarori bilan ButunbuxMIQsining Oliy nazorati bo'linmasi sifatida Prokuratura tashkil etildi<sup>3</sup>. Ushbu holatning qabul qilinishi bilan 1922-yil noyabr oyida haqiqatda amal qilayotgan BXSRSi prokuraturasining huquqiy maqomi yuridik mustahkamlandi. 1923-yilgi adliya xalq nozirligi haqidagi Nizomga muvofiq, adliya xalq noziri bir vaqtning o'zida respublika prokurori ham hisoblanar, shu munosabat bilan unga juda ham keng vakolatlar berilgan edi. Prokuror nazorati BXSRSining adliya xalq nozirligining davlat prokuratura bo'limi orqali amalga oshirilardi. Bo'limga respublika prokurori tomonidan lavozimiga tayinlanib, lavozimidan ozod qilinadigan BXSRSning prokurori yordamchisi bo'lgan mudir boshchilik qilar edi.

1924-yilning 24-sentabr kuni XXSR kengashining MIQ qaroriga asosan adliya xalq nozirligi haqida Nizom qabul qilingan. Nizomga muvofiq, adliya xalq noziri bir vaqtning o'zida respublika

<sup>1</sup> ЦГА Республики Узбекистан. Ф.25. оп.1. Д.19-а. Л.161.

<sup>2</sup> М. Махбутов. O'zbekistonda prokuratura organlarini tashkil etilishi va rivojlanishi. Yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. T., 1993, 16-bet.

<sup>3</sup> ЦГА РУз. Ф. 64. оп. 1. Д. 96. Л.3.

prokurori ham hisoblanar, respublikadagi qonuniylik ustidan umumiy nazoratni amalga oshirish vazifasi unga yuklatilgan edi.

Bevosita prokuror nazoratini adliya xalq nozirligining prokuratura bo'limi amalga oshirar va quyidagi vazifalarni bajarar edi:

- davlat nomidan barcha hokimiyat organlari, xo'jalik muassasalari, jamoat va xususiy muassasalar harakatlarining qonuniyligi ustidan nazoratni amalga oshirib, aybdor shaxslarga nisbatan jinoyiy ta'qib vazifasini bajarib, ularga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atar va noqonuniy qarorlarga nisbatan protestlar kiritish;

- jinoyatlarni ochish va tergov qilish sohasida surishtiruv va tergov organlari faoliyati ustidan bevosita nazoratni amalga oshirish, shuningdek, davlat siyosiy boshqarmasi faoliyati ustidan nazorat qilish;

- ozodlikdan mahrum etish jazolarini ijro etish joylari va mehnat tuzatish muassasalarida faoliyatni to'g'ri amalga oshirilayotganligini nazorat qilish;

- Oliy sudga nisbatan prokuror nazorati funksiyasini amalga oshirish.

1926-yil 29-sentabrda O'zSSR kengashining MIQ tomonidan tasdiqlangan va 1927-yil 15 fevralda amalga kiritilgan «O'zSSR sud tuzilishi to'g'risida»gi Nizom, 1925-yilgi (Adliya xalq komissariati) haqidagi Nizomni rivojlantirib, prokuraturaga qonun buzilishiga yo'l qo'ygan aybdor shaxslarga nisbatan intizomiy va ma'muriy ta'qib qilish huquqini berib, prokurorga jinoyat ishlari bo'yicha kassatsiya instansiyasida xulosa berish huquqini ham berib, jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi barcha organlar faoliyati ustidan umumiy nazoratni amalga oshirish huquqini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prokurori bir vaqtning o'zida respublika adliyasining xalq komissari hisoblanib, respublika hukumatining tarkibiga kirar edi. Natijada, respublika prokurori O'zSSR MIQ tomonidan tayinlanib, o'rindoshlik qilsa ham, baribir respublika XKK oldida adliyaning xalq komissari sifatida hisobdor edi. Respublika prokurori qonuniylik ustidan nazorat qilish funksiyasini boshqaruv funksiyalari bilan aralashtirib olib borar edi, bu esa albatta, nazorat funksiyasini amalga oshirishda salbiy ta'sirga ega bo'lar edi. 1929-yilning 27-yanvar kuni O'zSSR adliya xalq komissariati qoshidagi prokuratura bo'limi to'g'risida Nizom qabul qilindi. Nizom talabiga ko'ra, prokuratura organlari faoliyati ustidan rahbarlikni O'zSSR hududida respublika prokuraturasi bo'limi o'z qo'liga oldi. Bo'limni xalq komissari emas, bir vaqtning o'zida respublika prokurori hisoblangan Adliya xalq komissarining o'rinbosari amalga oshirar edi.

1931-yilning 23-sentabrida Adliya xalq komissariati to'g'risida yangi Nizom tasdiqlandi<sup>1</sup>. Nizomga muvofiq, prokuratura bo'lim sifatida emas, AXK tarkibidagi adliya xalq komissarining o'rinbosari hamda respublika prokurori boshchilik qiladigan mustaqil tashkilot sifatida ko'rilar edi. 1933-yilning 10-iyul kungi SSSR XKK va MIQning SSR Ittifoqi Prokuraturasini tashkil etish to'g'risidagi qarori prokuratura tarixida ahamiyatli voqea hisoblanadi. SSSR XKK va MIQning 1933-yilning 17-dekabr kungi qarori bilan SSSR Prokuraturasi to'g'risidagi Nizom tasdiqlangan.

Shu bilan bir vaqtda SSSR Oliy sudi prokuraturasi bartaraf qilindi. Nizomda SSSR Prokuraturasining funksiyasi va tashkil etish tartibi, shuningdek, hozirda ham asosan saqlanib qolgan prokuror nazoratining yo'nalishlari belgilab berildi, xususan olganda, umumiy nazorat, militsiya va OGPU harakatlarining to'g'riligi va qonuniyligi ustidan nazorat, dastlabki tergov ustidan nazorat, sud organlari tomonidan qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazorat, axloq tuzatish mehnat muassasalari faoliyatining to'g'riligi va qonuniyligi ustidan nazorat.

Prokuratura hayotining ma'lum bir bosqichi shunday davr bilan bog'liqki, bu davrda huquqni muhofaza qilish organlari faoliyati shunday shakllantirilgan ediki, birinchi rejaga davlat hokimiyatining oliy organlari tomonidan ustuvor deb hisoblangan jazo muassasalari chiqib oldilar. Faqatgina o'tgan asrning 50-yillari o'rtasida qonuniylikni mustahkamlash, davlatning huquqiy bazasini yaratish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi.

1955-yilning 24-may kuni qabul qilingan «SSSRda Prokuror nazorati to'g'risida»gi Nizom prokuraturaning rivojlanishida navbatdagi muhim bosqich bo'lib xizmat qildi. Unda davlatda qonuniylikning maqsadi haqidagi g'oyalar qonun bilan mustahkamlanishi va kelgusidagi rivojlanishi hamda prokuror nazoratining og'ishmay ta'minlanishi o'z ifodasini topdi. Nizomda prokurorlarning vakolatlari, vazifalari va fuqarolik hamda jinoyat ish yurituvida aniqlangan qonun buzilishlariga nisbatan prokurorlik ta'sir choralari qo'llash tartibi belgilandi. Keyinchalik Nizomdagi ko'pgina shu normalar Jinoyat va fuqarolik ish yurituvu Asoslariga, axloq-tuzatish mehnat qonunchiligiga kiritilgan.

Harbiy prokuratura organlari ham tashkil etildi. 1966-yil 14-dekabrda tasdiqlangan «Harbiy prokuratura haqida»gi Nizomda

<sup>1</sup> ЦГА РУз. Оп. 9. Д. 153. Л. 169—173.

harbiy prokuratura tizimi va tuzilishi, harbiy prokurorlarning vakolatlari, ular faoliyatida hududiy prokurorlar bilan o'zaro munosabat o'z ifodasini topdi. Unga ko'ra, harbiy prokuratura sovet prokuratura organlari tizimiga kirishligi va SSSR Bosh prokurori oldida hisobdorligi belgilangan.

1977-yilda Konstitutsiyaning qabul qilinishi qonuniylik ustidan nazoratni ta'minlash bo'yicha ildam qadamlar qo'yilishi bilan bog'liqdir. Ulardan bittasi «SSSR Prokuraturasi to'g'risida»gi Qonun qabul qilinishi haqidagi qarordir. Bunday qonun SSSR Oliy Sovetining 10-chaqiriq 2-sessiyasida 1979-yil 30-noyabrda qabul qilingan. Unda sovet prokuraturasi organlarini tashkil etish va ular faoliyatining asosini tashkil etuvchi prinsiplarning huquqiy tartibga solinishi va mustahkamlanishi, ular faoliyatining asosiy yo'nalishlari o'z ifodasini topgan.

Prokuror nazorati 1980—1990-yillardagi avtoritar rejim yo'l boshchisi, ma'muriy-buyruqbozlik tizimining bir qismi bo'lib xizmat qildi. Prokuraturadan kuch ishlatish choralari qo'llash, zarur bo'lgan joylarda, iqtisodiy, moliyaviy, huquqiy va tashkiliy dastaklar ishlashi lozim bo'lgan joylarda foydalanildi. Shunday tajriba natijasida ko'pgina idoralar, sovet va nazorat organlari qonuniylik va intizomga rioya qilinishi ustidan haqiqiy nazoratni va to'lalikka ta'minlanmasligiga olib keldi. Ular tomonidan o'zlariga berilgan vakolatlardan to'liq foydalanilmaganligiga sabab, zarur bo'lsa, prokurorlar tomonidan prokuror ta'sir choralari va jinoyat huquqiy choralari qo'llanishiga ishonib qoldilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2001-yil 29-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq VI sessiyasidagi «Adolat — qonun ustuvorligida» deb nomlangan ma'ruzasida, «Prokuratura — qonun himoyasida turgan organ. U huquqiy davlat, demokratik jamiyat qurilishida, huquqiy islohotlarni amalga oshirishda hal qiluvchi rolni o'ynaydi» deb ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasida prezidentlik institutining joriy qilinishining birinchi kunlaridanoq hamda respublikamiz tomonidan davlat mustaqilligiga erishilgan dastlabki kunlardanoq hukumatimiz rahbariyati tomonidan milliy prokuraturaning paydo bo'lishi va shakllanishiga alohida e'tibor berilgan. Ushbu yo'nalishdagi birinchi revolyutsion qadam — davlatimiz rahbarining prokuratura organlarini ittifoq markazidan haqiqiy mustaqilligiga erishish yuzasidan bo'lgan siyohatlar bo'ldi.



Shuning bilan birga, ushbu harakatlar juda ham jiddiy oqibatlarga olib kelishi, masalani KPICC MQ Siyosiy byurosida ko'rilishigacha yetishi mumkinligi tushunib yetilgan edi. Qolaversa, hukumatimiz rahbariyati respublikamiz ichida ham jiddiy qarshiliklarni his qilib turardi. Chunki partiyaning oliy eshelonida, respublika prokuraturasi idoralarida hanuzgacha mas'ul lavozimlarda «desantchilar» deb nomlanadiganlar ishlab kelishayotgan edi.

Shunday xavf bo'lishiga qaramasdan, hukumatimiz rahbariyati tomonidan 1990-yil 1-noyabrda O'zbekiston SSRning «O'zbekiston SSRda ijro va boshqaruv hokimiyati tizimini takomillashtirish va O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy qonun)ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonunini o'zida aks ettiruvchi dadil va jasoratli siyosiy qaror qabul qilindi.

Ushbu hujjat bilan, birinchi marta Ittifoq doirasida O'zbekiston SSR Prokurorining tayinlanishining konstitutsion mexanizmi mustahkamlab qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi prokurorining o'rinbosarlarini ham ilgariqidagidek, SSSR Bosh prokurori tomonidan emas, respublika Prezidentining taqdimnomasiga binoan, mamlakat parlamenti tomonidan tayinlanishi konstitutsion mustahkamlandi. Bundan tashqari, SSSR Bosh prokuraturasi amaliyotida birinchi marta, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining faqat O'zbekiston Respublikasi parlamenti va Prezidenti oldidagi hisobdorligi hamda javobgarligi mavjudligi belgilandi.

Bundan buyon, Qoraqalpog'iston ASSR prokurori avtonom Respublika parlamenti tomonidan O'zbekiston SSR Prezidenti bilan kelishilgan holda tayinlanishi qonunchilik bilan mustahkamlandi. Bundan tashqari, ilgari viloyatlar va tuman, shaharlar prokurorlari SSSR Prokuraturasining roziligi bilan tayinlangan bo'lsa, endi qonun bo'yicha kadrlar masalasini hal qilish Respublika prokurorining mutlaq vakolatiga tegishli ekanligi qayd etildi. Va nihoyat, respublika prokuratura xodimlarining to'liq mustaqilligi, shu jumladan, SSR Ittifoqi Prokuraturasidan ham to'liq mustaqilligi, faqat ularning O'zbekiston SSR prokurorigagina bo'ysunishi e'lon qilindi.

Bularning hammasi Ittifoq prokuraturasining yakkahokimlik davri yakunlanishini bildirar va respublika prokuraturasining haqiqiy mustaqilligi g'alabasini ifoda etar edi. Buning oqibatida respublika prokuraturasi rahbariyati SSSR Prokuraturasi rahbariyati tomonidan aniq siquv va ochiqdan ochiq adovat munosabatini his qilib turar edi. SSSR Prokuraturasi rahbariyati «markazdan uzoq bo'lgan prokuratura»ning bunday mustaqilligi boshlanishini va ishlash hamda

prokuratura organlariga rahbarlik uslublarini tag-tomiri bilan yo'qotib tashlash, butun kuchlar bilan ishni eski izga solish uchun jonjahdi bilan harakat qildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 4-yanvardagi O'zbekiston Respublikasining tegishli qonun hujjatlari qabul qilinguniga qadar, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning qonunlariga zid bo'lgan sobiq SSSR qonunlari amalda bo'lishligi haqidagi qarori qabul qilingan edi.

1979-yil 30-noyabrda qabul qilingan SSSRning «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1992-yil 9-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni qabul qilunguniga qadar amalda bo'ldi. Respublikamiz qonunshunoslarining bunday qadami shoshmasdan, xalqaro tajriba va rivojlangan demokratik davlatlarning amaliyotini, milliy xususiyatlarni, xalqning mentalitetini hisobga olgan holda faol qonun ijodkorligi ishiga kirishishga imkoniyat yaratdi.

O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi organlarining sobiq Ittifoq rahbarligidan chinakam mustaqilligi va tobelikdan ozod bo'lganligini ta'minlashda respublikamizning taqdirini hal etuvchi ikki hujjatni e'tirof etishimiz zarur:

- *birinchisi*, 1991-yil 31-avgustda qabul qilingan, «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Murojaati mazmuni;

- *ikkinchisi*, O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari haqida»gi qonuni.

Darhaqiqat, aynan shu qonunga muvofiq, 1992-yilning 24-yanvarida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi 33-qarori qabul qilingan. Hukumatning ushbu qarori, nafaqat, prokuraturaning mavqeyini faktik ravishda mustahkamlagan, balki prokuratura xodimlariga qator imtiyoz va ustunliklar berish bilan birga, moddiy-texnik bazasini ham aytarli darajada mustahkamlagan. Aynan shu holatlar oqibatda prokurorlarning o'zlariga yuklatilgan nazorat vakolatlarini erkin ravishda amalga oshirishda haqiqiy mustaqilligini ta'minlash yuzasidan ijobiy rolni o'ynadi.

Ammo, davr talabining o'zi O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatining huquqiy asoslarini zudlik bilan ishlab chiqish va qabul qilishni talab etar edi. Chunki O'zbekiston Respub-

likasi ijtimoiy-iqtisodiy qurilishi va davlatchiligi asoslarini vujudga keltirishni boshidanoq, milliy huquqiy tizim shakllantirilishi va davlatimizning o'z shaxsiy qonunchilik bazasi ishlab chiqilishi mamlakatda bozor munosabatlarini shakllantirishda, huquq-tartibotni va qonuniyligni muvofiqlashtirishda yetakchilik va tashabbuskorlikni talab etar edi. Bu boradagi dastlabki dadil qadam sifatida davlat hokimiyatchiligini shakllantirishdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-yanvardagi O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi prokuraturasini mustaqil O'zbekiston Respublikasi tasarrufiga o'tkazilishini belgilovchi Farmonini misol qilsak bo'ladi. Bundan tashqari, yosh va mustaqil O'zbekiston Respublikasining dastlabki qabul qilgan qonunlaridan biri, mamlakatning Asosiy qonuni — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilingan kunining ertasiga, ya'ni 1992-yil 9-dekabrda parlament tomonidan O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinishini ham alohida muhim holat deb e'tirof etiladi.

Mamlakatdagi ijtimoiy holat, avvalambor, davlatchilikning dastlabki shakllanish davri, milliy qonunchilikning mavjud emasligi yosh mustaqil respublika oldiga barqarorlikni saqlab qolish, jamoat tartibi va jinoyatchilikning oldini olish va shunga o'xshash jamiyatga qarshi va millatlararo kelishmovchilik holatlarini keltirib chiqarmaslik zarurati — ushbu qadamlarni zudlik bilan qo'yishni talab etar edi.

Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda prokuratura hal qiluvchi rolni o'ynar edi. Aynan shu holat prokuratura organlarini zudlik bilan shakllantirish zaruratini oldindan belgilab bergan edi. Prokuratura organining normal faoliyat ko'rsatishi uchun huquqiy baza shakllantirilishi kerak edi, chunki prokuratura organlarining asosiy faoliyati qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishini hamda qonunlar ustuvorligini ta'minlashga, huquq-tartibotni mustahkamlashga, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan mustahkamlangan fuqaro va insonlarning shaxsiy, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy huquq va erkinliklarini hamda mamlakat mustaqilligi, jamiyat va davlat qurilishi, siyosiy va iqtisodiy tizimni, turlicha milliy guruhlar va hududiy shakllanishiga nisbatan har qanday g'ayriqonuniy tajovuzlardan himoya qilishga qaratilganidir.

Prokuratura organlarining huquqiy maqomini, asosiy vazifalarini va ishlash prinsiplarini hamda uning faoliyatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi asosiy hujjat zamini — O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hisoblanadi.

Mamlakatimiz Asosiy qonunida prokuratura uchun o'zida to'rt moddani mustahkamlagan alohida XXIV bob ajratilgan. Xususan olganda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 118-moddasida mustahkamlanishicha, «O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshiradi». Konstitutsiyaning 119-moddasida prokuratura organlari tizimi mustahkamlanib, «Prokuratura organlarining yagona markazlashtirilgan tizimiga O'zbekiston Respublikasining Bosh prokurori boshchilik qiladi» deb ko'rsatilgan. Undan keyinroq esa, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shahar prokurorlarini tayinlash tartibi hamda ularning faoliyat muddatlari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 120-moddasi prokurorlik nazoratini samarali amalga oshirishning yanada ahamiyatli tomonini o'zida mujassam etgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari o'z vakolatlarini har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslaridan mustaqil ravishda, faqat qonunga bo'ysunib amalga oshirishliklarini mustahkamlab qo'ygan. Prokurorlar nazoratni davlat nomidan amalga oshiradilar. Ular qonun buzilishining kim tomonidan sodir qilinishidan qat'i nazar, har qanday ko'rinishiga qarshi kurashishlari, o'z vaqtida tegishli chora-tadbirlar belgilashlari lozim.

1992-yil 9-dekabrda O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni o'zining tarixiy vazifasini bajardi. Ya'ni «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun qabul qilinishi munosabati bilan mamlakatda talab darajasidagi qonuniylik va huquq-tartibot o'rnatilishiga bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichi prokuratura organlari uchun juda zarur bo'lgan dastlabki turtki bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi davlat organlari tizimida prokuratura organlari o'zining maxsus o'rniga ega bo'lib, birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralik kabi prinsiplarga tayangan holda, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladigan yagona markazlashgan tizimni tashkil etadi, quyi turuvchi prokurorlar mahalliy va boshqa davlat organlariga bo'ysunmagan holda yuqori turuvchi prokurorlarga va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunishi hamda hisobdorligi asosida faoliyat ko'rsatishi belgilab berildi.

Natijada, zaruratga qarab, prokuratura tizimi rivojlantirildi, prokuratura faoliyatining uslub va shakllari takomillashtirildi, uning huquqiy statusi va davlat-huquqiy institutlari tizimidagi o'rni mustahkamlandi.

Davlat, qo'shma va xususiy korxonalarining, turli birja va tijorat banklarining tashqi iqtisodiy faoliyati rivojlanishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti manfaatlariga jiddiy zarar keltiruvchi turli jinoyatlar soni oshib ketdi. Iqtisodiyot sohasidagi turli suiiste'molchiliklar, o'zgarlar mulkini o'zlashtirishlar, poraxo'rlikka qarshi kurash faoliyatidagi samaradorlikni ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 3-martdagi 96-sonli qarori bilan tashkil etilgan va keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 6-iyuldagi 291-sonli qaroriga asosan o'zgartirilgan O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasi markaziy apparati tizimida poraxo'rlik va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish boshqarmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlarda shu boshqarmaning muvofiq bo'linmalari tashkil etildi.

Iqtisodiy va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashishni kuchaytirishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 6-iyuldagi «Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 251-sonli qarori juda muhim rol o'ynadi. Ushbu qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari tashkil etilgan edi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 2-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 415-sonli qarorining ahamiyati kattadir. Bu qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamentiga aylantirildi.

«Mamlakatning huquqni muhofaza qilish, moliya organlari tomonidan soliq sohasidagi qonunbuzarliklarni aniqlash va ularga barham berish, korrupsiya, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan bosh tortish, naqd pul va xorijiy valuta mablag'larining noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlar olib borilmoqda.

Iqtisodiy va moliyaviy sohalarida qonuniylikni ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti muhim o'ringallamoqda. O'zining 5 yillik faoliyatida Departament tomonidan soliq va valutaga oid 52 mingtadan ortiq qonun buzilishlari aniqlangan bo'lib, 13530 tasi bo'yicha jinoiy ishlar qo'zg'atildi, 38887 nafar shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortildilar.

Ko'rilgan choralar natijasida jami 142,9 mlrd so'm miqdoridagi moddiy zarar va budjetga qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar undirildi. Respublikaga noqonuniy olib kiritilgan 22,4 mlrd so'mlik tovar-moddiy boyliklar olib qo'yildi. Xorijiy valutaning yashirib qolinishi, chetga chiqib ketishi, noqonuniy aylanishi bilan bog'liq 2420 qonunbuzarliklar fosh etildi»<sup>1</sup>.

2001-yil 29-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chaqiriq oltinchi sessiyasida O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) qabul qilindi.

2004-yil 11-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan qonunlar ijrosini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmon asosida 2004-yilning 12-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 1-buyrug'i qabul qilindi. Buyruqqa asosan O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlarining yangi tuzilmasi tasdiqlanganligi sababli ayrim tarkibiy tarmoqlariga o'zgartirishlar kiritildi. Tarkibiy tarmoqlarning raqamlari va nomlanishi o'zgartirildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan 2004-yilning 18-mart kuni «Qishloq xo'jaligida islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratining samaradorligini oshirish to'g'risida»gi 2-buyrug'i qabul qilindi.

«Iqtisodiy, moliyaviy, soliq sohalarida sodir etilgan jinoyatlarning shart-sharoitlari va sabablarini, «xufyona biznes»ni shakllanish yo'llarini, xorijiy valutaning chetga chiqib ketish kanallari va ko'p miqdordagi pul mablag'larining bankdan tashqari noqonuniy aylanishi manbalarini aniqlash va bartaraf etish ishlarining samaradorligi past darajada qolmoqda. Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish holatlarini chuqur tahlil qilish, aniqlash, oldini olish va ularga barham berishdagi axborot-tahliliy ishlarida zamonaviy tahlil usuli, uslublari va vositalari keng qo'llanilmayotir.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 21-apreldagi 331-sonli qarorida.

Mazkur jinoyatlarning ijtimoiy-xavfliligi tizimdagi barcha tezkor-tergov, bank, boshqaruv va nazorat qiluvchi tuzilmalarning iqtisodiy va moliyaviy sohalardagi huquq buzishlarini o'z vaqtida aniqlash va zararsizlantirish bo'yicha kompleks va aniq muvofiqlashtirilgan tarzda faoliyat ko'rsatishlarini talab etadi.

Moliyaviy razvedka va monitoringning samarali tizimini yaratish, tezkor-qidiruv faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanishga asoslangan zamonaviy kurashish vositalarni joriy etish muhim vazifa hisoblanadi»<sup>1</sup>.

Shuning uchun 2006-yil 21-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 331-sonli moliya-iqtisodiy, soliq sohasidagi jinoyatlarga, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida qarori qabul qilindi.

Qaror asosida:

*1-ilova.* O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti to'g'risida Nizom.

*2-ilova.* O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining tashkiliy-shtat tuzilmasi.

*3-ilova.* Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar boshqarmalari namunaviy tashkiliy-shtat tuzilmasi.

*3a-ilova.* Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining Toshkent shahar boshqarmasi tashkiliy-shtat tuzilmasi.

*4-ilova.* Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti tuman (shahar) bo'limlarining namunaviy tashkiliy-shtat tuzilmasi.

*4a-ilova.* Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining Toshkent shahar tuman bo'limlari namunaviy tashkiliy-shtat tuzilmasi tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentiga aylantirildi.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 21-apreldagi 331-sonli qaroridan.

Departament tuzilmasida Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish boshqarmasi tashkil etildi, Departament va uning hududiy bo'linmalari boshqaruv xodimlarining cheklangan soni 20 nafarga ko'paytirildi.

Departament O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi mustaqil ixtisoslashtirilgan vakolatli huquqni muhofaza qilish organi hisoblanadi, soliq, valutaga oid jinoyatlar va huquq buzilishlariga hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasida tezkor-tahliliy, qidiruv ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, shuningdek, sodir etilgan qonun buzilishlari oqibatida yetkazilgan iqtisodiy zararni undirib olish uning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Departamentning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- soliq, valutaga oid jinoyatlar va huquq buzilishlarini o'z vaqtida aniqlash, ularning oldini olish va bartaraf etish, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari bajarilishini nazorat qilish;

- davlat soliq siyosati amalga oshirilishini ta'minlash, soliqqa tortish bazasini kengaytirish, soliq to'lovchilarning qamrab olinishi va hisobining to'liqligini ta'minlash, soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash, qochishning mumkin bo'lgan kanallari va mexanizmlarini, «xufyona» iqtisodiyotning shakllanish yo'llarini, korrupsiya hollarini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

- valuta operatsiyalari bo'yicha hisob va hisobotlarning to'liqligi va obyektivligini nazorat qilish; xorijiy valuta mablag'larining qonunga xilof ravishda chetga chiqib ketishi, olib kelinishi va olib chiqilishi, noqonuniy muomalada bo'lishi va valuta-ayirboshlash operatsiyalari bilan bog'liq boshqa qonun buzilishlarining oldini olish va bartaraf etish;

- moliyaviy razvedkaning zamonaviy tizimini yaratish; jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishning mumkin bo'lgan kanallari va mexanizmlarini aniqlashga yo'naltirilgan moliyaviy, mulkiy operatsiyalar monitoringini tashkil etish va amalga oshirish; aniqlangan huquq buzilishlari to'g'risida tegishli huquqni muhofaza qilish organlari bo'linmalariga jinoiy ta'qibni tashkil etish, ma'muriy ta'sir choralari ko'rishlik uchun o'z vaqtida axborot taqdim etish;

- soliq va valuta-moliya sohasida aniqlangan jinoyatlar va huquq buzilishlari hamda qonun hujjatlariga muvofiq nazorat qilinadigan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarning yagona kompyuter bazasini yaratish va yuritish;



• O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlari va shart-nomalariga muvofiq valutani tartibga solish sohasida, shuningdek, jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish masalalari bo'yicha xorijiy davlatlarning vakolatli organlari hamda xalqaro-ixtisoslashgan va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish va axborotlar ayirboshlash;

• soliq siyosati va valuta muomalasini tartibga solish, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlarining oldini olish masalalari bo'yicha keng tushuntirish, profilaktika ishlarini amalga oshirish.



## NAZORAT SAVOLLARI

1. Prokuror nazorati faoliyatini kimlar amalga oshiradilar?
2. Prokuror nazoratining o'ziga xos xususiyatlaridan biri.
3. Prokuratura organlari o'z funksiyasi va vazifasi nuqtayi nazaridan ijro etuvchi qaysi hokimiyat tizimiga kiradi?
4. Prokuror nazorati kimning nomidan amalga oshiriladi?
5. «Prokuror» deyilganida, kimlar tushuniladi?
6. Prokuror nazoratining predmetini ayting.
7. Qonunlar ijrosi ustidan nazorat bo'yicha prokuror nazorati predmeti deyilganda nima tushuniladi?
8. Fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi ustidan nazorat bo'yicha prokuror nazorati predmeti deyilganda nima tushuniladi?
9. Jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat bo'yicha prokuror nazorati predmeti deyilganda, nima tushuniladi?
10. Prokuror nazoratining huquqiy vositalari deyilganda, nima tushuniladi?
11. Prokuror protestining qisqacha tushunchasi.
12. Taqdimnomaning qisqacha tushunchasi.
13. Qarorning qisqacha tushunchasi.
14. Arizaning qisqacha tushunchasi.
15. Ogohlantiruvning qisqacha tushunchasi.
16. O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) qachon qabul qilindi va qachon kuchga kirdi?
17. «Muhtasib» so'zining ma'nosini ayting.
18. Hisba tizimi qanday vazifani bajargan?
19. Hisba va muhtasibning hozirgi zamon prokuroriga o'xshash tomonlarini aytib bering.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan qonunlar ijrosini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni qachon qabul qilingan va mazmuni nima?

## **Davlat xizmatining alohida tarmog'i sifatida prokuror nazorati**

Prokuror nazoratining mazmuni va vazifalari

Qonunlarga rioya etish — prokuror nazoratining predmeti sifatida

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri)

O'zbekiston Respublikasining prokuratura organlarini tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari

## **Prokuror nazorati faoliyati**

O'zbekiston Respublikasi nomidan, uning hududida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlarini aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi prokuratura organlarining davlat organi sifatidagi maxsus faoliyatidir

Davlat faoliyatining mustaqil, o'ziga xos turi hisoblanadi

Ushbu faoliyatni prokuratura organlaridan boshqa hech bir davlat idorasi, tashkiloti, jamoat tashkilotlari yoinki boshqa huquqni mihofaza qiluvchi organlari, shuningdek, mansabdor yoki jismoniy shaxslari amalga oshira olmaydilar

Prokuror nazoratining mustaqilligi har qanday davlat tashkiloti, siyosiy tashkilot yoki jamoat tashkilotlaridan xoli tarzda amalga oshirilishida ham ifodalanadi

Davlat nomidan, ya'ni hujjatlarida davlat nomidan deb qayd etilmasa-da, O'zbekiston Respublikasi davlati nomidan amalga oshiriladi

**Prokuror nazoratining  
o'ziga xos xususiyatlari**

Mavjud bo'lgan barcha qonunlarning, qonunosti hujjatlarining yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ularning faoliyat doirasidan qat'i nazar, aniq hamda to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash

Prokuror nazorati — davlat faoliyatining bir yo'nalishi

Prokuror nazorati — oliy qonun chiqaruvchi va oliy ijro hokimiyati organlariga, O'zbekiston Respublikasi oliy mansabdor shaxslariga, umumiy yurisdiksiya sudlariga, xo'jalik sudlariga va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga nisbatan tatbiq etilmasligi hisoblanadi

## Prokuror

Bu prokuratura organlarida «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining tegishli sohaviy buyrug'i bilan tartibga solingan qonunosti hujjatlari talablari asosida belgilangan tartib va qoida bo'yicha O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlariga doimiy yoki vaqtincha ishga qabul qilingan hamda o'ziga birlashtirilgan mansab vakolatlari, majburiyatlarini amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, uning o'rinbosarlari, viloyat va ularga tenglashtirilgan prokurorlar, ularning o'rinbosarlari, tuman (shahar) prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar hamda ularning o'rinbosarlari, prokurorlarning katta yordamchilari va yordamchilari, prokuror-kriminalistlar, boshqarma prokurorlari va bo'lim prokurorlari, sud muhokamasida «prokuror» sifatida ishtirok etadigan prokuratura xodimi tushuniladi. Jinoyat ishlari bo'yicha davlat ayblovinini quvvatlovchi shaxs ham prokuror, deb ataladi

Shuningdek, fuqarolik va ma'muriy ishlarda hamda xo'jalik nizolariga oid ishlarning sudlarda ko'rilishida taraf sifatida ishtirok etish vakolati yuklatilgan prokuratura xodimi ham prokuror, deb ataladi

**Bundan tashqari, prokuror  
deyilganda**

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 56-moddasida «ayrim atamalarning talqini» berilgan bo'lib, unda ko'rsatilishicha, «Prokuratura organlari xodimlari» atamasi zamirida darajali unvonlarga (harbiy unvonlarga) ega bo'lgan prokuratura organlari va muassasalarining barcha xodimlarini, shuningdek, prokuratura ish o'rganuvchilarini tushunish kerak

Prokuratura xodimlari qatoriga prokuratura organlari tizimiga qarashli ilmiy va pedagogik faoliyatni amalga oshiruvchi muassasalar xodimlari ham kiradi (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Oliy o'quv kurslari)

**Prokuror nazorati  
faoliyatining predmeti**

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 4-moddasida ko'rsatilgan prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlarida belgilangan huquqiy munosabatlar

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi, shuningdek, ular tomonidan qabul qilinayotgan hujjatlarning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi hisoblanadi

Fuqarolarning huquqlari hamda erkinliklariga rioya etilishi ustidan nazorat

Jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat

## Prokuror nazoratining obyekti

Qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati faoliyati qaratilgan hokimiyat organlari, korxonalar, muassasa va tashkilotlar, xo'jalik yurituvchi subyektlar, yuridik va jismoniy shaxslar yig'indisidan iborat

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar hamda vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari ning harbiy qismlari, harbiy tuzilmalari, hokimlar va mansabdor shaxslarning yig'indisi

Prokuror, prokuror nazoratining obyektlarini huquqiy tatbiq qilishi, ya'ni qonunlarga rioya etishi yoki ijro etishi, shuningdek, ular tomonidan chiqarilgan huquqiy aktlarning qonunga muvofiqligi ustidan nazoratni amalga oshiradi

## Prokuror nazoratining subyekti

Prokuror nazorati faoliyatini amalga oshiruvchi mansabdor shaxs — prokuror (prokuror nazoratini amalga oshirayotgan prokuraturaning mansabdor shaxsi) hisoblanadi

Qonunda o'rnatilgan tartib va asosda, o'zining vakolati doirasida nazorat vakolatlari va o'ziga yuklatilgan vazifani amalga oshiruvchi prokuratura organining mansabdor shaxsidir

5, 6-moddalardagi, 7-moddaning ikkinchi qismidagi, 22, 23, 25, 26-moddalardagi; 31-moddaning ikkinchi, beshinchi, oltinchi, yettinchi xatboshilaridagi, 33-moddadagi, 43-moddaning birinchi qismidagi hamda 44-moddaning birinchi qismidagi «prokuror» atamasi zami-rida o'z vakolatlari doirasida ish olib borayotgan prokurorlardir

## Prokuror nazoratining subyektı

28-moddaning birinchi qismi ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi, beshinchi, oltinchi, yettinchi, to'qqizinchi va o'n uchinchi xatboshisidagi, ikkinchi qismidagi «prokuror» atamasi zamirida o'z vakolatlari doirasida ish olib borayotgan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, quyi turuvchi barcha prokurorlar, ularning o'rinbosarlari, bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo'limlarning boshliqlari

1-moddadagi, 7-moddaning to'rtinchi qismidagi, 8-moddaning ikkinchi qismidagi, 28-moddaning birinchi qismi o'ninchi, o'n birinchi, o'n ikkinchi, o'n to'rtinchi, o'n beshinchi va o'n oltinchi xatboshidagi, 29-moddaning ikkinchi qismidagi, 31-moddaning uchinchi, to'rtinchi va sakkizinchi xatboshisidagi, 34, 35, 36, 38, 39, 40, 41, 42-moddalardagi «prokuror» atamasi zamirida o'z vakolatlari doirasida ish olib borayotgan prokurorlar

28-moddaning birinchi qismi sakkizinchi xatboshisidagi «prokuror» atamasi zamirida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o'rinbosarlarini, viloyatlar, Toshkent shahri prokurorlarini va ularga tenglashtirilgan prokurorlarni tushunish kerak

**3-bob. PROKURATURANING TASHKILY VA FAOLIYAT  
PRINSIPLARI. PROKURATURA ORGANLARI  
FAOLIYATINING ASOSIY YO'NALISHLARI.  
FUQAROLARNING ARIZA VA SHIKOYATLARI  
HAMDA YURIDIK SHAXSLARNING  
MUROJAATLARINI KO'RIB CHIQISH**

**3.1. Prokuraturaning tashkiliy va faoliyat  
prinsiplari tushunchasi**

**Prinsip** — lotincha soʻzdan olingan boʻlib, «*principium*», yaʼni «*qoida*», «*asos*», «*asosiy, rahbariy qoidalar, yoʻl-yoʻriqlar*» maʼnosini bildiradi. Prinsiplar maʼlum bir nazariyaning, fanning, dunyo-qarashning, siyosiy tashkilotning dastlabki ibtidosini oʻzida aks ettiradi.

Prokuratura organlarini tashkil etish va faoliyatini tizimlashtirish usuri boʻlib, ularning maqomi hisoblanadi. Bu maqomning asosi — prinsiplar. Prinsiplar sifatida prokuratura mohiyati va maqsadini belgilovchi boshlangʻich asos nazarda tutiladi. Bu asosiy tamoyillar Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Prokuratura toʻgʻrisida»gi Qonunda aks ettirilgan (Konstitutsiyaning 118, 121-moddalari, «Prokuratura toʻgʻrisida»gi Qonunning 5-moddasi). Prokuratura organlarini tashkil etish va faoliyatining asosiy prinsiplari:

- birlik;
- markazlashganlik;
- qonuniylik;
- mustaqillik;
- oshkoralik.

Bulardan tashqari, prokuratura organlarining ichki tashkiliy prinsiplari mavjud boʻlib, ular quyidagilar:

- hududiylik;
- predmetlilik.

Bundan tashqari, «Prokuror nazorati» fani prokuratura organlarini tashkil etish va faoliyatining asosiy prinsiplari tushunchasi, turlari va ularning taʼrifini tekshirib oʻtadi.



Bu borada olimlar o'rtasida turli xil qarashlar mavjud bo'lib, ular prokuratura organlarining tarixiy rivojlanish bosqichlari, ular faoliyatining samaradorligini ta'minlash maqsadida hamda ular faoliyatining u yoki bu sohadagi qonunlarini aniq va bir xilda ijro etilishi yuzasidan kelib chiqqan. Bu yuzasidan Chuvelev, Suxareva, V.I. Baskovlar fikr berib o'tgan. Bizning fikrimizcha, ularning fikrlari majmuasi prokuratura organini tashkil etish va faoliyatining prinsiplari tushunchasini kengroq yoritib beradi.

Shunday qilib, *prokuratura organlarini tashkil etish va faoliyati prinsiplari* — bu Konstitutsiya va qonunlarda belgilangan asosiy talablar bo'lib, ular prokuratura va uning xodimlari siyosiy va ijtimoiy vazifasini, vakolatlarini hamda davlatda qonunlarning aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish usul-vositalarini, ularning hajmi-xarakterini hamda prokuratura organlarining boshqa davlat organlari, xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlardan farq qiluvchi belgi-xususiyatlarini aniqlaydi. Shu prinsiplarga amal qilish prokuratura organlariga o'zining vazifasini aniq bajarishga imkon beradi.

Prinsiplarning prokurorlik funksiyalari va yo'nalishlarini amalga oshirishning tartibi va holati bilan almashtirmaslik kerak, chunki tamoyillar o'zaro bog'liq va ajralmas hisoblanadi. Bundan tashqari, prokuror muayyan huquq sohasida nazoratni amalga oshirar ekan, shu sohadagi prinsiplarga amal qilishi lozim. Bunga misol, sudlarda davlat ayblovini qo'llab-quvvatlaganda adolatlilik, sudyalarning mustaqilligi, tenglik, sudlanuvchining himoyaga bo'lgan huquqi, aybsizlik prezumpsiyasi, oshkoralik, erkin fikr, protsessning bevositaligi kabi prinsiplarga amal qilinishi lozim.

### **3.2. Birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralik prinsiplari. Hududiylik va predmetlilik**

Prokuratura organlarini tashkil etish va faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- birlik;
- markazlashganlik;
- qonuniylik;
- mustaqillik;
- oshkoralik (O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 5-moddasi).

Bundan tashqari, A.A. Chuvelev va V.I. Baskovlar quyidagi asosiy prinsiplarni qo'shadilar:

- siyosiy mustaqillik;
- qonunlarning buzilishini aniqlash va o‘z vaqtida bartaraf etish;
- prokuratura organlarining jamoat birlashmalari va mehnat jamoalari bilan o‘zaro faoliyat olib borishi.

Prokuror nazoratidagi **birlik prinsipi** — prokuratura tizimiga kiruvchi barcha organlar faoliyatini yagonga shakl, maqsad va umumiy vazifalardan kelib chiqqan holda aks ettirilishi hamda aniqlangan qonun buzilish holatlariga nisbatan bir xilda prokuror ta’sir choralarini, prokuror nazorati hujjatlarini qo‘llashda ifodalinishi bilan ajralib turadi.

Har bir prokuror o‘z vakolatlari doirasida shaxsan o‘zi prokuror nazorati hujjatlari: protest, taqdimnoma, ariza, ogohlantiruv va qarorni qabul qiladi. Bu hujjatlarni qabul qilishda mustaqillik tamoyiliga ham amal qilinadi. Lekin, quyi turuvchi prokurorning faoliyati yuzasidan uning mustaqilligiga ta’qib qilinmagani, uni ishchanlik faoliyati bo‘yicha nufuziga putur yetkazilmagani holda zarurat bo‘lganida uning vazifasini yuqori turuvchi prokuror tomonidan boshqa prokuror ham bajara olishi mumkinligi, shuningdek, quyi turuvchi prokurorning qabul qilgan qarorlarini yuqori turuvchi prokuror tomonidan qonun bilan belgilangan tartibda o‘zgartirishi, bekor qilishi mumkinligi ham birlik prinsipining belgisi hisoblanadi.

Shunday qilib, **birlik prinsipi** deganda, O‘zbekiston Respublikasida amal qilayotgan hududiy va ixtisoslashgan prokurorlar yagona tizimi tushuniladi. Shuning uchun shu yagona tizimga kirmaydigan prokuraturalarni tashkil etish va faoliyati taqiqlanadi. «O‘zbekiston Respublikasi hududida jinoyatchilikka qarshi kurash bo‘yicha tezkor-qidiruv, tergov va boshqa maxsus vazifalarni mustaqil ravishda bajaruvchi xususiy, kooperativ tashkilotlar, jamoat birlashmalari va ularning bo‘linmalarini tuzish hamda ularning faoliyat ko‘rsatishi taqiqlanadi» (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 121-mod-dasi).

Har bir prokuror belgilangan hudud va doirada faoliyat ko‘rsatar ekan, yagona tizimning ajralmas qismi sifatida O‘zbekiston Prokuraturasi nomidan harakat qiladi. Har bir prokuror o‘zining kompetensiyasi doirasida ularni amalga oshirishning yagona vakolati va huquqiy vositalari bilan taqdirlangan. Shunday qilib, barcha prokurorlar, tuman prokuroridan to Bosh prokurorgacha o‘zining vakolati tarqaladigan hamda qonun buzilishiga olib kelgan davlat organlarining aktlarini aniqlashi va ta’sir chorasini ko‘rishi lozim.

Bunda ular yagona huquqiy vositalardan, ya'ni protest, taqdim-noma, ariza va boshqalardan foydalanadilar. Bu aktlar barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, birlik prinsipi bu yuqori turuvchi prokuror tomonidan quyi turuvchi prokurorga o'zining majburiyatlari bajarilishini topshirish, quyi turuvchi prokurorlarning majburiyatini bajarishi, qonunda belgilangan tartibda, uning qarorlarini o'zgartirish yoki bekor qilinishini anglatadi.

**Markazlashganlik prinsipi** birinchi o'rinda prokuratura organlari tizimi faoliyatini tashkil etish, prokuratura organlarining nazorat funksiyasini amalga oshirishda o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Butun O'zbekiston Respublikasi hududida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni ta'minlash zarurati prokurorlarni markazdan boshqarish ehtiyojini keltirib chiqaradi. Yuqori turuvchi prokurorlarning oldida quyi turuvchi prokurorlarning hisobdorligi va ularga bo'ysunishi, nafaqat, prokuratura tizimini ishni tashkil etish, balki yuqori turuvchi prokurorlarning quyi turuvchi prokurorlar faoliyati uchun ham to'liq javobgarligi hamda mas'uliyatini belgilab beradi.

Markazlashganlik prinsipi asosida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan muvofiqlashtiriluvchi yagona prokurorlik amaliyoti, joylardagi huquq ijodkorligi, tashabbuskorligidagi faol faoliyat, ijro intizomi nazorati amalga oshiriladi.

**Markazlashganlik** — bu quyi turuvchi prokurorlarning yuqori turuvchi prokurorlarga bo'ysunishi hamda Bosh prokurorga bo'ysunishidir. Shaharlar, tumanlar va ixtisoslashtirilgan prokuraturaning prokurorlari Bosh prokuror tomonidan tayinlanadi. Lavozimga belgilash tartibiga qaramasdan, barcha prokurorlar Bosh prokuror tomonidan lavozimidan chetlashtiriladi, ular unga bo'ysunadilar va hisobot beradilar. Yuqori turuvchi prokurorlar quyi turuvchi prokurorlar faoliyatini boshqaradilar va nazorat qiladilar. Bosh prokuror tomonidan prokuratura organlari sistemasini tashkil etish bo'yicha qabul qilingan hujjatlar barcha prokuraturalar va ularning xodimlari tomonidan ijro etilishi majburiydir.

Quyi turuvchi har qanday prokuror prokurorlik nazoratini amalga oshirish uchun boshqa prokuror bilan almashtirilishi mumkin. Qonun bilan qayd etilgan hollar bundan mustasno. (O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tizimiga kiruvchi umumiy yurisdiksiya sudlarida jinoyat ishlari bo'yicha viloyat sudi hay'ati majlisida faqat viloyat proku-

rorining o'zi ishtirok etishi mumkin, boshqa viloyatning prokurori uning o'rniga qatnashishi mumkin emas.)

**Mustaqillik prinsipi** — bu prokurorlar tomonidan o'zlarining barcha funksional qaror va harakatlarini qonunga asosan olib borishidir (nazoratni amalga oshirish, tergov olib borish va boshq.). Bunda ular tekshiruv va tergov materiallari hamda ularni olib borishning to'liqligi, obyektivligi va har tamonlamaligini ta'minlovchi sifatida namoyon bo'ladi.

Prokuror yoki tergovchining u yoki bu masala yuzasidan qaror qabul qilishga yoki faoliyatiga davlat hokimiyat va boshqaruv organlarining, o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotning aralashuvi qonunda belgilangan javobgarlikni vujudga keltiradi (intizomiy, ma'muriy, jinoiy hamda sud tartibi asosida qo'llaniladigan boshqa choralar).

Amaliyotda prokurorlar va tergovchilar faoliyatiga aralashish quyidagicha bo'lishi mumkin:

- mansabdor shaxslarning aralashuvi, jumladan, normativ huquqiy aktlar qabul qilish orqali;

- ommaviy axborot vositalarining aralashuvi (haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni nashr qilishni buyurtma qilish shaklida);

- qo'rqitish yoki jismoniy ta'sir ko'rsatish (oila a'zolarini o'g'irlash, anonim va to'g'ridan to'g'ri qo'rqitishlar, bosqinchilik va boshq.).

Shuning uchun ham qonun tomonidan prokuror va tergovchilarni himoya qilish choralari belgilangan. O'zbekistonda bevosita «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunning o'zida aytilgan.

Rossiyada bu borada «Sudyalar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va nazorat organlari mansabdor shaxslarini himoyalash to'g'risida»gi qonun qabul qilingan. Prokuratura organlarida prokuror va tergovchilar, ularning oila a'zolari, shuningdek, mustaqilligini, faoliyatining faqat qonun asosida olib borilishini, fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamiyat va davlat manfaatini himoya qilishga qaratilgan faoliyatini yuritishda xavfsizlik xizmati tashkil etilgan. Qonun, nafaqat, prokurorlik nazoratini amalga oshirishga yo'l qo'yilmaslikni, balki prokuratura organlari va tuzilmalarining har qanday boshqa funksional faoliyati, jumladan, jinoyatlarni tergov qilish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish, huquq ijodkorlik faoliyatiga ishtirok etishga aralashishni taqiqlaydi.

Faoliyatiga to'sqinlik qilish — prokurorni tegishli organning hududi va binosiga qo'yimaslik, hujjat va materiallar bilan tanishishga

yoʻl qoʻymaslik, talabga muvofiq tegishli hujjat va materiallarini bermaslik, qalbakilashtirilgan maʼlumotlarni topshirish, mutaxassis va ekspertlarni ajratmaslik, koʻrsatma va tushuntirish bermaslik maqsadida turli xil bahonalar oʻylab topish va boshqalar.

Xizmat faoliyati yuzasidan amalga oshiriladigan qarshilikka nisbatan prokuror va tergovchi turli xil huquqiy vositalar va boshqa qonunda nazarda tutilgan choralarni koʻrishadi. Bular: majburiy keltirish, olib qoʻyish, ichki ishlari organlari yordamidan foydalanish, yolgʻon guvohlik berish yoki bosh tortmaslik uchun jinoiy javobgarlikka tortish, prokuror talablarini bajarmaganlik uchun maʼmuriy javobgarlikka tortish va boshqalar.

Prokuror va tergovchi qonunda belgilangan tartibda va hollarda oʻzlarining yurituvlaridagi ishlar va materiallar yuzasidan tushuntirishlar va hujjatlar bilan tanishish mohiyatini taʼminlashlari kerak. Tergovchi uning faoliyatini nazorat qiluvchi yoki yuqori turuvchi prokuror shunday majburiyatga ega.

Prokuror tegishli hujjatlar va tushuntirishlarni boʻysunish va hisobdorlik asosida yuqori turuvchi prokurorga berishi lozim. Qonunda belgilangan hollarda tushuntirishlar sudlarga beriladi.

**Oshkoralik prinsipi** — bu prokuratura organlari faoliyatining oshkoraligi, uning fuqarolar, ommaviy axborot vositalari uchun oʻz faoliyatini ochiq amalga oshirishidir.

Bu prinsipning amalga oshirilishi jarayonida, jamiyat prokuratura organlari faoliyatini nazorat qiladi. Aholi qonunchilikning ahvoli hamda fuqarolik huquq va erkinliklarini taʼminlash borasida prokuratura faoliyatidan xabardor boʻladi. Buning natijasi — ularning prokuratura organlariga murojaat etish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, fuqarolar va ommaviy axborot vositalari ularga maʼlum huquqbuzarlik toʻgʻrisida prokuraturaga xabar berishadi. Bu borada oshkoralik prinsipining amal qilishi qonunchilikni mustahkamlashga yordam beradi.

Oshkoralik tamoyilining prokuratura organlari faoliyatidagi normativ chegaralari Konstitutsiyaviy talablar va qonunchilik normalari bilan chegaralanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, «Har kim shaxsiy hayotning va shaxsiy hamda oilaviy sirlarning daxlsizligiga ega». Bundan tashqari, davlat sirlari toʻgʻrisida aytilgan boʻlib, uning roʻyxati «Davlat sirlari toʻgʻrisida»gi Qonunda belgilangan.

Shuningdek, turli xildagi xizmat sirlari — tergov, sud majlisining alohida xonasida qabul qilinadigan masalalar yuzasidan fikrlar,

notarial, shifokor va boshqalar mavjud. Maxsus qonun bilan qoʻriqlanadigan sirlar: tijorat sirlari va uning turli shakllari, bank, sugʻurta, harbiy sirlar. Bundan tashqari, bu qonunchilikka, uning talablariga mos kelmagan hollarda prokuratura organlari faoliyatidagi oshkoralik tamoyilining chegarasini belgilaydi. Unga maxsus talablar qoʻyadi. Xizmat yoki tijorat siri boʻlmaydigan maʼlumotlarni faqat qonun belgilaydi.

Qonun bilan himoyalangan sirlarni oshkor etish tegishli tartibda moddiy, intizomiy yoki jinoiy javobgarlikni yuzaga keltiradi (Oʻzbekiston Respublikasi JKning 143-moddasi «xat-yozishmalar, telefonda soʻzlashuv, telegraf xabarlar yoki boshqa xabarlarining sir saqlanish tartibini buzish, JKning 162-moddasi «Davlat sirlarini oshkor qilish», 163-modda «Davlat siri yoki harbiy sir hisoblangan hujjatlarni yoʻqotish» va boshq.).

Prokuratura organlari qonunchilik va jinoyatchilikning ahvoli haqida davlat hokimiyat va boshqaruv organlarini, mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarini, aholini xabardor qilib turishi lozim. Bu maʼlumotlar huquqbuzarlikning alohida turlari boʻyicha yoki uning guruhi yuzasidan beriladi. Bu kamchilikning namoyon boʻlish shakllaridan biri — Bosh prokuror tomonidan Oliy Majlis va Prezidentga har yili qonunchilik va jinoyatchilikning ahvoli, qilingan ishlar yuzasidan hisobot berish.

Quyida turuvchi organlar tegishli xalq deputatlari hakami va mahalliy oʻzini oʻzi boshqarish organlariga maʼlumot beradilar. Barcha prokurorlar ommaviy axborot vositalariga maʼlumotlar beradi, matbuot sahifalarida qatnashadilar, aholi orasida leksiya va hisobotlar bilan chiqadilar.

*Mustaqillik prinsipi siyosiy mustaqillikni ham nazarda tutadi* — prokuratura xodimlari siyosiy maqsadlarni koʻzlovchi jamoat birlashmalari aʼzosi boʻla olishmaydi va faoliyat yurita olishmaydi. Bundan tashqari, prokuratura organlarida siyosiy maqsadlarni koʻzlovchi-jamoat birlashmalarini tuzish ham taqiqlanadi. Bu taqiq nafaqat prokuror va tergovchiga, balki prokuraturaning ilmiy va pedagogik ishchilari va maxsus unvonga ega boʻlgan xodimlariga ham tegishlidir.

Ushbu prinsipning yana bir xususiyati shundan iboratki, bunda prokuratura xodimlarini boshqa haq toʻlanadigan faoliyat bilan shugʻullanishi taqiqlanishi uning ish haqi bilan bogʻliq boshqa iqtisodiy va moddiy muhtojlikdan mustaqil qiladi.

Bulardan mustasno sifatida: pedagogik, ilmiy va ijodkorlik faoliyati, qaysiki shartnoma, mehnat kontrakti yoki bir martalik asosida amalga oshirilishini misol qilsak bo'ladi. Bundan tashqari, prokuratura xodimlarining o'z xizmatlarini amalga oshirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlari ham rag'batlantirilishi mumkin.

Ijodkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga (jurnalistika o'quv faoliyati, tasviriy san'atning turli shakllari va boshq.) ham yo'l berilgan. Bular, o'z navbatida, xodimlarning o'z ishlarini amalga oshirishiga to'sqinlik qilmasligi lozim.

**Qonuniylik prinsipi** — bu huquq subyektlari faoliyati uchun umumhuquqiy boshlang'ich asos hisoblanadi. Bu prinsipga amal qilish huquqiy davlat qurilishining asosiy sharti hisoblanadi. Prokuratura organlarining xodimlari o'z faoliyatlarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda boshqa qonunlarning talablariga aniq rioya etishlari va ularni bajarishlari shart. Prokuratura organida bu asosiy tamoyil hisoblanadi, chunki uning faoliyati qonuniylikni ta'minlashga qaratilgan. Bu uning asosiy maqsadi, ya'ni qonuniylikning ustuvorligi, bir xil va aniq ijro qilinishini anglatadi.

**Qonuniylik** o'zining ichiga quyidagi qator imkoniyatlarni oladi:

- mamlakatda rivojlangan qonunchilik tizimining boshqariladigan huquqiy munosabatlarga mos bo'lishini;
- tegishli qonunlarga rioya etishlikni ta'minlovchi davlat-huquqiy infratuzilmalar;
- fuqarolar va mansabdor shaxslarning amaldagi qonunlardan xabardor bo'lishi;
- huquqbuzarlik, ularning vujudga kelish sabab va sharoitlarini o'z vaqtida bartaraf etish.

Prokuratura faoliyatida qonuniylik tamoyili deganda barcha davlat organlari, vazirliklar, davlat qo'mitalari, o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari va mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarga rioya etish tushuniladi. Bundan tashqari, qonuniylik qonunlarning ustuvorligi va huquq iyerarxiyasiga amal qilinishi nazoratini ham o'z ichiga oladi.

Qonuniylik prinsipi — bu uning talablariga prokuratura organlarining o'zida amal qilishlikni anglatadi. Bu vazifada normalarning yig'indisi, qaysiki, prokuror va tergovchi lavozimiga tayinlanishi, ularning axloqiy va kasbiy faoliyatlari, ta'lim darajasi, yosh senzi, ularning attestatsiyasi to'g'risidagi normalar.

*Qonun buzilishini aniqlash va o'z vaqtida bartaraf etish tamoyili* — qonunlarning bir xilda va aniq ijro etilishi ustidan nazorat olib borilar

ekan, qonunbuzarliklarning kim tomonidan sodir qilinishidan qat'i nazar, shu huquqbuzarlikni aniqlash va uni o'z vaqtida bartaraf etishga qaratilgan fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlaydigan, aybdorlarni tegishli javobgarlikka tortishlikni anglatadi.

Bu prinsip o'z ichiga quyidagi holatlarni oladi:

1. Qonun oldida hammaning tengligi.
2. Prokurorlar tomonidan huquqbuzarlikni aniqlash bilan birga, uni o'z vaqtida bartaraf etishni ham o'z ichiga oladi.
3. Huquqbuzarlikning oldini olishga qaratilgan, fuqarolarning huquq va erkinliklarini tiklash choralari ko'radilar.
4. Huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortilish choralari ko'radilar. Har bir qonun buzilishi holati, kim tomonidan sodir qilinishidan qat'i nazar, qat'iy prinsipal baholanishi, aybdor shaxslar javobgarlikka tortilishlari lozim.

*Prokuratura organlarining jamoat birlashmalari va mehnat jamoasi bilan o'zaro hamkorligi* — boshqa organlar kabi huquqni muhofaza qiluvchi organlar jamiyatdan xoli ravishda amal qila olishmaydi. Amaliyotdan bizga ma'lumki, agar prokuror o'zining faoliyatini davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, jamoat birlashmalari va mehnat jamoalari, aholi bilan koordinatsiya qilinmasa, qonuniylik va huquq-tartibotni amalga oshirish yuzasidan faoliyat olib bora olmaydi.

Shundan xulosa qilish mumkinki, qonuniylik rejimini ta'minlashda, huquqbuzarliklarni va ularning og'ir yoki yengilligidan qat'i nazar, prokuror o'z funksiyalarini amalga oshirishda jamoat birlashmalari va mehnat jamoalari yordamidan keng foydalanish lozim.

Bundan tashqari, prokuratura organlarining mahalliy hokimiyat organlari, kuzatuv komissiyalari, voyaga yetmaganlarning ishlari bo'yicha komissiyalar, Moliya vazirligining nazorat-taftish organlari mehnat muhofazasi va xavfsizlik kengashi inspeksiyasi. Bu o'zaro fikrlarning davlat va mehnat tartibining buzilishiga qaratilgan, xo'jasizlik, o'zlashtirishga, xalq mulkining talon-tarojlikning oldini olishga, aybdorlarni fosh etishga, mehnat qonunchiligining samarali amal qilishi va fuqarolarni ish bilan ta'minlash kafolatini yaratishga olib keladi.

Bundan tashqari, hozirgi qonunchilik prokuratura organlari va sudlarga keng jamoatchilikni jalb qilish imkonini berdi. Misol qilib, jinoiy ishlarda jamoat ayblovchisi va himoyachisining ishtiroki, o'z navbatida, sudda adolat, uning tarbiyaviy tomonini olishni, kelajakda jinoyatlarning oldini olishga ko'maklashadi.



Ichki tashkiliy prinsiplar sifatida prokuratura organlarida hududiylik va predmetlilik prinsiplari qo'llaniladi.

Prokuratura organlarida majburiyatlarning taqsimlanishi hududiylik va predmetlilik prinsipiga asosan amalga oshiriladi.

*Hududiylik prinsipi* — bu shunday tashkiliy tartibni bildiradiki, bunda barcha ishlar hajmi, hududiy birliklar o'rtasida tezkor xodimlarga bo'lib beriladi. Ishning hajmi bo'yicha bir yoki bir nechta shahar va tumanlar prokuraturasiga taqsimlanadi.

*Hududiylik prinsipiga oid* hududga birlashtirilgan bo'lim prokurori, viloyat prokurorining kompetensiyasi doirasida hamda belgilangan nazorat doirasiga muvofiq qoidalarning, Bosh prokuror buyruq va yo'riqnomalarining ijrosini nazorat qiladi. Bu maqsadda u hudud qonunchiligini, hudud statistikasi, ish rejaları, hisobotlar, umumlashmalar va boshqalar bilan tanishib chiqadi.

Tahlil asosida u tegishli shahar va tuman prokuraturalariga kamchiliklar va ishlarni yaxshilash yuzasidan topshiriqlar yuboradi. Prokurorlar faoliyatida ishtirok etadi, amaliy yordam ko'rsatadi, uning topshiriqlarini bajarishni nazorat qiladi, prokurorlar malakasini oshirish ishlarida qatnashadi, ularga shaxsan topshiriqlar beradi. Prokuraturaning boshqa hududiy prokuraturalari bilan doimiy aloqa qilib boradi.

O'zining hududida barcha ishlardan xabardor bo'lishi uchun har bir tuman, shahar prokurori o'zining ish yuritishini qoidada belgilangan materiallar, viloyat prokuraturalarida esa quyi turuvchi prokuraturalar tomonidan yuborilgan hujjatlar va ularning nusxalari bilan birga saqlaydilar. Bu ularning vakolat doirasi bo'yicha alohida naryadlarda saqlanadi.

Hududiy prokurorlar bulardan tashqari, ishchi naryadlar olib borishadi, unda ijro etilishi lozim bo'lgan hujjatlar, uning hududida har bir prokuror yoki tergovchi tomonidan sodir etilgan xatolar, ijobiy ish natijalari qayd etiladi. Bu, o'z navbatida, quyi turuvchi prokuraturalarga kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan topshiriqlar berishni yengillashtiradi.

Hududiylik prinsipi asosida ishlarni tashkillashtirish borasida prokuror nazorati fuqarolarning murojaatlari, ariza va shikoyatlarini ko'rib chiqishga, tegishli tumanlarda ishlar yuzasidan apellatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida kiritilishi lozim bo'lgan protest masalasini hal qilish va boshqa masalalar yuzasidan olib boriladi. Shuningdek, shu hududda sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish, jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish, hududdagi

qonuniylikni ta'minlash hamda jinoyatchilikka qarshi kurashda rahbarlikni amalga oshiradi.

**Predmetlilik prinsipi** — bu prokurorlik nazorati predmeti tushunchasidan kelib chiqib, bunda prokurorlar o'rtasidagi majburiyatlarni bo'lishda, huquqiy tartibga solish doirasi, ya'ni prokuror tomonidan ma'lum bir toifadagi qoidalar va normativ aktlarni nazorat qilishiga qarab ixtisoslar bo'yicha taqsimlanishi tushuniladi. Bu prinsipning maqsadi barcha tuzilmalarni prokuratura oldida turgan muhim vazifalarni amalga oshirishga qaratishdir.

Belgilangan majburiyatlar taqsimotiga muvofiq, bo'lim prokurori uning predmetiga tegishli statistik va boshqa ma'lumotlarni umumlashtiradi; tegishli materiallarni tahlil qiladi (dokladlar, taqdimnoma, protestlar, umumlashmalar, uslubiy holatlar, hay'at qarorlari va boshq.); normativ aktlarning kamchiligi bo'yicha topshiriqlar tayyorlashda ishtirok etadi; hay'atda va Muvofiqlashtiruvchi kengashga takliflar kiritadi. Bo'lim prokurorlari — prokurorlik nazoratini tashkil etish va faoliyatining samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar kiritadi.

Bundan tashqari, **hududiy-predmetlilik** prinsipi mavjud. Bunda hududiy prokurorlarga ularga qonun bilan belgilangan vakolatlarini amalga oshirilishi lozim tarmoqlar ham qo'shiladi. Bu hozirda muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni asoslashga qaratilgan qonunlarning ijrosini ta'minlashga qaratilgan ixtisoslashgan prokuraturalar vujudga kelishiga olib keladi.

Qoida bo'yicha, amalga oshirish predmeti belgilaydigan qator masalalar vujudga keldi: bu qonunchilikning ahvoli to'g'risida kompleks tahlil o'tkazish, jinoyatlarni tergov qilishni umumlashtirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ishni rejalashtirish, quyi turuvchi organlarga topshiriqlar yuborish, ularning ijrosi ustidan nazorat. Muayyan davr mobaynida ishni umumlashtirish tegishli hududda ixtisos bo'yicha ishning kelgusida samarali olib borilishini ta'minlaydi.

Bunday holat bo'lim boshlig'ining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi. Buyruqda belgilangan hudud va predmetlardan tashqari, belgilangan doiradagi obyektlar (viloyat, tuman, shahar), ya'ni konkret organlar ko'rsatilishi mumkin.

Prokuratura faoliyatining mazmunini, tarkibi va hajmini ifodalovchi va ochib beruvchi tushuncha, uning funksiyalari hisoblanadi. Qonun prokuratura tushunchasini berar ekan, avvalambor, uning asosiy vazifasi qonunlarini ijro etish ustidan nazorat hisoblanadi.

Boshqa normada prokuraturaning qonunda belgilanmagan funksiyalarni bajarishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Shunday qilib, prokuratura organlarining funksiyalari deganda, ular o‘z vazifalarini amalga oshirish jarayonida qo‘llaydigan usul va vositalar mazmuni tushuniladi. Prokuratura faoliyatining maksimal darajada belgilangan aniq sharoiti bo‘lib, funksiyalarning ichki o‘zaro bog‘liqligi va belgilanishi hisoblanadi. Prokuratura organlarini tashkil etishga sabab bo‘lgan muhim funksiya — bu qonunlarning bajarilishi ustidan nazorat hisoblanadi.

Prokuratura o‘z faoliyatini amalga oshirishda nazorat funksiyasidan va funksiyaosti vazifasidan foydalanadi. Funksiyaosti vazifalariga quyidagilar kiradi:

- vazirliklar, qo‘mitalar, idoralar, davlat boshqaruv va hokimiyat organlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, harbiy boshqaruv organlari, nazorat organlari, ularning mansabdor shaxslarining qonunlarni ijro etishi va qonun asosida qarorlar qabul qilinishini nazorat qiladi;

- vazirliklar, qo‘mitalar, idoralar, davlat hokimiyat va boshqaruv organlari, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, harbiy boshqaruv organlari, nazorat organlari va ularning mansabdor shaxslari, tijorat va notijorat tashkilotlarining boshqaruv va boshlig‘i tomonidan fuqarolarning huquq va majburiyatini ta‘minlashlari ustidan nazorat;

- tezkor-qidiruv, surishtiruv va tergov organlari tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat;

- jazolarni va boshqa huquqiy ta‘sir choralarini ijro etuvchi organlar va muassasalar, qamoqda saqlash va ushlab turish joylarining ma‘muriyati tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

- barcha sudlarning ish yurituv bosqichlari va instansiyalarida qatnashish huquqi.

Bunda u sudlar ustidan nazoratni amalga oshirmaydi, balki sud tomonidan chiqarilgan qarorlarning qonunga muvofiqligini tekshirib, zarur hollarda protest kiritadi. Sudlarning qonuniy va asoslantirilgan qaror qabul qilishiga ko‘maklashadi. Bu funksiyalar o‘zaro bog‘liq va o‘zaro bir-birini to‘ldirib turadi. Ularning majmuyi — prokurorlik nazoratini tashkil etadi.

Prokuratura faoliyatining asosiy yo‘nalishlari deb nomlangan ushbu funksiyalar O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonuni 4-moddasida belgilab qo‘yilgan.

### 3.3. Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari

Prokuratura idoralari o'z faoliyatlarini quyidagi yo'nalishlar bo'yicha olib borishadi:

- vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

- fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish;

- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat qilish;

- tezkor-qidiruv faoliyatni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

- jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish;

- sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda xo'jalik nizolarini ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish;

- soliq intizomini mustahkamlashga, soliq sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek, davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

- ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoyiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarni ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;

- qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish.

Bulardan tashqari, prokuratura o'z funksiyalarini amalga oshirish jarayonida sodir etilgan jinoyatlarni jinoyiy ta'qib qilish funksiyasi ham mavjud.

Buning asosiy mazmuni prokurorning quyidagi vakolatlarida ifodalanadi:

- har qanday jinoyat yuzasidan ish qo'zg'atish;

- tegishli tergovchiga uni ish yurituviga qabul qilishni topshirish;

- tergovga tegishlilikdan qat'i nazar, uni o'z ish yurituviga olish;

• tergovga tegishlilikdan qat'ii nazar, ishni tergov qilishni prokuratura tergovchisiga topshirish;

• bundan tashqari, prokuratura tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyatini muvofiqlashtirish mustaqil funktsiya hisoblanadi. Bunda u huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'zaro hamjihatlikda hamda ularning vazifasi, maqsadlari, vakolatlari va ularni amalga oshirish usullariga muvofiq faoliyatini ta'minlash kiradi;

• yana bir mustaqil funktsiyasi — bu qonun ijodkorlik funktsiyasidir. Bunda prokuror o'z vakolatlarini amalga oshirish jarayonida qonunlardagi kamchiliklar yoki ularga o'zgartirish kiritish yoki yangisini qabul qilish masalasi yuzasidan qonunchilik tashabbusiga ega bo'lgan subyektlar yoki shunday huquqlarni amalga oshiradigan quyi hokimiyat va boshqaruv organiga shunday taklif va loyihalar taqdim etadi.

Funktsiyadan tashqari, prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari tushunchasi mavjud. Bular o'zaro bog'liq bo'lsa-da, bir-biridan aniq farqlanadi. Bunda prokuratura jamiytdagi barcha ijtimoiy munosabatlarni hamda davlat-huquqiy tuzilmalarning vakolatlaridan foydalangan holda nazoratni amalga oshira olmaydi. Shuning uchun qonun davr talabidan kelib chiqib, qonuniylik va huquqbuzarlikni mamlakatda maksimal darajada ta'minlash yo'nalishini belgilaydi.

*Qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat* — o'zining mohiyati va mazmuni jihatidan o'ta murakkab faoliyat hisoblanadi. Qonun bo'yicha nazorat faoliyatining turli doiralarda tarqalganligi, har bir doirada u o'ziga xos xususiyatlarni kasb etadi. Bundan tashqari, turli xil huquqiy vositalar qo'llaniladi. Bir xil vaqtlarda prokurorning ta'sir etuvchi chorasini informatsion xarakterga ega.

*Misol.* Davlat boshqaruv organining noqonuniy aktiga protest kiritganda, shu organ yoki yuqori turuvchi organga mohiyat jihatdan to'g'ri qaror qabul qilishni tavsiya etadi.

Lekin protest yuzasidan yoki taqdimnoma yuzasidan qaror qabul qilish, faqat boshqaruv organi yoki sud tomonidan amalga oshiriladi. Bir xil vaziyatda prokurorlik vakolatlari hokimiyat-ijro xarakteriga ega.

*Misol.* Surishtiruv va dastlabki tergov davrida, sudning jazoni yoki sud-tibbiy yo'nalishdagi majburlov chorasini qo'llash borasidagi qarorlari ijrosi yuzasidan. Prokuror nazorati davlat hokimiyat va boshqaruv organlari, xo'jalik va boshqaruv organlari,

xo'jalik yurituvchi subyektlar, tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari tomonidan fuqarolarning, davlat va jamiyat manfaatlarini buzuvchi qaroriga ta'sir etish, qonunda belgilangan tartib va usulda huquqbuzarlikning oldini olish, uni olib kelgan sharoit va sabablarni bartaraf etish, huquqlarni tiklash, aybdorlarni javobgarlikka tortish har bir yo'nalishda uning o'ziga xos predmeti bo'lib, u qonunchilikda ko'rsatilgan.

Sud ish yurituvda uning predmeti va vakolatlari O'zbekiston Respublikasining JPK bilan belgilanadi. Prokurorlar Konstitutsiya, qonunlarning hamda qonunosti hujjatlarining ijrosi ustidan nazorat qiladi.

Nazoratning umumiy predmetiga quyidagi umummajburiy normativ aktlar kirmaydi (ularning qonuniyligi ustidan prokuror nazorat qilmaydi, aksincha, ularning joylardagi ijrosi prokuror nazoratining predmeti bo'lishi mumkin):

- Prezident Farmonlari;
- Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari.

Bularning ijrosini, birinchi o'rinda, Prezident Devonining nazorat organlari amalga oshiradi. Qolaversa, ularning joylardagi ijrosi prokuror nazoratining predmeti bo'lishi mumkin.

Lekin, shunday qonunlar borki, ularda bevosita Prezident Farmonlari yoki Vazirlar Mahkamasi qaroriga havola qilinadi, ya'ni havola va blanket normalar, bular bevosita prokuror nazoratiga kiradi. Prokuror O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasining qonunlarni qanday ijro etayotganligi ustidan nazorat qilish emas, balki ular tomonidan qabul qilingan Qonun, Farmon, Farmoyish va Qarorlar ijrosini ta'minlash vazifasini amalga oshiradi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasida ratifikatsiya qilingan, O'zbekiston qonunchiligi normalaridan ustun bo'lgan xalqaro normalarning ham ijrosini ta'minlaydi. Misol qilib, 1993-yildan «Talablarni bajarish yuzasidan huquqiy yordam to'g'risida»gi konvensiya (Minsk)da talab qiluvchi tomonlar o'rtasida tekshiruv mavjud bo'lsa, uning davlatchiligining moddiy va protsessual normalari qo'llaniladi. Bularning ijrosi bevosita prokuraturaga tegishli bo'ladi.

*Sodir etilgan jinoyatlar uchun jinoiy ta'qib qilish* — boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar tergovni tegishli shakl va tartibda amalga oshiradilar.

Har qaysi davlat-huquqiy tizim dastlabki tergov olib borish borasida o'zining maxsus apparatiga (O'zbekiston Respublikasida

Prokuratura, MXX, IIV) ega bo'lib, bu boradagi o'z faoliyatini jinoyat protsessual qonunchilik asosida olib boradi. Tergov olib borish idoralari turli davlatlarda turlicha nomlanishi mumkin. (Masalan, AQSHda Prokuratura organi Attorney xizmati deb nomlanadi, militsiya — politsiya deb ataladi, Federal Tergov Byurosi (FBR) tergovlarni olib boruvchi asosiy idora hisoblanadi.)

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual qonunchiligida tergovga tegishlilik tushunchasi mavjud bo'lib, prokuratura ham shunday tegishlilik asosida tergovni amalga oshiradi. Uning tarkibiga nazorat faoliyati bilan birga, tarkibi va xarakteriga bog'liq jinoyatlar belgilangan. Bu boradagi prokurorning boshqa davlat organlaridan farq qiluvchi tomoni shundan iboratki, u har qanday jinoyatni, tergovga tegishliligidan qat'i nazar, bo'ysunuvchi tergovchi yoki prokurorga berishi mumkin.

Prokuror faoliyatining asosiy mezoni qonuniylik holati hisoblanadi; tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining kvalifikatsiyasi va boshqa holatlar. Bu funksiyalarning asosiy xususiyatlari:

- subyektlarning chegaralanganligi;
- faoliyatining faqat qonunda belgilangan tartibda amalga oshirilishi;
- JPKga asosan tegishli vosita va usullarni qo'llash.

Bu funksiyani amalga oshirishda prokurorning vakolatlari universal xarakterga ega bo'lib, u mustaqil hisoblanadi. Jinoyat ishini o'z ish yurituvchiga olganda tergovchi vakolatlari bilan birga, o'zining prokurorlik vakolatlarini ham saqlab qoladi.

*Huquq ijodkorligi faoliyatida ishtirok etish* — prokuratura organlariga yuklatilgan vazifa jamiyatning juda keng doirasini qamrab oladi. Bu faqat qonunda belgilangan doirada amalga oshirilishi sababli, prokurorlar, nafaqat, qonunlarning ijrosi haqida, balki huquqiy tartibga solish haqida ham xabardor bo'lishadi. Bu, o'z navbatida, jamiyat va davlat ehtiyojlariga muvofiq, huquqni qo'llashni nazarda tutadi.

Prokuratura organlarining markazi rivojlanishining turli bosqichlarida huquq ijodkorligining faoliyatida har xil shaklda qatnashgan. 1992-yil 8-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, Bosh prokuror va qonunchilik tashabbusiga ega bo'lgan quyi turuvchi prokurorlar huquqiy aktlarni o'zgartirish, to'ldirish, bekor qilish yoki boshqa qonun va huquqiy aktlarni qabul qilish tashabbusi bilan chiqishlari mumkin.

Barcha prokurorlar sistematik tarzda u yoki bu doirada ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi amaldagi qonunlarning amal qilishi haqida, bu qonunlarning kamchiliklari yoki muammolari to'g'risida, qonunlarga yoki ularning alohida normalariga sharh berish masalasini hamda bu to'g'risidagi axborotlarni tegishli organ hamda Bosh prokurorga beradi. Bu ishlar bilan O'zbekiston Respublikasi prokuraturasidagi «Qonunlarni mujassamlashtirish va huquq-targ'ibot» bo'limi shug'ullanadi.

Loyihani kiritishda — bu loyihaning kiritilishiga sabab va sharoitlar, undan kutiladigan ijtimoiy-iqtisodiy natijalar, uni amalga oshirishda moddiy va boshqa harakatlar va asoslar ko'rsatiladi.

«Prokuratura to'g'risida»gi Qonun prokuratura faoliyatining butun yo'nalishlarini to'rt prokurorlik nazorati tarmog'iga ajratadi:

1. Qonunlar ijrosi ustidan nazorat.

2. Fuqaroning huquq va erkinliklariga rioya qilinishi ustidan nazorat.

3. Jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiruvchi idoralar tomonidan qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat.

4. Ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoyat jazolarini va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish.

Prokuror nazorati tarmoqlaridan tashqari, prokuratura faoliyatining boshqa yo'nalishlari ham ajratib beriladi:

- jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergovni olib borish;

- jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning faoliyatini muvofiqlashtirish;

- qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish.

Bundan tashqari, qonunshunos, prokuratura faoliyatining sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni hamda xo'jalik nizolarini ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish kabi muhim yo'nalishini ham belgilab bergan. Prokuratura faoliyatining yangi yo'nalishi qilib, soliq intizomini mustahkamlashga, soliq sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek, davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilishni belgilab berdi. Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muas-



sasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish prokuratura faoliyatining eng birinchi hamda juda ham keng bo'lgan tarmog'i hisoblanadi.

Qonun bo'yicha prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishi sifatida belgilanmagan bo'lsa-da, voyaga yetmaganlar huquq va manfaatlarini himoya qilish, ular tomonidan sodir etilgan jinoyatlar yuzasidan tergov olib borish va ularga taalluqli ishlar bo'yicha sudlarda ishtirok etish, voyaga yetmagan mahkumlarni saqlash joylarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib ulgurgan. Chunki ayni yo'nalish bo'yicha alohida prokuror yordamchilarining ajratilishi, ajratish imkoniyati bo'lmagan, ya'ni shtat birligi yetishmaydigan joylarda ham alohida ichki buyruq bo'yicha bu masalalarda mas'uliyat ma'lum bir xodimga yuklatilishi va alohida har oyda yuqori turuvchi prokurorga bir qancha hisobotlar topshirib borilishi bu yo'nalishni mustaqil bir yo'nalish deb hisoblash uchun asos bo'ladi.

Xuddi shunday, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunida ko'rsatilmagan bo'lsa-da, qishloq xo'jaligiga oid qonunlar ijrosi ustidan nazorat faoliyati ham prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishi deb e'tirof etilishi mumkin.

### **3.4. Prokuror talablari bajarilishining majburiyligi**

Prokuror talablari bajarilishining majburiyligi O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 6-moddasida belgilangan bo'lib, unda ko'rsatilishicha «Prokurorning hujjatlar, materiallar va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish, taftish, tekshirishlar o'tkazish, mutaxassis ajratish, prokuraturaga kelish va aniqlangan qonunbuzarliklar xususida tushuntirishlar berish, qonunbuzarliklarni, ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, shuningdek, qonunga rioya etish to'g'risidagi o'z vakolatlari doirasida qo'yayotgan talablarini bajarish barcha fuqarolar va yuridik shaxslar uchun majburiydir.

Prokuratura organlari o'z vazifalarini amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan axborot, hujjatlar va ularning nusxalari mazkur organlarning talabiga muvofiq bepul beriladi.

Prokuratura organlarida har yarim yilda fuqarolarning murojaatlari tahlil qilinib, umumlashtirilib, uning natijalari hay'at majlislari va tezkor yig'ilishlarda ko'rib chiqiladi. Prokurorning talablari ustidan shikoyat qilishi ularning ijrosini to'xtatib qo'ymaydi».

Shunday bo'lsa-da, prokurorlar xo'jalik yurituvchi subyektlarning ichki faoliyatiga aralashmaydi. Prokurorlarning qonuniy talablari bajarilmaganligi uchun tegishli va mas'ul bo'lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 29-avgustdagi ikkinchi chaqiriq oltinchi sessiyasida O'zbekiston Respublikasi JPKga o'zgartirish kiritilgan bo'lib, bunga ko'ra, tergovchi ayblov xulosasini tasdiqlamagan hamda jinoyat ishini qo'shimcha tergovga yuborgan prokurorning fikriga qo'shilmasa, unda prokurorning qo'shimcha tergovni olib borilishi lozimligi haqidagi qarorini bajarmasdan turib, jinoyat ishiga o'z mulohazalarini bayon qilib, yuqori turuvchi prokurorga o'z shikoyati bilan jinoyat ishini taqdim etishi mumkin. Bu masala jinoiy protsessual tartibda hal etilganligi bois, prokuror talablarining bajarilishi majburiyligi doirasiga kiritilmaydi. Umuman, qolgan barcha protsessual holatlarda, albatta, tergovchi prokuror bilan o'z faoliyatini muvofiqlashtiradi, dastlabki tergovda amalga oshirilishi lozim bo'lgan tergov harakatlarini uning rahbarligida bajaradi. Prokurorning jinoyat ishlari bo'yicha bergan yozma ko'rsatuvlarining bajarilishi ham tergovchi uchun majburiy hisoblanadi. Tergov faoliyati bo'yicha doimiy va muntazam nazorat prokuror tomonidan amalga oshiriladi. Tergovchilar o'z faoliyatlari bo'yicha har oylik, chorak va yillik hisobotlarini prokurorlarga topshiradilar. Jinoyat ishini qo'zg'atish, tiklash, to'xtatish, tugatish, bekor qilishga oid protsessual harakatlarni hamda O'zbekiston Respublikasi JPKda qayd etilgan ba'zi tergov harakatlarini prokurorning roziligi yoki maxsus ruxsatnomasi (sanksiyasi) olinganidan so'ng bajaradi.

Ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishda esa, sudga qamoqqa olish uchun murojaat hujjati bo'lgan «iltimosnoma» prokurorning roziligi bilan amalga oshiriladi. Jinoyat protsessidagi bu harakatlar va mexanizm tergovchining mustaqilligi va qonuniylik tamoyillarini poymol etmagan holda ijro etiladi.

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilishda o'z vazifalarini amalga oshirishlari uchun zarur bo'lgan axborot, hujjatlar va ularning nusxalari prokurorga darhol taqdim etilishi shart. Hujjatlar, materiallar va boshqa ma'lumotlarni taqdim etish, taftish, tekshirishlar o'tkazish, mutaxassis ajratish, prokuraturaga kelish

va aniqlangan qonunbuzarliklar xususida tushuntirishlar berish, qonunbuzarliklarni, ularga imkoniyat yaratayotgan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, shuningdek, qonunga rioya etish to'g'risidagi o'z vakolatlari doirasida qo'yayotgan talablarini bajarish barcha shaxslar uchun majburiy hisoblanadi.

### **3.5. Fuqarolarning ariza va shikoyatlari hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish**

Prokuror o'ziga tushgan shikoyat yoki arizani belgilangan muddatda ko'rib chiqishi, zarur chora-tadbirlar ko'rishi hamda o'z qarori to'g'risida arizachiga ma'lum qilishi shart (O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 32-moddasi). Hokimiyatning taqsimlanishini hayotga bosqichma-bosqich tatbiq etilishi munosabati bilan, shuningdek, sud hokimiyatini amalga oshiruvchi organlarning o'z faoliyatlaridagi mustaqilligi, ularning boshqa hech qanday davlat organlari nazoratida emasliklari oqibatida prokurorning nazorat faoliyati ushbu sohada o'z ahamiyatini yo'qotdi va prokuratura faoliyatining sudlarda ishlarning ko'rilishida ishtirok etishi tariqasidagi maxsus yo'nalishi deb e'tirof etila boshladi.

Fuqarolarning ariza va shikoyatlarini hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish Qonunning 7-moddasida belgilangan. Unda qayd etilishicha, «Prokuratura organlari fuqarolarning ariza va shikoyatlarini hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqadilar, ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish chora-tadbirlarini ko'radilar.

Prokuror fuqarolarni va yuridik shaxslarning vakillarini shaxsan qabul qiladi. Prokuror o'ziga tushgan taklif, ariza va shikoyatlarni tekshirish vazifasini zarur hollarda tegishli davlat boshqaruvi, nazorat va tekshirish organlariga, korxonaga, muassasa va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga topshirish hamda ulardan tekshirishga taalluqli barcha materiallar bilan birga, tekshirish natijalariga doir yozma axborot berishlarini talab qilish huquqiga ega.

Fuqarolarning ariza va shikoyatlari hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha prokuror qaror qabul qiladi, bu qaror ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilinishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan fuqaroning ariza va shikoyati yoki yuridik shaxsning murojaati yuzasidan qaror qabul qilinganidan keyin prokuratura organlarida ular bo'yi-

cha ish yuritish tugatiladi, yangi ochilgan holatlar bundan mustasnodir».

Prokuror o'z zimmasiga yuklangan vazifani bajara borib, fuqaroning huquq va erkinliklari buzilganligi to'g'risidagi arizalar, shikoyatlar hamda boshqa ma'lumotlarni ko'rib chiqadi va tekshiradi; arizachilarga ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish tartibini tushuntiradi; fuqaroning huquq va erkinliklari buzilishining oldini olish va bartaraf etish, qonunni buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish hamda yetkazilgan zararni qoplash chora-tadbirlarini ko'radi; O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 22-moddasida nazarda tutilgan vakolatlardan foydalanadi.

Fuqaroning huquq va erkinliklarining buzilishini jinoiy xususiyatga ega deb bilish uchun asoslar mavjud bo'lgan taqdirda prokuror jinoyat ishi qo'zg'atadi hamda uni sodir etgan shaxslar qonunga binoan jinoiy javobgarlikka tortilishiga doir choralarni ko'radi.

Fuqaroning huquq va erkinliklarining buzilishi ma'muriy huquqbuzarlik xususiyatiga ega bo'lgan hollarda prokuror ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ish qo'zg'atadi yoki zudlik bilan huquqbuzarlik to'g'risidagi ma'lumotni va tekshiruv materiallarini ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolatiga ega bo'lgan organga yoki mansabdor shaxsga beradi.

Prokurorning ushbu sohadagi vakolatlari jinoyat protsessual qonunchiligi bilan (382—388-moddalar), «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun (28-modda) va boshqa huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan. JPKning 382-moddasiga muvofiq, prokuror surishtiruv va dastlabki tergov harakatlarini yuritishda qonunlarning ijro etilishi ustidan nazoratni olib borar ekan, quyidagi vakolatlarga ega bo'ladi: sodir etilgan yoki tayyorlanayotgan jinoyatlar haqidagi ariza va ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va hal etish to'g'risidagi qonun talablari qay darajada ijro etilayotganligini har oy kamida bir marta tekshiradi; surishtiruvchilar va tergovchilarning qonunga xilof hamda asossiz qarorlarini bekor qiladi; jinoyatlarni tergov qilish, ehtiyot chorasini tanlash, o'zgartirish yoki bekor qilish, jinoyat tavsifini belgilash, ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirok etishga jalb qilish, ayrim tergov harakatlarini bajarish va jinoyat sodir etgan shaxslarni qidirish to'g'risida yozma ko'rsatmalar beradi; tergov yuritish va ehtiyot chorasi sifatida qo'llanilgan qamoqda saqlash muddatini uzaytiradi; ishlarni surishtiruv va dastlabki tergov organlariga qo'shimcha tergov o'tkazish to'g'risidagi o'z ko'rsatmalari bilan qaytaradi.

Prokuror ushbu sohadagi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifani amalga oshirishdan oldin, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 10-dekabrda «Fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari ko'rib chiqilishida qonuniylikni ta'minlash to'g'risida»gi 37-buyrug'i talablariga qat'iy rioya qilishi shart hisoblanadi.

Fuqarolar tomonidan prokuratura organlariga qilingan murojaat 1 oylik muddat ichida, qo'shimcha tekshiruv o'tkazish va o'rganishni talab qilmaydigan hollarda 15 kungacha bo'lgan muhlat ichida hal etilishi lozimligi belgilangan. Hal etilishi prokuratura organlariga taalluqli bo'lmagan shikoyat va arizalar 5 kundan ko'p bo'lmagan muhlatda tegishli idoralarga yuborilib, bu haqda mualliflarga xabar qilinishi kerak bo'lgan.

Prokuratura organlarida har yarim yilda fuqarolarning murojaatlari tahlil qilinib, umumlashtirilib, uning natijalari hay'at majlislari va tezkor yig'ilishlarda ko'rib chiqiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 10-dekabrda «Fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari ko'rib chiqilishida qonuniylikni ta'minlash to'g'risida»gi 37-buyrug'i qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlarida fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risida»gi Yo'riqnoma tasdiqlangan va 2005-yilning 1-yanvaridan amalga kiritilishi qayd etilgan. Buyruqda quyidagilar:

- fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari ko'rib chiqilishida qonuniylikni ta'minlash prokuratura organlarining eng muhim vazifalaridan biri ekanligi;

- murojaatlarni o'z vaqtida, har tomonlama va xolisona ko'rib chiqib, fuqarolar va yuridik shaxslarning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish ta'minlanishi;

- ariza va shikoyatlarning ko'rib chiqilishiga vijdonon munosabatda bo'lish prokuratura xodimlarining xizmat hamda insoniy burchi deb sanalishi shartligi va har bir xodimning bu boradagi mas'uliyati oshirilishi lozimligi;

- fuqarolarning murojaatlari bilan ishlashda asosiy e'tibor ularning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va shaxsiy huquqlari hamda erkinliklari buzilayotganligi to'g'risidagi holatlarga qaratilishi kerakligi;

- prokuratura aralashuvi talab qilinadigan hollarda fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash va ularning manfaatlarini himoya qilish uchun qonuniy choralar ko'rilishi zarurligi;

- tadbirkorlar, dehqon va fermerlarning murojaatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Prokuror nazorati hujjatlari orqali ularning

buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga erishilishi lozimligi;

- ushlab turilgan, qamoqqa olingan, ozodlikdan mahrum etilgan hamda jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralariga tortilgan shaxslarning murojaatlari jazoni ijro etuvchi organ yoki muassasa ma'muriyati tomonidan ko'rib chiqilishi qonuniyligi ustidan doimiy nazorat olib borilishi kerakligi;

- zarur hollarda kelib tushgan ariza va shikoyatlarni tekshirish vazifasini tegishli davlat boshqaruvi, nazorat va tekshirish organlariga, korxonaga, muassasa va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga topshirish hamda ulardan tekshirishga taalluqli barcha materiallar bilan birga, tekshirish natijalariga doir yozma axborot berishlarini talab qilish borasidagi vakolatlardan foydalanilishi lozimligi;

- prokuratura organlariga murojaat qilayotgan fuqarolar va yuridik shaxslar vakillarini qabul qilishga jiddiy e'tibor qaratilishi shartligi;

- qabulga kelgan fuqarolarga qonun talablari, murojaatni hal qilish tartibi va muddatlari to'g'risida tushuntirilishi lozimligi;

- O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning murojaatlari to'g'risida»gi Qonuni talablari vazirliklar, davlat qo'mitalari, hokimiyat va boshqaruv idoralari hamda mansabdor shaxslar tomonidan bajarilishi ahvoli muntazam ravishda tekshirib borilishi lozimligi;

- aniqlangan qonun buzilishlarni bartaraf etish, mansabdor shaxslarning javobgarligi va mas'uliyatini oshirish choralari ko'rilishi kerakligi;

- prokuratura organlarida har yarim yilda fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish amaliyoti tahlil etilib, umumlashtirilishi, uning natijalari tezkor yig'ilishlar yoki hay'at majlislarida ko'rib chiqilishi shartligi e'tirof etilgan.

Bosh prokuraturaning fuqarolar murojaatlari va xatlar bo'limi doimiy ravishda prokuratura organlarida fuqarolarning murojaatlari bilan ishlash ahvolini tekshirib borsin, bu boradagi xato va kamchiliklarni aniqlash, prokuratura xodimlarining mas'uliyatini oshirish choralarining ko'rilishi lozimligi qayd etilgan.

Shuningdek, muhokama etilayotgan masala yuzasidan ham Bosh prokurorning maxsus yo'riqnomasi va nizomi qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 23-apreldagi 16-buyrug'i bilan tasdiqlangan Nizom quyidagi ko'rinishga ega:

**O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining**  
**«Fuqarolar murojaatlari va xatlar bo‘limi to‘g‘risida»gi**  
**NIZOM**

**I. Umumiy qoidalar**

1.1. Fuqarolar murojaatlari va xatlar bo‘limi (bundan keyin matnda bo‘lim deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining mustaqil tarkibiy tarmog‘i hisoblanadi.

1.2. Bo‘lim faoliyatiga Bosh prokuror tomonidan tayinlanadigan bo‘lim boshlig‘i rahbarlik qiladi. Bo‘limda bo‘lim boshlig‘ining o‘rinbosari, katta prokurorlari, prokurorlari, mutaxassislari, bo‘lim katta nozirlari va nozirlari faoliyat ko‘rsatadi.

1.3. Bo‘lim o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, «Prokuratura to‘g‘risida»gi, «Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida»gi Qonunlari hamda boshqa qonun hujjatlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, hukumat qarorlari, Bosh prokuraturaning hay‘ati qarorlari, Bosh prokurorning buyruq va ko‘rsatmalari, prokuratura organlarida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish haqidagi Yo‘riqnomalar hamda mazkur Nizom talablari asosida amalga oshiradi.

1.4. Bo‘lim tomonidan qonuniylik ahvoli tahlillaridan kelib chiqqan holda ishni tashkillashtirish borasida Bosh prokuraturaning yarim yilga tuziladigan ish rejasiga takliflar beriladi hamda bo‘limning ish rejasiga kiritilgan tadbirlar ijrosi belgilangan muddatlarda ta‘minlanadi.

1.5. Bo‘lim ishini tashkil etish xodimlar o‘rtasida vazifalarni soha-mintaqa va o‘rindoshlik asosidagi ish taqsimotiga binoan amalga oshiriladi.

1.6. Bo‘limda fuqarolarning murojaatlari va ish yuritish borasida amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha tahliliy hujjatlar tayyorlanadi va bu haqda Bosh prokuratura rahbariyatiga axborot berib boriladi.

Quyi prokuraturalarda soha faoliyatini yaxshilashga qaratilgan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqiladi va joylarga yuboriladi.

1.7. Bo‘limda tezkor yig‘ilishlar o‘tkazib boriladi va ularda sohaga taalluqli, shuningdek, bevosita xodimlarning faoliyati bilan bog‘liq masalalar muhokama qilinadi.

1.8. Bo‘limda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har chorakda hisobot tuzilib, tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasiga topshiriladi. Hisobotlarning haqqoniyligi uchun mas‘uliyat bo‘lim boshlig‘i zimmasida bo‘ladi.

Zaruratga ko'ra, viloyatlar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalardan sohaga oid tahliliy axborotlar talab qilib olinadi.

1.9. Bo'lim faoliyatini Bosh prokurorning soha bo'yicha o'rinbosari nazorat qiladi va sohada amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Bosh prokurorga axborot berib boradi.

1.10. Bo'lim Bosh prokuraturaning tarkibiy tarmoqlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni, Oliy Majlis, sud va boshqa tegishli idoralar hamda jamoatchilik bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etadi.

1.11. Viloyatlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning fuqarolarning murojaatlari va xatlar bo'yicha katta yordamchilari (bundan keyin matnda katta yordamchilar deb yuritiladi) o'z faoliyatini mazkur Nizom talablari asosida amalga oshiradi.

## **II. Bo'limning asosiy vazifasi va faoliyat yo'nalishlari**

2.1. Bo'lim prokuratura organlarida fuqarolarning ariza va shikoyatlarini hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini qonunda belgilangan tartibda qabul qilinishini va ko'rib chiqilishini ta'minlash choralari ko'radi.

2.2. Bosh prokuraturada boshqarma va bo'limlar xodimlari tomonidan fuqarolarning kundalik qabullarini tashkillashtiradi va bevosita bo'limda fuqarolar qabul qilinadi.

2.3. Bosh prokuraturaga fuqarolar, davlat idoralari, muassasalar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat tashkilotlari hamda mansabdor shaxslardan kelgan xat, ariza va shikoyatlar, murojaatlar, shoshilinch noma, maxsus xabarlar, shuningdek, jinoyat, fuqarolik, ma'muriy va xo'jalik ishlari va boshqa hujjatlarni belgilangan tartibda qabul qilib, ro'yxatdan o'tkazadi, hal qilish uchun tegishliligi bo'yicha tarkibiy tarmoqlarga tarqatilishini va hisobi yuritilishini tashkillashtiradi.

2.4. Bo'lim prokuratura organlarida ish yuritish, arizalarni qabul qilish, maxsus va alohida nazoratda bo'lgan arizalarni ko'rib chiqilishini tashkillashtiradi.

2.5. Prokuratura organlarida ish yuritishni tashkil qilish, hujjatlar bilan ishlashning tashkiliy-uslubiy jihatlarini takomillashtirishga qaratilgan choralarni ko'radi.

2.6. Bosh prokuratura arxiviga topshirilgan prokuratura organlari faoliyati bilan bog'liq hujjatlarning saqlanishi, muhimlik darajasining ekspertiza qilinishi, muhr va shtamlardan foydalanilishi, ularning saqlanishi va hisobi yuritilishini ta'minlaydi.



2.7. Qonuniylik ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlarni, hisobot ko'rsatkichlarini tahlil qiladi, sohadagi faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

2.8. Fuqarolarning ariza va shikoyatlarini hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish borasida amalga oshirilgan ishlar va bu boradagi prokurorlik faoliyatini muntazam ravishda umumlashtirib, yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish hamda mavjud muammolarni hal qilish haqida Bosh prokuraturaning hay'at va tezkor majlislariga takliflar tayyorlaydi.

2.9. Mazmun va mohiyatiga ko'ra, alohida ahamiyatga ega xat, taklif, ariza, boshqa yozma yoki og'zaki xabarlar haqida Bosh prokuratura rahbariyatini xabardor qiladi, nazoratga olib yuborilgan bu toifadagi xat, ariza va shikoyatlarni rahbariyatga ko'rib chiqish uchun belgilangan muddatda taqdim etilishini ta'minlaydi.

2.10. Bosh prokuraturaga birinchi marta kelib tushgan ariza va shikoyatlarni quyi prokuratura organlarida ko'rib chiqilganligi to'g'risida ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda ularni quyi prokuraturalarga yoki taalluqliligi bo'yicha tegishli idoralarga yuboradi.

Noqonuniy xatti-harakatlari va qarorlari ustidan shikoyat qilinayotgan mansabdor shaxslar yoki idoralarga nisbatan yozilgan ariza va shikoyatlarni mazkur idoralar yoki mansabdor shaxslarning o'zlariga yuborilishiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'radi.

2.11. Bosh prokuraturaning boshqarma va bo'limlarida, quyi prokuraturalarda qayd etilgan Yo'riqnoma talablarini bajarilishini, shuningdek, xatlar, arizalar va shikoyatlarning belgilangan muddatda ko'rib chiqilishining hisobini yuritadi va ularning bu boradagi faoliyatini muntazam o'rganib boradi.

2.12. Quyi prokuraturalarda soha bo'yicha ishlarni tegishli viloyatlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar bilan birgalikda tashkil etadi, Bosh prokurorning sohaga oid buyruq va ko'rsatmalari, hay'at qarorlari ijrosini tekshiradi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish borasida qo'yilgan talablarining bajarilishini nazorat qiladi.

2.13. Bosh prokurorning sohaga oid buyruq va ko'rsatmalari hamda hay'at qarorlarining bajarilishini tashkil qiladi, bo'lim faoliyatiga taalluqli bo'lgan buyruq, ko'rsatmalar va boshqa hujjatlar loyihalarini tayyorlaydi.

2.14. Kadrlar boshqarmasi bilan birgalikda vakolatlari doirasida kadrlarning kasb-mahoratini oshirishga qaratilgan tadbirlarni o'tkazadi, ijobiy ish tajribalarini o'rganib, ommalashtiradi.

2.15. Rahbariyat topshirig'iga ko'ra, ayrim ariza va shikoyatlar bo'yicha joylarda tekshirishlar o'tkazadi, quyi prokuraturalarga tekshirish o'tkazish haqida topshiriq beradi va xulosalar talab qilib oladi.

2.16. Qonunlarni targ'ib qilish va jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish ishlarida ishtarak etadi.

### **III. Bo'lim boshlig'ining vakolatlari**

3.1. Bo'limga yuklatilgan vazifalarning bajarilishiga shaxsan mas'ul bo'lib, bo'lim ish faoliyati ustidan umumiy rahbarlikni olib boradi, ishlarni tashkillashtiradi, Bosh prokurorning o'rinbosari bilan kelishilgan holda xodimlar o'rtasida vazifalarni soha-mintaqa va o'rindoshlik asosida taqsimlaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi.

3.2. Bosh prokuraturaga fuqarolardan, yuridik shaxslardan kelib tushgan xat, xabar, ariza, shikoyat, shoshilinchnomalarni, shuningdek, jinoyat, fuqarolik, ma'muriy va xo'jalik ishlari hamda boshqa hujjatlarni belgilangan tartibda qabul qilib, ro'yxatdan o'tkazishni hamda tegishliligi bo'yicha tarkibiy tarmoqlarga tarqatilishini va hisobi yuritilishini tashkillashtiradi.

3.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi va Bosh prokuratura rahbariyati tomonidan nazoratga olingan, shuningdek, O'zteleradiokompaniya, respublika miqyosidagi gazeta va jurnallar muharririyatlari tomonidan yuborilgan xatlar, fuqarolarning ariza va shikoyatlarini belgilangan muddatda hal etilishining hisobini yuritadi.

Fuqarolarning Bosh prokuratura rahbariyati, tarmoq boshliqlari va xodimlar tomonidan qabullarini tashkillashtiradi.

3.4. Hujjatlarni ko'paytirish, nusxa ko'chirish ishlari yuritilishini ta'minlaydi.

3.5. Hujjatlarni idoraviy arxivga topshirilishi, ularning muhimlik qiymatini ekspertiza qilish, muhr va shtaplardan foydalanish, ularni saqlash, shuningdek, hisobi yuritilishini tashkillashtiradi.

3.6. Bosh prokuraturaning ish rejasiga takliflar beradi, bo'lim ish rejasini ishlab chiqadi va rahbariyatga tasdiqlash uchun taqdim etadi, rejaviy tadbirlar ijrosini ta'minlaydi.

3.7. Kadrlar boshqarmasi bilan birgalikda sohada ishlash uchun kadrlarni tanlaydi, xodimlarning kasb-mahoratini oshirish choralari ko'radi, attestatsiya loyihalarini hamda ularga darajali unvonlar berish to'g'risidagi taqdimnomalarni tayyorlaydi.

3.8. Qonunlarni targ'ib qilish ishlarini tashkillashtiradi va bu jarayonda bevosita ishtirok etadi.

## **IV. Bo'lim boshlig'i o'rinbosarining vakolatlari**

4.1. Prokuratura organlarida ish yuritish Yo'riqnomasida olib borilishini, hujjatlar bilan ishlashning tashkiliy va uslubiy jihatdan takomillashtirilishini ta'minlaydi, nozirlar faoliyatini nazorat qiladi.

4.2. Bo'limning hisobot ishlarini olib boradi, hisobot ko'rsatkichlari va amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilgan holda umumlashtirib, tegishli takliflar tayyorlaydi.

4.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasidan yuborilgan ariza, shikoyatlarni Bosh prokuratura rahbariyati topshirig'iga binoan, ko'rib chiqishda ishtirok etadi.

4.4. Qonunlarni targ'ib qilish ishlarida ishtirok etadi.

## **V. Bo'lim katta prokurorlari va prokurorlarining vakolatlari**

5.1. Vazifalar taqsimotiga asosan quyi prokuratura bo'g'inlariga berilgan ko'rsatma va topshiriqlarni, Bosh prokurorning sohaviy buyruqlarining bajarilishi ustidan nazorat olib boradilar, shuningdek, predmet bo'yicha qonuniylik ahvoli hamda hisobot ko'rsatkichlarini tahlil qilgan holda umumlashtiradilar va soha yo'nalishidagi mavjud muammolarni bartaraf etish borasida bo'lim rahbariyatiga takliflar kiritib boradilar.

5.2. O'zlariga biriktirilgan mintaqa va sohada prokurorlik nazoratining ahvoli uchun shaxsan mas'ul bo'lib, Bosh prokurorning buyruq va ko'rsatmalari, respublika Bosh prokuraturasi hay'at majlislarining sohaga oid qarorlarini joylarda bajarilishi ustidan nazorat olib boradilar, quyi prokurorlarning nazorat sohasidagi faoliyatlarini tekshirish va amaliy yordam ko'rsatish uchun joylarga chiqadilar, aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan taklif beradilar.

5.3. Bo'limning hamda sohaning quyi tarmoqlari ishini tashkillashtirish, joylarda tekshirishlar o'tkazish, ish uslublarini takomillashtirish va ilg'or tajribalarni yoyish to'g'risida takliflar tayyorlaydilar, uslubiy tavsiyalar va qo'llanmalar loyihalarini ishlab chiqadilar.

5.4. Bosh prokuraturada fuqarolarni qabul qilishni tashkillashtiradilar, shaxsan qabul qiladilar.

5.5. Shaxsiy qabulda fuqarolardan olingan murojaatlarning hisobini yuritadilar va ularni umumlashtirib, bo'lim boshlig'iga taqdim etadilar.

5.6. Ariza va shikoyatlar bilan Bosh prokuraturada qabulda bo'lgan fuqarolar tomonidan ko'tarilgan masalalar yuzasidan axborot va boshqa ma'lumotlarni yig'ib tahlil qilgan holda umumlashtiradilar va natijalari yuzasidan bo'lim boshlig'iga taklif kiritadilar.

5.7. Bosh prokuraturada qabulda bo'lgan fuqarolarning murojaatlari hamda Bosh prokuraturaga kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqib, ularning tegishli tarmoqqa taalluqliligini belgilaydilar.

## **VI. Bo'limda ish yuritishni tashkil qilish**

6.1. Prokuratura organlarida ish yuritishni tashkil etish to'g'risidagi Yo'riqnoma asosida ariza va shikoyatlarni ro'yxatdan o'tkazadilar va hisobini yuritadilar.

6.2. Ariza va shikoyatlarni o'z vaqtida tegishliligiga qarab, Bosh prokuraturaning boshqarma va bo'limlariga tarqatadilar, nazoratga olingan ariza va xatlarni tegishliligiga ko'ra rahbariyatga taqdim etadilar va munosabat bildirilgandan so'ng kitoblarga rasmiylashtirib, nazorat kartochkalarini to'ldirgan holda ariza yoki xat bilan birgalikda imzo qo'ydirish yo'li bilan tarmoqlarning nozirlariga tarqatadilar.

6.3. Ariza va shikoyatlarni alfavit asosida kartotekada to'g'ri rasmiylashtirib boradilar, nazorat o'rnatilmagan arizalar bo'yicha alfavit va ilova kartochkalariga ularning harakatlanishi haqidagi ma'lumotlarning o'z vaqtida kiritilishini ta'minlaydilar, ahamiyatini yo'qotgan kartochkalarni kartotekadan chiqarib boradilar.

6.4. Jinoyatlar haqidagi maxsus xabarlar, ommaviy axborot vositalarida chop etilgan maqolalar, hujjatlar, yuridik shaxslardan kelgan ariza va shikoyatlar bilan bog'liq bo'lmagan xatlarni maxsus kitoblarga rasmiylashtirib, imzo qo'ydirib, tarmoq nozirlariga tarqatadilar.

6.5. Bosh prokuraturaga chaqirtirilgan jinoiy, fuqarolik, xo'jalik, ma'muriy ishlarni maxsus kitoblarga rasmiylashtiradilar, alfavit bo'yicha kartotekaga qayd qilib, imzo qo'ydirib, nozirlarga tarqatadilar.

6.6. Bo'limda saqlash muddati tugagan hujjatlarni qabul qilish, topshirish dalolatnomasiga asosan Bosh prokuratura arxiviga topshiradilar.

6.7. Bosh prokuratura binolariga kirish-chiqishni tegishli yo'riqnoma talablari asosida olib borilishini ta'minlaydilar, shuningdek, faoliyat bilan bog'liq boshqa vazifalarni bajaradilar.

**O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlarida  
fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlarini  
ko‘rib chiqish tartibi to‘g‘risidagi  
YO‘RIQNOMA**

**I. Umumiy qoidalar**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda «Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida»gi Qonunida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning davlat organlari va muassasalariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat etish huquqi kafolatlangan.

O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunida fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini himoya qilish prokuratura organlarining asosiy vazifalaridan biri deb e‘tirof etilgan.

Prokurorlar fuqarolarning ariza va shikoyatlarini hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko‘rib chiqadilar, ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish chora-tadbirlarini ko‘radilar. Murojaatlarni ko‘rib chiqishda O‘zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning murojaatlari to‘g‘risida»gi Qonunida mustahkamlangan fuqarolarning murojaat etish huquqining ixtiyoriyligi, bu huquqdan foydalanayotganida kamsitishga yo‘l qo‘yilmasligi, murojaatni qabul qilish va ko‘rib chiqishning majburiyligi hamda fuqarolarning murojaat etishi munosabati bilan ularning xavfsizligi kafolatlarini ta‘minlaydilar.

2. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, O‘zbekiston Respublikasi Transport, Harbiy, shahar, tuman prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda murojaatlarni ko‘rib chiqish, hal etish hamda fuqarolarni qabul qilish yagona tartibda mazkur Yo‘riqnomaga muvofiq amalga oshiriladi.

3. Murojaatlarni qabul qilish, ro‘yxatdan o‘tkazish, rasmiylashtirish, hisobvaraqlarini yuritish, ularning ijrosini nazorat qilish, jo‘natish, nusxa ko‘paytirish hamda arxivga topshirish tartibi «O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlarida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish to‘g‘risida»gi Yo‘riqnoma bilan belgilanadi.

4. Murojaatlarni ko‘rib chiqish hamda fuqarolarni qabul qilish ishlariga umumiy rahbarlik Respublika Bosh prokuraturasida Bosh prokurorning o‘rinbosarlaridan biri, viloyat, shahar, tuman prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda tegishli prokurorlar tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining fuqarolar murojaatlari va xatlar bo'limi, viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning soha bo'yicha katta yordamchilari tomonidan bu boradagi ishlar bevosita tashkil etiladi va ta'minlanadi.

5. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarning tarkibiy tarmoq rahbarlari, shahar, tuman prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar murojaatlarni mazkur Yo'riqnomada talablariga qat'iy rioya etgan holda ko'rib chiqilishi va qonuniy hal qilinishi uchun mas'uldirlar.

Prokuratura organlarining barcha xodimlari fuqarolar murojaatlarini o'z vaqtida, xolisona va qonuniy hal etilishiga, ularning poymol etilgan huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini faqat qonunda belgilangan huquqiy vositalar bilan himoya qilinishiga, qonunni buzgan shaxslarni javobgarlikka tortish hamda fuqaroga yetkazilgan zararni qoplash chora-tadbirlarini ko'rishga javobgardirlar.

6. Fuqarolarning shaxsiy qabulini tashkil etish va amalga oshirish, murojaatlarni belgilangan tartibda va muddatda ko'rib chiqish va qonuniy hal qilishga mas'uliyatsizlik bilan yondashgan prokurortergov xodimlari intizomiy javobgarlikka tortiladilar.

7. Ushbu Yo'riqnomada quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

- murojaat — fuqaro, jamoa, mansabdor va boshqa shaxsning yozma yoki og'zaki shaklda bayon qilingan arizasi, taklif yoki shikoyati;

- ariza — fuqaroning o'z huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda yordam ko'rsatish to'g'risidagi iltimosi bayon etilgan murojaat;

- taklif — fuqaroning prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirishga doir tavsiyalarni o'z ichiga olgan murojaat;

- shikoyat — fuqaroning buzilgan huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini tiklash to'g'risidagi talabi bayon etilgan murojaat;

- murojaatning dublikati — bir shaxs tomonidan aynan bir masala yuzasidan berilgan murojaatning nusxasi;

- takroriy murojaat — avvalgi murojaat bo'yicha qabul qilingan qarordan norozi bo'lib, bunday qarorni qabul qilib javob bergan prokuratura organiga aynan bir shaxsning aynan bir masala yuzasidan qayta murojaati.

## **II. Yo'riqnomaning amal qilish doirasi**

8. Mazkur Yo'riqnoma qoidalari inson va fuqarolarning huquq hamda erkinliklari, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarining buzilishi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan yozma yoki og'zaki shaklda bayon qilingan, shaxsan, qonuniy vakil yoki aloqa vositalari orqali berilgan murojaatlarga tatbiq etiladi.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Devoni, Oliy Majlis, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili, inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy sud, respublika boshqaruv idoralari va jamoat birlashmalari, O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tgan xalqaro tashkilotlar, jamg'armalar hamda xorijiy davlatlar vakolatxonalari, ommaviy axborot vositalari vakillaridan kelib tushgan murojaatlar ham mazkur Yo'riqnomaga muvofiq ko'rib chiqiladi.

10. Jinoyatga oid arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi bilan belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

11. Surishtiruv organlari, surishtiruvchilar, tergovchilar va prokurorlarning jinoyat ishlarining tergovi hamda materiallarni hal qilish bilan bog'liq harakatlari va qarorlari, shuningdek, sudlarning qarorlari yuzasidan tushgan shikoyatlar tegishli jinoyat protsessual, fuqarolik yoki xo'jalik protsessual qonunchiligida ko'zda tutilgan muddat va tartibda hamda vakolatlari doirasida ko'rib chiqiladi.

## **III. Murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi va muddatlari**

12. Prokuratura organlariga kelib tushgan murojaatlar ish yurituvga qabul qilinishi, quyi turuvchi prokuratura organlariga yoki boshqa idoralarga yuborilishi yoxud avvalgi murojaatga qo'shib, ko'rib chiqilishi mumkin.

13. Murojaatlar, agar ular qo'yilgan masalalarni hal etish vakolat doirasiga kirmaydigan prokuratura organiga yuborilgan bo'lsa yoki yuqori turuvchi prokuratura organi tomonidan murojaatni quyi turuvchi prokuratura organi ko'rib chiqishi maqsadga muvofiq deb topilsa, uzog'i bilan besh kunlik muddat ichida tegishli organlarga yuboriladi va bu haqda fuqaroga xabar qilinadi.

14. Agar bir tarkibiy tarmoqqa kelib tushgan murojaat boshqa tarkibiy tarmoqqa taalluqli bo'lsa, ushbu murojaat tegishli tarmoq

boshlig'ining bildirgisi va prokuratura rahbariyatining roziligi bilan boshqa tarmoqqa o'tkaziladi.

15. Murojaatlarni ko'rib chiqishi uchun boshqa davlat organlariga asossiz ravishda berish yoki qarori yoxud harakati ustidan shikoyat qilinayotgan davlat organlari yoki mansabdor shaxslarning, shu jumladan, prokurorlarning o'ziga jo'natish man etiladi.

16. Tergov va surishtiruv chog'ida kelib tushgan ariza, shikoyatlar hamda ular bo'yicha qabul qilingan qarorlar jinoyat ishlariga qo'shiladi.

Ayblov xulosasi tasdiqlangunga qadar berilgan ariza va shikoyatlarda keltirilgan vajlarni to'liq tekshirmay, jinoyat ishlarini sudlarga yuborishga yo'l qo'yilmaydi.

17. Fuqaroning familiyasi, manzili to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilmagan yoki u haqda soxta ma'lumotlar ko'rsatilgan, shuningdek, imzo qo'yilmagan yozma murojaatlar anonim deb hisoblanadi va ko'rib chiqilmaydi. Bunday hollarda ariza yoki shikoyatning anonim ekanligi to'g'risida ma'lumotnoma tuzilib, u bo'yicha ish yuritish tugatiladi.

Hal etilishi nazoratga olingan murojaat anonim ekanligi aniqlansa, murojaatni yuborgan organga murojaat O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolar murojaatlari to'g'risida»gi Qonuni 6-moddasiga asosan, ko'rilmasdan qoldirilganligi haqida xabar beriladi.

Agar anonim murojaatlarda tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyatlar haqida ma'lumotlar bo'lsa, ularning ishonchligini tezkor yo'llar bilan aniqlash uchun tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuboriladi.

Fuqarolarning g'ayriqonuniy xususiyatdagi murojaatlari yuzasidan qonunda belgilangan choralar ko'riladi.

18. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga kelib tushgan quyidagi murojaatlar ko'rib chiqilishini tashkillashtirish uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga taqdim etiladi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi;
- Oliy Majlis;
- Oliy Majlisning deputatlari va senatorlari;
- Vazirlar Mahkamasi;
- Konstitutsiyaviy sud tomonidan nazoratga olinib yuborilgan murojaatlar;
- respublika miqyosidagi davlat idoralari rahbarlarining suuiste'molchiliklari, prokuratura organlari xodimlarining nojo'ya xatti-harakatlari yuzasidan murojaatlar;



• viloyat hokimlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi hamda Vazirlar Kengashi raislarining murojaatlari;

• O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o‘rinbosarlari tomonidan qabul qilingan qarorlar yuzasidan kelgan murojaatlar;

• prokuratura organlari kadrlari masalalari yuzasidan murojaatlar.

19. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o‘rinbosarlariga quyidagi murojaatlar taqdim etiladi:

• mazkur Yo‘riqnomaning 18-bandi 2-xatboshisida qayd etilgan Davlat organlari va mansabdor shaxslar tomonidan nazoratga olinmay yuborilgan murojaatlar;

• O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni;

• Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakili;

• vazirliklar;

• davlat qo‘mitalari;

• respublika miqyosidagi jamoat tashkilotlari;

• hamda O‘zbekiston Respublikasida akkreditatsiyadan o‘tgan xalqaro tashkilotlar;

• jamg‘armalar;

• xorijiy davlatlar vakolatxonalari rahbarlarining;

• shuningdek, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi;

• respublika miqyosidagi gazeta va jurnallar bosh muharrirlari tomonidan yuborilgan murojaatlar;

• Bosh prokuraturaning tarkibiy tarmoq rahbarlari hamda viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning qarorlari yuzasidan kelib tushgan murojaatlar.

20. Bosh prokuraturaning tarkibiy tarmoq rahbarlariga Bosh prokuror hamda uning o‘rinbosarlariga taqdim qilinishi talab etilmaydigan hamda tarmoqqa taalluqli masalalar bo‘yicha barcha murojaatlar beriladi.

21. Bosh prokuratura, viloyat prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga birinchi marta kelib tushgan murojaatlar agar ularni quyi prokuratura organlarida ko‘rib chiqilganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar bo‘lmasa, Fuqarolar murojaatlari va xatlar bo‘limi, prokurorlarning soha bo‘yicha katta yordamchilari tomonidan quyi prokuraturalarga yuboriladi.

Birinchi marta kelib tushgan, ammo nazoratga olingan murojaatlar tekshirishni tashkil etish uchun Bosh prokuratura, viloyat prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarining tegishli tarmoqlariga beriladi.

22. Viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarga ko'rib chiqish uchun quyidagi murojaatlar taqdim etiladi:

- Bosh prokuratura tomonidan nazoratga olinib, tekshirish uchun yuborilgan murojaatlar;
- davlat hokimiyatining mahalliy organlari rahbarlarining murojaatlari;
- viloyat prokurorlari o'rinbosarlarining qarorlari ustidan kelgan murojaatlar;
- prokuratura organlari kadrlari masalalari hamda ularning nojo'ya xatti-harakatlari yuzasidan murojaatlar.

23. Viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning o'rinbosarlariga mazkur Yo'riqnomaning 22-bandida qayd etilgan murojaatlardan tashqari barcha murojaatlar beriladi.

24. Shahar, tuman prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga kelib tushgan barcha murojaatlar tegishli prokurorlarga taqdim etiladi.

25. Murojaatda bir necha boshqarma va bo'limlarning vakolat doirasiga taalluqli masalalar bo'lsa, ijrochilar orasida birinchi bo'lib qayd etilgan tarmoq rahbari mas'ul hisoblanadi va u tomonidan murojaat bo'yicha to'la hajmda tekshirish o'tkazilishi tashkil etiladi. Mas'ul rahbar murojaatning nusxalarining boshqa ijrochilarga topshirilishi, murojaat bo'yicha yagona topshiriq tayyorlanishi, murojaatga taalluqli hujjatlarni boshqa ijrochilardan olib, dastlabki yoki yakuniy javoblar yuborilishini ta'minlaydi.

26. Muqaddam aynan shu mazmundagi murojaat bo'yicha to'la va xolisona tekshirish o'tkazilib, qonuniy qaror qabul qilingan va vakolatli prokuror tomonidan javob berilgan bo'lsa, bunday murojaat hamda uning dublikatlari ko'rib chiqilmasdan qoldiriladi (yangi ochilgan holatlar bundan mustasno).

27. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan fuqaroning ariza va shikoyati yoki yuridik shaxsning murojaati yuzasidan qaror qabul qilinganidan keyin O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 7-moddasiga ko'ra, prokuratura organlarida ular bo'yicha ish yuritish tugatiladi (yangi ochilgan holatlar bundan mustasno).

Bunday murojaatlar nazoratga olinib yuborilgan bo'lsa, nazoratga olgan organga murojaat bo'yicha prokuratura organlarida ish yuritish tugatilganligi haqida ma'lum qilinadi.

28. Murojaatlar tushgan kundan e'tiboran, bir oygacha bo'lgan muddat ichida, qo'shimcha o'rganishni va tekshirishni talab etmay-

digan murojaatlar esa o‘n besh kundan kechiktirmay ko‘rib chiqiladi. Ushbu muddat murojaat kelib tushgan kundan boshlab, muallifga javob yuborilgan kungacha hisoblanadi.

Prokuratura rahbariyati tomonidan murojaatni ko‘rib chiqishning qisqartirilgan muddati belgilanishi mumkin.

29. Murojaatni ko‘rib chiqish uchun tekshirish o‘tkazish, qo‘shimcha materiallar talab qilib olish yoki boshqa chora-tadbirlar ko‘rish zarur bo‘lgan hollarda, ushbu muddat murojaat qilingan prokuratura organiga qarab, tegishli O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Bosh prokurorning o‘rinbosarlari, viloyat, shahar, tuman prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan istisno tariqasida uzog‘i bilan bir oyga uzaytirilishi mumkin va bu haqda murojaat qilgan shaxsga hamda murojaatni nazoratga olgan organga ma‘lum qilinadi.

30. Tekshirish jarayonida ariza muallifi tomonidan aynan bir masala yuzasidan berilgan murojaat avvalgi murojaat bilan birgalikda ko‘rib chiqiladi va natijasi bo‘yicha yagona javob beriladi.

Tekshirilayotgan yoki tekshirilishi tamomlangan murojaatning nusxasi muallifning o‘zi yoki boshqa organlardan kelib tushsa, bunday murojaat dublikat sifatida rasmiylashtirilib, nazorat ishiga qo‘shiladi.

#### **IV. Murojaatlarni hal qilish va ular bo‘yicha xabar berish tartibi**

31. Murojaatlar belgilangan muddatlarda, to‘liq, har tomonlama va xolisona ko‘rib chiqilib, qonuniy hal qilinishi lozim.

32. Har bir murojaat bo‘yicha tekshirish uslubi tegishli O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, uning o‘rinbosarlari, Bosh prokuraturaning tarkibiy tarmoqlari boshliqlari viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar hamda ularning o‘rinbosarlari, shahar, tuman prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan ustxat (rezolutsiya) qo‘yish yo‘li bilan belgilanadi.

33. Murojaatlarni hal etish jarayonida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini taftish qilish yoki tekshirish zarurati paydo bo‘lganida ular qonunda belgilangan tartibga qat‘iy rioya qilingan holda o‘tkaziladi.

Agar xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tekshirish va taftish o‘tkazishga tegishli davlat organi tomonidan ruxsat berilmasa,

tegishli hujjatlar asosida muallifga bu haqda yozma ravishda ma'lum qilinadi.

34. Murojaatlarning to'liq va xolisona hal etilishini ta'minlash maqsadida zarur hollarda tekshirishlarga tegishli mutaxassislar hamda murojaat mualliflari yoki ularning qonuniy vakillari talab etilishi mumkin.

Joylardagi prokuraturalarda uzoq vaqt davomida o'z yechimini topmay kelayotgan, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarining jiddiy kamsitilishi, qonunlarning qo'pol tarzda buzilishi haqidagi murojaatlar, qoida tariqasida, joylarga chiqib, tegishli mutaxassislar va murojaat mualliflari ishtirokida tekshiriladi.

35. Murojaatlarda bayon qilingan vajlarni tekshirish jarayonida qo'shimcha ma'lumotlar, tegishli me'yoriy hujjatlar, harakati ustidan shikoyat qilayotgan mansabdor yoki boshqa shaxslarning tushuntirishlari talab qilib olinadi.

36. Tekshirish natijasiga ko'ra ma'lumotnoma tuzilib, murojaat etgan shaxsning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini to'la yoki qisman tiklash choralari ko'rilsa, qanoatlantirish, murojaatda bayon qilingan vajlar tasdiqlanmasa, rad etish yoki huquqiy masalalar bo'yicha qonun talablarini tushuntirish to'g'risida to'xtamga kelinadi.

Sud qarorlari ustidan berilgan murojaatlar, qoida tariqasida, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlari chaqirilib, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining tegishli sohaviy buyruqlarida belgilangan tartibda tekshiriladi va javob beriladi.

37. Tekshirish yakuni bo'yicha murojaat etgan shaxs yoki uning qonuniy vakilining iltimosnomasiga binoan, tekshirish hujjatlari bilan tanishib chiqish imkoniyati ta'minlanadi. Hujjatlar bilan tanishtirgan prokuratura xodimi tomonidan bu haqda ma'lumotnoma tuzilib, nazorat ishiga qo'shib qo'yiladi.

38. Murojaatlar, agar ularda bayon qilingan masalalar qonun talablariga muvofiq ko'rib chiqilgan va muallifga yozma shaklda javob berilgan bo'lsa, hal qilingan deb hisoblanadi.

39. Murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha bir to'xtamga kelish hamda ularga javob xati yuborish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Bosh prokuror o'rinbosarlari, Bosh prokuraturaning tarkibiy tarmoq boshliqlari, viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar hamda ularning o'rinbosarlari, shuningdek, mazkur prokuraturalarning tarkibiy tarmoq boshliqlari tuman, shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar hamda ularning o'rinbosarlari tomonidan amalga oshiriladi.

40. Murojaatni qanoatlantirmasdan qoldirish haqidagi qaror tegishliligi bo'yicha faqat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Bosh prokuror o'rinbosarlari, Bosh prokuraturaning tarkibiy tarmoq boshliqlari, viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning o'rinbosarlari, shahar, tuman prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan qabul qilinadi va ular tomonidan javob beriladi.

Qanoatlantirilmay qoldirilgan murojaatlar yuzasidan fuqarolarga yuqori turuvchi prokurorga shikoyat berish huquqi tushuntiriladi.

41. Hal etilishi Bosh prokuror tomonidan nazoratga olingan murojaatlar bo'yicha fuqarolarga javoblar faqat Bosh prokurorga axborot berilganidan keyingina yuboriladi.

Hal etilishi Bosh prokurorning o'rinbosarlari, viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan nazoratga olingan murojaatlar ham xuddi shu tartibda hal etiladi.

## **V. Prokuratura organlarida fuqarolarni qabul qilishni tashkil etish**

42. Prokuratura organlari tizimining barcha bo'g'inlarida hamda tarkibiy tarmoqlarida fuqarolar va yuridik shaxslar vakillari har ish kuni, belgilangan soatlarda, ular uchun qulay vaqtda qabul qilinadi.

43. Bosh prokuratura, viloyat, shahar, tuman prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda fuqarolar tegishli prokurorlar tomonidan tasdiqlangan jadvalga asosan qabul qilinadi.

Jadvallarda mazkur prokuraturalarning, shuningdek, yuqori turuvchi prokuratura organlari rahbarlarining qabul kunlari to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjud bo'lishligi ta'minlanadi.

Bosh prokuratura hamda viloyat prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda alohida «Fuqarolarning qabul qilish xonalari» tashkil etiladi.

44. Viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar haftasiga kamida ikki marotaba, shahar, tuman prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar har ish kuni fuqarolarni qabul qiladilar.

45. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida, viloyat prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda fuqarolar

va yuridik shaxslar vakillarining kundalik qabullari fuqarolar murojaatlari va xatlar bo‘limi, prokurorlarning soha bo‘yicha katta yordamchilari tomonidan tegishli tarkibiy tarmoqlar xodimlari ishtirokida amalga oshiriladi.

46. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori Bosh prokurorning o‘rinbosarlari tomonidan qabul qilingan qarorlardan norozi bo‘lib murojaat etgan fuqarolarni qabul qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o‘rinbosarlari tomonidan Bosh prokuraturaning tarkibiy tarmoq boshliqlari hamda viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning qarorlaridan norozi bo‘lib murojaat etgan fuqarolarni qabul qiladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o‘rinbosarlarining shaxsiy qabuli boshqa hollarda ham tashkil etilishi mumkin.

47. Bosh prokuraturaning boshqarma va bo‘limlari boshliqlari tomonidan fuqarolar shu tarmoqqa taalluqli masala yuzasidan qabul qilinadi.

48. Viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar, ularning o‘rinbosarlari, mazkur prokuraturalar tarkibiy tarmoqlari boshliqlari hamda quyi turuvchi prokurorlarning qarorlaridan norozi bo‘lib murojaat etgan fuqarolarni qabul qiladilar.

49. Fuqarolarni qabul qilish uchun fuqarolar murojaatlari va xatlar bo‘limi, prokurorlarning soha bo‘yicha katta yordamchilari tomonidan ruxsatnoma yozib beriladi va tegishli tarkibiy tarmoqlarga ma‘lum qilinadi. Fuqarolarni tarkibiy tarmoqlarda yoxud prokuratura rahbariyati tomonidan qabul qilish uchun asoslar mavjud bo‘lmasa, bu haqda ularga tushuntiriladi. Bunday hollarda ham fuqarolarning murojaatlari ko‘rib chiqishlik uchun qabul qilinadi.

50. Fuqarolar bevosita yashash, ishlash va o‘qish joylarida qabul qilinishi mumkin.

Shaxsiy qabulda bo‘lgan fuqarolar tomonidan yozma murojaat taqdim etilmasa, ulardan og‘zaki murojaat qabul qilinganligi haqida ma‘lumotnoma tuziladi. Ma‘lumotnoma og‘zaki murojaat qilgan shaxs hamda fuqaroni qabul qilgan prokuratura xodimi tomonidan imzolanadi hamda mazkur yo‘riqnomada belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi.

*Yo‘riqnoma O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 10-dekabrda 37-buyrug‘i bilan tasdiqlangan.*

1. Prinsip so'zining ma'nosini ayting.
2. Prokuratura organlarini tashkil etish va faoliyat prinsiplari tushunchasini bayon eting.
3. Prokuratura organlarini tashkil etish va faoliyatining asosiy prinsiplarini bilasizmi?
4. Birlik prinsipi deyilganda, nima tushuniladi?
5. Markazlashganlik prinsipi deyilganda, nima tushuniladi?
6. Mustaqillik prinsipi deyilganda, nima tushuniladi?
7. Faoliyatiga to'sqinlik qilish deyilganda, nima tushuniladi?
8. Oshkoralik prinsipi deyilganda, nima tushuniladi?
9. Qonuniylik prinsipi deyilganda, nima tushuniladi?
10. Qonun buzilishini aniqlash va o'z vaqtida bartaraf etish tamoyili nima?
11. Prokuratura organlarining jamoat birlashmalari va mehnat jamoasi bilan o'zaro hamkorligi nima?
12. Ichki tashkiliy prinsiplar sifatida prokuratura organlarida qanday prinsiplar qo'llaniladi?
13. Hududiylik prinsipi nima?
14. Hududiylik prinsipiga oid hududga biriktirilgan bo'lim prokurori qanday vazifalarni amalga oshiradi?
15. Hududiylik prinsipi asosida ishlarni tashkillashtirish borasida prokuror nazorati nima?
16. Predmetlilik prinsipi nima?
17. Prokuratura organlarining funksiyalari deganda, nima tushuniladi?
18. Prokuratura organlarini tashkil etishga sabab bo'lgan muhim funksiyani bayon eting.
19. Qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat deganda, nima tushuniladi?
20. Huquq ijodkorligi faoliyatida ishtirok etish deganda, nima tushuniladi?

## Prokuraturaning tashkiliy va faoliyat prinsiplari

Birlik

Markazlashganlik

Qonuniylik

Mustaqillik

Oshkoralik

Hududiylik

Predmetlilik

## Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari

Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat qilish

Tezkor-qidiruv faoliyatni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish



**4-bob. PROKURATURA ORGANLARIDA ISHNI TASHKIL ETISH. JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASH FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH**

**4.1. Prokuratura organlarida ishni tashkil etish**

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarida ishni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari, qonunosti hujjatlarida belgilangan vazifa va vakolatlaridan kelib chiqqan holda quyi turuvchi prokurorlarning yuqori turuvchi prokurorlarga va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunishi hamda hisobdorligi asosida faoliyat ko'rsatishi bilan belgilanadi.

Yuqori turuvchi prokuror quyi turuvchi prokurorga ko'rsatmalar berishga yoxud uning har qanday, shu jumladan, protsessual qarorini o'zgartirish yoki bekor qilishga haqlidir. Shuningdek, o'z bo'ysunuvdagi barcha prokurorlarning ishlari to'g'ri tashkil etilishi uchun to'liq javobgardir. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarida ishni tashkil etish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining maxsus ayni masala yuzasidan qabul qilgan buyrug'ida batafsil bayon qilingan.

*O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining «Prokuratura organlarida ishlarni tashkillashtirish, ijro intizomini mustahkamlash va tahliliy faoliyat samaradorligini oshirish to'g'risida» 2004-yil 9-dekabrda 33-buyrug'ida:*

• O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tarkibiy tarmoqlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, O'zbekiston Respublikasi Harbiy va Transport prokuraturalari, tuman (shahar) prokuraturalari hamda ularga tenglashtirilgan prokuraturalar hududda qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan prokuror nazoratini to'g'ri tashkil etish, ijro intizomini mustahkamlash choralari ko'rilishi zarurligi;

- prokuratura organlarida ishlarni tashkil etish, quyi organlar ustidan rahbarlik qilish, faoliyatni takomillashtirish, ijro intizomini mustahkamlash, qog'ozbozlikka barham berish, hisobotlarni yuritish borasida tashkiliy-nazorat va tahlilot tarmoqlarining ishtiroki va mas'uliyati oshirilishi lozimligi;

- tashkiliy-nazorat va tahlilot tarmoqlari tomonidan mahkama-niing boshqa tarkibiy tarmoqlari orasidagi hamkorlikni o'rnatish, faoliyatda bir-birini takrorlash, muayyan masala yuzasidan turli tarmoqlar tomonidan quyi prokuraturalarga topshiriqlar yuborish, hisobot ma'lumotlarida yaqqol ko'rinib turgan ko'rsatkichlarni zaruratsiz sharhlashni talab qilish hollarini oldini olishning barcha choralari ko'rilishi kerakligi;

- tuman prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarning xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlashda ularning kasb malakasi hamda ish tajribasi inobatga olinishi zarurligi;

- prokuratura organlarida ish rejaları qonuniylik va jinoyatchilik ahvolidan kelib chiqqan holda har 6 oyga tuzilishi kerakligi hamda rejaviy tadbirlarning belgilangan muddatlarda to'liq bajarilishi ta'minlanishi shartligi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va hukumati hamda prokuratura rahbariyati tomonidan yuborilgan topshiriq, ko'rsatma va so'rovnomalarning ijrosi ustidan nazorat o'rnatilib, ijro intizomiga qat'iy rioya qilinishi;

- mahkama xodimlarining rejadan tashqari joylarga chiqishlari (favqulodda hodisalar, shikoyatlarni tekshirish, jinoyatlarni tergov qilish va boshqa masalalar) prokuratura rahbariyatining ruxsati bilan amalga oshirilishi shartligi;

- qonuniylik va jinoyatchilik ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlar, tergov ishlari va prokuror nazorati to'g'risidagi statistik hisobotlar muntazam ravishda tahlil qilib borilgan hamda ular asosida prokuratura organlari oldidagi muhim va dolzarb vazifalar belgilanishi zarurligi qayd etilgan.

Ushbu yo'riqnomada umumiy qoidalar, xizmat hujjatlarini tuzish va rasmiylashtirish qoidalari, hujjatlarni yuborish, tasdiqlash, sana, indeks, raqam, sarlavha, raqamlash, ilovalar, imzo, ayrim turdagi hujjatlarni rasmiylashtirish, matnga bo'lgan talablar, telegramma (shoshilinchnomalar) va telefonogrammalarni rasmiylashtirish, hujjatlarni qabul qilish, ularni ro'yxatga olish va ko'rib chiqish tartiblari, jo'natiladigan hujjatlarni ishlash tartibi, hujjatni ijroga berish tartibi, hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazishning umumiy

qoidalari, fuqarolarning murojaatlarini ro'yxatdan o'tkazish, jinoyatlar haqidagi xabar va arizalarni ro'yxatdan o'tkazish, o'rganish uchun chaqirib olingan fuqarolik, xo'jalik, jinoyat va ma'muriy ishlarni ro'yxatga olish va hisobini yuritish tartibi, boshqa hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazish, hujjatlarning ijro etilishi ustidan nazoratni tashkil qilish, hujjatlarni mashinkada bosish qoidalari, hujjatlarni ko'paytirish va nusxa ko'chirish tartibi haqida, hujjatlar yig'ma jildlari nomenklaturasini tuzish va hujjatlar yig'ma jildlarini shakllantirish tartibi haqida, ariza, shikoyatlar, shuningdek, fuqarolik, xo'jalik ishlari va maxsus xabarlar yuzasidan nazorat ishlarini shakllantirish va rasmiylashtirish tartibi, hujjatlarni idoraviy arxivga topshirish tartibi, hujjatlarning saqlanishini ta'minlash, hujjatlarining muhimlik qiymatini ekspertiza qilish va uni tashkil qilish tartibi, muhr va shtamlardan foydalanish, ularni saqlash va hisobini yuritish tartibi to'g'risida, prokuror va tergovchilar ishining hisobini yuritish tartiblari berilgan bo'lib, butun prokuratura idoralari tizimi yo'riqnoma asosida o'z ishlarini yuritadilar.

Bosh prokuratura va uning tarkibiy tarmoqlarida ishlarning tashkil etilishi, amalga oshirilishi, nazoratning ta'minlanishi, hay'at majlislari, tezkor yig'ilishlarning o'tkazilishi, tashkiliy boshqaruv yo'nalishidagi hujjatlarning (buyruq, ko'rsatma, farmoyish, nizom, yo'riqnomalar) tayyorlanishi, imzolanishi va ijroga qaratilishi bilan bog'liq masalalar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari, yo'riqnomalar, tarkib, tarmoqlar to'g'risidagi nizomlar bilan tartibga solinadi. Bosh prokuratura tarkibiy tarmoqlarining faoliyati soha, mintaqa prinsipi bo'yicha tashkil etiladi.

Bosh prokuraturaning ishi har olti oyga tuzilgan rejalari asosida tashkillashtiriladi. Ish rejasiga takliflarni boshqarma va bo'limlarning boshliqlari, Bosh prokuror o'rinbosarlari bilan kelishilgan holda, qonuniylik ahvoli va jinoyatchilik hollari tahlili asosida, shuningdek, hay'at, Muvofiqlashtiruvchi kengash qarorlari, Bosh prokurorning buyruq, ko'rsatmalarini inobatga olgan holda kiritadilar.

Ish rejasiga takliflar asoslantirilgan bo'lishi hamda ularning tadbirlarning ijro muddatlari, mas'ul shaxslar, ijrochilar, taklif natijalarini amalga oshirishdagi mo'ljallanayotgan shakllar va taalluqli ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa idoralar ishtirok etishi nazarda tutilayotgan tadbirlar ular bilan oldin kelishib olingan bo'lishi lozim.

Bosh prokuraturaning ish rejasiga doir takliflar loyihasini tayyorlash uchun tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasiga har

yil 10-iyun va 10-dekabrda kechiktirmay topshiriladi. Ish rejasi loyihasi tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi tomonidan tayyorlanib, Bosh prokurorning o‘rinbosarlari bilan kelishilganidan keyin hay’at muhokamasiga kiritiladi. Muhokama natijalari bo‘yicha tashkiliy-nazorat va tahlil boshqarmasi tomonidan ish rejasiga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritilib, tasdiqlash uchun Bosh prokurorga taqdim etiladi.

Ish rejasi rejalashtirilayotgan davr boshlanishidan kamida 3 kun oldin Bosh prokuror o‘rinbosarlariga, boshqarma va bo‘limlar viloyat prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalar, shuningdek, qonunchilikni mustahkamlash muammolari va tergov xodimlari malakasini oshirish Markazi hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlar va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentiga ijro uchun yuboriladi.

Rejaviy tadbirlarning ijrosi uchun boshqarma va bo‘limlar boshliqlari mas’ul bo‘lib, ularning o‘z vaqtida bajarilishi uchun javobgar hisoblanadi. Rejaviy tadbirlarni almashtirish, muddati va ijro tartibini o‘zgartirish mas’ul hisoblangan boshqarma boshlig‘ining tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi bilan kelishilgan va Bosh prokurorning o‘rinbosari roziligida tuzilgan bildirgisi orqali faqat Bosh prokuror tomonidan amalga oshiriladi.

Rejada belgilangan tadbir to‘liq ijro etilganligi haqida uning bajarilishi uchun mas’ul boshqarma (bo‘lim) boshlig‘i Bosh prokurorning o‘rinbosari bilan kelishilgan holda Bosh prokurorga bildirgi orqali ma’lum qiladi. Bosh prokuror mazkur masalani nazoratdan chiqarish yoki qo‘shimcha ma’lumotlar bilan to‘ldirish zarurligi haqida ko‘rsatma beradi.

Tadbirning ijrosi haqidagi tegishli hujjatlar tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasiga yuboriladi. Boshqarma va bo‘limlar o‘z ishlarini Bosh prokuraturaning ish rejasi asosida, qonuniylik ahvoli va jinoyatchilik holati, prokuror nazorati va sud-tergov amaliyotini inobatga olgan holda rejalashtiradilar.

Boshqarma va bo‘limlar ish rejalarida quyi prokuraturalar faoliyatini bevosita tekshirish, ularga ijro etish uchun majburiy bo‘lgan tadbirlar kiritish va shu asosda topshiriqlar yuborish taqiqlanadi. Boshqarma va bo‘limlarning ish rejasi Bosh prokuror yoki uning o‘rinbosarlari tomonidan tasdiqlanadi hamda uning nusxasi tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasiga beriladi.

Boshqarma, bo'lim ish rejasiga o'zgartish va qo'shimchalar mazkur boshqarma, bo'lim boshlig'ining asoslantirilgan hamda tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi bilan kelishilgan bildirgisi asosida ish rejasini tasdiqlagan prokuratura rahbariyatining roziligi bilan kiritiladi. Boshqarma va bo'limlarning ish rejalaridagi tadbirlar to'liq ijro etilganidan so'ng, prokuratura rahbariyatining roziligi bilan nazoratdan chiqariladi hamda tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasiga bu haqda ma'lumotnoma beriladi.

Rejaviy tadbirlar yakunida tegishli ma'lumotnoma (umumlashma) tuzilib, ularning mohiyatiga ko'ra prokuratura rahbariyati bilan kelishilgan holda prokuror nazorati choralari qo'llaniladi yoki quyi prokuratura organlariga yo'naltiruvchi va tanbeh xatlari yuboriladi, shuningdek, tadbir natijalari tegishincha hay'at majlis-lari, Muvofiqlashtiruvchi kengash va tezkor yig'ilishlarida muhokama qilinadi.

Ish rejalarining bajarilishi ustidan nazoratni tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi amalga oshiradi. Ushbu boshqarma tomonidan bevosita tekshirish orqali hamda ish rejasining bajarilishi haqida tarkibiy tarmoqlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotnomalar asosida yilning har choragida Bosh prokurorga axborot berib boriladi. Prokuratura organlarida prokurorlik faoliyati, tergov ishlari hamda jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarning hal etilishi to'g'risidagi statistik hisobotlarni tuzish, topshirish va jamlash tartibi Bosh prokurorning buyrug'i va tegishli yo'riqnoma bilan belgilanadi.

Tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi tegishli tarmoqlarni jinoyatchilik holati haqidagi ma'lumotlar hamda statistik hisobotlar bilan ta'minlab turadi. Bosh prokuratura tarmoqlari qonuniylik va jinoyatchilik holati, tergov va prokuror nazorati ahvoli to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, faoliyatni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi hamda prokuratura rahbariyatiga kiritadi.

Nazoratni tashkil etish va amalga oshirishda ayrim masalalar bo'yicha Bosh prokuror va uning o'rinbosarlari farmoyishlari bilan ishchi guruhlar hamda komissiyalar tuzilishi mumkin, zarur hollarda bu guruh va komissiyalarga qonunchilikni mustahkamlash muammolari va prokuror-tergov xodimlari malakasini oshirish Markazi xodimlari ham jalb etiladi.

*«O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlarida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish to'g'risida»gi yo'riqnomani tasdiqlash haqida 2006-yil 27-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 65-buyrug'i qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra:*

• «O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlarida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish to‘g‘risida»gi yo‘riqnoma ilovaga muvofiq tasdiqlangan va 2007-yilning 1-yanvaridan amalga kiritilgan.

• O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o‘rinbosarlari, Bosh prokuraturaning boshqarma va bo‘lim boshliqlari, Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti boshlig‘i, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, O‘zbekiston Harbiy va Transport prokurorlari hamda tuman prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar ish yuritishning «O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlarida ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish to‘g‘risida»gi yo‘riqnoma talablari asosida olib borilishini ta‘minlashi yuklatilgan.

• Bosh prokuraturaning xo‘jalik ishlari bo‘limi markaziy mahkamaning boshqarma va bo‘limlarini, viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar, tuman prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarni, shuningdek, Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti boshlig‘i departament organlarini yo‘riqnomaga ilova qilingan namunalar shaklidagi hujjatlar va kitoblar bilan ta‘minlash choralarini ko‘rishi belgilangan.

• Buyruq va yo‘riqnoma ijrosini ta‘minlash uchun prokuratura va Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti organlarining barcha xodimlariga yetkazish qayd etilgan.

• Mazkur buyruqning ijrosi ustidan nazorat Bosh prokurorning o‘rinbosarlariga yuklatilgan.

• O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2000-yil 25-dekabrda 830-buyrug‘i hamda ushbu buyruq bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi idoralarda ish yuritish va hujjatlar ijrosini nazorat qilish to‘g‘risida»gi yo‘riqnoma 2007-yilning 1-yanvaridan o‘z kuchini yo‘qotishi ta‘kidlangan.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari ishini tashkil etish reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida 2005-yil 17-fevralda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 41-buyrug‘i mavjud. Bu buyruqqa binoan, «O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining reglamenti» 1-ilova bilan tasdiqlangan. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar,

O'zbekiston Respublikasi Harbiy va Transport prokuraturalarining namunaviy reglamenti 2-ilova bilan tasdiqlangan.

«O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining reglamenti» ijrosini ta'minlash uchun Bosh prokuror o'rinbosarlari va Bosh prokuraturaning tarkibiy tarmoqlariga yetkazish yuklatilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, O'zbekiston Respublikasi Harbiy va Transport prokuraturalarining namunaviy reglamenti tegishli prokurorlarga yuborish hamda ularga ushbu namunaviy reglament asosida mazkur prokuraturalarning reglamentini tasdiqlash va amalga tatbiq etish topshirilgan.

Prokuratura organlari xodimlari tomonidan reglament talablarining buzilishiga yo'l qo'yilishi intizomiy javobgarlikka tortish uchun asos bo'lishi belgilab qo'yilgan. Mazkur buyruqning ijrosi ustidan nazorat olib borish Bosh prokuror o'rinbosarlari va tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasiga yuklatilgan.

## **4.2. Kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va tarbiyalash**

Prokuratura organlarida barcha yo'nalishlar bo'yicha nazoratni samarali tashkil qilish kadrlarga bevosita bog'liqdir. Prokuratura organlari oldida turgan muhim vazifalarni hal qilishda yaxshi kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan holda siyosiy tayyorgarlikka ega bo'lgan xodimlar bir qator vazifalarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Prokuratura organlariga ishga qabul qilinayotgan yosh xodimlar tegishlicha O'zbekiston Bosh prokurori belgilaydigan tartibda attestatsiyadan o'tishlari lozim. Yosh mutaxassislarning ishlarini puxta tashkil qilish prokuratura organlari istiqbolli faoliyatini ta'minlashga qaratiladi.

Prokuratura organlarida xizmat qilayotgan xodimlar o'z kasbiy faoliyatlari davomida o'z xizmat vazifalarini vijdonan va namunali bajarganligi, tashabbuskorligi va ishdagi epchilligi uchun rag'batlantiriladilar. Rag'batlantirish «O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining xodimlarini rag'batlantirish va ularning intizomiy javobgarligi to'g'risida»gi Nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Rag'batlantirish: tashakkurnoma, pul mukofati, sovg'a, qimmatbaho sovg'a, belgilangan muddat tugamasdan navbatdagi darajali unvon berish, «O'zbekiston Respublikasi prokuraturasining faxriy xodimi» ko'krak nishonini berish kabi turlari mavjud.

Intizomiy jazolar esa: o'rtacha oylik ish haqining 40 % dan kam bo'lmagan miqdorda jarima solish, hayfsan, mehnat shartnomasini bekor qilish.

Ushbu intizomiy jazolar prokuratura-tergov xodimlariga, shuningdek, prokuror, prokuraturaga qarashli o'quv, ilmiy va boshqa muassasalarning xodimlariga nisbatan o'z xizmat vazifasini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi yoxud prokuratura xodimi degan nomga dog' tushiradigan nojo'ya xatti-harakat sodir etganligi uchun qo'llaniladi.

Prokuratura organlari xodimlari bir qator talablarga javob berishlari kerak:

- O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lishi;
- oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lishi;
- yuksak axloqiy xususiyatlarga ega bo'lishi;
- amaldagi qonunlarni qo'llay bila olishi;
- tegishli kasbiy malakaga ega bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni VI bo'lim 43-moddasida prokuratura organlaridagi lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan talablar aks ettirilgan bo'lib, ushbu qonunga ko'ra, «*Prokuratura organlarida prokurorlar, tergovchilar va ish o'rganuvchilar lavozimiga oliy yuridik ma'lumotga ega, zaruriy kasbiy fazilatlariga bo'lgan, zimmalari yuklanadigan xizmat vazifalarini bajarishga sog'lig'i imkon beradigan O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tayinlanadi.*

*O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman-shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar lavozimiga 25 yoshdan kichik bo'lmagan shaxslar tayinlanadi...».*

Ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasi prokurori, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman-shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar lavozimiga prokuratura xodimlari oldiga qo'yilgan talablarga qo'shimcha ravishda yana ikki talab mavjud:

- 25 yoshdan kichik bo'lmagan shaxs bo'lishi;
- kamida 5 yillik ish stajiga ega bo'lishi lozim.

Kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va tarbiyalash yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 9-dekabrda «Kadrlar boshqarmasi to'g'risida» 30-buyrug'i va shu buyruq bilan tasdiqlangan Nizom ham alohida o'rin tutadi. Buyruq va Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 11-martdagi PF-3406-sonli Farmoniga va O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 13-moddasiga asosan qabul qilingan.



**O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining**  
**«Kadrlar boshqarmasi to'g'risida»gi**  
**N I Z O M**

**I. Umumiy qoidalar**

1.1. Kadrlar boshqarmasi (bundan keyin matnda boshqarma deb yuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining mustaqil tarkibiy tarmog'i hisoblanadi va boshqarma faoliyatini Bosh prokuror nazorat qilib boradi.

1.2. Boshqarma faoliyatiga Bosh prokuror tomonidan tayinlanadigan boshqarma boshlig'i rahbarlik qiladi. Boshqarmada boshliq o'rinbosari, katta prokurorlar, prokurorlar, boshqarma mutaxassislari hamda nozir faoliyat ko'rsatadi.

1.3. Boshqarma o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari, Bosh prokuraturaning hay'ati qarorlari, «Prokuratura organlari va muassasalarida xizmat o'tash tartibi to'g'risida»gi Nizom, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, hukumat qarorlari, Bosh prokurorning sohaviy buyruq va ko'rsatmalari hamda mazkur Nizom talablari asosida amalga oshiradi.

1.4. Boshqarma tomonidan qonuniylik ahvoli va kadrlarni tanlash, tayinlash va tarbiyalash masalasidagi hisobot hamda tahlillardan kelib chiqqan holda ishlarni tashkillashtirish borasida Bosh prokuraturaning yarim yilga tuziladigan ish rejasiga takliflar beriladi va boshqarma ish rejasiga tuziladi. Ish rejasiga kiritilgan tadbirlar ijrosi belgilangan muddatlarda ta'minlanadi.

1.5. Boshqarma faoliyatini tashkil etish xodimlar o'rtasida vazifalarni soha-mintaqa va o'rindoshlik asosidagi ish taqsimotiga binoan, amalga oshiriladi.

1.6. Boshqarmada kadrlarni tanlash, tayinlash va tarbiyalash borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tahliliy hujjatlar tayyorlanadi va bu haqda Bosh prokuratura rahbariyatiga axborot berib boriladi. Quyi prokuraturalar sohaviy faoliyatini yaxshilashga qaratilgan topshiriq, ko'rsatma va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqiladi va joylarga yuboriladi.

1.7. Boshqarmada tezkor yig'ilishlar o'tkazib boriladi va ularda sohaga taalluqli, shuningdek, bevosita tarmoq faoliyati bilan bog'liq masalalar muhokama qilinadi.

1.8. Boshqarmada fuqarolarning ariza va shikoyatlarini hal qilish va qonunchilik targ'iboti borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan

belgilangan muddatlarda hisobot tuzilib, tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasiga topshiriladi. Kadrlarni tanlash, tayinlash va tarbiyalash borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har olti oyda 6-T shaklida hisobot tuzilib, natijasi haqida Bosh prokuratura rahbariyatiga axborot beriladi. Hisobotlarning haqqoniyligi uchun mas'uliyat viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar hamda boshqarma boshlig'i zimmasida bo'ladi.

Zaruriyat tug'ilganda viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalardan sohaga oid qo'shimcha tahliliy ma'lumotlar talab qilib olinadi.

1.9. Boshqarma Bosh prokuraturaning tarkibiy tarmoqlari, shuningdek, prokuror-tergov xodimlari malakasini oshirish Markazi, Oliy yuridik ta'lim muassasalari, tegishli idoralar hamda jamoatchilik bilan hamkorlikda ishlarni tashkil etadi.

1.10. Kadrlar boshqarmasi o'z nomi yozilgan dumaloq muhr va boshqa shtamplarga ega bo'ladi.

1.11. Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning kadrlar bo'yicha katta yordamchilari (bundan keyin matnda katta yordamchilar deb yuritiladi) va Bosh prokuratura huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining kadrlar bo'limi o'z faoliyatini mazkur Nizom talablaridan kelib chiqqan holda amalga oshiradi.

## **II. Boshqarmaning asosiy vazifasi va faoliyat yo'nalishlari**

2.1. Boshqarmaning asosiy vazifasi Respublika Bosh prokuraturasining tarkibiy tarmoqlari, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar bilan hamkorlikda — prokuratura organlariga bilimli, axloqan pok, yuksak ma'naviy fazilatlariga ega kadrlarni tanlash, tayinlash, ularni o'z xizmat burchiga sadoqat ruhida tarbiyalashdan iborat.

Shu maqsadlarda boshqarma quyidagi asosiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradi:

2.2. Oliy yuridik o'quv muassasalari bilan hamkorlikda prokuratura organlariga ishga qabul qilish uchun oliy o'quv yurtini bitiruvchi talabalar orasidan yosh xodimlarni ularning bilimi, shaxsiy va ishchanlik qobiliyatlarini o'rganish asosida tanlab, ro'yxatini tuzib, Respublika Bosh prokuraturasi rahbariyatiga taqdim qiladi.

2.3. Prokuratura organlariga ishga qabul qilish amaliyotini, xodimlar uchun yashash va mehnat sharoitlari yaratilganligini o'rganadi va bu borada yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'radi.

2.4. Bosh prokuraturaning tegishli tarmoqlari bilan hamkorlikda Bosh prokuratura xodimlarining kasb-malakasini oshirish yuzasidan ishlarni tashkillashtiradi va ularning ijrosi ta'minlanishini nazorat qiladi.

2.5. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi qonunchilikni mustahkamlash muammolari va prokuror-tergov xodimlari malakasini oshirish Markazi bilan hamkorlikda prokuratura organlari xodimlari malakasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni belgilab, ularning ijrosi ta'minlanishini tashkillashtiradi hamda quyi prokuraturalarda bu borada belgilangan tadbirlar ijrosini nazorat qiladi.

2.6. Bosh prokuratura hamda viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalar xodimlaridan o'zining ishchanlik, shaxsiy, ma'naviy xislatlari bilan rahbarlik lavozimlariga mos keladigan rahbar kadrlar zaxirasi ro'yxatini tuzib, tasdiqlash uchun Bosh prokurorga taqdim etadi, quyi prokuraturalarning bu boradagi faoliyatini nazorat qiladi.

2.7. Attestatsiya komissiyasining bir yilga mo'ljallangan ish rejasi loyihasini ishlab chiqadi hamda prokuratura organlari xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish ro'yxatini tuzadi, ularni tasdiqlash uchun attestatsiya komissiyasi raisiga taqdim etadi.

2.8. Tasdiqlangan ro'yxat asosida Bosh prokuratura nomenklaturasidagi xodimlarning attestatsiyadan o'tkazilishini tashkillashtiradi va amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilgan holda umumlashtirib, natijasi haqida Bosh prokurorga axborot beradi va attestatsiya komissiyasi majlisida muhokama qilishga tayyorlaydi.

2.9. Joylardagi attestatsiya komissiyalari ish faoliyatini o'rganadi. Prokuratura organlari xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish ishlarini tahlil qilib, umumlashtiradi, natijalari bo'yicha ishni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlaydi.

2.10. Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarga kadrlar ishini olib borishda amaliy yordam beradi hamda ular bilan birgalikda soha bo'yicha katta yordamchilarning ishini tashkillashtiradi, ushbu yo'nalishda uslubiy tavsiyalar ishlab chiqadi va joylarga yuboradi. Kadrlar bilan ishlash bo'yicha ijobiy ish tajribasini o'rganadi va ommalashtiradi.

2.11. Xizmat burchini bajarish vaqtida nogiron yoki halok bo'lgan prokuratura organlari xodimlarining oilalari ijtimoiy himoyasini ta'minlash choralarini ko'radi.

2.12. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tasdiqlangan:

- «Prokurorning jamoatchi yordamchilari to'g'risida»gi;
- «Prokuratura organlarida yosh xodimlarning ishini tashkil etish haqida»gi;
- «O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari xodimlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod qilishda hujjatlarni va boshqa moddiy ashyolarni topshirish va qabul qilib olish tartibi to'g'risida»gi va sohaga oid boshqa Nizomlar talablarini quyi prokuraturalar tomonidan bajarilishini nazorat qiladi.

2.13. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining boshqarma va bo'lim boshliqlari, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar bilan hamkorlikda prokuratura organlari xodimlarini mukofotlash va rag'batlantirish bilan bog'liq ishlarni amalga oshiradi.

Prokuratura organlari xodimlarini «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist» unvoni va davlat mukofotlariga taqdim etish, «O'zbekiston Respublikasi prokuraturasining faxriy xodimi» nishonini berish yuzasidan hujjatlarni tayyorlaydi.

2.14. Prokuratura organlari, shu jumladan, SVOJQK departamenti xodimlariga darajali unvonlar berish to'g'risidagi taqdimnomalarni ko'rib chiqadi va xodimlar darajali unvonlarning qonunda belgilangan tartib va muddatda berilishini tashkil etadi.

2.15. Bo'sh lavozimlar haqida har oyda ma'lumot tayyorlab, Respublika Bosh prokuraturasi tarkibiy tarmoqlari, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar bilan birgalikda ularni to'ldirish choralarini ko'radi.

2.16. Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar, SVOJQK departamenti boshlig'i va uning hududiy boshqarmalari boshliqlari tomonidan xodimlarni mukofotlash, rag'batlantirish va intizomiy javobgarlikka tortilganlik holatlarini o'rganadi hamda asossiz va noqonuniy buyruqlarni bekor qilish choralarini ko'radi. Prokuratura organlaridan noqonuniy bo'shatilganligi, prokuratura xodimlari tomonidan nojo'ya xatti-harakatlar sodir etilganligi haqidagi hamda boshqa turdagi ariza va shikoyatlar yuzasidan tekshirishlar o'tkazishni tashkillashtiradi.

2.17. Respublika Bosh prokuraturasi xodimlarining va Respublika Bosh prokurori buyrug'i bilan lavozimga tayinlanadigan hamda lavozimga tayinlashga rozilik beriladigan prokuraturalar xodimlarining shaxsiy yig'ma jildlarini yuritadi. Shaxsiy yig'ma jildlar hisobi va darajali unvonlar berish bo'yicha kartotekalar tuzadi.

Bosh prokuratura xodimlariga mehnat daftarchalarini berish, saqlash, hisobini yuritishni, darajali unvonlari bo'lgan xodimlarga uzoq muddatli xizmatlari uchun mansab maoshlariga foizli ustama haq belgilashni tashkillashtiradi va o'z vaqtida to'lashni nazorat qiladi.

2.18. Qonunlarni targ'ib qilish va jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish ishlarida qatnashadi.

2.19. Prokuratura organlari xodimlarining daxlsizligini ta'minlash, ijtimoiy himoyasini mustahkamlash hamda mehnat va yashash sharoitlarini yaratishda ishtirok etadi.

2.20. Bosh prokuratura huzuridagi «Faxriylarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markazi» bilan hamkorlikda prokuratura organlari faxriylari bilan ish olib boradi.

### **III. Boshqarma boshlig'ining vakolatlari**

3.1. Boshqarma faoliyati ustidan rahbarlikni olib boradi va boshqarmaga yuklatilgan vazifalarning bajarilishini tashkillashtiradi, Bosh prokuror bilan kelishilgan holda xodimlar o'rtasida vazifalarni soha-mintaqa va o'rindoshlik asosida taqsimlaydi hamda ularning bajarilishini nazorat qiladi.

3.2. Boshqarmaning yarim yilga mo'ljallangan ish rejasini tuzadi va belgilangan tadbirlarning bajarilishini tashkil etadi. Boshqarma faoliyatiga taalluqli bo'lgan masalalar yuzasidan tezkor yig'ilishlar o'tkazadi va boshqarma xodimlari hamda viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning katta yordamchilari hisobotlarini eshitadi.

3.3. Bosh prokuraturaning tarkibiy tarmoqlari, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar bilan hamkorlikda prokuratura organlarida kadrlarni tanlash, tayinlash, tarbiyalash va malakasini oshirish ishlarini tashkillashtiradi, boshqarmaga ishga tayinlash uchun kadrlarni tanlash masalasida Bosh prokurorga taklif kiritadi. Boshqarma xodimlarining attestatsiya loyihalarini va ularga darajali unvonlar berish to'g'risidagi taqdimnomalarni tayyorlaydi.

3.4. Bosh prokurorning sohaga oid buyruq va ko'rsatmalari hamda hay'at qarorlarining bajarilishini tashkil etadi, dolzarb masalalarni Bosh prokuraturaning hay'at majlisi muhokamasiga kiritadi.

3.5. Prokuratura organlarida «Prokuratura organlari muassasalarida xizmatni o'tash to'g'risida»gi Nizom talablarini hamda kadrlarni tanlash, tayinlash va tarbiyalash bo'yicha Bosh prokurorning sohaviy buyruqlari, yo'riqnomalari va ko'rsatmalarining bajarilishini nazorat

qilish borasidagi ishlarni Respublika Bosh prokuraturasi tarkibiy tarmoqlari, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar, Bosh prokuratura huzuridagi SVOJQK departamenti boshlig'i bilan hamkorlikda tashkillashtiradi.

3.6. Respublika Bosh prokurori nomenklaturasiga kiruvchi yuqori va keng hajmli lavozimlarga tayinlash uchun xodimlar zaxirasini o'rganib boradi va bu lavozimlarga munosib xodimlarni tayinlash to'g'risida takliflar kiritib boradi.

3.7. Boshqarma xodimlarining ish faoliyati, xususan, ijro va mehnat intizomiga rioya etishlari ustidan nazorat olib boradi hamda mehnat ta'tiliga chiqish ro'yxatlari bo'yicha ularning ta'tilga chiqishini ta'minlaydi.

3.8. Kadrlar masalasi bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish, nizom, buyruq, yo'riqnoma va boshqa hujjatlarning loyihalarini tayyorlashni tashkillashtiradi.

3.9. Bosh prokuratura tarkibiy tarmoqlari bilan hamkorlikda mahkama xodimlarini tarbiyalash, ularning kasb-mahoratini oshirish choralari ko'rilishini ta'minlaydi.

3.10. Fuqarolarning murojaatlarini belgilangan muddatlarda boshqarmada ko'rib chiqilishi va qonuniy hal etilishini tashkillashtiradi.

3.11. Fuqarolar hamda prokuratura organlari xodimlarini shaxsan qabul qiladi.

3.12. Qonunlarni targ'ib qilish va jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish ishlarida ishtirok etadi.

#### **IV. Boshqarma boshlig'i o'rinbosarining vakolatlari**

4.1. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti organlarida kadrlarni tanlash, tayinlash, tarbiyalash, malakasini oshirish va kasbga sadoqat ruhida tarbiyalash ishlarining tashkillashtirilishini departament rahbariyati bilan birgalikda amalga oshiradi.

4.2. Bosh prokuratura attestatsiya komissiyasining ish rejasi va attestatsiyadan o'tuvchi xodimlar ro'yxatini tuzishni hamda unda belgilangan masalalarni komissiya yig'ilishida ko'rish uchun tayyorlanishini tashkillashtiradi.

4.3. Bosh prokuratura attestatsiya komissiyasining ijrosi ta'minlanishi lozim bo'lgan qarorlarining hamda bildirilgan tavsiya va takliflarning bajarilishini tashkillashtiradi.

4.4. Bosh prokuratura hamda viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalar attestatsiya komissiyalarining faoliyatini tahlil qilib umumlashtiradi, natijasi bo'yicha takliflar tayyorlaydi.

4.5. Respublika Bosh prokurorining sohaga oid buyruq va ko'rsatmalari, ish rejaları va hay'at qarorlari ijrosi o'z vaqtida ta'minlanishi ustidan nazorat olib boradi.

4.6. Prokuratura organlari, shu jumladan, SVOJQK departamenti organlarida xizmat guvohnomalarining berilishi va ularning qaytarilishi yuzasidan olib borilayotgan ishlarni o'rganib, umumlashtiradi hamda ularni nazorat qilib boradi.

4.7. Boshqarmaga takroriy kelib tushgan ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqadi.

4.8. Fuqarolar hamda prokuratura organlari xodimlarini shaxsan qabul qiladi.

4.9. Kadrlar to'g'risidagi 6-T shakldagi statistik hisobotni belgilangan muddatlarda to'g'ri tuzilishini tashkillashtiradi.

4.10. Qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishlarida ishtirok etadi.

4.11. Devonxonada ish yuritishni Yo'riqnoma asosida olib borilishini tashkillashtiradi va nozirlar faoliyatini nazorat qiladi.

## **V. Boshqarma katta prokurorlari va prokurorlarining vakolatlari**

5.1. Boshqarma katta prokurorlari va prokurorlari ishlarini sohamintaqa va o'rindoshlik tamoyili asosida yuritadilar, quyi prokuratura organlariga berilgan ko'rsatma va topshiriqlarni, Bosh prokurorning sohaviy buyruqlari va nizomlari hamda Bosh prokuratura hay'atining sohaga oid qarorlari talablarining bajarilishi ustidan nazorat olib boradilar, amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilgan holda umumlashtiradilar hamda soha yo'nalishida mavjud muammolarni bartaraf etish borasida boshqarma boshlig'iga taklif kiritadilar.

5.2. O'zlariga birlashtirilgan mintaqada kadrlar bilan bog'liq masalalarning hal qilinishi ahvoli uchun shaxsan mas'ul hisoblanib, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning katta yordamchilarining faoliyatini tekshirish va amaliy yordam ko'rsatish uchun joylarga chiqadilar, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish borasida taklif beradilar.

5.3. Boshqarma boshlig'ining alohida topshiriqlarini bajaradilar, kadrlar masalasiga oid turli umumlashtirish o'tkazadilar, natijalari bo'yicha ma'lumotnoma va axborotlar tayyorlaydilar.

5.4. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomondan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlarida xodimlarning ishini tashkil etish haqida»gi yo'riqnoma talablarining joylarda bajarilishini nazorat qiladilar, bu borada olib borilgan ishlarni o'rganib, umumlashtiradilar.

5.5. Respublika Bosh prokuraturasining qonunchilikni mustahkamlash muammolari va prokuror-tergov xodimlari malakasini oshirish Markazi bilan hamkorlikda prokuratura organlari xodimlarini, shu jumladan, SVOJQK departamenti xodimlarining malakasini oshirish hamda olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq etilishi ahvolini o'rganib boradilar va natijasi bo'yicha taklif kiritadilar.

5.6. Tegishli oliy yuridik o'quv muassasalari bilan hamkorlikda talabalarning prokuratura organlarida amaliyot o'tashi, buning uchun shart-sharoitlar yaratilganligi ahvolini o'rganib boradilar.

5.7. Bosh prokuraturaning boshqarma va bo'lim boshliqlari bilan birgalikda markaziy mahkamadagi bo'sh o'rinlarga tezkor xodimlarni ishga tayinlash, boshqa ishga o'tkazish va bo'shatish masalalarini o'rganib, taklif beradilar.

5.8. Prokuratura organlarining kadrlar to'g'risidagi 6-T shakldagi statistik hisobotini tuzadilar hamda tahlil qilib, ma'lumotnoma va axborotlar tayyorlaydilar.

5.9. Respublika Bosh prokuraturasi nomenklaturasidagi xodimlarga va Bosh prokuraturada ishlayotgan tezkor hamda texnik xodimlarga xizmat guvohnomalari berilishini tashkillashtiradilar va ularni Bosh prokuraturada berish, saqlash, hisobini yuritish bilan bog'liq ishlarni amalga oshiradilar.

5.10. Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda, shuningdek, Respublika Bosh prokuraturasi huzuridagi SVOJQK departamenti organlarida xizmat guvohnomalarining berilishi va o'z vaqtida qaytarilishi ustidan tegishli viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar, SVOJQK departamenti kadrlar bo'limi, hududiy boshqarmalari bilan hamkorlikda ushbu masala yuzasidan doimiy nazorat olib boradilar.

5.11. Bosh prokuratura xodimlarining mehnat intizomiga rioya qilishlari, tezkor xodimlarning ish vaqtida maxsus xizmat kiyimida yurishlarini nazorat qilib boradilar va ular haqida taklif kiritadilar.



5.12. Fuqarolarning murojaatlarini belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqilishi va qonuniy hal etilishini ta‘minlaydilar.

5.13. Fuqarolarni shaxsan qabul qiladilar.

5.14. Prokuraturaning qonun ijodkorligi va jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish faoliyatida ishtirok etadilar.

## **VI. Boshqarmada ish yuritishni tashkil etish**

6.1. Boshqarma katta noziri va nozirlari yo‘riqnoma asosida yig‘majildlar nomenklaturasini tuzadilar va u boshqarma boshlig‘i tomonidan tasdiqlanadi hamda boshqarmadagi barcha hujjatlarni ushbu nomenklatura asosida yig‘majildlarga jamlab boradilar hamda yil yakuni bo‘yicha alohida-alohida yig‘majildga tikadilar.

6.2. Bosh prokuratura nomenklaturasida turadigan barcha xodimlarning shaxsiy yig‘majildlarini yuritadilar, ularga tegishli o‘zgarishlar va ma‘lumotlarni o‘z vaqtida kiritib boradilar.

6.3. Shaxsiy yig‘majild hamda darajali unvonlar bo‘yicha kartotekalar yuritadilar.

6.4. Boshqarma katta noziri va nozirlari boshqarmaga kelib tushgan xodimlarning shaxsiy yig‘majidlari, topshiriqlar, ariza, shikoyatlar va boshqa hujjatlarni har kuni zudlik bilan boshqarma boshlig‘iga taqdim etadilar.

Hujjatlar boshqarma boshlig‘i tomonidan ko‘rib chiqilib, ijrochi belgilanganidan so‘ng yo‘riqnoma asosida tashkil etilgan daftarga qayd etadilar va ijrochiga topshiradilar hamda bu haqda mazkur daftarga belgi qo‘yadilar.

6.5. Boshqarma katta noziri va nozirlari ijrochilarga topshirilgan hujjatlarning ijro muddatlari haqida va belgilangan nazorat muddatida ijrosi ta‘minlanmagan hujjatlarning ro‘yxatini doimiy ravishda tuzib, boshqarma boshlig‘iga taqdim etib boradilar.

6.6. Boshqarmada mavjud hujjatlarni yo‘riqnomada belgilangan saqlash muddati tugashi munosabati bilan ularni topshirish va qabul qilish dalolatnomalariga asosan Bosh prokuratura arxiviga topshiradilar.

6.7. Boshqarmada ish yuritish bilan bog‘liq boshqa vazifalarni bajaradilar.

\* \* \*

Shuningdek, Bosh prokurorning 2005-yil 17-fevraldagi «Prokuratura organlarida kadrlarni tanlash, tayinlash va tarbiyalash to‘g‘risida» 42-buyrug‘idan olingan ko‘chirma talabalarning bilimini oshirishda muhim o‘rinni egallaydi:

## **Prokuratura organlarida kadrlarni tanlash, tayinlash va tarbiyalash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar amalga oshirishi mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, prokuratura organlarining asosiy vazifalari — qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini hamda respublikaning konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va hukumat qarorlarida mamlakatda iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan qonunlarga rioya qilinishi ustidan prokurorlik nazoratini ta'minlash borasida ham prokuratura organlari oldiga mas'uliyatli vazifalar qo'yilmoqda.

Prokuratura organlari, shu jumladan, Bosh prokuratura huzuridagi soliq va valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti (bundan keyin matnda departament deb yuritiladi) organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarning to'liq bajarilishini ta'minlash uchun, avvalo, kadrlarni to'g'ri tanlash, tayinlash, tarbiyalash, ularning kasb-mahorati va malakasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy e'tibor, xodimlarning o'z ishiga bo'lgan mas'uliyatini tubdan o'zgartirish, shaxsiy javobgarligini oshirish, o'z ishining ustasi bo'lib shakllanishiga erishishga qaratilmog'i lozim.

Bu, o'z navbatida, har bir prokuratura organi xodimi chuqur bilimga, zarur amaliy tajribaga ega bo'lishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni vijdonan, halol-pok, qat'iyatlik, tashabbus va namuna ko'rsatib ado etishini taqozo qiladi.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 13-moddasiga asosan,

1. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari yuklatilgan vazifalarni bajarishda kadrlarni to'g'ri tanlash, tayinlash, tarbiyalash hamda ularning kasb mahorati va malakasini oshirish prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish muhim omillardan biri ekanligi belgilab qo'yilgan.

2. Prokuratura organlarining xodimlari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari talablariga aniq rioya etishlari va ularni bajarishlari shart ekanligi alohida qayd etilgan.

3. Prokuratura organlarida xizmat qilish uchun oliy yuridik o'quv yurtlar, departament organlarida xizmat qilish uchun esa oliy o'quv yurtning iqtisodiy va moliyaviy ma'lumoti, zarur kasbiy fazilatlari, sog'lig'iga ko'ra xizmat vazifalarini bajarishga qodir, sudlanmagan O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini qabul qilish mumkinligiga e'tibor qaratilgan.

4. Prokuratura organlariga ishga qabul qilishda, birinchi navbatda, prokuratura organlarida mehnat qilayotgan oliy ma'lumotli texnik xodimlar hamda prokurorlarning jamoatchi yordamchi safidan munosiblarini tanlashga alohida e'tibor berilgan.

5. Respublikaning yuridik, iqtisodiyot va moliya sohasidagi o'quv yurtlari bilan tegishli mutaxassislar tayyorlash borasida aloqalar yanada mustahkamlangan.

Oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarini Bosh prokuratura mas'ul xodimlaridan iborat tarkibda tuzilgan komissiya xulosasiga asosan ishga qabul qilish amaliyotidan keng foydalanilgan.

6. Prokuratura organlariga ilk bor ishga qabul qilishda xodimlar tomonidan belgilangan tartibda qasamyod qabul qilinishi ta'minlangan.

7. Prokuratura organlariga ishga qabul qilingach, mutaxassislarni tarbiyalash, kasb-mahoratini oshirish choralari ko'rilgan. Yosh mutaxassislarga tajribali xodimlardan murabbiy tayinlangan va ularning bu boradagi mas'uliyati oshirilgan va shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar murabbiylarning yosh xodimlarni tarbiyalash borasidagi hisobi attestatsiya komissiyasi yig'ilishi va tezkor majlislarda olib borilgan.

Yosh mutaxassislarning ish o'rganishi davrida ularni bir prokuraturadan boshqasiga o'tkazish va uch yilgacha yuqori prokuraturaga ishga o'tkazishga yo'l qo'yilmasin. Alohida hollarda ushbu masala Bosh prokurorning roziligi bilan hal qilinishi belgilab qo'yilgan.

8. Xodimlarni keng hajmli ishlar va yuqori lavozimlar uchun zaxiraga olish ishlari yaxshilangan. Shu maqsadda kadrlar doimo o'rganib borilgan, zaxiraga qobiliyatli, tashabbuskor, bilimdon xodimlarning kiritilishi ta'minlangan. Zaxira ro'yxatlari tegishli prokuraturalarning hay'at majlislari, departamentning tezkor yig'ilishlarida muhokama qilingan. Lavozimlarga tayinlashda, birinchi

navbatda, zaxira ro'yxatlari inobatga olingan. Intizomiy javobgarlikka tortilgan va nojo'ya xatti-harakat sodir etgan xodimlar zaxiradan chiqarilgan.

9. Bosh prokuratura va departamentdagi mehnat faoliyatida tajriba orttirgan, tashabbus ko'rsatib, o'z xizmat vazifalarini vijdonan, namunali bajarayotgan xodimlarni rahbarlik va mas'uliyatli lavozimlarga tayinlashda ularga imtiyozlar berilgan.

Tuman-shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar hamda departamentning joylardagi bo'limlari boshliqlari lavozimlariga, qoida tariqasida, prokuratura organlarida va mutaxassisligi bo'yicha kamida besh yil ishlagan, o'z ishining ustasi bo'lgan, mas'uliyat va shaxsiy javobgarlikni his etuvchi munosib xodimlar tayinlanishi belgilab qo'yilgan.

10. Prokurorlar faoliyatini baholashda qonuniylikning holati va fuqarolarning huquqlari va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonuniy manfaatlarini himoya qilishning ta'minlanishi ekanligiga alohida e'tibor qaratilgan.

O'z ish faoliyati davrida tegashli hududda qonunlar ijrosi ustidan lozim darajada nazorat o'rnatilishini ta'minlay olmagan tuman-shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar lavozimiga takroran ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmasligi haqidagi qonun talablariga qat'iy rioya qilingan.

Shuningdek, o'zlariga yuklatilgan vazifalarni to'liq bajarish choralari ko'rmagan, soliq va iqtisodiyot sohasidagi jiddiy qonun buzilishlarni aniqlash, ularning oldini olish borasidagi ishlarini to'g'ri tashkil qila olmagan departamentning hududiy boshqarma va bo'limlari boshliqlarini qayta bunday lavozimlarga tavsiya etilishiga yo'l qo'yilmagan.

11. Xodimlarni ishga qabul qilish, boshqa lavozimlarga o'tkazish, yuqori lavozimlarga tayinlash vazifasidan ozod qilish hamda prokuratura organlaridan bo'shatish masalalarini hal qilishga xolislik bilan yondashilgan, buning asoslari har bir holatda rahbarning shaxsan o'zi tomonidan sinchkovlik bilan o'rganib chiqilgan va qonun talabi asosida hal qilingan.

12. Prokuratura organlari xodimlariga ular faoliyat ko'rsatayotgan hududda oila a'zolari bilan yashashi uchun qonun shartlari doirasida, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda sharoitlar yaratib berish choralari ko'rilgan.

Oilaviy sharoiti yoki boshqa uzrli sabablar bilan boshqa joyga ko'chib ketish zaruriyati tufayli ishdan bo'shatish va boshqa hududga

ishga o'tkazish to'g'risida ariza bergan xodimlarni prokuratura organlaridan bo'shatmasdan, doimiy yashash uchun borgan joyiga ishga o'tkazishda ularga yordam berish choralari ko'rilgan.

13. Kadrlarni o'z xizmat burchiga sadoqat, ma'naviy yuksaklik ruhida tarbiyalash ishlariga jiddiy e'tibor qaratilgan. Ularning kasbiga fidoyiligi, sodiqligi, shaxsiy qobiliyati amaliy faoliyatda sinalgan va baho berilgan. Har bir jamoada mas'uliyat va talabchanlik, o'zaro hurmat va qo'llab-quvvatlash hamda yuksak madaniyat asosida sog'lom muhitning yaratilishi ta'minlangan.

Xodimlarning o'z ishiga bo'lgan mas'uliyatini tubdan o'zgartirish, shaxsiy javobgarligini oshirish hamda o'z ishining ustasi bo'lib shakllanib borishiga alohida e'tibor qaratilgan.

14. O'z xizmat vazifalarini namunali bajarayotgan xodimlar o'z vaqtida rag'batlantirilib borilgan. Darajali unvonlar berish belgilangan muddatlarda va xizmat burchini bajarishda erishgan ijobiy natijalariga qarab amalga oshirilgan.

15. Prokuratura organlari xodimlari tomonidan nojo'ya xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish choralari ko'rib borilgan. «Prokuratura xodimi» degan nomga dog' tushiruvchi xatti-harakat sodir etish favqulodda hodisa, deb qaralgan. Bunday hollarda xodimlarga nisbatan qat'iy choralar ko'rilgan.

Ayni vaqtda, xodimlarga nisbatan intizomiy choralarning qonunda belgilangan tartibda, adolatli qo'llanilishi ta'minlangan.

16. Xodim shaxsi va oilaviy ahvoli haqidagi ma'lumotlarda o'zgarishlar bo'lganida, shuningdek, yaqin qarindoshlari jinoyat sodir etganligi uchun sudlanganida shaxsiy yig'majildiga qayd qilinishini ta'minlash uchun tegishli kadrlar xizmatiga bu haqda ma'lum qilishi belgilab qo'yilgan.

17. Kadrlarni to'g'ri tanlash va prokurorlik nazoratining samarasini oshirishda attestatsiya komissiyasining tutgan o'rni va ahamiyati kuchaytirilgan. Asosiy e'tibor attestatsiyalarning xolisona o'tkazilishiga, xodimlar faoliyatidagi kamchilik va nuqsonlarga tanqidiy jihatdan baho berilishiga, xizmat vazifalarini namunali bajarayotgan xodimlarni rag'batlantirish, yuqori lavozimlarga zaxiraga olish, ularning ijobiy ish tajribalarini ommalashtirish to'g'risida takliflar kiritishga qaratilgan.

18. Xodimlarning bilimi, kasb-mahorati va malakasini oshirish borasidagi faoliyat tubdan yaxshilangan. Prokuratura organlari

rahbarlari va tarkibiy tarmoq boshliqlari bu ishda alohida namuna ko'rsatsinlar.

Bu boradagi tadbirlar aniq maqsadli ravishda, amalga oshirila-yotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar, davlat qurilishi va qonunchilik sohalaridagi o'zgarishlar, qonuniylik holati va jinoyatchilik ahvolidan hamda prokurorlik nazoratining dolzarb vazifalaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilgan.

Qonunchilikni mustahkamlash muammolari va prokuror-tergov xodimlarining malakasini oshirish markazi asosiy e'tiborni kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning sifatini yaxshilashga qaratsin.

19. Prokuratura organlarining kadrlarni tanlash, tayinlash, tarbiyalash va ularning kasb-mahoratini oshirish borasidagi faoliyati muntazam ravishda o'rganilib borilgan, natijalari tezkor va hay'at majlislarida hamda attestatsiya komissiyasining yig'ilishlarida muhokama qilinib, yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini ko'rilgan.

20. Prokuratura organlari xodimlarining salomatligini muhofaza qilish maqsadida sport-sog'lomlashtirish tadbirlari o'tkazishga e'tibor kuchaytirilgan.

21. Kadrlarni tanlash, tayinlash va tarbiyalash borasidagi quyidagi nizom va yo'riqnomalar 1—6-ilovalarga muvofiq tasdiqlangan:

- «O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlarining attestatsiya komissiyalari va prokuratura organlari xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida»gi Nizom (1-ilova);

- «O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlarida yosh mutaxassislarning ishini tashkil etish to'g'risida»gi Nizom (2-ilova);

- «Prokurorning jamoatchi yordamchilari to'g'risida»gi Nizom (3-ilova);

- «O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari xodimlarini lavozimga tayinlash hamda lavozimdan ozod qilishda hujjatlar va moddiy ashyolarni topshirish va qabul qilib olish tartibi to'g'risida»gi Nizom (4-ilova);

- «O'zbekiston Respublikasi prokuraturasining Faxriy xodimi ko'krak nishoni to'g'risida»gi Nizom (5-ilova);

- «O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori hamda O'zbekiston davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi Markaziy qo'mitasining Faxriy yorlig'i to'g'risida»gi Nizom (6-ilova).

# **«O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlarida yosh mutaxassislarning ishini tashkil etish to‘g‘risida»gi**

## **NIZOM**

### **I. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom oliy yuridik o‘quv yurtlarini bitirgan yosh mutaxassislarni prokuratura organlariga, shuningdek, yuridik, iqtisodiy va moliya o‘quv yurtlarini bitirgan yosh mutaxassislarni Soliq va valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy yo‘l bilan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentiga (bundan keyin matnda departament deb yuritiladi) tanlab, ishga qabul qilish hamda ularning bilimi va qobiliyatini hisobga olgan holda ish o‘rganishini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Prokuratura rahbariyati yosh mutaxassislarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatib, ularni prokuraturaning eng yaxshi an‘analariga sodiq holda tarbiyalash choralarini ko‘radi. Bunda yosh mutaxassislarning oliy o‘quv yurtlarida olgan bilimlarini amaliyotga tatbiq qilish, kasb sirlarini egallashlari uchun ko‘maklashish, ularda mas‘uliyat va qonun buzilishlarga murossasizlik hissini, yangilikni sezish va tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirishga asosiy e‘tibor qaratilishi lozim.

3. Prokuratura organlari tizimidagi mavjud ish o‘rganuvchi, shuningdek, tuman, shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda bo‘sh bo‘lgan prokuror yordamchisi yoki tergovchi lavozimlariga ish o‘rganuvchi sifatida qabul qilinganlar hamda departamentning tuman-shahar bo‘limlariga ilk bor ishga qabul qilingan barcha xodimlar uch yilgacha yosh mutaxassis hisoblanadilar.

Departament va harbiy prokuratura organlariga ishga qabul qilingan yosh mutaxassislar ish o‘rganuvchi lavozimida emas, tezkor xodim lavozimida faoliyat yuritadilar.

### **II. Prokuratura organlariga yoshlarni ishga qabul qilish, lavozimlarga tayyorlash va tarbiyalash**

4. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi kadrlar boshqarmasi tegishli oliy o‘quv yurti rahbariyati bilan hamkorlikda prokuraturaga qabul qilish uchun tanlab olingan talabalarning shaxsi va bilim darajasini o‘rganadi.

5. Oliy o‘quv yurtlarining talabalari prokuratura organlarida amaliyot o‘tashlari mumkin. Amaliyot Bosh prokuratura, tegishli vazirliklar hamda oliy o‘quv yurtlarning rahbariyati bilan hamkorlikda, kelishilgan jadval asosida, tuman, shahar prokuraturalari

va ularga tenglashtirilgan prokuraturalar hamda departamentning tuman, shahar bo'limlarida o'tkaziladi.

Prokuratura rahbariyati talabalarning oliy o'quv yurtlarida olgan nazariy bilimlarini amaliyotga to'g'ri tatbiq etishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib beradi, ularga tajribali xodimlardan murabbiylar tayinlaydi. Ish o'rganish amaliyoti tugagach, talabalarning shaxsiy xislati, ishchanlik qobiliyati va kamchiliklari, tanlagan kasbiga munosabati haqida tavsifnoma tuzib, uning nusxasini o'n kun ichida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning kadrlar bo'yicha katta yordamchilari, departament hududiy boshqarmalarining kadrlar bo'yicha katta inspektorlari orqali tegishligicha Bosh prokuraturaning kadrlar boshqarmasi yoki departamentning kadrlar bo'limiga yuboradi.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning kadrlar bo'yicha katta yordamchilari, departament hududiy boshqarmalarining kadrlar bo'yicha katta inspektorlari har yili talabalarning ish o'rganish amaliyotini umumlashtirib, uni attestatsiya komissiyasi yoki prokuratura (departament hududiy boshqarmasi) rahbariyati huzuridagi tezkor yig'ilish muhokamasiga kiritadi.

7. Kadrlar boshqarmasi va departamentning kadrlar bo'limi tegishli tartibda talabalarning prokuratura organlarida ish o'rganish amaliyotiga rejalashtirishda ishtirok etadi hamda prokuratura organlari tomonidan ushbu amaliyotning to'g'ri tashkil etilishini nazorat qiladi.

8. Bosh prokuraturaning kadrlar boshqarmasi tegishli yuridik oliy o'quv yurtlari, departamentning kadrlar bo'limi iqtisodiy moliyaviy ma'lumot beruvchi oliy o'quv yurtlari va IIVning Akademiyasi bilan hamkorlikda o'qishni tugatayotgan talabalarning shaxsiy xislati, nazariy bilimi, ishchanlik qobiliyati va prokuratura organlarida ishlashga bo'lgan qiziqishlarini hisobga olgan holda ishga qabul qilish uchun nomzodlarni tanlab oladi.

9. Prokuratura organlariga ishga qabul qilish uchun talabalar orasidan tanlab olingan nomzodlar Bosh prokuraturasi kadrlar boshqarmasi (tegishligiga qarab, departamentning kadrlar bo'limi) tomonidan beriladigan yo'llanmaga asosan tegishli tibbiy muassasadan ko'rikdan o'tkaziladi.

10. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan, zimmlariga yuklatilgan xizmat vazifalarini bajarishga sog'ligi imkon bermay-



digan, muqaddam sudlangan, zaruriy kasbiy fazilatlariga ega bo'lganlar prokuratura organlariga ishga qabul qilinmaydi.

11. Prokuratura organlarida ishlash uchun tanlab olinganlarning shaxsiga oid quyidagi hujjatlar to'planishi shart:

— shaxsning o'zi tomonidan qo'lyozma bilan to'ldirilgan so'rovnomasi;

— shaxsning tarjimai holi;

— yaqin qarindoshlarining shaxsiga oid va faoliyatlari haqida ma'lumotlar;

— fotosurat (6/4, 3/4 hajmda, bosh kiyimsiz tushilgan, 4 dona);

— tamomlagan oliy o'quv yurti rahbariyati tomonidai berilgan tavsifnoma;

— ishlab chiqarish amaliyotini o'tagan joydagi tuman, shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning, departamentning tuman, shahar bo'limlari boshliqlarining tavsifnomalari;

— yashash joyidan tavsifnoma;

— sog'lig'i to'g'risida tibbiy xulosa;

— ichki xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha xodimlar tomonidan o'tkazilgan tekshirish xulosasi;

— xodimning ma'lumoti, ilmiy darajasi haqidagi hujjatlar nusxalari (sinov qaydnomasi nusxasi);

— fuqarolik pasportining ksero nusxasi;

— shaxs va uning yaqin qarindoshlarini sudlangalik holatlarini tekshirish yakunlari;

— lozim topilgan boshqa hujjatlar talab qilib olinishi mumkin.

12. Bosh prokuraturaning kadrlar boshqarmasi boshlig'i tanlab o'rganilgan bitiruvchi talabalar ro'yxatini Bosh prokuror tomonidan tuzilgan komissiya ixtiyoriga tavsiya qiladi. Komissiya o'z majlisida talabalarining shaxsiy xislati, nazariy bilimi va boshqa xususiyatlarini belgilovchi hujjatlar bilan tanishib, ular bilan suhbat o'tkazadi. Natijalari bo'yicha komissiya bitiruvchini prokuratura organlariga ishga qabul qilish mumkin degan xulosaga kelsa, bu haqda Bosh prokurorga tegishli hujjatlarni taqdim etadi.

13. Departamentning kadrlar bo'limi boshlig'i esa o'rganilgan talabalar ro'yxatini Bosh prokuror tomonidan tuziladigan departament boshlig'i raisligidagi komissiyaga tavsiya etadi. Komissiya majlisiga qadar tanlab olingan talabalar nomzodi Bosh prokuror bilan kelishiladi va ushbu komissiya tomonidan talabalar bilan suhbat o'tkaziladi, natijalari haqida Bosh prokurorga axborot beriladi.

Oliy o'quv yurtini tugatgan, lekin diplomni olishga ulgurmagan yoshlar, istisno tariqasida, faqat Bosh prokurorning ruxsati bilan

prokuratura organlari tezkor lavozimlariga ishga qabul qilinishi mumkin.

14. Komissiyaning tavsiyasi asosida Bosh prokuror roziligi bilan ishga taqsimlangan yoshlarni ishga joylashtirish uchun yo'llanma bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar hamda departament boshlig'i ixtiyoriga yuboriladi.

15. Yo'llanmada yoshlarning yuqoridagi prokurorlar va departament boshlig'i ixtiyoriga yetib borishi hamda ishga tayinlash muddatlari aniq ko'rsatiladi.

Yoshlar yo'llanmada ko'rsatilgan muddatda uzrli sabablarsiz belgilangan prokuratura organlariga ishga joylashish uchun yetib bormasalar, bu progul hisoblanib, prokuratura rahbariyati yoshlarni Bosh prokurorning roziligi bilan ishga qabul qilishni rad etishi mumkin.

16. Yoshlarni ko'rsatilgan muddatda joylarga yetib borishlari bilan bog'liq xarajatlar amaldagi qonun talablariga muvofiq to'lanadi.

17. Yosh mutaxassis ishga tayinlanganidan so'ng, tegishli prokuratura va departament rahbari bu haqda o'n kun muddat ichida Bosh prokuraturaga axborot yuboradi.

18. Oliy yuridik o'quv yurtining kunduzgi bo'limini bitirgan va o'z xohishiga ko'ra, ishga joylashish huquqi bo'lgan yosh mutaxassislar uch yil davomida prokuratura organlariga faqat Bosh prokurorning roziligi bilan ishga qabul qilinadi.

Bulardan tashqari, tegishli oliy ma'lumotli fuqarolar prokuratura organlariga Bosh prokuror tomonidan tasdiqlangan «Prokurorning jamoatchi yordamchilari to'g'risida»gi Nizomga muvofiq ishga qabul qilinadilar. Shuningdek, departament tizimida bir yilgacha ishlayotgan yosh mutaxassislar, prokuror yordamchisi yoki prokuratura tergovchisi lavozimiga Bosh prokurorning roziligi bilan ish o'rganuvchi etib ishga o'tkazilishlari mumkin. Ularga ish o'rgatish ham yo'llanma bilan ishga qabul qilingan yosh mutaxassislarga ish o'rgatish kabi, dastur asosida tashkil etiladi.

19. Yosh mutaxassislar faqat tuman, shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda bir yil (attestatsiyadan o'ta olmagan hollarda attestatsiya komissiyasining xulosasiga asosan, belgilangan olti oydan bir yilgacha) bo'lgan qo'shimcha muddat davomida ish o'rganadilar.

20. Yosh mutaxassislarga ish o'rgatish ular ishga tayinlanganidan boshlab, o'n kun muddat ichida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan

prokurorlarning kadrlar bo'yicha katta yordamchilari, departamentning hududiy boshqarmalari kadrlar bo'yicha katta inspektorlari tomonidan mazkur Nizomning 1a, 2a-illovalarida keltirilgan namunaviy dasturlarga muvofiq, har bir yosh mutaxassisning bilimi va qobiliyatini e'tiborga olgan holda tuziladigan hamda ushbu bandda ko'rsatilgan prokurorlar va departamentning hududiy boshqarmalari boshliqlari tomonidan tasdiqlangan dasturga asosan amalga oshiriladi.

21. Tuman, shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalardagi bo'sh bo'lgan prokuror yordamchisi yoki tergovchi lavozimlari ish o'rganuvchilar bilan to'ldirilishi mumkin. Bu yosh mutaxassislarga ham tasdiqlangan dastur asosida prokuraturaning barcha yo'nalishlari bo'yicha ish o'rgatiladi.

22. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar, departamentning hududiy boshqarma boshliqlari yosh mutaxassislarga yashash va ishlash sharoitlarini yaratib beradilar va ularga ish o'rgatishni dastur asosida tashkil etilishini nazorat qilib boradilar.

23. Kadrlar bo'yicha prokuror katta yordamchilari va departament boshqarmasi katta inspektorlari yilida kamida uch marotaba joylardagi prokuratura (departament tuman, shahar bo'limlari)ga chiqib, bevosita ish o'rganuvchilar va bir yilgacha ishlayotgan xodimlar bilan suhbat o'tkazadi, dasturning bajarilishini o'rganadi va natijalari haqida ma'lumotnoma tuzib, tegishli prokuror va departament boshqarmasi boshlig'iga yozma ravishda ma'lum qiladi, aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etilishini nazorat qiladi.

24. Yosh mutaxassislarga yashash va ishlash sharoitlarini yaratib berish hamda ish o'rganishni dastur asosida tashkil etishga tuman, shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar (murabbiylar), departamentning tuman, shahar bo'limlari boshliqlari shaxsan mas'uldir. Ularning bu boradagi hisobotlari yilda kamida bir marta yuqori turuvchi prokuratura hamda departament hududiy boshqarmalarining tegishlicha hay'at va tezkor majlislari yoki attestatsiya komissiyasi yig'ilishlarida muhokama qilinadi.

25. Yosh mutaxassislarga tuman, shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar, departamentning tuman, shahar bo'limlari boshliqlari murabbiylik qilishi yoki ular tomonidan boshqa tajribali xodimlardan biri murabbiy etib tayinlanishi mumkin.

Murabbiy ish o'rganuvchi bilan birga, dasturda ko'rsatilgan yo'nalishlar bo'yicha prokuratura va departament bo'limining ish rejalarini inobatga olib, har oyda aniq bajarilishi lozim bo'lgan

asosiy tadbirlar rejasini tuzadi. Reja murabbiy va ish o'rganuvchi tomonidan imzolanadi, tuman, shahar prokurori va unga tenglashtirilgan prokuror yoki departament tuman, shahar bo'limi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

26. Dastur va reja asosida yosh mutaxassislar mustaqil ishlashga o'rgatib boriladi. Yosh mutaxassislar ish o'rganish jarayonida kundalik bajargan ishlarini alohida yuritilgan daftarga yozib boradilar.

Yosh mutaxassislar ish o'rganish muddati tugashi bilan dastur yuzasidan bajarilgan ishlar to'g'risida hisobot tayyorlab, uni tegishli tuman, shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar, departamentning tuman, shahar bo'limlari boshliqlariga taqdim etadi.

27. Ish o'rganuvchilar attestatsiyadan o'tib, mustaqil lavozimga tayinlanganidan keyin ham tegishli tuman, shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar, departamentning tuman, shahar bo'limlari boshliqlarining bevosita rahbarligida ish faoliyatini chuqur o'rgatish hamda ularning malakasini oshirib borish yuzasidan chora-tadbirlar ko'rib boriladi. Prokuratura organlariga ilk bor ishga qabul qilingan xodimlar attestatsiyadan o'tkazilganidan so'ng ham ikki yil davomida yosh mutaxassis hisoblanadi.

Harbiy va Transport prokuraturalarida xizmatni o'tayotgan ushbu yosh mutaxassislar yiliga bir marta Respublika Harbiy va Transport prokuraturasiga ish o'rganishga chaqiriladi.

28. Attestatsiyadan o'tgan yosh mutaxassislarga har uch oyda bir marotaba alohida topshiriqlar berib boriladi, bir yilda kamida ikki marotaba ular Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlar prokuraturalari yoki departament organlarining hududiy boshqarmalari mahkamalariga ish o'rganish uchun chaqiriladilar (Harbiy va Transport prokuraturalari bundan mustasno).

Bundan tashqari, mazkur prokuraturalarning kadrlar bo'yicha katta yordamchilari va departament boshqarmalarining katta inspektorlari, tarkibiy tarmoqlar boshliqlari bilan hamkorlikda yosh mutaxassislarga o'rganuvchilar jalb qilgan holda asosiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha bir yilda kamida uch marta alohida o'quv mashg'ulotlarini o'tkazilishini tashkil etadi. Shuningdek, yosh mutaxassislar prokuratura organlari xodimlari bilan o'tkaziladigan konferensiya, o'quv va amaliy mashg'ulotlarga jalb qilinadi.

### **III. Boshqa qoidalar**

29. Yosh mutaxassislar prokuratura organlari xodimlarining barcha huquq, imtiyozlaridan foydalanadilar va belgilangan burchlarni bajarishga majburdirlar.

Ular imkoniyat darajasida uy-joy bilan ta'minlanadi.

30. Yosh mutaxassislar ish o'rganish davrida bir prokuraturadan boshqa prokuraturaga, uch yilgacha esa Bosh prokuratura hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarning mahkamalariga ishga o'tkazilmaydi. Ayrim hollarda bunga Bosh prokurorning roziligi bilan yo'l qo'yilishi mumkin.

Departament organlarida xizmat qilayotgan yosh mutaxassislar ikki yilgacha uning markaziy mahkamasi va hududiy boshqarmalariga ishga o'tkazilmaydi.

31. Yosh mutaxassislar prokuratura va departament organlarining xodimlarini rag'batlantirish hamda ularning intizomiy javobgarligi to'g'risidagi nizomlarga asosan, rag'batlantirilishi va intizomiy javobgarlikka tortilishi mumkin.

32. Prokuratura organlariga yo'llanma bilan ishga qabul qilingan yosh mutaxassislarni uch yil mobaynida prokuratura organlaridan bo'shatishga Bosh prokurorning roziligi bilan yo'l qo'yiladi.

33. Ish o'rganish muddati tugaganidan so'ng yosh mutaxassislar «O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi attestatsiya komissiyasi, attestatsiya komissiyalari va prokuratura organlari xodimlarning attestatsiyadan o'tkazish tartibi to'g'risida»gi Nizomda belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkaziladi.

34. Yosh mutaxassislar O'zbekiston Respublikasining «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, harbiy xizmatga va shu jumladan, harbiy yig'inga chaqirilishlari mumkin.

Ular harbiy xizmatni o'tab qaytgach, tegishligicha departament boshlig'i, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan ish bilan ta'minlanadilar.

35. Yosh mutaxassislarning ish o'rganish va harbiy xizmatda bo'lish davri mehnat stajiga kiradi.

Ularning homiladorlik, tug'ish, bolani parvarishlash ta'tillariga chiqishi, harbiy xizmatga chaqirilishi, kasalligi va boshqa uzrli sabablarga ko'ra uzoq muddat ishda bo'lmagan davri ish o'rganish muddatiga kirmaydi.

*(O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining  
2005-yil 17-fevraldagi 42-buyrug'iga 2-ilova).*

# «Prokurorning jamoatchi yordamchilari to'g'risida»gi NIZOM

## I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunida belgilangan vazifa va vakolatlarni amalga oshirishda jamoatchi yordamchilarni prokuratura faoliyatiga jalb qilish tartibini belgilaydi.

2. Prokuratura, shu jumladan, Soliq va valutaga oid jinoyatlarga va jinoyiy yo'l bilan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti (bundan keyin matnda departament deb yuritiladi) organlarida xizmat qilishga xohishi bo'lgan, O'zbekiston Respublikasining oliy yuridik, iqtisodiy, moliyaviy o'quv yurtlarida sirdan yoki magistratura bosqichida tahsil olayotgan, shuningdek, tegishli oliy ma'lumotga ega bo'lib, muayyan joyda ishlab kelayotgan hamda ijobiy tavsiflarga ega fuqarolar prokurorning jamoatchi yordamchisi sifatida jalb qilinishi mumkin.

Ulardan kadrlar zaxirasini tashkil etish va bo'sh o'rinlarni to'ldirishda foydalaniladi.

3. Jamoatchi yordamchi sifatida jalb qilinadigan fuqarolar, albatta, davlat yoki nodavlat notijorat tashkilotlari, korxonalar yoki muassasalarda mehnat qilishlari lozim.

Magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalarni jamoatchi yordamchilikka jalb qilishda tegishli oliy o'quv yurti rahbariyatining roziligi olinishi shart.

## II. Jamoatchi yordamchilikka qabul qilish

4. Tuman-shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar (bundan keyin matnda tuman prokurori deb yuritiladi) jamoatchilik asosida ish o'rganish va prokuraturaga yordam berish istagini bildirgan fuqarolarni shaxsan qabul qilishi hamda murojaatni belgilangan tartibda ro'yxatga olishi lozim.

Muayyan tashkilot, korxonalar, muassasa yoki oliy o'quv yurti ma'muriyatining bunday masaladagi murojaati ham shu tartibda ko'rib chiqiladi.

Tuman prokurori, jamoatchi bo'lish xohishini bildirgan fuqaroning shaxsiy va ishchanlik xislatlarini bir oy muddatda har tomonlama o'rganib chiqadi. Natijalariga ko'ra, fuqaroning jamoatchi yordamchi sifatida ish o'rganishi va prokuraturaga yordam berishiga

ishonch hosil qilganidan so'ng, uning shaxsi, yashash va asosiy ish (o'qish) joyi haqidagi hujjatlar hamda zarur tavsifnomalarni jamlab, tegishliligi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar, respublika Transport prokuroriga taqdimnoma kiritadi.

5. Ixtisoslashtirilgan prokuraturalarga jamoatchi yordamchilarni jalb qilishdan avval, ular prokuratura organlari xodimlari kabi maxsus tekshirishdan o'tkazilishi lozim.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar, Transport prokurori tuman prokurorining taqdimnomasi va unga ilova qilingan hujjatlar bilan tanishib, bu fuqaro bilan shaxsan suhbat o'tkazish yoki qo'shimcha tekshirish tashkil qilish orqali uzog'i bilan bir oy muddatda fuqaroni jamoatchi yordamchi sifatida qabul qilishga rozilik berish yoki rad etish haqida to'xtamga keladi.

7. Taqdimnomani ko'rib chiqish natijalari haqida tuman prokuroriga yozma xabar qilinadi.

8. Taqdimnoma belgilangan tartibda qanoatlantirilgan taqdirda, tuman prokurorining buyrug'i bilan fuqaro prokurorning jamoatchi yordamchisi etib tayinlanadi va unga tajribali xodim murabbiy etib belgilanadi.

Xodimlar soni o'n nafardan oshmagan tuman prokuraturalarida uch nafargacha, o'n nafardan ortiq xodimlari bor prokuraturalarda ko'pi bilan besh nafar, o'n besh nafardan ortiq xodimlari bo'lgan prokuraturalarda esa yetti nafargacha jamoatchi yordamchi birlashtirilishi mumkin.

9. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va Transport prokuraturalarida jamoatchi yordamchilarning shaxsiy hujjatlari yig'majildi yuritiladi.

Shaxsiy hujjatlar yig'majildida:

• jamoatchi yordamchi sifatida ishga qabul qilish bilan bog'liq hujjatlar (ariza, taqdimnoma, rozilik xati, buyruq);

• shaxsiy varaqa va tarjimai hol;

• yaqin qarindoshlari haqida ma'lumotnoma;

• shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari;

• fotosurat, kattaligi 4 x 6 sm — 2 dona va 2 x 3 sm — 2 dona;

• fikrnomalar, magistratura bosqichida tahsil olayotganlarga oliy o'quv yurti rahbariyatining rozilik xati;

• yashash va ish (o'qish) joylaridan berilgan rasmiy ma'lumotlar, tavsifnomalar hamda boshqa tegishli hujjatlar.

Hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilishi va jamlanishi kadrlar tarmog'i va tegishli tuman prokurori zimmasiga yuklatiladi.

Tuman prokuraturalarida fuqaroning jamoatchi yordamchi safiga jalb qilinganligi haqidagi buyruq, ish rejalari, bajargan ishlari yuzasidan tuzilgan ma'lumotnomalar va faoliyati bilan bog'liq boshqa hujjatlar jamlab boriladi.

10. Jamoatchi yordamchilar faoliyatining to'g'ri olib borilishi uchun tuman prokurori bevosita mas'ul hisoblanadi.

Murabbiy sifatida birlashtirilgan xodimlar tomonidan jamoatchi yordamchilarning ish o'rganishida amaliy yordam ko'rsatiladi, alohida e'tibor jamoatchi yordamchining kasb-mahorati, bilimi, malakasini oshirish, shuningdek, ularning shaxsiy va ishchanlik xislatlarini shakllantirib borishga qaratiladi.

Jamoatchi yordamchining faoliyati har olti oyga mo'ljallangan ish rejalari asosida olib borilib, bajarilgan ishlar bo'yicha murabbiy ishtrokida ma'lumotnomalar tuziladi.

Tuman prokurori huzuridagi tezkor yig'ilishda murabbiyning jamoatchi yordamchi faoliyati haqidagi hisoboti eshitib boriladi.

11. Muqaddam sudlangan shaxslar hamda chet el va MDH davlatlari oliy o'quv yurtlarini tamomlab, diplomi O'zbekiston Respublikasida nostrifikatsiya qilinmagan (ekvivalentligi qayd etilmagan) fuqarolar jamoatchi yordamchilikka jalb etilmaydi.

12. Fuqaroning bir vaqtda ikki yoki undan ortiq prokuratura organlarida jamoatchi yordamchi bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

13. Bosh prokuratura, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalar mahkamalariga, shuningdek, Harbiy prokuratura va departament organlariga jamoatchi yordamchilarning jalb qilinishiga yo'l qo'yilmaydi.

### **III. Jamoatchi yordamchilarni prokuratura organlariga ishga qabul qilish uchun zaxiraga olish, ishga qabul qilish va jamoatchi yordamchilar safidan chiqarish**

14. Jamoatchi yordamchilar prokuraturada kamida olti oy davomida ish o'rganib, faoliyat olib borganidan so'ng, tuman prokurori huzuridagi tezkor yig'ilish qaroriga muvofiq ularni prokuratura organlariga ishga qabul qilish uchun zaxiraga olish to'g'risida tegishlilik bo'yicha yuqori turuvchi prokurorga taqdimnoma kiritadi.



Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar, Transport prokurori taqdimnomani tegishli attestatsiya komissiyasining navbatdagi majlisi muhokamasiga tavsiya etadi.

15. Attestatsiya komissiyasining majlisida prokuratura organlariga ishga qabul qilish uchun zaxiraga olishga tavsiya etilayotgan jamoatchi yordamchi hamda tegishli tuman prokurorining ishtirokida taqdimnomani ko‘rib chiqilib, unga rozilik berish yoki rad etish haqida qaror qabul qilinadi.

Ushbu qaror Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar, Transport prokurori bilan kelishilganidan so‘ng qonuniy kuchga ega bo‘ladi. Bu haqda tuman prokuroriga ma‘lum qilinadi.

16. Attestatsiya komissiyasi tuman prokuroriga prokuratura organlariga ishga qabul qilish uchun zaxiraga olingan jamoatchi yordamchining ishini tashkil qilish, kasb mahoratini oshirib borish borasida tegishli tavsiyalar beradi.

Zaxiraga olingan jamoatchi yordamchining reja asosida kasbga tayyorlash ishining to‘g‘ri tashkil etilishiga tuman prokurori bevosita mas‘ul hisoblanadi.

17. Prokuratura organlarida mavjud bo‘lgan bo‘sh o‘rinlarni to‘ldirishda jamoatchi yordamchilar zaxirasiga olinganlardan munosiblarini tanlashga alohida e‘tibor qaratiladi va ular belgilangan tartibda lavozimlarga tayinlanadi.

18. Jamoatchi yordamchilar quyidagi hollarda safdan chiqariladilar:

- uzrli sabablarsiz prokuratura organlariga uch oydan ortiq muddat davomida kelmaganlar;
- jinoiy javobgarlikka tortilganlar;
- oliy o‘quv yurti talabalari safidan chiqarilganlar (akademik ta‘tillar bundan mustasno);
- muddatli harbiy xizmatga chaqirilganda;
- nogiron bo‘lib qolganligi uchun asosiy ish joyida zimmasiga yuklangan xizmat vazifalarini bajarish imkonini yo‘qotganlar hamda shu tufayli prokuratura organlarida jamoatchi yordamchi sifatida faoliyat ko‘rsata olmaydiganlar.

19. Bundan tashqari, jamoatchi yordamchi prokurorning tashabbusi bilan hamda o‘z xohishiga ko‘ra bergan arizasiga binoan ham jamoatchi yordamchilar safidan chiqarilishi mumkin.

Jamoatchi yordamchilar safidan chiqarish haqida tuman prokurori tomonidan buyruq chiqariladi hamda bu haqda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat, Toshkent shahar, Transport prokuroriga asoslantirilgan axborot beriladi.

#### **IV. Jamoatchi yordamchilarning huquqlari va majburiyatlari**

20. Jamoatchi yordamchilar prokuratura organlari xodimlari uchun belgilangan tartib-intizomga rioya qilishlari lozim.

21. Jamoatchi yordamchilar:

- tuman prokurorining topshirig'iga va biriktirilgan murabbiyning rahbarligi ostida hujjatlar bilan tanishadi;

- bajarilgan ishlar bo'yicha ma'lumotnomalar tuzadi;

- qonunlar ijrosi ustidan nazorat borasida hamda fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari yuzasidan tekshirishlar o'tkazishda qatnashadi;

- prokuror nazorati hujjatlari loyihalarini tayyorlaydi;

- ayrim protsessual hujjatlarni tuzishda ishtirok etadi.

Jamoatchi yordamchi tuman prokurorining ruxsati bilan prokuratura faoliyatiga oid boshqa hujjatlarni ham o'rganishi mumkin.

22. Jamoatchi yordamchi mustaqil tekshirishlar o'tkazishi, mutasaddi tashkilotlardan hujjatlarni talab qilib olishi, tergov harakatlari olib borishi, shuningdek, qonun hujjatlari asosida taqiqlangan boshqa protsessual harakatlarni amalga oshirishiga yo'l qo'yilmaydi.

#### **V. Boshqa qoidalar**

23. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va O'zbekiston Respublikasi Transport prokurorining kadrlar bo'yicha katta yordamchilari tuman prokurorlaridan yozma ma'lumotnomalar olish hamda joyiga chiqib tekshirish orqali prokuratura organlariga jamoatchi yordamchilarning jalb etilishi ahvolini har yili kamida bir marotaba o'rganib, umumlashtiradi. Ushbu masala prokuratura rahbariyati huzuridagi tezkor yoki attestatsiya komissiyasi yig'ilishi muhokamasiga kiritiladi.

24. Jamoatchi yordamchilarni jalb etishni to'g'ri tashkil qila olmagan va ularning shaxsi, ma'naviy sifati hamda ishchanlik qobiliyatini to'liq o'rganmasdan, noto'g'ri ma'lumotnoma va tavsifnomalar bergan tuman prokurorlari intizomiy javobgarlikka tortiladilar.

25. Jamoatchi yordamchilar asosiy ish yoki o'qish joylaridan bo'sh vaqtda prokuratura ishiga jalb qilinadilar.

*(O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2005-yil 17-fevraldagi 42-buyrug'iga 3-ilova).*

### 4.3. Prokuraturada ishlarni rejalashtirish

Prokuratura organlari oldida turgan qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirishda ishlarni zamonaviy va sifatli rejalashtirish asosiy ahamiyatga ega.

*Rejalashtirish* — qonunchilikning bugungi holatini va kelgusini hisobga olgan holda chora-tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Rejalashtirish prokuratura faoliyatini aniq va ravshan holda aniq bir maqsadga muvofiq bo'lishi uchun qo'llaniladi. Rejalashtirish ishning aniq ko'rinishlarini belgilashda, kuchlarning to'g'ri taqsimlanishi hamda imkoniyatlardan maksimal darajada foydalanishda va qonuniylikni va jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini mustahkamlashga yordam beradi.

Nazorat qiluvchi organlar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va h.k.lardan talab qilib olingan axborot materiallari rejalashtirish uchun baza bo'lib xizmat qiladi. Rejalashtirish ishlari aniq bir tuman, viloyat va respublika miqyosida ularning shart-sharoitlariga qarab amalga oshiriladi.

Aytib o'tganimizdek, rejalashtirish aniq bir hududda tuziladi, biroq tumanda tuzilgan rejalashtirishdan viloyat prokuraturasida tuzilgan rejalashtirish farq qiladi, masalan, agar tuman prokuraturasining rejasida qonunning ijrosini tekshirish vazifasi qo'yilsa, viloyat prokuraturasining rejasida esa, ijroni tashkil etish yo'llari ifoda etiladi. Prokuratura organlarida ishlarni tashkil qilish rejali tartibda amalga oshiriladi. Ishni rejali tartibda amalga oshirish yuqori turuvchi prokuratura tomonidan quyi turuvchi prokuratura organlari faoliyatini nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega, buning uchun esa Respublika Bosh prokurori tomonidan tasdiqlangan reja asos bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, rejalashtirish yuqoridan pastga qarab boradi, ya'ni viloyat prokuraturasida tuzilgan rejalashtirish tuman prokuraturasi uchun majburiy xarakter kasb etadi. Hozirgi vaqtda tuman prokuraturalarida rejalashtirishning aksariyat qismi viloyat va respublika prokuraturasida tuzilgan rejalarning kelib tushganidan keyin amalga oshiriladi. Yuqori organlarning rejalarida, ko'pincha, aniq bir tuman (shahar) prokuraturasi amalga oshirishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar bayon etilgan bo'ladi.

Rejalashtirishda bir qator masalalar, yo'llar belgilab olinadi, chunonchi:

- birinchi navbatda, hal qilinadigan muammolar hamda ma'lum bir vaqt davomida amalga oshiriladigan ishlar belgilab olinadi;
- mazkur muammolarni hal qilish uchun kerakli bo'ladigan dastur ishlab chiqiladi va ana shu dastur asosida nazorat olib boriladi;
- belgilangan reja asosida huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati muvofiqlashtirib turiladi;
- amalga oshiriladigan ishlarning va belgilangan chora-tadbirlarning bajarilishi ustidan javobgarlikni belgilaydi;
- prokuratura organlarida ishlar tashkiliy rejali asosda tashkil qilinadi;
- rejani tuzishda ichki mehnat taqsimotiga rioya qilinadi.

Ko'rinib turibdiki, rejalashtirishda hal etilishi zarur bo'lgan prokuror nazoratiga daxldor masalalargina emas, balki belgilangan maqsadlarni bajarish bo'yicha chora-tadbirlar dasturini aniqlash, prokuraturaning boshqa davlat organlari va jamoat birlashmalari bilan hamjihatlik qilish shakllarini, ishlab chiqilgan chora-tadbirlarni belgilangan muddatda bajarish uchun shaxsan mas'ul shaxslarni belgilash ham ko'zda tutiladi.

Prokuratura organlarida rejalashtirish uch xilda bo'ladi:

1. *Joriy rejalashtirish* — bunda har 6 oyda yoki yarim yil davomida amalga oshiriladigan ishlar belgilab olinadi.
2. *Istiqbolli rejalashtirish* — bu 3—5 yilga mo'ljallangan.
3. *Qisqa vaqtli* (haftalik, har kunlik) *rejalashtirish* — prokuratura organlarining kelgusi faoliyat yo'nalishlari oldindan belgilab olinadi.

Rejalashtirishni tuzuvchi mas'ul shaxslar ushbu harakatni amalga oshirayotgan vaqtlarida shahardagi, viloyatdagi, respublikadagi jinoyatchilikning va qonunchilikning ahvolini chuqur tahlil etgan holda o'sha hududdagi shart-sharoitlarni inobatga olib o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari lozim. Rejalashtirishni tuzishdan maqsad faqat amalga oshiriladigan vazifalarni belgilab olishdan iborat bo'lib qolmasdan, balki rejalashtirish asosida erishiladigan yutuqlarni ham o'z ichiga oladi.

Bosh prokuraturada rejalashtirish tuzilayotgan vaqtda hududdagi prokuratura organlari amalga oshiriladigan tadbirlar to'g'risida o'zlarining takliflari bilan chiqadilar. Bu takliflar kollegial organ tomonidan ko'rib chiqilib, keyinchalik aniq bir joriy yoki istiqbolli rejalashtirish tuziladi hamda ushbu rejalashtirish viloyat va tuman prokurorlari tomonidan bajarilishi lozim bo'ladi. Bundan tashqari,

viloyat va tuman prokurorlari o'z rejalarda, ya'ni ishlarni rejalashtirishda o'sha hudud uchun maqbul bo'lgan chora-tadbirlarni ham kiritishlari mumkin.

Prokurorlar rejalashtirishni tuzayotgan vaqtlarida asosiy e'tiborni jamiyatning «zaif» nuqtalariga qaratishlari kerak, misol qilib, ma'lum bir tumanda voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyatchilik sodir etilishining o'sib borishi, bunday hollarda prokuror rejalashtirishda voyaga yetmaganlar bilan ishlash chora-tadbirlarini kuchaytirishlari lozim.

Rejalashtirish prokuratura organlarining faqatgina bir bo'limiga emas, balki bir necha bo'limining zimmasiga yuklatiladi, misol qilib, 3—4-bo'limning huquqbuzarliklar va jinoyatchilikka qarshi kurash amaliyotini umumlashtirish, prokurorlik nazorati bo'limi — korxonalar, tashkilotlar va muassasalarda tashqi muhitni himoya qilish to'g'risidagi qonunlarning ijrosi ustidan prokurorlik nazorati amaliyotini umumlashtirish; tergov bo'limi — ekologiya to'g'risidagi qonunlar qo'pol ravishda buzilganligi munosabati bilan qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha tergov va surishtiruv ustidan prokurorlik nazorati amaliyotini umumlashtirish; jinoyat ishlarini sudlarda ko'rib chiqishda ishtirok etish bo'limi — ekologiya to'g'risidagi qonunlarning buzilganligiga doir jinoyat ishlari bo'yicha chiqarilgan hukmlarning qay darajada qonuniy ekanligini ta'minlash amaliyotini umumlashtirish.

Quyi turuvchi prokuraturalarda asosan, tuman, shahar prokuraturalarida rejalashtirishning sifatli bo'lishligi va maqbul bo'lishi hamda ijro etilganda qiyinchiliklarsiz bajarilishi uchun rejalashtirish, tadqiqotchi A.P. Safanovning fikriga ko'ra, yuqori pog'onada turuvchi prokuratura organi reja tuzishdan oldin quyi prokuratura organlarining muayyan masala yuzasidan taklif va mulohazalarini so'rab olishi, so'ngra quyidan kelgan takliflar asosida yuqoridan pastga qarab rejalashtirish lozim. Rejalashtirishning muvaffaqiyatli bo'lishi prokuratura organi rahbarlari rejalashtirishda ko'zlangan masalalar va amalga oshiriladigan chora-tadbirlarning ustidan doimiy nazorat olib borishlaridadir.

*Rejalashtirish* qonuniylikni har tomonlama va chuqur tahlil etish natijasiga asoslanishi lozim. Lekin, hamma vaqt ham boshqarish faqat tahlilot raqamlariga bog'lanib qolmasligi, aniqlangan raqamlardan prokuratura idorasini oqilona boshqarishda foydalanilish uslublaridan biri bo'lib qolmog'i lozim. Bu borada rejalashtirish va axborot-tahlilot ma'lumotlari bir maqsadda o'zaro mushtaraklashishi kerak.

Rejalashtirish asosida prokuratura faoliyatida ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan tadbirlarni belgilash va bu tadbirlar ijrosini ta'min etish amalga oshiriladi. Rejalashtirish asosida tashkil etilgan tadbirlarga: prokuratura organi faoliyatini ma'lum bir vaqt ichidagi, chorak, yarim yillik, 9 oylik, yillik vaqt mobaynidagi amalga oshirgan ishlarini umumlashtirish va tahlil qilish, prokuror nazorati faoliyatining ma'lum bir yo'nalishlari bo'yicha ijobiy amaliyotni vujudga keltirish, xodimlarning ishchanlik va kasbiy malakasini oshirish uchun hay'at majlislarida muhokama qilish va boshqalar kiradi.

*Rejalashtirish turi* sifatida jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish borasidagi prokurorning faoliyatini (majlislar o'tkazish, tahlil qilish, tegishli chora va tadbirlar belgilash) ham e'tirof etsa bo'ladi.

#### **4.4. Ijro ustidan nazorat va rahbarlik**

Bevosita prokuratura organlarining asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ijro ustidan nazorat va rahbarlik doimiy va harakatlanuvchi bo'lishi kerak. Buning uchun esa rahbar xodimlar — prokurorlar mas'uldirlar. Ijro ustidan nazorat mamlakatdagi qonunchilik ustidan aniq va bir xilda prokurorlik nazoratini olib borishni ta'minlaydi. Bunda Bosh prokuror tomonidan chiqarilgan buyruqlar asosiy o'rin tutadi. Buyruqlardagi xarakterli tomon shundaki, amalga oshiriladigan tadbirlar ustidan nazorat olib borish aniq bir bo'lim rahbariyatiga yuklatilishi qayd etilgan.

Bosh prokuratura ijro ustidan nazoratni olib borishda hamma bo'lim va boshqarmalar jalb qilingan, bu o'rinda prokuratura organlarining bo'lim, boshqarma boshliqlari asosiy rol o'ynaydi, chunki ularning o'zi nazorat tizimini boshqarib boradilar. Ijro ustidan nazoratni muvofiqlashtirishda Muvofiqlashtiruvchi kengash tuziladi.

Ijro ustidan nazorat qilishning eng maqbul shakli bu yozma hisobotlar yoki og'zaki dokladlar, qaysiki bajarilishi lozim bo'lgan ishlar va topshiriq qay darajada bajarilganligini aks ettirmog'i lozim.

Nazorat qilishning yana bir shakli ijroni joyida tekshirish. Ushbu shaklning ijobiy taraflari shundaki, ijro joyida tekshirilganda ijroni kechiktirgan yoki uning bajarilishiga to'sqinlik qilgan holatlarni aniqlab qolmay, balki ularning oldini olish choralarini ham ko'rsatadi.

Nazorat qilishdan asosiy maqsad — prokuratura idoralari tomonidan olib boriladigan ijro ustidan nazorat va rahbarlik qilishda

qonunlar va Bosh prokurorning buyruq va ko'rsatmalarining ijrosini yaxlit amalga oshirish hamda ularning qog'ozda qolib ketmasligini ta'minlash. Buning uchun:

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, Harbiy va Transport prokurorlari apparatlarining tashkiliy ishi prokuratura faoliyatini takomillashtirish, quyi organlar ustidan rahbarlik qilishni yaxshilash, prokurorlik nazoratining asosiy yo'nalishlaridagi faoliyati va samaradorligini yuksaltirish, qonunchilik va huquq-tartibotni mustahkamlashda ijobiy natijalarga erishishga yo'naltirish.

Tashkiliy-nazorat tarmoqlarining apparat va quyi organlar ishini tubdan yanada takomillashtirishda yangichasiga rahbarlik qilish usullarini ishlab chiqarish, prokuror-tergov xodimlarining kasb mahorati va madaniyatini yaxshilash hamda ijro intizomini mustahkamlash borasidagi ishtiroki va ta'sirini oshirish.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, Transport va Harbiy prokuraturalari hay'atlarining tarkibiga prokurorlarning tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'yicha katta yordamchilarini kiritishni zarur deb hisoblash.

2. Tashkiliy-nazorat xizmatchilari asosiy e'tiborni tarmoqlar orasidagi hamjihatlikni o'rnatishga, boshqarma va bo'limlarning qonunchilik va huquq-tartibotning dolzarb muammolarini hal etishdagi sohalararo tarqoqlik va tor doiradagi ish yuritishni bartaraf etishga qaratish.

Predmetlilik prinsipini tiklash va tatbiq etish dolzarb masala hisoblanadi. Ishni predmetlar bo'yicha tashkil qilish muttasil ravishda tekshirib borish, bu ishdagi sustkashlikka nisbatan qat'iy choralar ko'rib, yo'l qo'yilayotgan nuqsonlarni bartaraf qilish yuzasidan takliflar tayyorlab, prokuratura hay'atlariga kiritish.

Tarkibiy tarmoqlarning kompleks yondashuvini talab qilgan boshqa masalalar borasidagi hamjihatlikni doimiy nazorat ostiga olish.

3. Asoslantirilgan qarorlarni ishlab chiqarish maqsadida masalalarni hay'at muhokamasiga puxta tayyorlashga, taqdim etilayotgan hujjatlarning sifatiga talabni kuchaytirish, yuzaki tayyorlangan hujjatlarni qaytadan tayyorlash uchun yuborish. Ijrochilardan qarorlarning loyihalari ishlarining ahvoriga, mansabdor shaxslarning faoliyatiga berilgan baholarning mujassamligi, aniq vazifalarni, ularni bajarish uslublari va muhlatlarini belgilashni talab qilish.

Qabul qilingan qarorlarni bajarishni tashkillashtirish ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish natijalari haqida hay'atga davriy ravishda axborot berib borish. Zarur bo'lganda apparatdagi tarmoqlar va quyi prokurorlar faoliyatida mavjud bo'lgan kamchiliklarni bartaraf qilish masalasini qo'yish. Davriy ravishda hay'at ishi umumlashtirilib, uni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritish talab etiladi.

### *Ijro ustidan nazorat va rahbarlik hujjatlari*

Quyi prokuratura organlariga ijro etilishi talab qilinib yuboriladigan hujjatlar (topshiriq, ko'rsatma, tanbeh) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Bosh prokurorning buyruqlari va ko'rsatmalari, hay'at qarorlari, ish rejaları, fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda boshqa huquqiy hujjatlar asosida tayyorlanadi.

Axborot-uslubiy xususiyatidagi hujjatlar (yo'naltiruvchi xat, ijobiy ish tajribasini ommalashtirish haqidagi xat) esa muayyan sohadagi ish jarayonini takomillashtirish, samaradorligini oshirish, tahliliy faoliyat imkoniyatlaridan keng foydalanishga yo'nalish berish maqsadida tayyorlanadi.

Ijrosi barcha prokuratura organlariga taalluqli bo'lgan hujjatlar (yakka tartibdagi topshiriqlar bundan mustasno) tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi bilan kelishilgan holda tayyorlanadi va faqat Bosh prokuror yoki uning o'rinbosarlari tomonidan imzolanadi. Rejalashtirilgan davrda faoliyati kompleks tekshirilishi lozim bo'lgan prokuraturaga, qoida tariqasida, topshiriq yuborilmaydi.

Takroriylik va ish hajmining sun'iy ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida, quyi prokuratura organlariga ijro etilishi talab qilinib yuboriladigan hujjatlarning hisobi tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi tomonidan yuritiladi va ularning nusxalari jamlanadi.

Ish rejasi bo'yicha topshiriqqa barcha ijrochilar bilan kelishilgan holda vazifalar aniq bayon etilgan, aniqlanishi lozim bo'lgan masalalar va ijro muddati ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Bosh prokuratura boshqarma va bo'limlariga umumiy tarzda ijro qilish uchun topshiriq va ko'rsatma tarzidagi hujjatlar berish faqat Bosh prokuror va uning o'rinbosarlari tomonidan amalga oshiriladi.

Muayyan murojaatlarni hal etish bilan bog'liq, shuningdek, yakka tartibdagi boshqa masalalarga doir topshiriqlar viloyat



prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarga boshqarmalar (bo'lim) boshliqlari tomonidan yuboriladi.

Yo'naltiruvchi xatlar, uslubiy qo'llanmalar va axborot-tahlil yo'nalishidagi, shuningdek, quyi prokuratura organlarining muayyan sohalar bo'yicha faoliyatini ijobiy deb topish, uni ommalashtirish haqidagi hujjatlar tegishli tarmoqlar tomonidan tayyorlanib, tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi bilan kelishilganidan so'ng Bosh prokuror yoki uning o'rinbosarlari tomonidan imzolanaadi.

Topshiriq, yo'naltiruvchi xatlar va uslubiy qo'llanmalarni kuchaytirish, joylarga yuborish fuqarolar murojaatlari va xatlar bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. Bunday hujjatlarni teletayp yoki telefaks orqali jo'natish ham xuddi shu tarzda amalga oshiriladi.

Tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi ijro etilishi talab qilinadigan va axborot-uslubiy xususiyatidagi hujjatlarni tayyorlash hamda joylarga yuborish amaliyotini vaqt-vaqti bilan umumlashtirib boradi va bu faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi. Prokuratura organlarida ish yuritish va ijroni nazorat qilish tartibi Bosh prokuror buyrug'iga muvofiq, tasdiqlangan yo'riqnoma bilan belgilanaadi.

Bosh prokurorning tashkiliy-boshqaruv yo'nalishidagi hujjatlari, Bosh prokuratura hay'ati qarorlari, tezkor-qidiruv faoliyatni, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar rahbarlarining Muvofiqlashtiruvchi kengashi qarorlari ijrosi, rejadagi tadbirlar, shuningdek, boshqa hujjatlarning bajarilishi ustidan nazorat Bosh prokuror, Bosh prokurorning o'rinbosarlari, boshqarma va bo'limlarning boshliqlari, shuningdek, tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi tomonidan ta'minlanadi.

Bosh prokuror tomonidan nazoratga olinib, ijro va nazorat uchun Bosh prokuror o'rinbosarlariga berilgan hujjatlar bo'yicha ro'yxatda birinchi qayd qilingan Bosh prokuror o'rinbosari ijro uchun asosiy mas'ul hisoblanadi. Ro'yxatda ko'rsatilgan Bosh prokurorning boshqa o'rinbosarlari faoliyatiga o'zlari rahbarlik qilayotgan tarmoqlar tomonidan masalaning hal etilishida, umumlashtirilgan hujjatlar tuzilishida asosiy ijrochiga ko'mak berilishini tashkil qiladilar.

Bosh prokuror tomonidan nazoratga olingan muayyan hujjat ijro va nazorat uchun Bosh prokuror o'rinbosariga berilganidan so'ng, Bosh prokuror o'rinbosari hujjatni faoliyatiga o'zi rahbarlik qilayotgan tarmoq boshlig'ini mas'ul qilib belgilab, boshqa tarmoq boshliqlarini ham hujjat ijrosida ishtirok etishga jalb qilishi mumkin.

Bunday hujjatning keyinchalik boshqa tarmoqqa taalluqliligi aniqlangan taqdirda, mas'ul ijrochi va nazorat qiluvchi rahbarning almashtirilishi faqat Bosh prokuror roziligi asosida amalga oshiriladi.

Nazoratga olingan har bir hujjatga fuqarolar murojaatlari va xatlar bo'limida nazorat varaqachasi to'ldiriladi hamda boshqarma va bo'limlarda nazorat ishi ochiladi. Nazorat ishida hujjat ijrosiga taalluqli jamlanma axborot va boshqa ma'lumotlar bo'ladi.

Fuqarolar va yuridik shaxslar murojaatlari, topshiriqlar va nazoratga olingan boshqa hujjatlar ro'yxati kompyuterga kiritilib, ularning ijrosi nazorat qilinishi mumkin.

Prokuratura rahbariyati tomonidan alohida masalalar hamda fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari bo'yicha ijro uchun berilgan topshiriqlar, ko'rsatmalar, shuningdek, hay'at majlislari, tezkor yig'ilishlar qarorlari va boshqa hujjatlar, agar ularda muayyan muddat ko'rsatilgan bo'lmasa, qoida tariqasida, uzog'i bilan bir yil nazoratda turadi va ish yuritish bo'yicha o'rnatilgan tartibga muvofiq, saqlash uchun idoraviy arxivga topshiriladi.

Bosh prokuror va uning o'rinbosarlarining topshiriqlari, shu jumladan, murojaatlarni ko'rib chiqish bilan bog'liq topshiriqlari boshqarma va bo'limlarning boshliqlari hamda Bosh prokurorning yordamchisi tomonidan nazorat qilinadi. Nazoratga olingan hujjatlarning ko'rib chiqilishi hamda muddatlariga rioya etilishi tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi tomonidan nazorat qilib boriladi.

Bosh prokuror tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senatiga, shuningdek, vazirliklar va idoralarga yuborilgan hujjatlarning (axborotlar, taqdimnomalar, Bosh prokuraturada tayyorlangan Qonunlar, Farmonlar, Qarorlarning loyihalari va boshq.) harakati hamda ularning ko'rib chiqilishi natijalari ustidan nazorat Bosh prokuror o'rinbosarlari tomonidan faoliyat yo'nalishlari bo'yicha ta'minlanadi.

Tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi hujjatlar ijrosi ustidan nazoratning ta'minlanishi, tashkiliy-boshqaruv yo'nalishidagi hujjatlarning tayyorlanishi hamda Bosh prokuraturaning reglamentiga rioya etilishi ahvolini vaqt-vaqti bilan tekshirib turadi, zarur hujjatlar va ma'lumotlarni talab qilib oladi, pochta jo'natmalarini to'xtatib turadi. Belgilangan tartibning buzilishi aniqlangan taqdirda, jo'natishga tayyorlangan hujjatlarni qaytarib oladi hamda kamchiliklarni bartaraf etish va oldini olish choralarini ko'radi. Alohida

e'tibor ishni rejalashtirishga qaratiladi. Bu jabhaga qonunbuzarliklarning oldini olish yuzasidan kuchlarni birlashtirish, huquqbuzarlar bilan kurashni takomillashtirishning samarali vositasi deb qaralishi lozim. Huquqiy davlatning barpo etilishi, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi sharoitida qonunlarning, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasining iqtisodiyotni isloh qilish, ijtimoiy-siyosiy vazifani barqarorlashtirish va fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini turli tajovuzlardan muhofaza qilishga yo'naltirilgan farmon va qarorlarining ijrosi ustidan nazorat qilish asosiy yo'nalishi deb hisoblash kerak.

Reja loyihalarini tayyorlashda respublika va viloyatlar prokuraturalari apparatlarining diqqatiga bo'ysunuvchi organlar ustidan rahbarlikni takomillashtirishga, prokuratura organlarining iqtisodiyot sohasidagi huquqbuzarliklar bilan kurash, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va qonuniy manfaatlarini qo'riqlash borasidagi imkoniyatlarini birlashtirishga qaratish, qonunchilik ahvolidan kelib chiqmaydigan umumlashtiruv va tekshiruvlarga yo'l qo'ymaslik lozim.

Tarkibiy tarmoqlarning rahbarlari Qonunlar, respublika Prezidenti Farmonlarining talablari, fuqarolarning qonunbuzarliklar haqidagi murojaat va xabarlarining mazmuni tergov natijalari va nazorat idoralarining tadbirlari hamda joylardagi haqiqiy ahvolga asoslangan takliflar kiritadilar. Tashkiliy-nazorat va tahlilot tarmoqlarining xodimlari rejaviy intizomiy buzilishi holatlari bo'yicha xizmat tekshiruvini o'tkazib, rahbariyat oldiga aybdor xodimlarni jazolash masalalarini qo'yishlari lozim.

Quyi prokuraturalarning ish doirasini chegaralab qo'yish va qog'ozbozlikka qarshi kurashni kuchaytirish, quyi prokuraturalarga buyruq, ko'rsatma, rejalaridan tashqari topshiriqlar, xat va xabarlarni yuborish yuzasidan respublika Bosh prokurori tomonidan o'rnatilgan tartibga og'ishmay rioya qilish lozim. Mazkur hujjatlarni yuborish hay'at muhokamasidan o'tgan bo'lishi yoxud prokuratura rahbariyati bilan kelishilgan bo'lishi shart. Respublika prokuraturasining barcha tarmoqlarini qonunchilikni mustahkamlash muammolari va prokuror-tergov xodimlarining malakasini oshirish markazi bilan birgalikda ishni tashkil qilishning ilg'or tajribalarini aniqlab, joylarga tarqatiladi.

Apparat tarmoqlari va quyi prokuraturalarda ishni tashkil qilish va ijro intizomining ahvoli muttasil ravishda tekshirib borilishi kerak. Tashkiliy-nazorat tarmoqlarining xodimlari xizmat majburiyatlarini

bajarish, ishni tashkil qilish va nazoratni amalga oshirishda aniqlangan barcha kamchiliklar bo'yicha ularning sabablarini aniqlab, bartaraf qilish choralarini ko'radilar. Zarur hollarda tegishli xodimlardan prokuratura rahbarlari nomiga yozma tushuntirish talab etiladi.

Quyi prokuraturalarni tekshirishda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining talablariga qat'iy rioya qilish zarur. Tekshiruv guruhlariga malakali vaziyatni, davlat tilini biladigan xodimlar kiritiladi. Bu guruhlariga prokuratura rahbarlari, hay'at a'zolari va tarmoq boshliqlari rahbarlik qiladi. Qoida tariqasida prokuratura faoliyati to'liq hajmda yalpi tekshirilib, natijalari muqaddam aniqlangan nuqsonlar yuzasidan qabul qilingan qarorlarni hisobga olgan holda xolisona ko'rib chiqiladi.

Quyi prokuraturalarga chiqishda alohida e'tibor murakkab sharoitda ishni tashkil qilishda yordam berishga, qonunchilikni va huquq-tartibotni mustahkamlash muammolarini hal qilishga yangicha yondashishga, ularni boshqa prokuraturalarga ham tatbiq etishga qaratish lozim. Ishni tashkil qilish, respublika Bosh prokurorining asosiy buyruqlarini ijro etish masalalari yuzasidan o'tkaziladigan tekshiruvlarda faol ishtirok etish, tashabbuskor xodimlar aniqlanib, qo'llab-quvvatlanish va boshqalar nazarda tutilgan.

#### **4.5. Fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish hamda ularning qabulini tashkil etish**

Fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari (arizalar, takliflar, shikoyatlar), shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Devoni, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili, Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy sud, respublika boshqaruv idoralari jamoat birlashmalari, O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tgan xalqaro tashkilotlar, jamg'armalar hamda xorijiy davlatlar vakolatxonalari, ommaviy axborot vositalari vakillaridan kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi va murojaat etuvchilar qabul qilinishini tashkil etish amaldagi qonun hujjatlariga, Bosh prokurorning buyruq va ko'rsatmalari hamda «O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlarida fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomaga muvofiq belgilanadi.

Bosh prokurorning o'rinbosarlari, boshqarma va bo'limlar boshliqlari murojaatlarning to'liq, o'z vaqtida hamda malakali tarzda ko'rib chiqilishini ta'minlovchi chora-tadbirlarni ko'radilar.

Murojaatlar bir tarmoqdan boshqasiga boshqarma, bo'lim boshlig'ining asoslantirilgan bildirgisi va Bosh prokuror o'rinbosarining roziligi asosida o'tkaziladi.

Agar murojaat nazoratga olingan bo'lsa, bu haqda fuqarolar murojaatlari va xatlar bo'limi hamda tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi, albatta, xabardor qilinadi. Murojaatda bir necha boshqarma va bo'limlarning vakolat doirasiga taalluqli masalalar bo'lsa, ijrochilar orasida nomi birinchi bo'lib qayd etilgan boshqarma, bo'lim rahbari mas'ul hisoblanadi.

Mas'ul rahbar murojaatning nusxalarini boshqa ijrochilarga topshirilishi, zarur hollarda muddatlar uzaytirilishi, tekshirish bo'yicha yagona topshiriq tayyorlanishi va boshqa ijrochilardan ushbu murojaatga taalluqli hujjatlarning nusxalarini olib, dastlabki, oraliq va mohiyatan asoslantirilgan yakuniy javoblar yuborilishini ta'minlaydi.

Hal etilishi Bosh prokuror tomonidan nazoratga olingan murojaatlar bo'yicha muallifga javoblar faqat Bosh prokurorga axborot berilganidan keyingina yuboriladi. Hal etilishi Bosh prokurorning o'rinbosarlari tomonidan nazoratga olingan murojaatlar ham xuddi shu tartibda hal etiladi. Fuqarolar va yuridik shaxslar yoki ularning vakillarini qabul qilish fuqarolar murojaatlari va xatlar bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

Bosh prokuror qabuliga Bosh prokuror o'rinbosarlarining qarorlaridan norozi bo'lgan fuqarolar kiritiladi. Bosh prokuror o'rinbosarlari tomonidan Bosh prokuraturaning boshqarma va bo'limlari hamda viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning qarorlaridan norozi bo'lib murojaat qilgan fuqarolar qabul qilinadi.

Fuqarolarning murojaatlari va xatlar bo'limi prokuratura rahbariyati qabuliga kelgan fuqaro (vakil)ning avvalgi murojaati bo'yicha to'plangan hujjatlarni o'rganib, axborot beradi. Boshqarma va bo'limlarning boshliqlari shu tarmoqqa taalluqli masala yuzasidan kelgan fuqarolarni qabul qiladilar. Fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari ko'rib chiqilishi «Qonuniylikni ta'minlash to'g'risida»gi 2004-yil 10-dekabrda 37-buyruq bilan tartibga solinadi.

Muhokama etilayotgan masala yuzasidan ham Bosh prokurorning maxsus yo'riqnomasi va nizomi qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 23-aprelda 16-buyrug'i bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining «Fuqarolar murojaatlari va xatlar bo'limi to'g'risida»gi Nizom ham mavjud bo'lib, darslikning ilgarigi mavzularida bu Nizom haqida to'xtalib o'tilgan.

#### 4.6. Hisobdorlik, hisob va hisobot

Prokuratura idoralarida hisob va hisobot masalasi ham prokuratura organlari faoliyatini tashkil etish va ular faoliyatining asosiy prinsiplari bilan bevosita bog'liqdir. Prokuratura organlari yagona markazlashgan tizimni tashkil etishi munosabati bilan quyi turuvchi prokurorlar yuqori turuvchi prokurorlarga va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunishi hamda hisobdorligi asosida faoliyat ko'rsatishi prinsipining amal qilishi prokuratura idoralaridagi hisob va hisobotning yuritilish mezonini aynan qanday bo'lishi kerakligi belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari, qonunosti hujjatlarida belgilangan vazifa va vakolatlaridan kelib chiqqan holda quyi turuvchi prokurorlarning yuqori turuvchi prokurorlarga va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunishi hamda hisobdorligi asosida faoliyat ko'rsatishi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari o'zlariga yuklatilgan vazifa va vakolatlarni qanday amalga oshirayotganliklari to'g'risida doimiy va muntazam ravishda har oylik, har chorak, har yarim yillik va yillik hisobotlarni quyidan yuqoriga taqdim etib turadilar. Yuqori turuvchi prokuror quyi turuvchi prokurorga ko'rsatmalar berishga yoxud uning har qanday, shu jumladan, protsessual qarorini o'zgartirish yoki bekor qilishga haqli ekanligi, o'z bo'ysunuvidagi barcha prokurorlarning ishlari to'g'ri tashkil etilishi uchun to'liq javobgarlik prinsipining amal qilishi hisob va hisobotni to'liq va to'g'ri olib borilishining kafolati hisoblanadi. Prokuratura faoliyatining har bir yo'nalishi va faoliyat tarmoqlari bo'yicha tuman, shahar va ularga tenglashtirilgan prokurorlar viloyatlar va ularga tenglashtirilgan prokurorlarga hisobot beradilar. Viloyatlar va ularga tenglashtirilgan prokurorlar esa, o'z o'rnida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga hisobot beradilar.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining hisobdorligi O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 14-moddasida belgilangan bo'lib, unda ko'rsatilishicha, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida hisobdordir.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga:

• qonuniylik hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida — muntazam ravishda;

• o'ta og'ir jinoyatlar va favqulodda hodisalar to'g'risida — zudlik bilan;

• prokuratura organlari amalga oshirgan ishlar to'g'risida — har olti oyda axborot taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga o'z faoliyati haqida muntazam ravishda hisobot beradi.

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 15-moddasiga muvofiq, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori oldida hisobdor.

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 16-moddasiga muvofiq, viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga tegishli prokurorlar rahbarlik qiladilar, ular O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunadilar va uning oldida hisobdor.

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 17-moddasiga muvofiq, tumanlar, shaharlar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga tegishli prokurorlar rahbarlik qiladilar va ular yuqori turuvchi tegishli prokurorga hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo'ysunadilar va ularning oldida hisobdor.

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 5-moddasiga muvofiq, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar xalq deputatlari tegishli kengashlariga, zarurat bo'lgan hollarda esa fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga qonuniylikning hamda jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida har yili axborot berishadi.

*O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2004-yil 9-dekabrda «Jinoyatchilikka qarshi kurash, uning oldini olish hamda surishtiruv va dastlabki tergov o'tkazishda qonunlarning aniq bajarilishi ustidan prokuror nazoratini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 31-buyrug'idan:*

Viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar xalq deputatlari tegishli kengashlariga, zarurat bo'lgan hollarda esa fuqarolarning o'zini o'zi

boshqarish organlariga jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida har yili axborot berib borsinlar, degan talab ham mavjudligiga prokurorlar e'tibor berishlari lozimligi qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasi prokuraturasida jami bo'lib, yettita shtat birligidan iborat «Tashkiliy nazorat va tahlilot boshqarmasi» mavjud. Viloyatlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va ularga tenglashtirilgan prokuraturalar, tuman, shaharlar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuratura organlarida ham tashkiliy nazorat va tahlilot bo'yicha bo'lim yoinki, katta yordamchilar mavjud. Mazkur bo'lim prokuratura organlari oldida turgan asosiy vazifalar va qonunchilikdagi tegishli o'zgartirishlarni hisobga olib statistik hisobot miqdorlarini ishlab chiqadi, prokuratura organlarida statistik hisobot bo'yicha yo'riqnomalar chiqaradi. Prokuratura organlari faoliyatining barcha sohalari bo'yicha o'rnatilgan statistik hisobot miqdorlarini qabul qiladi va qayta ishlaydi.

Qabul qilingan va qayta ishlangan ma'lumotlarni tahlil qilib, Ichki ishlar vazirligi hamda Adliya vazirligi, sud organlari hisobotlari miqdorlaridan foydalangan holda jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tahliliy ishlarni amalga oshiradi. Bu shaxslar:

a) o'z prokuraturasida dastlabki hisobni tashkil qiladilar va o'z prokuratura faoliyati to'g'risida statistik hisobot tayyorlaydilar;

b) tuman(shahar) prokurorlaridan olingan statistik hisobotlarni to'playdilar va hal qiladilar hamda hisob va hisobot masalalarida tuman (shahar) prokurorlariga tegishli ko'rsatma va tushunchalar beradilar.

Tuman va shahar prokuraturalarida statistik hisobot bevosita prokuror tomonidan tayyorlanadi. Bu ishni jamoatchi yordamchilarga, kotiblarga hamda boshqa shaxslarga topshirish taqiqlanadi. Prokuror hisobotini shaxsan tayyorlar ekan, ayon bo'lgan kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida, tuman yoki shahar prokuraturasi faoliyatini yaxshilashda statistik miqdorlardan tezkor foydalanishi kerak.

Birlamchi hisob hujjatlari (statistik varaqalar, hisobot jurnallari va boshqa materiallar) ichki ishlar organlari, prokuratura, soliq, valutaga oid jinoyatlar va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti, bojxona xizmati, MXX kabilarning rasmiy hisobdorligi (oylik, yarim yillik, yillik)ning asosini tashkil etadi.

«Prokuratura to'g'risida»gi Qonunga ko'ra, Bosh prokurorga jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini ta'minlash maqsadida



tezkor-qidiruv faoliyatini, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlarning faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilgan. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati idoralari bilan birgalikda jinoyatchilik holati, jinoyatchilikning ochilishi borasida prokuror nazorati va tergov harakatlari to'g'risida yagona hisob metodikasi va tizimini, shuningdek, prokuratura organlarida yagona hisobdorlikni taqdim etish qoidalarini o'rnatadi.

Jinoyatchilikning yagona hisobi tamoyillariga muvofiq, davlat statistik hisobdorligi IIVda boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birga (o'zlarining vakolat doiralarida) Bosh prokuratura bilan kelishib ishlab chiqiladi va Davstatqo'm qarori bilan tasdiqlanadi. Davlat statistik hisobdorligi organlari, prokuratura, Soliq, valutaga oid jinoyatlar va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti va bojxona xizmati organlarining jinoyatchilik to'g'risida 95 % dan ko'proq hisobga olingan kriminalogik holatlari asosida jamlanadi va O'zbekiston Respublikasi IIVning axborot markazida umumlashtiriladi.

Umumlashtirilgan davlat statistik hisobdorligiga MXX va Harbiy prokuratura ma'lumotlari kiritilmaydi. Jumladan, RFning amaliyotiga nazar tashlasak, 1993-yilgi «Davlat sirlari to'g'risida»gi qonunga muvofiq, jinoyat haqidagi ma'lumotlar, fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzuvchi harakatlar, davlat organlari va mansabdor shaxslarning qonuniylikni buzish holatlari to'g'risidagi ma'lumotlar davlat sirlariga kirmasligi belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasida hali bunday qonun ishlab chiqilmagan. Jinoyatchilik haqidagi ma'lumotlarni to'liq oshkora qilib bo'lmaydi. Shuning uchun bu ma'lumotlar konfidensial hisoblanadi va davlat statistika hisobdorligiga kiritilmaydi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning davlat statistik hisobdorligi besh shakldan iborat:

1. Ro'yxatga olingan, ochilgan va ochilmay qolgan jinoyatlar bo'yicha hisobot (1-shakl — yarim yillik, IIV va Davstatqo'mga taqdim etiladi).

2. Jinoyatchilik to'g'risida yagona hisob (1G-shakl — yillik, IIV va Davstatqo'mga taqdim etiladi).

3. Jinoyat sodir etgan shaxslar bo'yicha hisob (2-shakl — yarim yillik, IIV va Davstatqo'mga taqdim etiladi). Bunda jinoyatchi shaxsi to'g'risida to'liq ma'lumotlar mavjud bo'ladi.

4. Tergov harakatlari bo'yicha hisob (1E-shakl — yarim yillik, Bosh prokuratura va Davstatqo'mga taqdim etiladi).

5. Prokuror faoliyatining hisobi (P-shakl — yarim yillik, Bosh prokuratura va Davstatqo'mga taqdim etiladi). Bunda qonunlarga rioya qilish va huquqiy hujjatlarning qonuniyligi, dastlabki tergovning va surishtiruvning qonuniyligi, ozodlikdan mahrum qilish joylaridagi qonunlarga rioya qilinishi ustidan prokuror nazorati natijalari, shuningdek, prokurorning jinoiy, fuqorolik va xo'jalik ishlarini ko'rishda ishtiroki natijalari ko'rsatiladi.

Huquq masalalari bo'yicha kundalik statistikada prokuror faoliyati tahlili alohida o'rin tutadi. Prokuror faoliyati bo'yicha ham har oyda Axborot markaziga hamda bevosita o'zining yuqori tashkilotiga davlat statistik hisoboti beriladi. Hisobotda prokuratura qonunida ko'rsatilgan prokurorning barcha vazifalari o'z aksini topadi.

Quyidagi statistik hisobotlardagi holatlarga qarab, prokurorning qonunlar ijrosi ustidan qanday nazoratni amalga oshirayotganligiga baho berish mumkin bo'ladi:

- qonunlar ijrosi ustidan nazorat (umumiy nazorat faoliyati);
- inson huquqlari va erkinligi buzilmayotganligi;
- huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning surushtiruv va tergov harakatlari qonun doirasida amal qilinishligi;
- jinoyat ishi qo'zg'atilishi asoslari, jinoyat ishining to'xtatilishi, bekor qilinishi, tergov va surishtiruv harakatlarining qonuniy olib borilishi, vaqtincha gumondorni ushlab turish va hibsga olish va h.k.;
- ushlab turilganlar, ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olingan shaxslarni vaqtincha saqlash xonalarida hamda tergov qamoqxonalariida saqlanayotgan fuqarolarning qonunda belgilangan tartibda saqlanishi;
- prokurorning jinoiy, xo'jalik sudi va fuqarolik ishlarini sudlarda ko'rishda ishtiroki;
- sud qarorlarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat;
- jinoiy jazolarni ijro etish muassasalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati;
- maxsus tartibli korxonalarda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat;
- prokurorning korxonalar, tashkilotlar, fuqarolardan kelgan ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqishi;
- prokurorning matbuotda chiqishlari.

#### 4.7. Jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish

Prokuratura organiga O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar orqali qonunlar ijrosi ustidan nazorat funksiyasidan tashqari, bir vaqtning o'zida jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish vazifasi ham yuklatilgan. Shu munosabat bilan ham barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar har oy, chorak va yillik hisobotlarini prokurorlarga topshiradilar.

Prokurorlar bu statistik hisobotlardan sodir etilgan jinoyatlar, ularning xarakteri, jinoyatlarning kelib chiqish shart-sharoitlari, jinoyatlarning kelib chiqish sabablari, kim tomonidan sodir etilganligi, kimga nisbatan sodir etilganligi, voqea sodir etilgan joy, vaqt, jinoyat sodir etish uslubi, jinoyat qurolining turi va hokazolar haqidagi ma'lumotlar majmuasidan jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirilib, tegishli reja tuzish va tadbirlar o'tkazishda foydalanadilar.

Koordinatsiya (lotincha *coordinatio* so'zidan olingan) deganda, «muvofiqlik», «kelishuvlilik», muvofiqlashtirish (koordinatsiyalash) — ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatni o'rnatish tushuniladi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar jinoyatchilikka qarshi kurash choralari samarali bajarish va asosiy faoliyat yo'nalishlarini kelishuvchilik asosida ta'minlash maqsadida o'z faoliyatlarini muvofiqlashtiradi.

Muvofiqlashtirishning asosiy maqsadi jinoyatga qarshi kurashuvchi strukturalarning o'zaro bog'liq va hamkorlikda harakat qilishini ta'minlash, jinoyatlarni tez, to'la, har tomonlama aniqlash, tergov olib borish, ochish hamda vakolatli organlarga uning yuzaga kelish sabab va sharoitlarini oldini olishga qaratilgan choralarni ishlab chiqish hisoblanadi.

Predmeti — huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'zaro hamkorligini yengillashtirish, ularning umumiy vazifalari, ularning har biriga xos bo'lgan huquqiy, tashkiliy, informatsion va boshqa vosita, shakl va uslublarni tahlil qilishdan iborat. Koordinatsiya natijasi jinoyatchilikka qarshi kurash borasida yuqori cho'qqilarga erishish hisoblanadi. Bunday vakolatni qonun Bosh prokuror va unga bo'ysunuvchi prokurorlarga beradi. Bu borada prokuror Muvofiqlashtiruvchi kengash chaqiradi, statistik va boshqa ma'lumotlarni talab qiladi, turish doirasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar

faoliyatini o'rgangan holda ularni birlashtirish masalasini ko'rib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 8-moddasida «Jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish» tartibi belgilangan bo'lib, unda ko'rsatilishicha, «O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar jinoyatchilikka qarshi kurash samaradorligini ta'minlash maqsadida tezkor-qidiruv faoliyatni, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan tegishli organlarning faoliyatini muvofiqlashtiradi. Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan organlar faoliyatini muvofiqlashtirish uchun prokuror Muvofiqlashtiruvchi kengash chaqiradi, ishchi guruhlar tashkil etadi, zarur axborot, shu jumladan, statistika ma'lumotlarini talab qilib oladi, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi».

#### **4.8. Jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini muvofiqlashtirish tushunchasi va muvofiqlashtirish ishtirokchilari**

Muvofiqlashtiruvchi kengash — barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillaridan tashkil topadi va u bo'lajak majlisda tasdiqlanadi. Kotibiyat tarkibining o'zgarishi bilan tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organ rahbari yangi nomzod taqdim etadi. Kotibiyat joriy tashkiliy ishlarni amalga oshiradi; ish yuritishning maxfiyligi qoidalariga rioya etgan holda Muvofiqlashtiruvchi kengash hujjatlarning rasmiylashtirilishini olib boradi.

Kotibiyat:

- Muvofiqlashtiruvchi kengash a'zolari va taklif etilayotgan shaxslarga o'tkazilajak majlis va unda ko'riladigan hujjatlar loyihalari haqida xabar beradi;
- Muvofiqlashtiruvchi kengash ishi rejalariga huquqni muhofaza qiluvchi organlar takliflarini yig'ish va tayyorlashni tashkillashtiradi;
- reja loyihalarini ishlab chiqadi va ularni huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlariga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi;
- Muvofiqlashtiruvchi kengash qarorlari va rejalarining bajarilishini umumlashtirish va davriy tahlil qilishni amalga oshiradi va natijalari haqida Muvofiqlashtiruvchi kengash raisini xabardor qiladi;
- kengash raisining boshqa topshiriqlarini bajaradi.

Agar hujjatlar loyihalari materiallarni tayyorlash huquqni muhofaza qiluvchi organlarning barcha yoki ba'zi vakillarining birgalikdagi ishtirokini talab qilsa, Muvofiqlashtiruvchi kengash raisi yoki uning o'rinbosari qarori bilan ishchi guruhlar tashkil etiladi. Bunday guruh rahbari etib, tegishli prokuratura organining vakili hisoblanadi.

Qonunchilikda jinoyatchilikka qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organ tushunchasi to'g'ridan to'g'ri belgilanmagan. Nazariya va amaliyotda tegishli davlat-huquqiy strukturalari faoliyatining funksional tahlili asosida bunday organlar doirasini belgilashning yo'li ishlab chiqilgan.

Ushbu tahlilga asoslangan holda jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar doirasiga jinoyatchilikka qarshi kurashga yo'naltirilgan, bir yoki bir qancha huquqni muhofaza qilishga yo'naltirilgan funksiyalarni bajarish vakolatiga ega bo'lgan tuzilmalarni kiritish mumkin.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda huquqni muhofaza qilishga yo'naltirilgan funksiyalarga quyidagilar kiradi:

1. Operativ-qidiruv faoliyati.
2. Jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv.
3. Dastlabki tergov.
4. Jinoyat protsessual va operativ-qidiruv faoliyatida qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror va sud nazorati; jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish.

Huquqni muhofaza qilish funksiyalariga jinoiy tajovuzlardan himoya qilinadigan obyektlarni maxsus himoya qilish, bunday tajovuzlar oldini olish, jinoyatlarni sodir qilganligi uchun sudlangan, qamoqqa olingan yoki ushlab turilgan shaxslarni qo'riqlash maqsadida maxsus tashkil etilgan maxsus harbiy va boshqa tuzilmalar faoliyatini kiritish mumkin. Jinoyatchilikka qarshi kurashni muvofiqlashtirishda ishtirok etuvchi, huquqni muhofaza qilish funksiyalarini bajaruvchi davlat organlari turlicha nomlanishi mumkin. Ba'zida ular qayta tashkil etilishi va bunday funksiyalarni bir-biridan mahrum etilishi yoki qayta ega bo'lishi mumkin.

Ba'zi davlat huquqiy tuzilmalari uchun huquqni muhofaza qilish funksiyalari asosiy hisoblanadi. Bunday organlar, odatda, bir qancha huquqni muhofaza qilish funksiyalariga ega bo'ladi. Masalan, IIV organlari operativ-qidiruv faoliyati, surishtiruv, dastlabki tergov funksiyalarini bajarishdan tashqari, turli obyektlarni

jinoyiy tajovuzlardan himoya qilish, jinoyatchilarni ushlab funksiyalarini bajaradi. Huquqni muhofaza qilish funksiyalari ba'zi organlarning asosiy faoliyat turiga qo'shimcha hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Davlat chegaralarini muhofaza qilish xizmati organlari operativ-qidiruv faoliyati va ularning yurituviga kiruvchi jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv vakolatlariga ega. Bu organda huquqni muhofaza qilish vakolatlari yordamchi bo'lsa-da, vazifalarni lozim dajarada bajarilishining ajralmas unsuri, shartidir.

Bunday organlar vakolatlari muayyan sohadagi huquqiy munosabatlarga (soliq, bojxona) nisbatan amal qiladi. Jinoyatchilikka qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sud hamkorligi sud hokimiyatining mustaqilligi, sudlarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunish tamoyillariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Muvofiqlashtiruvchi kengashning adliya organlari va sudlar bilan hamkorligi quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- jinoyatchilik va sudlanganlik holati haqida o'zaro xabardor etish;
- sud statistikasi va sud amaliyoti materiallari ma'lumotlaridan foydalanish;
- qonunchilikni mustahkamlash bo'yicha hamkorlikda ish olib borish; birgalikda seminarlar va konferensiyalar o'tkazish va bunday tadbirlarga yuqori saviyali mutaxassislarni jalb qilish;
- birgalikdagi axborot xatlari, ma'lumotlarni yo'naltirish;
- Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi plenumlari qarorlarini tayyorlashda ishtirok etish;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlar Muvofiqlashtiruvchi kengash majlislarida sud vakillari va adliya organlari rahbarlarining ishtirok etishi.

#### **4.9. Muvofiqlashtirish prinsiplari**

Jinoyatchilikka qarshi kurash organlarining faoliyati, muvofiqlashtirishda ishtirok etuvchi barcha huquqni muhofaza qilish organlari uchun majburiy, belgilagan asosiy me'yoriy manbalarga tayangan holda prokurorlar tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qilish organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish qonuniylik tamoyiliga asosan amalga oshiriladi. Bu tamoyil, avvalambor, prokuraturaning har bir organi, har bir huquqni muhofaza qiluvchi organ va har

bir xodim jinoyatga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonini qonunga qat'iy rioya qilgan holda va qonun asosida amalga oshirilishini bildiradi.

Muvofiqlashtirishning keyingi bir tamoyili, bu — o'zaro hamkorlik bo'lib, jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar tomonidan doimiy ravishda jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha o'zaro tadbirlar o'tkazish va birgalikda faoliyat ko'rsatish va samarali natijalarga erishish hisoblanadi. Bu tamoyilga asosan muvofiqlashtirish faoliyatining barcha ishtirokchilari kengashda ko'rib chiqish uchun takliflar kiritishi, tadbirlar ishlab chiqishda va maslahatda teng huquqlardan foydalanishadi.

**Mustaqillik tamoyiliga** asosan har bir huquqni muhofaza qiluvchi organ Muvofiqlashtirish kengashining qarori va tadbirlarini bajarishda mustaqildir. Bunda u o'z vakolatlarini qonunda belgilangan huquqiy maqomi bo'yicha, ya'ni tergov va surishtiruvga taalluqli bo'lgan qonunlar, faoliyatini belgilovchi qoida va nizom, ko'rsatma va yo'riqnomalar asosida amalga oshiradi. Har bir huquqni muhofaza qiluvchi organ rahbari Muvofiqlashtiruvchi kengash qarorining ijrosi uchun o'zlariga tegishli qismi bo'yicha mustaqil javobgar hisoblanadi.

#### **4.10. Muvofiqlashtirish faoliyatining asosiy yo'nalishlari va shakllari**

Muvofiqlashtirish faoliyatining asosiy yo'nalishlari — bu jinoyatchilik holatining birgalikdagi tahlili, uning tizimi va dinamikasi, rivojlanish sur'atini belgilash, jinoyatni aniqlash, tergov, fosh etish, ogohlantirish va oldini olish tajribasini o'rganish; jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha xalqaro shartnomalar va chet mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar bilan bitimlar tuzish va kelib chiqadigan takliflarni ishlab chiqish tajribasini umumlashtirish; chet el huquqni muhofaza qiluvchi organlarining ijobiy tajribalarini o'rganish va faoliyatda tatbiq etishda ifodalanishdir.

*Asosiy yo'nalishlari:*

**O'zaro tahlil** — jinoyatchilik ahvoli, uning statik va dinamik holati, tendensiyalarning bashorati (prognozi), jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish, ochish, uni aniqlashtirish va oldini olish borasidagi faoliyatlar hisoblanadi. Bunda dasturlar ishlab chiqiladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash masalasi yuzasidan informatsiya huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan Prezident, Oliy Majlis va hukumatga beriladi.

**Umumlashtirish** — huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan huquqiy tartibga solish faoliyati yuzasidan amaliyotni birlashtirib, takliflar kiritishdir.

Unda quyidagilar ishtirok etadilar:

Prokuratura organlari, ichki ishlar, milliy xavfsizlik, soliq, bojxona, O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va boshqa huquqni muhofaza qilish funksiyasi (surishtiruv, dastlabki tergov, tezkor-qidiruv, jinoiy sudlovda protsessual nazoratni amalga oshiruvchi) mavjud bo‘lgan organlar qatnashadilar.

Muvofiqlashtirish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlari ishtirokida koordinatsion kengash majlislari o‘tkazish;

- jinoyatga qarshi kurash bo‘yicha joriy axborot almashuvi;

- ijobiy tajribani rivojlantirish maqsadida joylarga o‘zaro harakat qilish, tekshiruv va quyi turuvchi organlarga jinoyatchilikka qarshi kurash yuzasidan yordam berish;

- aniq jinoyatlarni tergov qilish uchun tergov-operativ guruhlar tuzish;

- aniq maqsadga yo‘naltirilgan ishlarni olib borish, xodimlarning malakasini oshirish, seminarlar, konferensiyalar o‘tkazish, xavfsizlik choralarini ko‘rish;

- o‘zaro qarorlar, buyruqlar, axborot xati, oriyentirovka va boshqa tashkiliy ijro hujjatlarni ishlab chiqish, to‘plamlar tuzish, yarim yillik va istiqbolli rejalar tuzish.

Bu maqsadga erishish uchun sudlar bilan hamkorlik qilinadi. O‘zining ahamiyati yuzasidan yo‘nalishlar — doimiy va dinamikka bo‘linadi. Asos — har bir hudud, mamlakatdagi huquqiy holat.

Doimiy yo‘nalishga misol qilib, tegishli davlat hokimiyat va boshqaruv organlarining qonunga muvofiq huquqiy aktlarini nazorat qilishini keltirishimiz mumkin. Chunki ular fuqarolarning huquq va erkinliklariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Dinamika esa ma’lum davr ichida qonunchilikka ta’sir qiluvchi munosabatlarni tartibga soluvchi normalarni ijro etishi ustidan nazorat qiladi. Masalan, mehnat, uy-joy, pensiya va fuqarolarning boshqa huquqlari.

Ijtimoiy-iqtisodiy, kriminal va boshqa holatlarni inobatga olib yo‘nalishlar belgilanishi mumkin. Bu ko‘pincha Bosh prokuror buyruqlari, yo‘riqnomalari va tasdiqlangan nizomlarida aks ettiriladi.





## NAZORAT SAVOLLARI

1. Prokuratura organlarida ishlarni tashkil etish nima?
2. Rejalashtirish nima?
3. Joriy rejalashtirish nima?
4. Istiqbolli rejalashtirish nima?
5. Qisqa vaqtli rejalashtirish nima?
6. Ijro ustidan nazorat qilishning eng maqbul shakli qaysi?
7. Nazorat qilishdan asosiy maqsad nima?
8. Prokuratura organlarida ish yuritish va ijroni nazorat qilish tartibini ayting.
9. Nazoratga olingan hujjatlarning ko'rib chiqilishi hamda muddatlariga rioya etilishi qaysi boshqarmalar tomonidan olib boriladi?
10. Tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi qanday vazifalarni amalga oshiradi?
11. Prokuror faoliyati tahlili necha oyda amalga oshiriladi?
12. Koordinatsiya nima?
13. Muvofiqlashtirishning asosiy maqsadi nima?
14. Muvofiqlashtirishning predmeti nima?
15. Muvofiqlashtiruvchi kengash deganda, nima tushuniladi?
16. Jinoyatchilikka qarshi kurashda huquqni muhofaza qilishga yo'naltirilgan funksiyalarga qaysilar kiradi?
17. Muvofiqlashtirish faoliyatining asosiy yo'nalishlariga nimalar kiradi?
18. O'zaro tahlil nima?
19. Umumlashtirish haqida qisqacha aytib bering.
20. Jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlarning o'zaro hamkorligi.

## Prokuratura organlarida rejalashtirish

### Joriy rejalashtirish

- har 6 oyda yoki yarim yillik

### Istiqbolli rejalashtirish

- 3—5 yilga mo'ljallangan

### Qisqa vaqtli rejalashtirish

- haftalik, har kunlik

## Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari




Jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish

Sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda xo'jalik nizolarini ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish

Soliq intizomini mustahkamlashga, soliq sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek, davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish

Ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish

Qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish



**O'zbekiston Respublikasining  
«Prokuratura to'g'risida»gi  
Qonuni 15-moddasiga muvofiq,  
Qoraqalpog'iston Respublikasi  
prokurori**

**Qoraqalpog'iston  
Respublikasi  
Jo'qorg'i Kengesi  
oldida hisobdor**

**O'zbekiston  
Respublikasi  
Bosh prokurori  
oldida hisobdor**

**O'zbekiston Respublikasining  
«Prokuratura to'g'risida»gi  
Qonuni 16-moddasiga muvofiq,  
viloyatlar, Toshkent shahar  
prokuraturalari va ularga  
tenglashtirilgan prokurorlar**

**O'zbekiston  
Respublikasi  
Bosh prokuroriga  
bo'ysunadilar va  
uning oldida  
hisobdor**

**Xalq deputatlari  
tegishli kengashlariga,  
zarurat bo'lgan hol-  
larda esa fuqarolarning  
o'zini o'zi boshqarish  
organlariga qonuniy-  
likning hamda  
jinoyatchilikka qarshi  
kurashning holati  
to'g'risida har yili  
axborot beradilar**

**O'zbekiston Respublikasining  
«Prokuratura to'g'risida»gi  
Qonuni 17-moddasiga muvofiq,  
tumanlar, shaharlar  
prokuraturalari va ularga  
tenglashtirilgan prokurorlar**

Yuqori turuvchi  
tegishli prokurorga  
hamda O'zbekiston  
Respublikasi  
Bosh prokuroriga  
bo'ysunadilar  
va uning oldida  
hisobdor

Xalq deputatlari  
tegishli kengashlariga,  
zarurat bo'lgan hol-  
larda esa fuqarolarning  
o'zini o'zi boshqarish  
organlariga qonuniy-  
likning hamda  
jinoyatchilikka qarshi  
kurashning holati  
to'g'risida har yili  
axborot beradilar

**Muvofiqlashtirishning  
asosiy maqsadi**

Jinoyatga qarshi  
kurashuvchi  
strukturalarning  
o'zaro bog'liq va  
hamkorlikda harakat  
qilishini ta'minlash,  
jinoyatlarni tez,  
to'liq va har  
tomonlama  
aniqlash

Tergov olib borish,  
jinoyatlarni ochish  
hamda vakolatli  
organlarga uning  
yuzaga kelish sabab  
va sharoitlarining  
oldini olishga  
qaratilgan chora-  
larni ishlab chiqish  
hisoblanadi

**Muvofiqlashtirishning  
predmeti**

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o'zaro hamkorligini yengillashtirish, ularning umumiy vazifalari, ularning har biriga xos bo'lgan huquqiy, tashkiliy, axborot va boshqa vosita, shakl va uslublarni tahlil qilishdan iborat

Prokuror Muvofiqlashtiruvchi kengash chaqiradi, statistik va boshqa ma'lumotlarni talab qiladi, vakolat doirasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini o'rgangan holda ularni birlashtirish masalasini ko'rib chiqadi

**Muvofiqlashtiruvchi  
kengash**

Barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillaridan tashkil topadi va u bo'lajak majlisda tasdiqlanadi

Kotibiyat tarkibining o'zgarishi bilan tegishli huquqni muhofaza qiluvchi organ rahbari yangi nomzod taqdim etadi

Kotibiyat joriy tashkiliy ishlarni amalga oshiradi; ish yuritishning maxfiyligi qoidalariga rioya etgan holda Muvofiqlashtiruvchi kengash hujjatlarining rasmiylashtirilishini olib boradi

## Muvofiqlashtirish prinsiplari

Qonuniylik tamoyiliga asosan har bir huquqni muhofaza qiluvchi organ va har bir xodim jinoyatga qarshi kurashish faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonini qonunga qat'iy rioya qilgan holda va qonun asosida amalga oshirishini bildiradi

O'zaro hamkorlik tamoyiliga ko'ra, jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar tomonidan doimiy ravishda jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha o'zaro tadbirlar o'tkazish, birgalikda faoliyat ko'rsatish va samarali natijalarga erishish hisoblanadi

Mustaqillik tamoyiliga asosan, har bir huquqni muhofaza qiluvchi organ Muvofiqlashtirish kengashining qarori va tadbirlarini bajarishda mustaqildir

## Muvofiqlashtirish faoliyatining asosiy yo'nalishlari

**O'zaro tahlil**— jinoyatchilik ahvoli, uning statik va dinamik holati, tendensiyalarning bashorati (prognozi), jinoyatlarni aniqlash, tergov qilish, ochish, uni aniqlashtirish va oldini olish borasidagi faoliyatlar

**Umumlashtirish** — huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan huquqiy tartibga solish faoliyati yuzasidan amaliyotni birlashtirib, takliflar kiritish

**Muvofiqlashtirish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi**

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar rahbarlari ishtirokida koordinatsion kengash majlislari o'tkazish

Jinoyatga qarshi kurash bo'yicha joriy axborot almashuvi

Ijobiy tajribani rivojlantirish maqsadida joylarga o'zaro harakat qilish, tekshiruv va quyi turuvchi organlarga jinoyatchilikka qarshi kurash yuzasidan yordam berish


Aniq jinoyatlarni tergov qilish uchun tergov-operativ guruhlar tuzish

Aniq maqsadga yo'naltirilgan ishlarni olib borish, xodimlarning malakasini oshirish, seminarlar, konferensiyalar o'tkazish, xavfsizlik choralarini ko'rish

O'zaro qarorlar, buyruqlar, axborot xati, oriyentirovka va boshqa tashkiliy ijro hujjatlarni ishlab chiqish, to'plamlar tuzish, yarim yillik hamda istiqbolli rejalar tuzish



*Kimlar prokuratura organlari xodimlari  
bo'lishi mumkin?*



## **5-bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PROKURATURA ORGANLARI TIZIMI**

### **5.1. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi**

O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining tizimi Qonunning 10-moddasida qayd etilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi;
- viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari;
- tumanlar va shaharlar prokuraturalari;
- tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan harbiy okruglar, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar.

O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari faoliyat ko'rsatadi. (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti organlari ishini tashkil etish reglamentini tasdiqlash to'g'risida 2007-yil 5-sentabr-dagi 68-buyrug'i qabul qilingan bo'lib, departament «O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti» deb nomlanadi va uning joylardagi bo'linmalari prokuratura organlari tizimiga kiradi.)

### **5.2. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi**

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori rahbarlik qiladi. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimiga tayinlanadigan hamda lavozimidan ozod etiladigan birinchi o‘rinbosariga, o‘rinbosarlariga ega bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori hamda uning o‘rinbosarlarini lavozimiga tayinlash hamda lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi Farmonlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadi (O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonuni 12-moddasi).

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 80-moddasi 9-bandi talablariga asosan «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o‘rinbosarlarini tayinlash hamda ularni lavozimidan ozod etish to‘g‘risidagi farmonlarni tasdiqlash» — O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati mutlaq vakolatlariga tegishlidir.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 93-moddasi 12-bandi talablariga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va uning o‘rinbosarlarini tayinlaydi va ularni lavozimidan ozod qiladi, keyinchalik bu masalalarni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tasdig‘iga kiritadi. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida bosh boshqarmalar, boshqarmalar va bo‘limlar tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining katta yordamchilari va yordamchilari, bosh boshqarmalar, boshqarmalar bo‘limlarning boshliqlari, ularning o‘rinbosarlari, katta prokurorlar, prokurorlar alohida muhim ishlar bo‘yicha katta tergovchilar va alohida muhim ishlar bo‘yicha tergovchilar O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimidan ozod etiladilar. 2004-yil 11-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo‘jaligida islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan qonunlar ijrosini ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 3406-sonli Farmoni bilan prokuratura organlarining yangi tuzilmasi tashkil etildi. Ushbu Farmonda belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyrug‘i qabul qilindi. Buyruqda quyidagilar qayd etilgan:

1. O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlarining yangi tuzilmasi tasdiqlanganligi munosabati bilan uning ayrim tarkibiy tarmoqlariga o‘zgartirishlar kiritilgan.

2. Bosh prokuraturaning «Tergov bosh boshqarmasi» hamda viloyatlar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalardagi tergov boshqarmalari tugatilgan.

3. Bosh prokuratura tarkibida, ayrim tarkibiy tarmoqlar tugatilgan, ularning vazifalarini bajarish yangi tashkil etilgan quyidagi boshqarma, bo'limlar zimmasiga yuklatilgan.

3.1. «Qurolli Kuchlar, maxsus tartibli korxonalar va transportda qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat bo'limi», «Milliy xavfsizlik xizmati idoralarida qonunlar ijrosi ustidan nazorat bo'limi» tugatilgan va «Qurolli Kuchlar, Milliy xavfsizlik va bojxona organlarida qonunlarning ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi» tashkil qilingan.

3.2. «Tergov bosh boshqarmasining tashkiliy-uslubiy bo'limi», «Kriminalistika bo'limi» va «Jinoyatlarni tergov qilish ustidan nazorat bo'limi» tugatilgan va «Jinoyatchilikka qarshi kurashishni tashkiliy-uslubiy ta'minlash bo'limi» tashkil qilingan.

3.3. «Qamoqqa olinganlarni saqlash va jazoni ijro etish joylarida qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorat bo'limi» tugatilgan va «Sud qarorlarini ijro etishda va qamoqqa olinganlarni saqlashda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat boshqarmasi» tashkil qilingan.

3.4. «Davlat bojxona va soliq qo'mitalari idoralarida surishtiruv hamda tergov ustidan nazorat bo'limi» tugatilgan va «Soliqqa oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat» bo'limi tashkil qilingan.

3.5. «Umumiy nazorat boshqarmasi» tugatilgan va «Fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish boshqarmasi» tashkil qilinib, uning tarkibida «Qishloq xo'jaligi sohasida qonuniylikni ta'minlash va xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlarini himoya qilish» bo'limi tuzilgan.

3.6. «Ishlar boshqarmasi» tugatilgan va shtatlari saqlangan holda uning o'rniga «Xo'jalik ishlari bo'limi» tashkil qilingan.

3.7. «Hisobga olish, hisobot va ichki idoraviy nazorat bo'limi» tugatilgan va shtatlari saqlangan holda uning o'rniga «Moliya-iqtisod bo'limi» tashkil qilingan.

4. Bosh prokuratura tarkibidagi ayrim tarkibiy tarmoqlarning nomlanishi quyidagicha o'zgartirilgan.

4.1. «Prokuratura idoralarida tergovni nazorat qilish boshqarmasi» «Prokuratura organlarida tergovni nazorat qilish boshqarmasi» deb yuritilgan.

4.2. «Ichki ishlar vazirligi idoralarida tergov va surishtiruv ustidan nazorat boshqarmasi» «Ichki ishlar vazirligi organlarida qonunlar ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi» deb yuritilgan.

4.3. «Qonunlarni mujassamlashtirish va huquq-targ'iboti bo'limi» «Qonunchilik targ'iboti bo'limi» deb yuritilgan.

4.4. «Millatlararo va xalqaro huquqiy munosabatlarda qonunlar ijrosi ustidan nazorat bo'limi» «Xalqaro huquqiy bo'lim» deb yuritilgan.

4.5. «Sudlarda xo'jalik ishlari ko'rilishida prokuror vakolatini ta'minlash bo'limi» «Xo'jalik sudlarida ishlar ko'rilishida prokuror vakolatini ta'minlash bo'limi» deb yuritilgan.

4.6. «Voyaga yetmaganlar haqidagi qonunlarni ijro etish ustidan nazorat qilish bo'limi» «Voyaga yetmaganlar haqidagi qonunlar ijrosi ustidan nazorat bo'limi» deb yuritilgan.

4.7. «Iqtisodiy jinoyat va korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi» «Iqtisodiy jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi» deb yuritilgan.

Ushbu buyruqqa binoan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tizimi yangicha tus oldi.

Tarkibiy tarmoq raqami	Tarkibiy tarmoqlarning nomlanishi
1	O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori kotibiyati
2	Bosh prokurorning birinchi o'rinbosari kotibiyati
3	Bosh prokurorning o'rinbosari kotibiyati
4	Bosh prokurorning o'rinbosari kotibiyati
5	Bosh prokurorning o'rinbosari kotibiyati
6	Kadrlar boshqarmasi
7	Tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi
8	Ichki xavfsizlikni ta'minlash inspeksiyasi
9	Voyaga yetmaganlar haqidagi qonunlar ijrosi ustidan nazorat bo'limi
10	Fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish boshqarmasi
11	Qishloq xo'jaligi sohasida qonuniylikni ta'minlash va xo'jalik yurituvchi subyektlarning huquqlarini himoya qilish bo'limi
12	Sudlarda jinoyat ishlari qurilishida prokuror vakolatini ta'minlash boshqarmasi
13	Xo'jalik sudlarida ishlar ko'rilishida prokuror vakolatini ta'minlash bo'limi
14	Sudlarda fuqarolik ishlari ko'rilishini prokuror vakolatini ta'minlash bo'limi

15	Prokuratura organlarida tergovni nazorat qilish boshqarmasi
16	Ichki ishlar vazirligi organlarida qonunlar ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi
17	Sud qarorlarini ijro etishda va qamoqqa olinganlarni saqlashda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat boshqarmasi
18	Jinoyatlarni tergov qilish boshqarmasi
19	Jinoyatchilikka qarshi kurashishni tashkiliy-uslubiy ta'minlash bo'limi
20	Qurolli Kuchlar, Milliy xavfsizlik va bojxona organlarida qonunlar ijrosi ustidan nazorat boshqarmasi
21	Iqtisodiy jamoatchilik va korrupsiyaga qarshi kurashish boshqarmasi
22	Qonunchilik targ'iboti bo'limi
23	Soliqqa oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bo'limi
24	Fuqarolar murojaatlari va xatlar bo'limi
25	Birinchi bo'lim
26	Xalqaro huquqiy bo'lim
27	Moliya-iqtisod bo'limi
28	Xo'jalik ishlari bo'limi
29	«Qonun himoyasida» jurnali tahririyati
30	Qonunchilikni mustahkamlash muammolari va prokuror-tergov xodimlari malakasini oshirish markazi

Bosh prokuratura prokuratura organlari tizimining Markaziy mahkamasi hisoblanadi va uning faoliyatiga bevosita Bosh prokuror rahbarlik qiladi va u hay'at raisi hisoblanadi. Bosh prokuror vaqtincha bo'lmaganda, uning vazifasini Bosh prokurorning birinchi o'rinbosari, Bosh prokurorning birinchi o'rinbosari ham bo'lmaganda, Bosh prokurorning ko'rsatmasiga asosan, o'rinbosarlardan biri bajaradi.

Bosh prokurorning o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlash Bosh prokurorning buyrug'i bilan belgilab qo'yiladi. Bosh prokurorning o'rinbosarlari belgilangan vazifalari taqsimotiga muvofiq tegishli boshqarma va bo'limlarning ishlariga yo'naltirib, nazorat qilib boradilar, o'z vakolatlari doirasida boshqaruv mazmunidagi va protsessual qarorlarni qabul qiladilar.

Bosh prokuratura tarkibida boshqarma va bo'limlari qonunchilikni mustahkamlash muammolari va prokuror-tergov xodimlari malakasini oshirish markazi, «Qonun himoyasida» jurnali birlashgan tahririyati, shuningdek, uning huzurida Soliq, valutaga oid jinoyatlar va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti faoliyat ko'rsatadi.

Boshqarma va bo'limlar to'g'risidagi Bosh prokuror tomonidan tasdiqlanadigan nizomlarda ularning asosiy vazifalari hamda faoliyat yo'nalishlari, shuningdek, boshqarma va bo'limlarning boshliqlari, ularning o'rinbosarlari, katta prokurorlar va prokurorlar hamda boshqa xodimlarning vakolatlari belgilab qo'yiladi. Boshqarma va bo'limlar xodimlarining vazifalari prokuratura rahbariyatining roziligi asosida tarmoq boshlig'i tomonidan taqsimlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, O'zbekiston Respublikasi Harbiy va Transport prokurorlari (bundan keyin matnda viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar deb yuritiladi) Bosh prokuror oldida bevosita hisobdor bo'lib, qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat olib boradilar.

Bosh prokuratura tomonidan tezkor-qidiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar faoliyati qonunlar asosida muvofiqlashtirilib boriladi. Bosh prokuraturaning faoliyati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda oshkoralik asosida amalga oshiriladi.

Bosh prokuratura nomidan ommaviy axborot vositalari uchun rasmiy axborotlar Bosh prokurorning roziligi asosida tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi bilan kelishilgan holda qonunchilik targ'iboti bo'limi tarkibidagi matbuot markazi orqali beriladi. Qonunchilik targ'iboti bo'limiga ommaviy axborot vositalari uchun rasmiy axborotlarning loyihalari boshqarma va bo'limlar tomonidan Bosh prokurorning o'rinbosarlari bilan kelishilgan holda taqdim etiladi hamda ular ma'lumotlarning to'g'ri, ishonchli va xolisligi uchun mas'ul hisoblanadilar.

Bosh prokuraturada lavozimiga Bosh prokuror buyrug'i bilan tayinlanadigan prokuratura organlari xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish uchun attestatsiya komissiyasi tuziladi. Attestatsiya komissiyasi Bosh prokuror tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat yuritadi.

Prokuratura organlarining darajali unvonlarga ega bo'lgan xodimlari hay'at va attestatsiya majlislarida, tezkor va Muvofiq-

lashtiruvchi kengash yig'ilishlarida, jinoyat, fuqarolik, xo'jalik ishlarining sudlarda ko'rilishida, shuningdek, rasmiy uchrashuvlar, konferensiyalar, seminarlar, o'quv mashg'ulotlari va boshqa vakillik hollarida ishtirok etayotganda hamda ommaviy axborot vositalarida chiqish uchun tasvirga olinayotganda xizmat kiyimida bo'lishlari shart.

Bosh prokurorning tashkiliy-boshqaruv yo'nalishidagi hujjatlari (buyruq, ko'rsatma, farmoyish, yo'riqnomalar) loyihalari prokuratura rahbariyatining topshiriqlari, hay'at, Muvofiqlashtiruvchi kengash qarorlari asosida yoki tashabbuskorlik tartibida tegishli tarmoqlarda tayyorlanadi. Hujjat loyihasi tashabbuskorlik tartibida tayyorlanganida unga Bosh prokuror nomiga yozilgan bildirgi ilova qilinib, tegishli asoslar ko'rsatiladi.

Bosh prokurorning o'rinbosarlari prokuror nazorati yo'nalishlari bo'yicha joylardagi prokurorlarga tegishli ko'rsatmalar yuboradilar. Boshqarma va bo'limlarning boshliqlari tashkiliy-boshqaruv yo'nalishidagi hujjatlarning loyihalarini Bosh prokuraturaning ko'rilayotgan masala taalluqli bo'lgan barcha tarmoqlari bilan kelishib oladilar.

Buyruq, ko'rsatma, yo'riqnomalarning loyihalari Bosh prokuror bilan kelishuvga binoan, viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar muhokamasiga yuborilishi, ko'rib chiqish uchun Bosh prokuratura hay'atining muhokamasiga kiritilishi mumkin, quyi prokuraturalarning vakillari hujjat ustida ish olib borishga bevosita jalb etilishi mumkin.

Bosh prokuror buyrug'i (ko'rsatma, farmoyish, yo'riqnoma)ni tayyorlashda ishtirok etgan boshqarma va bo'limlar boshliqlari, ishning shu sohasi uchun mas'ul bo'lgan Bosh prokurorning o'rinbosari bilan kelishilgan loyihasi uni tayyorlash uchun mas'ul boshqarma, bo'lim tomonidan tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasiga rozilik olish uchun yuboriladi. Loyihaga rad etilgan taklif va mulohazalar xususidagi ma'lumotnoma ilova qilinib, qabul qilingan qaror asoslari ko'rsatiladi.

Bosh prokurorning buyruq, ko'rsatma va farmoyishlarining (maxfiy, kadrlarga oid va xo'jalik masalalariga doir hujjatlar bundan mustasno) hisobini yuritish, asl nusxalarini to'plash va ijrosini nazorat qilish tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar bilan hamkorlikdagi buyruqlar, ko'rsatmalar yo'riqnomalarning loyihalarini tayyorlash



tartibi Bosh prokuror yoki uning o'rinbosarlari tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar rahbarlari bilan kelishilgan holda belgilanadi. Hujjatlarning loyihalari tasdiqlash uchun Bosh prokurorga ishning tegishli sohasi uchun mas'ul bo'lgan Bosh prokuror o'rinbosari tomonidan taqdim etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoni, Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senati hamda Vazirlar Mahkamasiga yuborish uchun tarkibiy tarmoqlar tomonidan tayyorlangan axborotlar, tahliliy hujjatlar loyihalari tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi bilan kelishilganidan so'ng rahbariyatga taqdim qilinadi.

Quyi prokuratura organlari xodimlarini Bosh prokuraturaga chaqirtirish, qoida tariqasida, ish rejaları, shuningdek, boshqarma va bo'limlar boshliqlarining asoslantirilgan bildirgisiga muvofiq, Bosh prokuror yoki uning o'rinbosarlari ko'rsatmasiga binoan yoxud ularning roziligi bilan amalga oshiriladi.

Boshqarma va bo'limlar boshliqlari tomonidan ish o'rganish uchun chaqirtirilgan xodimlarga tegishli mas'ul ish o'rgatuvchi xodim birlashtiriladi. Ish o'rganuvchi xodim mazkur tarkibiy tarmoq faoliyati bilan bog'liq tegishli hujjatlar bilan tanishtiriladi, unga sohada ishlarni tashkil qilish, prokuror nazorati, protsessual va boshqa hujjatlar loyihalarini tayyorlash uslublari o'rgatiladi. Shuningdek, ish o'rganuvchi xodim tekshirish va ayrim tergov harakatlari ishtirok etishga jalb qilinishi mumkin. Ish o'rganish natijalari boshqarma (bo'lim) boshlig'i huzuridagi tezkor yig'ilishda muhokama etiladi hamda tegishli qaror qabul qilinadi. Xodimning ish o'rganishi natijalari haqida tegishli viloyat prokurori va unga tenglashtirilgan prokurorga yozma xabar beriladi.

Hay'at majlisi, tezkor yig'ilish, muayyan ishlar yuzasidan ma'ruza qilish yoki attestatsiyadan o'tkazish uchun chaqirtirilgan xodimning xizmat safari muddati uch kundan, boshqa masalalar bo'yicha chaqirtirilganda esa besh kundan oshmasligi kerak. Ish o'rganish va Bosh prokuraturada uzoqroq muddat bo'lish talab etiladigan boshqa hollar bundan mustasno.

Bosh prokuraturaga chaqirtirilgan xodimlarni joylashtirish, ularning xizmat safarlarini, agar bo'ysunuvchi prokuraturalarda xizmat safari uchun mo'ljallangan mablag'lar bo'lmasa, moliyalashtirish masalalari Bosh prokuraturaning moliya-iqtisod bo'limi va xo'jalik ishlari bo'limi boshliqlari bilan oldindan kelishib olinadi.

Chaqirtiruv asosida kelgan xodimlarning xizmat safari guvohnomalariga boshqarma va bo'limlarning boshliqlari mazkur

xodimlar Bosh prokuraturada bo'lgan muddat haqida belgi qo'yib berishlari shart, ularning topshiriqni bajarganligini ham tasdiqlab beradilar. Bosh prokuraturaga xizmat safariga kelgan quyi prokuratura organlari xodimlarining hisobi kadrlar boshqarmasi tomonidan yuritiladi. Quyi prokuratura xodimlarini jinoyat ishlari bo'yicha tuzilgan tergov guruhleri tarkibida faoliyat olib borishi uchun chaqirtirish asoslari hamda tartibi prokuratura rahbariyati tomonidan belgilanadi.

Ish rejalari, hay'at qarorlari, Bosh prokuratura rahbariyatining ko'rsatma va topshiriqlari asosida Bosh prokuratura tarmoqlari, shuningdek, qonunchilikni mustahkamlash muammolari va prokuror-tergov xodimlari malakasini oshirish markazi tomonidan o'quv-amaliy mashg'ulotlari, seminarlar, konferensiyalar, davra suhbatlari, matbuot konferensiyalari, xorijiy davlat vakillari bilan uchrashuvlar va boshqa anjumanlar o'tkaziladi. Bunday tadbirlar dasturi, o'tkazishga mas'ul xodimlar va ishtirok etuvchi shaxslar Bosh prokuror bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Yuridik fan va kriminalistik texnika bo'yicha erishilgan yutuqlar, ilg'or prokuror-tergov amaliyoti, prokuratura organlarining zamonaviy ish uslublari, mehnatni ilmiy tarzda tashkil qilish asoslari, jinoyatchilik hamda terrorizmga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tajribalardan foydalangan holda prokuror-tergov xodimlarining kasb-mahorati, bilim saviyasini oshirish, o'quv mashg'ulotlarini amaliyot tajribalari bilan qo'shib o'tkaziladi. Zarur hollarda, amaliyotchi va ilmiy xodimlar hamda tegishli mutaxassislar bu ishga jalb etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan quyi prokuraturalar faoliyatini joyiga chiqib tekshirish va ularga amaliy yordam ko'rsatish qoida tariqasida, Bosh prokuraturaning ish rejasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Bosh prokuraturaning ish rejasi asosida joylarga chiqib tekshirishlar bo'yicha ishtirok etuvchi xodimlar guruhleri tarkibi tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi tomonidan boshqarmalar, bo'limlarning boshliqlari bilan kelishilgan holda shakllantiriladi hamda Bosh prokuror tomonidan tasdiqlanadi. Quyi prokuraturalarni kompleks tekshirishdan o'tkazishda xodimlar guruhlariga, qoida tariqasida, Bosh prokurorning o'rinbosarlari, ishning muayyan yo'nalishlari bo'yicha tekshiruvlarda esa boshqarma va bo'limlarning boshliqlari rahbarlik qiladilar.

Bosh prokuror va uning o‘rinbosarlari roziligi hamda viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar bilan kelishuvga binoan, tekshirishlarga quyi prokuratura xodimlari jalb etilishi mumkin. Tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi tomonidan tayyorlangan, kompleks tekshirish o‘tkazadigan guruh rahbarlari va a‘zolari to‘g‘risidagi Bosh prokurorning buyrug‘i tekshirishdan kamida uch kun oldin chiqariladi.

Bosh prokuratura xodimlarining reждан tashqari joylarga chiqishlari (favqulodda hodisalar, jinoyatlarni tergov qilish, attestatsiya oldi va shikoyatlarni tekshirish, shuningdek, boshqa masalalar) Bosh prokuror yoki uning o‘rinbosarlari ko‘rsatmasiga binoan o‘tkaziladi. Bunday ko‘rsatma berilgan boshqarmaning (bo‘lim) boshlig‘i tekshirishda boshqa tarmoqlarning xodimlari ishtirok etishi zarurligi to‘g‘risida taklif kiritishi mumkin.

Ish rejasiga asosan, joylarga chiqishga tayyorlanayotgan xodimlar Bosh prokuraturadagi mavjud statistika ma‘lumotlari, qonuniylik va jinoyatchilik hamda prokuror nazorati holatini tavsiflovchi boshqa hujjatlarni tahlil qilishlari, Bosh prokurorning buyruq va ko‘rsatmalari, Bosh prokuratura hay‘ati, Muvofiqlashtiruvchi kengash qarorlari, oldingi tekshirishlar natijalari hamda ular yuzasidan qabul qilingan qarorlar bilan tanishishlari, joylarga chiqish maqsadidan kelib chiqib, ishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab olishlari hamda tekshirish rejasini tuzishlari shart.

Tekshirish rejasini Bosh prokurorning birinchi o‘rinbosari yoki o‘rinbosari tomonidan tasdiqlanadi. Tekshirish uchun ketayotganlarga jo‘nash oldidan Bosh prokuror yoki uning o‘rinbosari tomonidan tegishli ko‘rsatmalar beriladi.

Tekshirish natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotnoma joylarning o‘zida tuziladi va unda prokuratura organining, muayyan xodimlarning faoliyati tahlil qilinadi va baho beriladi, zarur hollarda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarning sabablariga doir xulosalar, ularni bartaraf etish yuzasidan amaliy tavsiyalar ko‘rsatiladi. Ma‘lumotnoma guruhning barcha a‘zolari tomonidan imzolanadi, uning bir nusxasi faoliyati tekshirilgan prokuratura rahbariga topshiriladi. Tekshirish natijalari joyning o‘zida muhokama qilinishi mumkin.

Guruh rahbari joylarga chiqish natijalari to‘g‘risida uch kunlik muddat ichida Bosh prokurorga yoki uning o‘rinbosariga axborot berishi shart, ular esa taqdim etilgan materiallar bo‘yicha amalga oshirilishi kerak bo‘lgan chora-tadbirlar shakli va muddatlari to‘g‘risida ko‘rsatma beradilar. Bosh prokuror yoki uning o‘rinbosari

ustxat qo'ygan tekshirish natijalari to'g'risidagi ma'lumotnoma va boshqa materiallar qabul qilingan qarorning bajarilishi ustidan nazoratni tashkil etish uchun tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasiga topshiriladi.

Kompleks tekshirishlar natijalari, qoida tariqasida, Bosh prokuraturaning hay'ati muhokamasiga kiritiladi. Kompleks tekshirishda ishtirok etgan tarmoqlarning xodimlari o'z yo'nalishlari bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida boshqarma (bo'lim) boshlig'iga axborot beradilar hamda tegishli ma'lumotnoma taqdim etadilar.

Tekshirish natijalari, agar ularni Bosh prokuratura hay'ati muhokamasiga kiritishning zaruriyati bo'lmasa, Bosh prokuror yoki uning o'rinbosarlari huzuridagi tezkor yig'ilishlarda, boshqarma va bo'limlarda muhokama etiladi, bunda qilingan ishlarga baho berilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hamda quyi prokuratura organlari ustidan nazoratni yaxshilash yuzasidan chora-tadbirlar belgilab olinadi.

### **5.3. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining vakolatlari**

- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori prokuratura organlariga rahbarlik qiladi va ular faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qonunchilik tashabbusi bilan murojaat etishi mumkin;

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 81-moddasida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati majlislarida, shuningdek, uning organlari majlislarida ishtirok etishi mumkinligi belgilab qo'yilgan;

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining majlislarida ishtirok etishi, uning ko'rib chiqishi uchun masalalar kiritishi va ko'rilayotgan masala yuzasidan fikr bildirishi mumkin;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi majlislarida ishtirok etadi, ko'rilayotgan ishlar bo'yicha va muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan fikr bildiradi, qonun hujjatlarini qo'llash bilan bog'liq masalalar bo'yicha plenum tushuntirishlar berishi xususida takliflar kiritadi;

- O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumi majlislarida ishtirok etadi, muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan fikr

bildiradi, qonun hujjatlarini qo'llash bilan bog'liq masalalar bo'yicha plenum tushuntirish berishi xususida takliflar kiritadi;

- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi hay'atining tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi takliflarni O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga kiritadi;

- prokuratura organlari xodimlariga darajali unvonlar beradi va oliy darajada unvonlar berish to'g'risidagi taqdimnoma bilan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat etadi;

- prokuratura organlari xodimlarini O'zbekiston Respublikasi davlat mukofotlariga taqdim etadi;

- prokuratura organlari xodimlarini «O'zbekiston Respublikasi prokuraturasining faxriy xodimi» ko'krak nishoni bilan taqdirlaydi;

- buyruqlar chiqaradi hamda prokuratura organlarining tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

- chet el davlatlarining tegishli organlari bilan hamkorlik to'g'risidagi bitimlar tuzadi;

- qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari va boshqa hujjatlari (individual xususiyatga ega bo'lgan hujjatlar bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarori asosida bekor qilinadi.

#### **5.4. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining hisobdorligi**

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oldida hisobdordir.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga:

- qonuniylik va jinoyatchilikka qarshi kurashning holati to'g'risida — muntazam ravishda;

- o'ta og'ir jinoyatlar va favqulodda hodisalar to'g'risida — zudlik bilan;

- prokuratura organlari amalga oshirgan ishlar to'g'risida — har olti oyda axborot taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga o'z faoliyati haqida muntazam ravishda hisobot beradi (O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 14-moddasi).

## **5.5. Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasi**

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori rahbarlik qiladi, u O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi tomonidan lavozimiga tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori:

- Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi;
- O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori oldida hisobdordir.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori tegishlicha tuman, shahar prokuraturalarining va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarning faoliyatiga rahbarlik qiladi, qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari asosida va ularni ijro etish uchun o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlarning hammasi uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurorining O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimiga tayinlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari bo‘ladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokuraturasida boshqarmalar va bo‘limlar tashkil etiladi. Boshqarmalar va bo‘limlarning boshliqlari hamda ularning o‘rinbosarlari, prokurorning katta yordamchilari, prokurorning ichki xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha yordamchisi, katta prokuror-kriminalist O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining roziligi bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurorining yordamchilari, boshqarmalari va bo‘limlarining katta yordamchilari, boshqarmalar va bo‘limlarning katta prokurorlari va prokurorlari, prokuror-kriminalistlar, alohida muhim ishlar bo‘yicha katta tergovchilar va alohida muhim ishlar bo‘yicha tergovchilar, katta tergovchilar va tergovchilar Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

## **5.6. Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalar**

Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga tegishli prokurorlar rahbarlik qiladilar, ular O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar hamda lavozimdan ozod etiladilar. Bu prokurorlar

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo‘ysunadilar va uning oldida hisobdor.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tegishincha tuman, shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarning faoliyatiga rahbarlik qiladi, qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari asosida va ularni ijro etish uchun o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlarning hammasi uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan birinchi o‘rinbosari va o‘rinbosarlari bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasiga lavozimiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o‘rinbosari bo‘lmish O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori rahbarlik qiladi.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda boshqarmalar va bo‘limlar tashkil etiladi. Boshqarmalar va bo‘limlarning boshliqlari, prokurorlarning katta yordamchilari, prokurorlarning ichki xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha yordamchilari O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar.

Boshqarmalar va bo‘limlar boshliqlarining o‘rinbosarlari, katta prokuror-kriminalistlar va prokuror-kriminalistlar O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining roziligi bilan viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning yordamchilari, boshqarmalar va bo‘limlarning katta prokurorlari va prokurorlari, alohida muhim ishlar bo‘yicha katta tergovchilar va alohida muhim ishlar bo‘yicha tergovchilar, katta tergovchilar va tergovchilar viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar («Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonunning 16-moddasi).

### *Viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi*

O‘zbekiston Respublikasining yagona tizimiga harbiy prokuratura ham kiradi.

Harbiy prokuraturaning asosiy vazifalariga:

- O‘zbekiston Respublikasida qonun ustuvorligini ta‘minlash;
- davlat xavfsizligi, hududiy daxlsizlik va qo‘shinlardagi harbiy tayyorgarlik bo‘yicha qonun ustuvorligini ta‘minlash;
- harbiylarning hamda ularning oilalarining huquq va erkinliklarini muhofaza qilish;
- Qurolli Kuchlarning qonuniy manfaatlarini kasbiy huquq-buzarliklardan himoya qilish va bunday huquqbuzarliklarni oldini olish kiradi.

Harbiy prokuratura organlari o‘z faoliyatlarini quyidagi yo‘nalishlarda olib boradilar:

- O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Boshqarmalari organlarida qonunlar ijrosi ustidan nazorat;
- harbiy qismlar, harbiy korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, o‘quv muassasalari, harbiy mansabdor shaxslar va harbiy xizmatchilar, shuningdek, harbiylashtirilgan tarkiblar, bo‘linmalar, harbiy yig‘inlarga chaqirilganlar tomonidan qonunlar ijrosi ustidan nazorat;
- harbiylar, ularning oilalari va boshqa fuqarolarning huquq-erkinliklarini muhofaza qilishga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat;
- Qurolli Kuchlarda surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan hamda jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiradigan tashkilotlar tomonidan qonunlarni ijro etishi ustidan nazorat;
- jinoyat ishlari bo‘yicha dastlabki tergovni amalga oshirish;
- sudlarda jinoyat ishlarini ko‘rilishida davlat ayblovini quvvatlash;
- ma‘muriy huquqbuzarlikka oid ishlarni ko‘rilishida ishtirok etish, g‘ayriqonuniy sud hujjatlariga nisbatan protest keltirish;
- harbiy xizmatchilarni gaaptvaxtalarda saqlash mobaynida qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat;
- harbiy qismlarda va muassasalarda jinoiy-huquqiy ta‘sirga oid qonunlar ijrosi ustidan nazorat hamda intizomiy qismlarda jinoiy jazolarni ijro etish bilan bog‘liq qonunlar ijrosi ustidan nazorat;
- qonun ijodkorligi faoliyatida va jamiyatda huquqiy madaniyatini yuksaltirish ishida ishtirok etish;
- harbiy prokuratura organlari qonunda belgilangan tartibda fuqarolarning, harbiy xizmatchilarning va yuridik shaxslarning ariza va shikoyatlarini ko‘rib chiqish;
- ularning buzilgan qonuniy huquq va manfaatlarini tiklash yuzasidan tegishli choralarni ko‘radilar.

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasiga lavozimiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga



tainlanadigan va lavozimidan ozod etiladigan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosari bo'lmish O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori rahbarlik qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, O'zbekiston Harbiy va Transport prokuraturalarining (ushbu atamalar bundan keyin matnda shartli ravishda viloyat prokuraturalari, rahbarlari esa — viloyat prokurorlari deb yuritiladi) tashkil etilishi hamda ularning faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun va boshqa qonunlarga asoslanadi.

Viloyat prokuraturasi va uning tarkibiy tarmoqlarida ishlarning tashkil etilishi, amalga oshirilishi, nazoratning ta'minlanishi, hay'at majlislari, tezkor yig'ilishlarning o'tkazilishi, tashkiliy-boshqaruv yo'nalishidagi hujjatlarning (buyruq, ko'rsatma, farmoyish) tayyorlanishi, imzolanishi va ijroga qaratilishi bilan bog'liq masalalar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining reglamenti hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining (bundan keyin matnda Bosh prokuror deb yuritiladi) buyruqlari, yo'riqnomalar, tarkibiy tarmoqlar to'g'risidagi nizomlar bilan tartibga solinadi.

Viloyat prokuraturasi O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlari tizimiga kiradi va uning faoliyatiga bevosita viloyat prokurori rahbarlik qiladi hamda u hay'at raisi hisoblanadi. Viloyat prokurori vaqtincha bo'lmaganda, uning vazifasini viloyat prokurorining birinchi o'rinbosari, viloyat prokurorining birinchi o'rinbosari ham bo'lmaganda viloyat prokurorining ko'rsatmasiga asosan, o'rinbosarlardan biri bajaradi. Viloyat prokurorining o'rinbosarlari o'rtasida vazifalarni taqsimlash viloyat prokurorining buyrug'i bilan belgilab qo'yiladi.

Viloyat prokurorining o'rinbosarlari belgilangan vazifalar taqsimotiga muvofiq, tegishli tarkibiy tarmoqlar ishlarini yo'naltirib, nazorat qilib boradilar, o'z vakolatlari doirasida boshqaruv mazmunidagi va protsessual qarorlarni qabul qiladilar.

Viloyat prokuraturasi tarkibida bo'limlar va boshqa tarkibiy tarmoqlar, viloyat prokuraturasi ta'sisshiligidagi gazeta tahririyati, shuningdek, uning huzurida Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoyi daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish boshqarmasi (bundan keyin matnda departament boshqarmasi deb yuritiladi) faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tasdiqlangan nizomlarda tarkibiy tarmoqlarning asosiy vazifalari hamda

faoliyat yo'nalishlari, shuningdek, tarmoq boshliqlari, ularning o'rinbosarlari, katta prokurorlar va prokurorlar, shuningdek, boshqa xodimlarning vakolatlari belgilab qo'yiladi. Bo'limlar va boshqa tarkibiy tarmoq xodimlarining vazifalari prokuratura rahbariyatining roziligi asosida tarmoq boshlig'i tomonidan taqsimlanadi.

Viloyat prokurori Bosh prokuror oldida bevosita hisobdor bo'lib, qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazorat olib boradi. Viloyat prokuraturasi tomonidan tezkor-qidiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar faoliyati qonunlar asosida muvofiqlashtirilib boriladi.

Viloyat prokuraturasining faoliyati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda oshkoralik asosida amalga oshiriladi. Viloyat prokuraturasi nomidan ommaviy axborot vositalari uchun rasmiy axborotlar viloyat prokurorining roziligi asosida tashkiliy-nazorat va tahlil boshqarmasi bilan kelishilgan holda qonunchilik targ'iboti xizmati orqali beriladi.

Qonunchilik targ'iboti tarmog'iga ommaviy axborot vositalari uchun rasmiy axborotlarning loyihalari bo'limlar va boshqa tarkibiy tarmoqlar tomonidan viloyat prokurorining o'rinbosarlari bilan kelishilgan holda taqdim etiladi hamda ular ma'lumotlarning to'g'ri, ishonchli va xolisligi uchun mas'ul hisoblanadilar.

Viloyat prokuraturasida lavozimga viloyat prokurori buyrug'i bilan tayinlanadigan prokuratura organlari xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish uchun attestatsiya komissiyasi tuziladi. Attestatsiya komissiyasi Bosh prokuror tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida faoliyat yuritadi.

Prokuratura organlarining darajali unvonlariga ega bo'lgan xodimlari hay'at va attestatsiya majlislarida, tezkor va Muvofiqlashtiruvchi kengash yig'ilishlarida, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlarining sudlarda ko'rilishida, shuningdek, rasmiy uchrashuvlar, konferensiyalar, seminarlar, o'quv mashg'ulotlari va boshqa vakillik hollarida ishtirok etayotganda hamda ommaviy axborot vositalarida chiqish uchun tasvirga olinayotganda xizmat kiyimida bo'lislari shart.

*Viloyat prokuraturalarida ishlarni tashkillashtirish, hisobotlar bilan ishlash va faoliyatni tahlil qilish*

Viloyat prokuraturasi tarkibiy tarmoqlarining faoliyati soha va mintaqa prinsipi bo'yicha tashkil etiladi. Viloyat prokuraturasining ishi har olti oyga tuzilgan ish rejalari asosida tashkillashtiriladi. Ish rejasiga takliflarni tarkibiy tarmoq boshliqlari viloyat prokurorining

o'rinbosarlari bilan kelishilgan holda qonuniylik ahvoli va jinoyatchilik holati tahlili asosida, shuningdek, hay'at, Muvofiqlashtiruvchi kengash qarorlari, Bosh prokuratura ish rejalari, Bosh prokurorning buyruq va ko'rsatmalarini inobatga olgan holda kiritadilar.

Ish rejasiga takliflar asoslantirilgan bo'lishi hamda ularda tadbirlarning ijro muddatlari, mas'ul shaxslar, ijrochilar, tadbir natijalarini amalga oshirishning mo'ljallanayotgan shakllari va boshqa taalluqli ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa idoralar ham ishtirok etishi nazarda tutilayotgan tadbirlar ular bilan oldindan kelishib olingan bo'lishi lozim.

Viloyat prokuraturasining ish rejasiga doir takliflar reja loyihasini tayyorlash uchun tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limiga har yili 10-iyun va 10-dekabrda kechiktirmay topshiriladi. Ish rejasi loyihasi tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limi tomonidan tayyorlanib, viloyat prokurorining o'rinbosarlari bilan kelishilganidan keyin hay'at muhokamasiga kiritiladi.

Muhokama natijalari bo'yicha tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limi tomonidan ish rejasiga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, tasdiqlash uchun viloyat prokuroriga taqdim etiladi. Ish rejasi rejalashtirilayotgan davr boshlanishidan kamida besh kun oldin viloyat prokurorining o'rinbosarlariga, bo'limlar va boshqa tarkibiy tarmoqlarga, tuman-shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga, shuningdek, departamentning viloyat boshqarmasiga ijro uchun yuboriladi.

Rejaviy tadbirlarning ijrosi uchun tarkibiy tarmoq boshliqlari mas'ul bo'lib, ularning o'z vaqtida va sifatli bajarilishi uchun javobgar hisoblanadi. Rejaviy tadbirlarni almashtirish muddati va ijro etish tartibini o'zgartirish mas'ul hisoblangan tarkibiy tarmoq boshlig'ining tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limi bilan kelishilgan va viloyat prokurorining o'rinbosari roziligi asosida tuzilgan bildirgisi orqali faqat viloyat prokurori tomonidan amalga oshiriladi.

Rejada belgilangan tadbirning to'liq ijro etilganligi haqida mas'ul tarkibiy tarmoq boshlig'i viloyat prokurorining o'rinbosari bilan kelishilgan holda viloyat prokuroriga bildirgi orqali ma'lum qiladi. Viloyat prokurori mazkur masalani nazoratdan chiqarish yoki qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirish haqida ko'rsatma beradi. Tadbirning ijrosi haqidagi tegishli hujjatlar tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limiga yuboriladi.

Bo'lim va boshqa tarkibiy tarmoqlar o'z ishlarini viloyat prokuraturasining ish rejasi asosida, qonuniylik ahvoli va jinoyatchilik holati,

prokuror nazorati va sud-tergov amaliyotini inobatga olgan holda rejalashtiradilar. Bo‘lim va boshqa tarkibiy tarmoqlarning ish rejalarida quyi prokuraturalar faoliyatini bevosita tekshirish, ularga ijro etish uchun majburiy bo‘lgan tadbirlar kiritish va shu asosda topshiriqlar yuborish taqiqlanadi.

Tarkibiy tarmoqlarning ish rejalari viloyat prokurori yoki uning o‘rinbosarlari tomonidan tasdiqlanadi hamda uning nusxasi tashkiliy nazorat va tahlilot bo‘limiga beriladi. Tarmoq ish rejalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar mazkur tarmoq boshlig‘ining asoslantirilgan hamda tashkiliy-nazorat va tahlilot bo‘limi bilan kelishilgan bildirgisi asosida ish rejasini tasdiqlagan prokuratura rahbariyatining roziligi bilan kiritiladi. Tarkibiy tarmoqlarning ish rejalaridagi tadbirlar to‘liq ijro etilganidan so‘ng, prokuratura rahbariyatining roziligi bilan nazoratdan chiqariladi hamda tashkiliy-nazorat va tahlilot bo‘limiga bu haqda ma‘lumotnoma beriladi.

Rejaviy tadbirlar yakunida tegishli ma‘lumotnoma (umumlashma) tuzilib, ularning mohiyatiga ko‘ra, prokuratura rahbariyati bilan kelishilgan holda prokuror nazorati choralari qo‘llaniladi yoki quyi prokuratura organlariga yo‘naltiruvchi va tanbeh xatlari yuboriladi, shuningdek, tadbir natijalari tegishincha hay‘at majlis-lari, Muvofiqlashtiruvchi kengash va tezkor yig‘ilishlarida muhokama qilinadi.

Ish rejalarining bajarilishi ustidan nazoratni tashkiliy-nazorat va tahlilot bo‘limi amalga oshiradi. Ushbu bo‘lim tomonidan bevosita tekshirish orqali hamda ish rejasining bajarilishi haqida tarkibiy tarmoqlar tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotnomalar asosida har oyning boshida viloyat prokuroriga axborot berib boriladi.

Prokuratura organlarida prokurorlik faoliyati, tergov ishlari hamda jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarini hal etilishi to‘g‘risidagi statistik hisobotlarni tuzish, topshirish va jamlash tartibi Bosh prokurorning buyrug‘i va tegishli yo‘riqnoma bilan belgilanadi. Tashkiliy-nazorat va tahlilot bo‘limi tegishli tarmoqlarni jinoyatchilik holati haqidagi ma‘lumotlar hamda statistik hisobotlar bilan ta‘minlab turadi.

Viloyat prokuraturasi tarkibiy tarmoqlari qonuniylik va jinoyat-chilik holati, tergov va prokuror nazorati ahvoli to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni tahlil qilib, faoliyatni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi hamda prokuratura rahbariyatiga kiritadi.

Nazoratni tashkil etish va amalga oshirishda ayrim masalalar bo‘yicha viloyat prokurori va uning o‘rinbosarlarini farmoyishlari

bilan ishchi guruhlari hamda komissiyalar tuzilishi mumkin. Hay'at majlisi, Muvofiqlashtiruvchi kengash va tezkor yig'ilishlarning ishini tashkil etish.

Viloyat prokuraturasining hay'ati maslahat organidir. Hay'at o'z majlislarida qonuniylik ahvoli va jinoyatchilikning holati, prokuratura organlarining faoliyati, Bosh prokuror buyruqlari va ko'rsatmalarining ijrosi, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yishga doir va boshqa masalalarni ko'rib chiqadi, prokurorlarning, prokuratura organlari tarkibiy tarmoqlari rahbarlarining hamda boshqa xodimlarining hisobotlarini eshitadi.

Hay'at qarorlari asosida viloyat prokurori buyruqlar chiqarishi mumkin. Hay'at majlislari ish rejasiga binoan yoki viloyat prokurori — hay'at raisi ko'rsatmasi asosida o'tkaziladi.

Hay'at muhokamasiga kiritilayotgan masala yuzasidan hujjatlar viloyat prokurorining sohaviy o'rinbosarlari bilan kelishilgan holda tegishli tarmoq boshliqlari tomonidan tadbirning ish rejasida belgilangan muddati tugashidan kamida o'n kun oldin tayyorlanib, tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limiga taqdim etiladi.

Hay'at majlisida ko'rish uchun mo'ljallanayotgan hujjatlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- hajmi o'n sahifadan ko'p bo'lmagan ma'lumotnoma;
- ma'ruza matni, qaror loyihasi, buyruq loyihasi;
- hay'at majlisiga taklif etiladigan shaxslarning ro'yxati.

Hay'at muhokamasiga kiritilayotgan masalalar bo'yicha hujjatlarining tayyorlanishi uchun javobgarlik tegishli tarmoq boshliqlari hamda viloyat prokurorining shu sohaga mas'ul o'rinbosarlari zimmasida bo'ladi.

Qaror loyihasida tekshiruvning umumlashma tahlili yoki natijalaridan kelib chiquvchi asosiy xulosalar, qonun buzilishi hollarini va o'rganilgan soha yuzasidan prokuratura organlari ishini tashkil etishdagi kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risidagi takliflar, qonuniylikni mustahkamlash choralari aks ettirilgan bo'lishi lozim.

Viloyat prokurorining o'rinbosari tayyorlangan hujjatlar asosida masalani hay'at majlisida ko'rish to'g'risidagi taklifni viloyat prokuroriga kiritadi. Viloyat prokurori mazkur hujjatlarni hay'at muhokamasiga tayyorlash uchun tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limiga topshiradi yoki hujjatlar sifatli tayyorlanmagan taqdirda, ularni tegishli o'rinbosariga ko'rsatmalar bilan qaytaradi.

Hay'at majlisini o'tkazish lozim topilganda, tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limi kun tartibi loyihasi, majlisga taklif etiladigan

shaxslar ro'yxatini tasdiqlash uchun viloyat prokuroriga taqdim etadi. Hay'at majlisida ko'riladigan materiallar hay'at majlisi belgilangan kundan kamida bir kun oldin tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limi tomonidan hay'at raisi va a'zolariga beriladi.

Hay'at majlisi o'tkaziladigan kun haqidagi xabarnoma uning ishtirokchilariga tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limi tomonidan yuboriladi. Xabarnomada kun tartibi, ma'ruzachi, majlis o'tkazish sanasi, vaqti va joyi hamda ishtirokchilar ko'rsatilishi lozim. Taklif etilgan shaxslarning majlisda hozir bo'lishini tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limi masalani tayyorlagan tarmoq bilan birgalikda ta'minlaydi. Agar maxfiylik tartibiga rioya etishga zid bo'lmasa, hay'at ishi oshkoralik asosida amalga oshiriladi.

Qonunchilik targ'iboti tarmog'ining boshlig'i tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limi boshlig'i bilan kelishgan holda hay'at majlisiga ommaviy axborot vositalari vakillarini taklif etish hamda ularga beriladigan axborot hajmi haqida hay'at raisiga taklif kiritadi. Hay'at majlisida masala muhokamasi hay'at raisi belgilagan tartibda o'tkaziladi.

Majlis bayonnomasi tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limi tomonidan yuritiladi va uni bo'lim boshlig'i hamda hay'at raisi imzolaydi. Hay'at qaroriga muvofiq, tayyorlangan tashkiliy-boshqaruv yo'nalishidagi hujjatlar viloyat prokurori tomonidan tasdiqlanadi. Hay'at majlisi bayonnomasi va boshqa hujjatlar nusxalari ijro va ma'lumot uchun zudlik bilan joylarga yuboriladi.

Hay'at qarorining to'liq va o'z vaqtida ijro etilishi, shuningdek, mazkur qaror asosida chiqarilgan tashkiliy-boshqaruv yo'nalishidagi hujjatlarning to'laqonli bajarilishini ta'minlash uchun mas'uliyat viloyat prokurorining o'rinbosarlari, prokuratura tarkibiy tarmoqlari va departamentning boshqarmasi boshliqlari tuman-shahar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar zimmasiga yuklatiladi.

Tarkibiy tarmoqlarning boshliqlari hay'at qarori hamda uni ijroga qaratish maqsadida chiqarilgan boshqa hujjatlar bilan tezkor xodimlarni, albatta, tanishtiradilar, ular bajarilishi yuzasidan (zarur hollarda tezkor yig'ilishda muhokama etgan holda) chora-tadbirlar ishlab chiqadilar, mas'ul ijrochilarni belgilaydilar va ijro nazoratini tashkil qiladilar. Tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limi hay'at qarorlari hisobini va ularning bajarilishi ustidan nazoratni olib boradi, hay'atning ish amaliyotini yilma-yil o'rganib, umumlashtirib boradi.

Viloyat prokuraturasi hay'atida muhokama qilish talab etilmaydigan masalalar viloyat prokurori, uning o'rinbosarlari huzuridagi tezkor yig'ilishlarda, shuningdek, tarkibiy tarmoqlarda ko'rib chiqiladi. Tezkor yig'ilishlar zaruratga qarab o'tkaziladi. Ularni o'tkazish tartibi va muddati, ishtirokchilar doirasi va bayonnoma yurituvchilar har bir muayyan holatda yig'ilishni o'tkazayotgan rahbar tomonidan belgilanadi.

Viloyat prokurori huzuridagi tezkor yig'ilishlarni tashkiliy jihatdan ta'minlash, shuningdek, qabul qilingan qarorlar ijrosi ustidan nazorat tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. Hay'at va tezkor yig'ilish qarorlarining ijrosi haqidagi axborotlar qoida tariqasida masalani tayyorlagan tegishli tarmoqlarga yuboriladi hamda bu haqda nazoratni ta'minlash uchun tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limiga ma'lum qilinadi.

Tezkor-qidiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlarning Muvofiqlashtiruvchi kengashiga tashkiliy jihatdan tayyorgarlik ko'rish, o'tkazish, shuningdek, qabul qilingan qarorlarni amalga oshirilishi ustidan nazorat olib borish tartibi alohida Nizom bilan belgilanadi.

Viloyat prokuraturasi tomonidan qonunlar ijrosini tekshirish qonunlarning buzilayotganligi to'g'risidagi arizalar va boshqa ma'lumotlar asosida, shuningdek, qonuniylik ahvoli prokuror tomonidan choralar ko'rilishini talab qiladigan holatdan kelib chiqqan holda qonunda belgilangan tartibda o'tkaziladi. Shuningdek, qonunlar ijrosi yuzasidan tekshirishlar o'tkazishga ish rejalari, hay'at majlisi, muvofiqlashtiruvchi va idoralararo kengashlar qarorlari, Bosh prokuratura topshiriqlari, viloyat prokuraturasi rahbariyati tomonidan ijrosi talab qilingan hujjatlar va qonunda nazarda tutilgan boshqa holatlar asos bo'ladi.

Viloyat prokuraturasi tomonidan qonunlar ijrosi yuzasidan tekshirishlar, asosan, tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda o'tkaziladi. Tekshirishning yo'nalishidan qat'i nazar, bu obyektida qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga muvofiqligi, shuningdek, fuqarolar va yuridik shaxslar murojaatlarining hal qilinishi hamda huquqiy xizmat ishining samaradorligini o'rganishga kompleks yondashish talab qilinadi.

Viloyat prokuraturasi tomonidan qonunlar ijrosi yuzasidan tekshirishlar nazorat qiluvchi rahbar tomonidan tasdiqlangan reja asosida o'tkazilib, belgilangan muddatda yakunlanishi, tekshirishga

mas'ul bo'lgan xodim shu vaqt mobaynida mutasaddi mansabdor shaxslardan qonun buzilishiga sabab bo'lgan holatlar bo'yicha batafsil tushuntirishlar olib, barcha hujjatlarni jamlab, natijasi haqida nazorat qiluvchi rahbarga ma'lum qilishi va prokuror nazorati hujjatlari loyihalarini tayyorlashi lozim.

Tekshirishga bir nechta xodim ijrochi sifatida jalb etilganda, ro'yxatda birinchi ko'rsatilgan shaxs ijro uchun asosiy mas'ul hisoblanadi. Tekshirishda ishtirok etgan xodimlar tekshirilgan obyektga muqaddam nazorat idoralari tomonidan o'tkazilgan tekshirish natijalariga huquqiy baho berishlari va natijasi bo'yicha taklif kiritishlari zarur.

Tekshirish natijalari bo'yicha hajmi 10 varaqdan ko'p bo'lmagan, umumlashtirilgan tahliliy ma'lumotnoma tuziladi. Ushbu ma'lumotnoma tekshirishga mas'ul bo'lgan prokuratura xodimi, jalb qilingan tegishli mutaxassislar, tekshirilgan obyektning mansabdor yoki moddiy javobgar shaxslari tomonidan imzolanadi. Ma'lumotnomaga ilova qilinayotgan boshqa hujjatlar ularni tuzgan, shuningdek, tekshirilgan obyektning mansabdor yoki moddiy javobgar shaxslari tomonidan imzolanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, protést, qaror, taqdimnoma, ariza va ogohlantiruv prokuror nazorati hujjatlari hisoblanadi, ulardan huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilish, shuningdek, qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablarini bartaraf qilish vositasi sifatida foydalaniladi.

Viloyat prokuraturasi tomonidan o'tkazilgan qonunlar ijrosi yuzasidan tekshirishda aniqlangan holatlarni mehnat jamoasida oshkora ko'rilishi va natijasini ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishiga ustuvor ahamiyat beriladi.

Har bir tayyorlangan prokuror nazorati hujjati xususiyatiga ko'ra nomlanishi, prokuratura organlarida ish yuritish tartibiga amal qilingan holda sana qo'yilishi va raqamlanishi lozim. Prokuror nazorati hujjatlari «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun talablariga binoan tegishli prokuror yoki uning o'rinbosari tomonidan imzolanadi.

*Viloyat prokuraturalari tomonidan fuqarolar  
va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish  
hamda ularning qabulini tashkil etish*

Viloyat prokuraturalari tomonidan fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlarini (arizalar, takliflar, shikoyatlar),



kurorlarning qarorlaridan norozi bo'lib murojaat qilgan fuqarolar qabul qilinadi.

Fuqarolarning murojaatlari va xatlar tarmog'i prokuratura rahbariyati qabuliga kelgan fuqaro(vakil)ning avvalgi murojaati bo'yicha to'plangan hujjatlarni o'rganib, axborot beradi. Tarkibiy tarmoqlarning boshliqlari shu tarmoqqa taalluqli masala yuzasidan kelgan fuqarolarni qabul qiladilar.

*Viloyat prokuraturasi tomonidan ijro etilishi talab qilinadigan hamda axborot-uslubiy xususiyatdagi hujjatlarni tayyorlash va joylarga yuborish*

Viloyat prokuraturalari tomonidan quyi prokuratura organlariga ijro uchun yuboriladigan hujjatlar (topshiriq, ko'rsatma, tanbeh) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari, respublika Prezidentining Farmonlari, Qarorlari, hukumat qarorlari, Bosh prokurorning buyruqlari va ko'rsatmalari, hay'at qarorlari, ish rejalari, fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlari hamda boshqa huquqiy hujjatlar asosida tayyorlanadi.

Viloyat prokuraturasi tomonidan axborot-uslubiy xususiyatidagi hujjatlar (yo'naltiruvchi xat, ijobiy ish tajribasini ommalashtirish haqidagi xat) esa muayyan sohadagi ish jarayonini takomillash-tirish, samaradorligini oshirish, tahliliy faoliyat imkoniyatlaridan keng foydalanishga yo'nalish berish maqsadida tayyorlanadi.

Ijrosi joylardagi barcha prokuratura organlariga taalluqli bo'lgan hujjatlar (yakka tartibdagi topshiriqlar bundan mustasno) tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limi bilan kelishilgan holda tayyorlanadi va faqat viloyat prokurori yoki uning o'rinbosarlari tomonidan imzo-lanadi. Rejalashtirilgan davrda faoliyati kompleks tekshirilishi lozim bo'lgan prokuraturaga, qoida tariqasida, topshiriq yuborilmaydi.

Viloyat prokuraturasi tomonidan takroriylik va ish hajmining sun'iy ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida quyi prokuratura organlariga ijro etilishi talab qilinib yuboriladigan hujjatlarning hisobi tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limida yuritiladi va ularning nusxalari jamlanadi. Ish rejasi bo'yicha topshiriqda barcha ijrochilar bilan kelishilgan holda vazifalar aniq bayon etilgan, aniqlanishi lozim bo'lgan masalalar va ijro muddati ko'rsatilgan bo'lishi kerak.

Viloyat prokuraturasi tarkibiy tarmoqlariga umumiy tarzda ijro qilish uchun topshiriq va ko'rsatma tarzidagi hujjatlar berish faqat viloyat prokurori va uning o'rinbosarlari tomonidan amalga oshiriladi.

Muayyan murojaatlarni hal etish bilan bog'liq, shuningdek, yakka tartibdagi boshqa masalalarga doir topshiriqlar tuman-shahar

prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarga bo'lim va boshqa tarkibiy tarmoq boshliqlari tomonidan yuboriladi.

Yo'naltiruvchi xatlar, uslubiy qo'llanmalar va axborot-tahlil yo'nalishidagi, shuningdek, quyi prokuratura organlarining muayyan sohalar bo'yicha faoliyatini ijobiy deb topish, uni ommalashtirish haqidagi hujjatlar tegishli tarmoqlar tomonidan tayyorlanib, tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limi bilan kelishilganidan so'ng viloyat prokurori yoki uning o'rinbosarlari tomonidan imzolanadi.

Topshiriq, yo'naltiruvchi xatlar va uslubiy qo'llanmalarni ko'paytirish, joylarga yuborish fuqarolar murojaatlari va xatlar xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Bunday hujjatlarni teletayp yoki telefaks orqali jo'natish ham xuddi shu tarzda amalga oshiriladi.

Tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limi ijro etilishi talab qilinadigan va axborot-uslubiy xususiyatidagi hujjatlarni tayyorlash hamda joylarga yuborish amaliyotini vaqt-vaqti bilan umumlashtirib boradi va bu faoliyatini takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritadi.

*Viloyat prokuraturalari tomonidan quyi prokuraturalar  
faoliyatini joyiga chiqib tekshirish va ularga  
amaliy yordam ko'rsatish*

Quyi prokuraturalar faoliyatini joyiga chiqib tekshirish va ularga amaliy yordam ko'rsatish, qoida tariqasida, viloyat prokuraturasining ish rejasiga muvofiq amalga oshiriladi.

Viloyat prokuraturasining ish rejasi asosida joylarga chiqib tekshirishlar bo'yicha ishtirok etuvchi xodimlar guruhlar tarkibi tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limi tomonidan tarkibiy tarmoqlarning boshliqlari bilan kelishilgan holda shakllantiriladi hamda viloyat prokurori tomonidan tasdiqlanadi. Quyi prokuraturalarni kompleks tekshirishdan o'tkazishda xodimlar guruhlariga, qoida tariqasida, viloyat prokurorining o'rinbosarlari, ishning muayyan yo'nalishlari bo'yicha tekshiruvlarda esa tarmoq boshliqlari rahbarlik qiladilar.

Viloyat prokurori va uning o'rinbosarlari roziligi hamda tuman-shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar bilan kelishuvga binoan tekshirishlarga quyi prokuratura xodimlari jalb etilishi mumkin. Tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limi tomonidan tayyorlangan, kompleks tekshirish o'tkazadigan guruh rahbarlari va a'zolari to'g'risidagi viloyat prokurorining buyrug'i tekshirishdan kamida ikki kun oldin chiqariladi.

Viloyat prokuraturasi xodimlarining rejadan tashqari joylarga chiqishlari (favqulodda hodisalar, jinoyatlarni tergov qilish, attestatsiyaoldi va shikoyatlarni tekshirish, shuningdek, boshqa masalalar)

viloyat prokurori yoki uning o'rinbosarlari ko'rsatmasiga binoan o'tkaziladi. Bunday ko'rsatma berilgan bo'lim va boshqa tarkibiy tarmoqning boshlig'i tekshirishda boshqa tarmoqlarning xodimlari ishtirok etishi zarurligi to'g'risida taklif kiritishi mumkin.

Ish rejasiga asosan joylarga chiqishga tayyorlanayotgan xodimlar viloyat prokuraturasidagi mavjud statistika ma'lumotlari, qonuniylik va jinoyatchilik hamda prokuror nazorati holatini tavsiflovchi boshqa hujjatlarni tahlil qilishlari, Bosh prokurorning buyruq va ko'rsatmalari, Bosh prokuratura va viloyat prokuraturasi hay'ati, Muvofiqlashtiruvchi kengash qarorlari, oldingi tekshirishlar natijalari hamda ular yuzasidan qabul qilingan qarorlar bilan tani-shishlari, joylarga chiqish maqsadidan kelib chiqib, ishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olishlari hamda tekshirish rejasini tuzishlari shart.

Tekshirish rejasi viloyat prokurorining birinchi o'rinbosari yoki o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi. Tekshirish uchun ketayotgan-larga jo'nash oldidan viloyat prokurori yoki uning o'rinbosari tomonidan tegishli ko'rsatmalar beriladi.

Tekshirish natijalari to'g'risidagi ma'lumotnoma joylarning o'zida tuziladi va unda prokuratura organining, muayyan xodimlarning faoliyati tahlil qilinadi va baho beriladi, zarur hollarda yo'l qo'yilgan kamchiliklarning sabablariga doir xulosalar, ularni bartaraf etish yuzasidan amaliy tavsiyalar ko'rsatiladi. Ma'lumotnoma guruhning barcha a'zolari tomonidan imzolanadi, uning bir nusxasi faoliyati tekshirilgan prokuratura rahbariga topshiriladi. Tekshirish natijalari joyning o'zida muhokama qilinishi mumkin.

Guruh rahbari joylarga chiqish natijalari to'g'risida uch kunlik muddat ichida Bosh prokurorga yoki uning o'rinbosariga axborot berishi shart, ular esa taqdim etilgan materiallar bo'yicha amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar shakli va muddatlari to'g'ri-sida ko'rsatma beradilar.

Bosh prokuror yoki uning o'rinbosari ustxat qo'ygan tekshirish natijalari to'g'risidagi ma'lumotnoma va boshqa materiallar qabul qilingan qarorning bajarilishi ustidan nazoratni tashkil etish uchun tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasiga topshiriladi.

Kompleks tekshirishlar natijalari, qoida tariqasida, viloyat prokuraturasining hay'ati muhokamasiga kiritiladi. Kompleks tekshirishda ishtirok etgan tarmoqlarning xodimlari o'z yo'nalishlari bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risida tegishli tarmoq boshlig'iga axborot beradilar hamda ma'lumotnoma taqdim etadilar.

shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Devoni, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati, Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz, Vazirlar Mahkamasi, Konstitutsiyaviy sud, respublika boshqaruv idoralari va jamoat birlashmalari, O'zbekistonda akkreditatsiyadan o'tgan xalqaro tashkilotlar, jamg'armalar hamda xorijiy davlatlar vakolatxonalarini, ommaviy axborot vositalari vakillaridan kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqish tartibi va murojaat etuvchilar qabul qilinishini tashkil etish amaldagi qonun hujjatlariga, Bosh prokurorning buyruq va ko'rsatmalari hamda «O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi organlarida fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomaga muvofiq belgilanadi.

Viloyat prokurorining o'rinbosarlari, bo'limlar va boshqa tarkibli tarmoq boshliqlari murojaatlarni to'liq, o'z vaqtida hamda malakali tarzda ko'rib chiqilishini ta'minlovchi chora-tadbirlarni ko'radilar. Murojaatlar bir tarmoqdan boshqasiga tegishli tarmoq boshlig'ining asoslantirilgan bildirgisi va viloyat prokurorining o'rinbosarini roziligi asosida o'tkaziladi. Agar murojaat nazoratga olingan bo'lsa, bu haqda fuqarolar murojaatlari va xatlar tarmog'i hamda tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limi albatta xabardor qilinadi.

Murojaatda bir necha tarmoqlarning vakolat doirasiga taalluqli masalalar bo'lsa, ijrochilar orasida nomi birinchi bo'lib qayd etilgan tarmoq rahbari mas'ul hisoblanadi. Mas'ul rahbar murojaatning nusxalarini boshqa ijrochilarga topshirilishi, zarur hollarda muddatlarning uzaytirilishi, tekshirish bo'yicha yagona topshiriq tayyorlanishi va boshqa ijrochilardan murojaatga taalluqli hujjatlarining nusxalarini olib, dastlabki, oraliq va mohiyatan asoslantirilgan yakuniy javoblar yuborilishini ta'minlaydi.

Hal etilishi viloyat prokurori tomonidan nazoratga olingan murojaatlar bo'yicha muallifga javoblar faqat viloyat prokuroriga axborot berilganidan keyingina yuboriladi. Hal etilishi viloyat prokurorining o'rinbosarlari tomonidan nazoratga olingan murojaatlar ham xuddi shu tartibda hal etiladi. Fuqarolar va yuridik shaxslar yoki ularning vakillarini qabul qilish fuqarolar murojaatlari va xatlar tarmog'i tomonidan amalga oshiriladi.

Viloyat prokurori qabuliga viloyat prokurori o'rinbosarlarining qarorlaridan norozi bo'lgan fuqarolar kiritiladi. Viloyat prokurorining o'rinbosarlari tomonidan prokuratura tarkibiy tarmoqlari hamda tuman-shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan pro-

Tekshirish natijalari, agar ularni viloyat prokuraturasi hay'ati muhokamasiga kiritishning zaruriyati bo'lmasa, viloyat prokurori yoki uning o'rinbosarlari huzuridagi tezkor yig'ilishlarda, tarkibiy tarmoqlarda muhokama etiladi, bunda qilingan ishlarga baho berilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hamda quyi prokuratura organlari ustidan nazoratni yaxshilash yuzasidan chora-tadbirlar belgilab olinadi.

### *Viloyat prokurorining tashkiliy-boshqaruv yo'nalishidagi hujjatlari*

Viloyat prokurorining tashkiliy-boshqaruv yo'nalishidagi hujjatlari (buyruq, ko'rsatma, farmoyish) loyihalari prokuratura rahbariyatining topshiriqlari, hay'at, Muvofiqlashtiruvchi kengash qarorlari asosida yoki tashabbuskorlik tartibida tegishli tarmoqlarda tayyorlanadi,

Hujjat loyihasi tashabbuskorlik tartibida tayyorlanganida unga viloyat prokurori nomiga yozilgan bildirgi ilova qilinib, tegishli asoslar ko'rsatiladi. Viloyat prokurorining o'rinbosarlari prokuror nazorati yo'nalishlari bo'yicha prokurorlarga tegishli ko'rsatmalar yuboradilar. Tarkibiy tarmoq boshliqlari tashkiliy boshqaruv yo'nalishidagi hujjatlar loyihalarini ko'rilayotgan masala taalluqli bo'lgan boshqa tarmoqlar bilan kelishib oladilar.

Viloyat prokurorining buyruq, ko'rsatma va farmoyishlarining (maxfiy, kadrlarga oid va xo'jalik masalalariga doir hujjatlar bundan mustasno) hisobini yuritish, asl nusxalarini to'plash va ijrosini nazorat qilish tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

Huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar bilan hamkorlikdagi buyruqlar, ko'rsatmalarning loyihalarini tayyorlash tartibi viloyat prokurori yoki uning o'rinbosarlari tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar rahbarlari bilan kelishilgan holda belgilanadi. Hujjatlarning loyihalari tasdiqlash uchun viloyat prokuroriga ishning tegishli sohasi uchun mas'ul bo'lgan prokuror o'rinbosari tomonidan taqdim etiladi.

Viloyat hokimligiga yuborish uchun tarkibiy tarmoqlar tomonidan tayyorlangan axborotlar, tahliliy hujjatlar loyihalari tashkiliy-nazorat va tahlilot bo'limi bilan kelishilganidan so'ng rahbariyatga taqdim qilinadi.

### *Quyi prokuratura organlari xodimlarini viloyat prokuraturasiga chaqirtirish*

Quyi prokuratura organlari xodimlarini viloyat prokuraturasiga chaqirtirish, qoida tariqasida, ish rejalari, shuningdek, tarkibiy tarmoq boshliqlarining asoslantirilgan bildirgisiga muvofiq, viloyat prokurori yoki uning o'rinbosarlari ko'rsatmasiga binoan yoxud

ularning roziligi bilan amalga oshiriladi. Bo‘limlar va boshqa tarkibiy tarmoqlar boshliqlari tomonidan ish o‘rganish uchun chaqirtirilgan xodimlarga tegishli mas’ul ish o‘rgatuvchi xodim birlashtiriladi.

Ish o‘rganuvchi xodim mazkur tarkibiy tarmoq faoliyati bilan bog‘liq tegishli hujjatlar bilan tanishtiriladi, unga sohada ishlarni tashkil qilish, prokuror nazorati, protsessual va boshqa hujjatlar loyihalarini tayyorlash uslublari o‘rgatiladi. Shuningdek, ish o‘rganuvchi xodim tekshirish va ayrim tergov harakatlarida ishtirok etishga jalb qilinishi mumkin. Ish o‘rganish natijalari tarkibiy tarmoq boshlig‘i huzuridagi tezkor yig‘ilishda muhokama etiladi hamda tegishli qaror qabul qilinadi.

Hay’at majlisi, tezkor yig‘ilish, muayyan ishlar yuzasidan ma’ruza qilish yoki attestatsiyadan o‘tkazish uchun chaqirtirilgan xodimning xizmat safari muddati bir kundan, boshqa masalalar bo‘yicha chaqirtirilganda esa ikki kundan oshmasligi kerak. Ish o‘rganish va viloyat prokuraturasida uzoqroq muddat bo‘lish talab etiladigan boshqa hollar bundan mustasno.

Quyi prokuratura xodimlarini jinoyat ishlari bo‘yicha tergov guruhlari tarkibida faoliyat olib borishi uchun chaqirtirish asoslari hamda tartibi prokuratura rahbariyati tomonidan belgilanadi.

### *Tuman, shaharlar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalar*

Tumanlar, shaharlar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga tegishli prokurorlar rahbarlik qiladi, ular O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi. Bu prokuror yuqori turuvchi tegishli prokurorga hamda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuroriga bo‘ysunadilar va ularning oldida hisobdor.

Tumanlar, shaharlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, viloyatlar va Toshkent shahar prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan o‘rinbosarlari bo‘lishi mumkin.

Tumanlar, shaharlar prokurorlarining va ularga tenglashtirilgan prokurorlarning katta yordamchilari, yordamchilari, prokuratura katta tergovchilari va tergovchilari, ish o‘rganuvchilari tegishincha Qoraqalpog‘iston Respublikasi prokurori, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar (17-modda).

## **5.7. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlar va jinoyiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti hamda uning joylardagi bo‘linmalari**

O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Soliq, valutaga oid jinoyatlar va jinoyiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti tashkil etiladi. Departament 2001-yilning 6-iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 291-sonli qarori bilan tashkil etilgan.

Departamentni hamda uning joylardagi bo‘linmalarini tashkil etish va ularning faoliyat ko‘rsatishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 28-noyabrda tasdiqlangan Nizomi bilan tartibga solingan edi. Departament o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va Farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga asosan olib boradi.

Departament O‘zbekiston Respublikasi prokuraturasi huzuridagi ixtisoslashtirilgan mustaqil organ hisoblanadi, soliq va valutaga oid intizomni mustahkamlashga oid tezkor-tahliliy, qidiruv ishlarini tashkil etish va amalga oshirish, soliqqa oid jinoyatlarni va qonun buzilishlariga qarshi kurashish, davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni undirib olish asosiy maqsadi hisoblanadi.

Departamentga lavozimiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o‘rinbosariga tenglashtirilgan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan departament boshlig‘i rahbarlik qiladi. Departament boshlig‘ining o‘rinbosari departament boshlig‘ining taqdimnomasiga binoan hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi.

Hududiy boshqarmalarning boshliqlari va ularning o‘rinbosarlari, departamentning tuman va shahar bo‘limlari boshliqlari departament boshlig‘ining taqdimnomasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan lavozimga tayinlanadilar va lavozimdan ozod etiladilar. Departamentni hamda uning joylardagi bo‘linmalarini tashkil etish va ularning faoliyat ko‘rsatish tartibi qonun hujjatlarida belgilab qo‘yiladi.

Departamentning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- soliqqa va valutaga oid jinoyatlar va qonun buzilishlarini aniqlash, oldini olish va bartaraf etish;

- soliq siyosati amalga oshirilishini ta'minlash, soliqqa tortish bazalarini kengaytirish, soliq to'lovchilarning qamrab olinishi va hisobining to'liqligini ta'minlash, naqd pul mablag'lari muomalada bo'lishi belgilangan tartibi buzilishlarining oldini olish;

- soliqlarni to'lashdan bosh tortish, qochishning mumkin bo'lgan kanallari va mexanizmlarini, yashirin iqtisodiyotning shakllanish yo'llarini, valutaga oid qonun buzish holatlarini, korrupsiya holatlarini aniqlashga qaratilgan samarali tezkor-tahliliy, qidiruv ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;

- normativ-huquqiy bazani, eng avvalo, soliqqa va valutaga oid qonun buzilishlarining oldini olish va bartaraf etish sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

- odamlarning huquqiy ongini mustahkamlash, fuqarolarda iqtisodiy faoliyat va soliq hamda valuta siyosatini amalga oshirish sohasidagi konstitutsiyaviy normalarni hamda amaldagi qonun hujjatlarini bajarishning zarurligi tushunchasini shakllantirish;

- aholida soliqlarni to'lashdan bosh tortganlik, valutaga oid qonun buzilishlarga yo'l qo'yganlik, iqtisodiyot, soliq va valuta sohasida sodir etilgan jinoyatlar uchun jazoning muqarrarligi tushunchasini tarbiyalash hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2006-yil 22-mayda «Soliqqa oid qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratining samaradorligi va ta'sirchanligini yanada oshirish to'g'risida» 59-buyrug'i qabul qilingan. Buyruq talabiga ko'ra:

- O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishi bo'lgan soliq, valutaga oid va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosi ustidan qat'iy nazorat olib borilishi shartligi; iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlarga va huquqbuzarliklarga qarshi kurash borasida mutasaddi idoralar faoliyati ustidan nazorat yanada kuchaytirilishi kerakligi;

- bu borada soliq, valutaga oid va jinoiy daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish sohasidagi jinoyatlar hamda huquqbuzarliklarni aniqlash va oldini olish, iqtisodiyotga, umuman, davlat manfaatlariga yetkazilgan zararlarni davlat budjetiga undirinishini ta'minlash choralari izchillik bilan amalga oshirilishi lozimligi;



- soliq, valutaga oid va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirishda Davlat soliq xizmati, departament hamda ularning quyi tizimlari faoliyatida fuqarolar, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoyalash chora-tadbirlari ko'rilishiga jiddiy e'tibor qaratilishi kerakligi;

- soliq, valutaga oid va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish sohasidagi qonun buzilishlar va jinoyatlarni aniqlash, ularning oldini olish, soliq tekshiruvlarini sinchkovlik bilan har tomonlama, to'la va xolisona o'tkazilishini hamda jazo muqarrarligini ta'minlash, qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari aniqlanib, bunga imkoniyat bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilishga qaratilgan qat'iy choralar ko'rilishi;

- Davlat soliq xizmati va departament idoralari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlar jarayonida qonun hujjatlari talablariga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati kuchaytirilishi;

- mansabdor shaxslar tomonidan soliq, valutaga oid va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunlar ijrosi borasida qabul qilingan normativ hujjatlarning O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiqligi muntazam o'rganib borilgan, aniqlangan qonun buzilishlarga darhol barham berilishi;

- soliq, valutaga oid va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunlar ijrosini ta'minlash jarayonida qabul qilingan qarorlarning, xususan, soliq qonunchiligi hujjatlarini buzganlik uchun soliq to'lovchilariga nisbatan Soliq kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan moliyaviy jazo choralari qo'llanilishining qonuniyligi ustidan muntazam nazorat olib borilishi, g'ayriqonuniy qarorlar va boshqa huquqiy aktlar o'z vaqtida bekor qilinib, qonuniy qaror qabul qilinishi ta'minlanishi;

- Davlat soliq xizmati va departament idoralarida ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish, ko'rib chiqish va ma'muriy jazo choralari qo'llanilishi, shuningdek, tekshiruv hujjatlarini ro'yxatga olish va ko'rib chiqish, taalluqliligi bo'yicha boshqa organlarga yuborish jarayonida qonun talablariga rioya qilinishi har oyda tekshirib turilishi;

- soliq va valuta intizomini mustahkamlashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ahvoli, maxsus bilimi, tajriba va zarur

tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassislar ishtirokida tekshirib borilishini joriy qilish, natijalari bo'yicha aniqlangan qonun buzilish hollarini bartaraf etish xususida prokuror ta'sir chora hujjatlari qo'llanilishi;

- soliq, valutaga oid va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirish sohasidagi qonun buzilishlar yuzasidan tergovoldi tekshiruv va surishtiruv ustidan nazoratni amalga oshirishda, ma'muriy, jinoyat ishlari va jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish haqidagi hujjatlar yuzasidan qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi doimiy ravishda tekshirib borilishi va noqonuniy qarorlar o'z vaqtida bekor qilinishi;

- O'zbekiston Respublikasi JPKning 382-moddasi talablari asosida departamentning surishtiruv faoliyati ustidan nazorat kuchaytirilgan. Jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarini qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va hal etish to'g'risidagi qonun talablari ijro etilayotganligi har oyda kamida bir marta tekshirib boriladi, jinoyatlarni hisobdan yashirish hollariga keskin choralar ko'rilishi;

- soliq, valutaga oid va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunlar ijrosi yuzasidan o'tkazilgan tekshiruvlar natijalari bo'yicha to'liq tasdiqlanmagan, yetarli dalillar to'planmagan hujjatlar bilan asossiz jinoyat ishlari qo'zg'atilishiga yo'l qo'yilmasin. Jinoyatni istisno etuvchi holatlar to'liq tekshirilib, qonuniy qaror qabul qilinishi ta'minlanishi;

- Davlat soliq xizmati va departament idoralarida fuqarolar va yuridik shaxslar vakillarining murojaatlarini ko'rib chiqilishida qonunlarga rioya etilishi hamda xodimlarning noqonuniy xatti-harakatlari yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvi materiallari bo'yicha qabul qilingan qarorlar va qo'llanilgan jazo choralari qonuniyligi muntazam ravishda o'rganib borilishi;

- Davlat soliq xizmati idoralarida o'tkazilgan tekshiruvlarda, budjet va xo'jalik faoliyati bo'yicha smeta xarajatlarining ijrosi yuzasidan o'tkazilgan idoraviy taftish hujjatlari o'rganilib, aniqlangan qonun buzilish holatlari bo'yicha tegishli prokuror nazorati hujjatlari qo'llanilishi;

- Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda departament va uning quyi tizimlarining tezkor-qidiruv faoliyati, shuningdek, ularning boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan o'zaro hamkorlikda soliq, valuta va jinoiy daromadlarni legallashtirish hamda terrorizmni moliyalashtirish sohasidagi huquq buzilishlarni sodir etgan shaxslarni aniqlash faoliyati ustidan nazorat kuchaytirilishi;

- departament idoralari tomonidan soliq tekshiruvlari hamda tezkor tadbirlar davomida to'plangan hujjatlar yuzasidan tergovoldi tekshiruv va surishtiruv harakatlarini qonunda belgilangan muddatda o'tkazilishi, natijasi bo'yicha qonuniy va asoslantirilgan qaror qabul qilinishiga erishilishi;

- Davlat soliq xizmati va departament idoralari qarorlari va mazkur idoralar xodimlarining xatti-harakatlari ustidan tushgan murojaatlar qonunda belgilangan muddatlarda ko'rib chiqilishi;

- bu murojaatlar yuzasidan zarur hollarda tegishli mutaxassislar jalb etilib, tekshirishlar tashkil etilishi va natijasi bo'yicha qonuniy qaror qabul qilinib, ariza muallifiga asoslantirilgan javob yuborilishi;

- xo'jalik yurituvchi va tadbirkorlik subyektlarida noqonuniy tekshirish o'tkazilishiga yo'l qo'ygan Davlat soliq xizmati va departament xodimlarini jinoiy javobgarlikka tortish masalasi qat'iyatlik bilan hal etilishi kerakligi;

- noqonuniy tekshirishlar oqibatida fuqarolarning buzilgan huquqlarini tiklash, yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni bartaraf etish to'g'risidagi qonun talablariga og'ishmay amal qilinishi lozimligi;

- bosh prokuraturaning soliqqa oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bo'limi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va ularga tenglashtirilgan prokurorlar soha faoliyatida amalga oshirilgan ishlarni tahlil etib borsinlar. O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati, departament va boshqa mutasaddi idoralar, ularning quyi tizimlari bilan doimiy hamkorlik o'rnatilishi zarurligi;

- soha faoliyatiga doir zarur ma'lumotlar va boshqa tahliliy hujjatlar olinib, qonun buzilishlarni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqilib, qonunlarning ijrosi ta'minlanishi kerakligi;

- mazkur yo'nalishda xodimlarning kasb malakasini oshirish, sohada ishlarni yaxshilashga qaratilgan tadbirlar muntazam amalga oshirilishi zarurligi;

- amaliyotda foydalanish uchun tavsiyalar va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqilishi lozimligi;

- ijobiy ish tajribalarini ommalashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar ko'rib borilishi lozimligi;

- soha faoliyatiga oshkoralik berish, huquq-targ'ibot borasidagi ishlarni jadallashtirilishiga alohida e'tibor qaratilishi kerakligi;

- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining soliqqa oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bo'limi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, O'zbekiston transport,

tuman va shahar prokurorlari ushbu buyruq ijrosini to'liq ta'minlashi lozimligi;

- mazkur buyruqning bajarilishi ustidan nazorat O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining soha bo'yicha o'rinbosariga yuklatilganligi qayd etilgan.

*O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2006-yil 22-mayda «Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti organlari faoliyatida qonunlarning bajarilishi ustidan prokuror nazorati samaradorligini yanada oshirish to'g'risida»gi 60-buyrug'i qabul qilingan. Buyruq talabiga ko'ra:*

- soliq intizomini mustahkamlash va valuta munosabatlarini barqarorlashtirish, soliq, valutaga oid jinoyatlar va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini, shuningdek, davlatga yetkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish prokuratura organlarining muhim vazifalari ekanligi;

- departament va uning quyi organlari faoliyatida qonunlarga rioya etilishi ustidan prokurorlik nazorati yanada kuchaytirilib, bu sohadagi nazoratni ta'minlash shaxsan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlar, tuman (shahar) prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tomonidan amalga oshirilishi qat'iy belgilab qo'yilishi lozimligi;

- bu yo'nalishdagi prokuror nazoratining sifati va samaradorligi oshirilib, ular faoliyatida O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi qonuni, qonunlar, departament faoliyatini tartibga soluvchi nizom talablariga amal qilinishi, soliq, valutaga oid hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish bilan bog'liq jinoyatlarni, davlat idoralari, soliq xizmati, bank va moliya tizimlarida korrupsiya hollarini o'z vaqtida aniqlash, oldini olishga doimiy e'tibor qaratilishi kerakligi;

- bunda asosiy e'tibor soliqqa tortish va valuta sohasida qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlarning qonuniyligi, departament organlari tomonidan qonunlarning bajarilishi, jinoiy ta'qib, tezkor-qidiruv faoliyatning qonuniyligi, soliq to'lovchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlari ta'minlanishiga qaratilishi lozimligi;

- departament organlarida ishlarning tashkil etilishi va qonunlarga rioya qilinishi bo'yicha o'tkaziladigan tekshirishda quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratilishi va baho berilishi kerakligi:

- bosh prokuratura hay'ati, Muvofiqlashtiruvchi kengash va tezkor yig'ilishlarining departament faoliyatiga doir masalalar bo'yicha qabul qilingan qarorlar ijrosining to'liq va belgilangan muddatlarda ta'minlanishi;

- ishni tashkil qilishda hududning iqtisodiy ahvoli, soliqqa tortish bazalari, soliq to'lovchilar, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish haqidagi hamda boshqa zarur tahliliy ma'lumotlarning mavjudligi;

- soliq, valutaga oid va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunlar talablarining buzilishlarini oldini olish, aniqlash va barham berishga qaratilgan aniq maqsadli hamda keng qamrovli tadbirlarning ishlab chiqilganligi hamda amalga oshirilganligi;

- fuqarolarda soliq siyosatini amalga oshirish sohasidagi konstitutsiyaviy normalarni bajarishning zarurligi, bu sohada jinoyatlar sodir etganliklari uchun jazoning muqarrar ekanligi to'g'risidagi tushunchalarni shakllantirish borasidagi profilaktik ishlarining amalda bajarilganligi va bunda o'zini o'zi boshqarish organlari hamda ommaviy axborot vositalari imkoniyatlaridan samarali foydalanilganligi;

- huquqni muhofaza qiluvchi organlari va nazorat idoralari bilan o'rnatilgan o'zaro hamkorlik hamda o'tkazilgan tadbirlar hududning iqtisodiy ahvolini yaxshilashga nechog'liq samara berganligi;

- xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati bo'yicha o'tkazilgan tekshirishlarning (taftishlar) asosiligi va qonunlarga muvofiqligi, tekshiruv hujjatlarini rasmiylashtirishda ish yuritish qoidalariga rioya qilinganligi, ish bo'yicha to'liq tekshirish o'tkazilganligi hamda qo'llanilgan choralarning qonuniyligi;

- «xufyona» iqtisodiyotning shakllanishiga omil bo'lgan holatlar, bu jarayonda ishtirok etgan va ularning faoliyatiga rahnamolik qilgan, shuningdek, bu borada soliq, bank, moliya va boshqa davlat idoralari xizmatchilari orasida korrupsiya holatlarining aniqlanganligi;

- aksiz solig'i solinadigan etil spirti, alkogolli va tamaki mahsulotlarini noqonuniy ishlab chiqarilishi va muomalaga kiritilishining oldini olish va manbalarini aniqlash ishlarining to'laqonli o'tkazilganligi;

- xorijiy valuta mablag'larining noqonuniy aylanishiga oid ma'lumotlarning mavjudligi va ularning yagona markazlashtirilgan hisobi yuritilganligi;

• bankdan tashqari noqonuniy pul aylanmalari haqida ma'lumotlarning to'planganligi, ular yuzasidan qo'llanilgan choralarning qonuniyligi;

• jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirishning mumkin bo'lgan kanallari va mexanizmlarini aniqlashga yo'naltirilgan moliyaviy, mulkiy operatsiyalar monitoringi tashkil etilganligi va amalga oshirilganligi;

• olib qo'yilgan tovar-moddiy boyliklarni sotishdan tushgan mablag'larni budjetga o'tkazilishida belgilangan tartibga rioya qilinganligi, aybdorlarga moliyaviy va ma'muriy choralarning to'liq va to'g'ri qo'llanilganligi;

• olib qo'yilgan tovarlarni egalariga qaytarib berish masalasi shaxsan viloyat prokurorining roziligi bilan hal etilganligi, tovar-moddiy boyliklarni asossiz olib qo'yilishiga yo'l qo'ygan xodimlarga nisbatan intizomiy choralar qo'llanilganligi qayd etilgan.

*Prokuror nazorati faoliyatining to'liqligini ta'minlash maqsadida:*

• soliq, valutaga oid jinoyatlar va huquqbuzarliklarning o'z vaqtida aniqlanishi, ularning oldini olish va bartaraf etilishi, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarining bajarilishi;

• davlat soliq siyosati amalga oshirilishini ta'minlash, soliqqa tortish bazasini kengaytirish, soliq to'lovchilarning qamrab olinishi va hisobining to'liqligini ta'minlash, soliqlarni to'lashdan bo'yintovlash, qochishning mumkin bo'lgan kanallari va mexanizmlarini, «xufyona» iqtisodiyotning shakllanish yo'llarini, soliq xizmati, bank va moliya tizimlarida korrupsiya hollarini o'z vaqtida aniqlanishi va bartaraf etilishi;

• valuta operatsiyalari bo'yicha hisob va hisobotlarning to'liqliligi, xorijiy valuta mablag'larining qonunga xilof ravishda chetga chiqib ketishi va olib kirilishi, noqonuniy muomalada bo'lishi va valuta ayirboshlash operatsiyalari bilan bog'liq boshqa qonun buzilishlarning oldini olish va bartaraf etilishi;

• moliyaviy razvedkaning zamonaviy tizimini yaratish; jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishning mumkin bo'lgan kanallari va mexanizmlarini aniqlashga yo'naltirilgan moliyaviy, mulkiy operatsiyalar monitoringini tashkil etish va amalga oshirish; aniqlangan qonun buzishlar to'g'risida tegishli huquqni muhofaza qilish organlariga jinoiy ta'qibni

tashkil etish, ma'muriy choralarni ko'rishlik uchun o'z vaqtida axborot taqdim etilishi;

- soliq va iqtisodiyot sohasida aniqlangan jinoyatlar va huquq-buzarliklar hamda qonun hujjatlariga muvofiq nazorat qilinadigan pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarning yagona kompyuter bazasining yaratilishi va yuritilishi;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlari va shart-nomalariga muvofiq, valutani tartibga solish sohasida, shuningdek, jinoiy yo'l bilan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish masalalari bo'yicha xorijiy davlatlarning vakolatli organlari hamda xalqaro-ixtisoslashgan va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilish va axborotlar ayirboshlashi;

- soliq siyosati va valuta muomalasini tartibga solish, shuningdek, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlarining oldini olish masalalari bo'yicha keng tushuntirish, profilaktika ishlarini amalga oshirilishiga alohida e'tibor qaratilishi;

- soliq, valutaga oid jinoyatlar va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish to'g'risidagi ariza va xabarlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish hamda ular bo'yicha qabul qilingan protsessual qarorlarning qonuniyligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, soliq va boshqa nazorat idoralaridan chora ko'rish uchun yuborilgan materiallarning qonuniy hal qilinishi hamda ular bo'yicha o'z vaqtida solishtirishlar o'tkazilganligi ahvoli har oyda kamida bir marta tekshirilishi lozimligi;

- jinoyatlarni hisobdan yashirganlik holati yuzasidan idoraviy tartibda xizmat tekshiruvi o'tkazilishi ta'minlanishi; qonun buzilishiga yo'l qo'ygan va jinoyatlarni qasddan yashirgan xodimlarning jinoiy javobgarlik masalasi qat'iyatlik bilan hal etilishi shartligi;

- jinoyat ishi qo'zgatishni rad qilish haqida qabul qilingan qarorlarning qonuniyligi har oyda o'rganib borilishi lozimligi; bu haqda qabul qilingan qarorlar asosli deb topilgan taqdirda, viloyat prokurorlari tomonidan tasdiqlangan xulosalar tuzilishi lozimligi;

- viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar, viloyat prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarning soliqqa oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bo'limi boshliqlari tomonidan har chorakda kamida bir marotaba departament quyi organlarining tezkor-qidiruv faoliyati bilan bog'liq hujjatlarini

o'rganib, ularning belgilangan tartibda yuritilganligi, saqlanganligi, aniqlangan holatlar bo'yicha ko'rilgan choralarning qonuniyligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa manbalar bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilganligi, umuman, tezkor xizmat imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligiga huquqiy baho berilishi kerakligi;

- Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining tezkor-qidiruv faoliyati Bosh prokurorning topshirig'iga ko'ra, Bosh prokuraturaning soliqqa oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bo'limi tomonidan amalga oshirilishi;

- viloyat prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar tezkor-qidiruv ishlarni o'rganish jarayonida tadbirlarni faollashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berishni amalga oshirib boradilar. Tezkor-qidiruvni yuritish va amalga oshirishda qonun buzilish hollariga yo'l qo'ygan xodimlarning javobgarlik masalasi qat'iyatlik bilan hal etilishi;

- fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish, ko'rib chiqish va hal qilishda qonunlarga rioya etilishi muntazam ravishda tekshirib boriladi. Murojaatlarning to'liq va xolisona hal etilishini ta'minlash maqsadida zarur hollarda tekshirishlarga tegishli mutaxassislar hamda murojaat mualliflari yoki ularning qonuniy vakillari jalb etilishi zarurligi;

- departament organlari faoliyati yuzasidan tuziladigan hisobotlardagi ma'lumotlarning haqqoniyligi va hisobot intizomiga rioya qilinishi ahvoli har oyda tekshirib borilishi;

- departament organlarida ish yuritish Bosh prokurorning tegishli buyruq va yo'riqnomalari asosida tashkil qilinganligi ahvoli yuzasidan tekshirishlar o'tkazib borilishi qayd etilgan.

*Bosh prokuraturaning soliqqa oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bo'limi:*

- Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyat prokurorlarining bu yo'nalishdagi faoliyatlari ustidan rahbarlik va nazorat uslublarini takomillashtirishi zarurligi, ularga amaliyotda kelib chiqadigan muammolarni hal qilishda har tomonlama yordam ko'rsatishi kerakligi;

- Bosh prokuraturaning soliqqa oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bo'limi va joylardagi tarmoqlar tomonidan soliqqa tortish sohasidagi qonunchilik, shuningdek, departament hamda uning quyi tizimlari faoliyati ustidan prokuror nazoratining ahvoli har



olti oyda umumlashtirilib, tezkor va hay'at majlislari muhokamasiga kiritib borilishi belgilangan. Mazkur umumlashmalarning xulosalari va natijalaridan prokuror nazorati amaliyotini takomillashtirishda foydalanilishi qayd etilgan;

- Bosh prokuraturaning soliqqa oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bo'limiga kadrlar boshqarmasi bilan birgalikda vakolatlari doirasida departament organlarida kadrlarni tarbiyalash, ularning malakasi va kasb-mahoratini oshirishda ishtirok etishi belgilab qo'yilgan.

- soliq, valutaga oid huquqbuzarlik va jinoyatlarga hamda jinoyit daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashishda huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlarining o'zaro samarali hamkorligini ta'minlash maqsadida huquqni qo'llash amaliyotida kelib chiqadigan muammolar ushbu organlarning Muvofiqlashtiruvchi kengashlarida muhokama qilib borilishi qayd etilgan;

- mazkur organlarning faoliyati ustidan prokuror nazoratini lozim darajada ta'minlamasdan, aniqlangan qonun buzilishlarga qat'iy choralar ko'rmagan viloyat prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarning xodimlari hamda tuman (shahar) prokurorlariga nisbatan prokuratura organlaridan bo'shatishgacha bo'lgan qat'iy choralar ko'rilishi belgilangan;

- amalga oshirilgan ishlar haqida har chorakda Bosh prokuraturaga axborot berilishi kerakligi;

- Bosh prokuraturaning soliqqa oid qonunchilik ijrosi ustidan nazorat bo'limi tomonidan joylardan olingan ma'lumotlar asosida har chorakda amalga oshirilgan ishlar to'g'risida Bosh prokurorga axborot berib borilishi lozimligi belgilangan.

## **5.8. Prokuratura organlarining hay'atlari**

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori (rais), uning birinchi o'rinbosari, o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori, prokuratura organlarining boshqa xodimlaridan iborat tarkibda hay'at tuziladi. Hay'atning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasida, viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda prokuror (rais), uning birinchi o'rinbosari, o'rin-

bosarlari, prokuratura organlarining boshqa xodimlaridan iborat tarkibda hay'at tuziladi. Hay'atning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasida, viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalarida va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarda tuziladigan hay'atlar maslahat organlari bo'lib, ular qonuniylik va jinoyatchilikning holatiga, prokuratura organlarining faoliyatiga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori buyruqlari va ko'rsatmalarining ijrosiga, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yishga doir va boshqa masalalarni ko'rib chiqadi, prokurorlarning, prokuratura organlari tuzilmaviy bo'linmalari rahbarlarining va boshqa xodimlarining hisobotlarini eshitadi.

Hay'at qarorlari asosida tegishli prokurorlar buyruqlar chiqarishi mumkin.

*Hay'at majlisi, Muvofiqlashtiruvchi kengash va tezkor yig'ilishlarning ishini tashkil etish*

Bosh prokuraturaning hay'ati maslahat organidir. Hay'at o'z majlislarida qonuniylik ahvoli va jinoyatchilikning holati, prokuratura organlarining faoliyati, Bosh prokuror buyruqlari va ko'rsatmalarining ijrosi, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yishga doir va boshqa masalalarni ko'rib chiqadi, prokurorlarning, prokuratura organlari tarkibiy tarmoqlari rahbarlarining hamda boshqa xodimlarining hisobotlarini eshitadi.

Hay'at qarorlari asosida Bosh prokuror buyruqlar chiqarishi mumkin. Hay'at majlislari ish rejasiga binoan yoki Bosh prokuror hay'at raisi ko'rsatmasi asosida o'tkaziladi. Bosh prokuror hay'at ishida ishtirok etmagan taqdirda, majlisga raislik qilish Bosh prokuror ko'rsatmasi asosida uning o'rinbosarlari tomonidan amalga oshiriladi.

Hay'at muhokamasiga kiritilayotgan masala yuzasida hujjatlar Bosh prokurorning sohaviy o'rinbosarlari bilan kelishilgan holda tegishli boshqarma va bo'limlar boshliqlari tomonidan tadbirning ish rejasida belgilangan muddati tugashidan kamida o'n besh kun oldin tayyorlanib, tashkiliy-nazorat va tahlil boshqarmasiga taqdim etiladi.

Hay'at majlisida ko'rish uchun mo'ljallanayotgan hujjatlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

- hajmi o'n besh sahifadan ko'p bo'lmagan ma'lumotnoma;
- ma'ruza matni;

- qaror loyihasi;
- buyruq loyihasi;
- hay'at majlisiga taklif etiladigan shaxslarning ro'yxati.

Hay'at muhokamasiga kiritilayotgan masalalar bo'yicha hujjat-larning tayyorlanishi uchun javobgarlik tegishli tarmoq boshliqlari hamda Bosh prokurorning shu sohaga mas'ul o'rinbosarlari zim-masida bo'ladi. Qaror loyihasida tekshiruvning umumlashma tahlili yoki natijalaridan kelib chiquvchi asosiy xulosalar, qonun buzilishi hollarini va o'rganilgan soha yuzasidan prokuratura organlari ishini tashkil etishdagi kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risidagi takliflar, qonuniylikni mustahkamlash choralari aks ettirilgan bo'lishi lozim.

Bosh prokurorning o'rinbosari tayyorlangan hujjatlar asosida masalani hay'at majlisida ko'rish to'g'risidagi taklifni Bosh proku-rorga kiritadi. Bosh prokuror mazkur hujjatlarni hay'at muhoka-masiga tayyorlash uchun tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasiga topshiradi yoki hujjatlar sifatli tayyorlanmagan taqdirda, ularni tegishli o'rinbosariga ko'rsatmalar bilan qaytaradi.

Hay'at majlisini o'tkazish lozim topilganda, tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi kun tartibi loyihasi, majlisga taklif etiladigan shaxslarning ro'yxatini tasdiqlash uchun Bosh prokurorga taqdim etadi. Hay'at majlisida ko'riladigan materiallar hay'at majlisi belgi-langandan kamida ikki kun oldin tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi tomonidan hay'at raisi va hay'at a'zolariga beriladi.

Hay'at majlisi o'tkaziladigan kun haqidagi xabarnoma uning ishtirokchilariga tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi tomonidan yuboriladi. Xabarnomada kun tartibi, ma'ruzachi, majlis o'tkazila-digan sana, vaqt va joy hamda ishtirokchilar ko'rsatilishi lozim. Taklif etilgan shaxslarning majlisda hozir bo'lishini tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi masalani tayyorlagan boshqarma yoki bo'lim bilan birgalikda ta'minlaydi.

Agar maxfiylik tartibiga rioya etishga zid bo'lmasa, hay'at ishi oshkoralik asosida amalga oshiriladi. Qonunchilik targ'iboti bo'limi boshlig'i tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi boshlig'i bilan kelishgan holda hay'at majlisiga ommaviy axborot vositalari vakil-larini taklif etish hamda ularga beriladigan axborot hajmi haqida hay'at raisiga taklif kiritadi.

Hay'at majlisida masala muhokamasi hay'at raisi belgilagan tartibda o'tkaziladi. Majlis bayonnomasi tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi tomonidan yuritiladi va uni boshqarma boshlig'i imzolaydi hamda hay'at raisiga imzolash uchun taqdim etadi.

Hay'at qaroriga muvofiq, tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasida tayyorlangan tashkiliy-boshqaruv yo'nalishidagi hujjatlar Bosh prokuror tomonidan tasdiqlanadi. Hay'at majlisi bayonnomasi va boshqa hujjatlarning nusxalari ijro va ma'lumot uchun taalluqliligi bo'yicha zudlik bilan joylarga yuboriladi.

Hay'at qarorining to'liq va o'z vaqtida ijro etilishi, shuningdek, mazkur qaror asosida chiqarilgan tashkiliy-boshqaruv yo'nalishidagi hujjatlarning to'laqonli bajarilishini ta'minlash uchun mas'uliyat Bosh prokurorning o'rinbosarlari, Bosh prokuraturaning boshqarmalari, bo'limlari va departament boshliqlari, viloyat prokurorlari hamda ularga tenglashtirilgan prokurorlar zimmasiga yuklatiladi.

Boshqarma va bo'limlarning boshliqlari hay'at qarori hamda uni ijroga qaratish maqsadida chiqarilgan boshqa hujjatlar bilan tezkor xodimlarni, albatta, tanishtiradilar, ularning bajarilishi yuzasidan (zarur hollarda tezkor yig'ilishda muhokama etgan holda) chora-tadbirlar ishlab chiqadilar, mas'ul ijrochilarni belgilaydilar va ijro nazoratini tashkil qiladilar.

Tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi hay'at qabul qilgan qarorlar hisobini va ularning bajarilishi ustidan nazoratni olib boradi, hay'atning ish amaliyotini yilma-yil o'rganib, umumlashtirib boradi hamda uning faoliyatini takomillashtirish choralari to'g'risida Bosh prokurorga takliflar kiritadi.

Bosh prokuratura hay'atida muhokama qilish talab etilmaydigan masalalar Bosh prokuror, uning o'rinbosarlari huzuridagi tezkor yig'ilishlarda, shuningdek, boshqarma va bo'limlarda ko'rib chiqiladi. Tezkor yig'ilishlar zaruratga qarab o'tkaziladi. Ularni o'tkazish tartibi va muddati, ishtirokchilar doirasi va bayonnoma yurituvchilar har bir muayyan holatda yig'ilishni o'tkazayotgan rahbar tomonidan belgilanadi.

Bosh prokuror huzuridagi tezkor yig'ilishlarni tashkiliy jihatdan ta'minlash, shuningdek, qabul qilingan qarorlar ijrosi ustidan nazorat tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi. Hay'at va tezkor yig'ilish qarorlarining ijrosi haqidagi axborotlar qoida tariqasida masalani tayyorlagan tegishli boshqarma va bo'limlarga yuboriladi hamda bu haqda nazoratni ta'minlash uchun tashkiliy-nazorat va tahlilot boshqarmasiga ma'lum qilinadi.

Tezkor-qidiruv, surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlarning Muvofiqlashtiruvchi kengashiga tashkiliy jihatdan tayyorgarlik ko'rish, o'tkazish, shuningdek, qabul qilingan qarorlarni amalga oshirilishi ustidan nazorat olib borish tartibi alohida Nizom bilan belgilanadi.

## 5.9. Prokuratura organlarida boshqaruv

Prokuratura organlarida boshqaruv deyilganida, yuqori turuvchi prokuror va prokuratura organlarining o'zlariga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni bilan berilgan vakolat va belgilangan majburiyatlardan kelib chiqqan holda vazifa hamda funksiyani amalga oshirishda qo'l ostidagi xodimlar faoliyatini bir tizim, tartib va qoida asosida bir maqsadga yo'naltirilgan, ko'p qirrali faoliyat jarayoni tushuniladi.

Boshqaruvning prokuratura organlari faoliyatida ahamiyati ikki tomonlamadir. *Bir tomondan*, qonunlar ijrosi ustidan umumiy nazorat tartibida prokuror nazorati faoliyatini tashkil etish, boshqarish uchun yetarli sharoitni yaratish, dastlabki tergov va prokuratura faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha nazorat obyektlari tomonidan nazorat predmetini tartibga solish va boshqarish kirsra, *ikkinchi tomondan*, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni bilan berilgan vakolat va belgilangan majburiyatlardan kelib chiqqan holda, vazifa hamda funksiyani amalga oshirish bo'yicha tegishli uslub va usullarni ishlab chiqish, Bosh prokuror tomonidan sohaviy umummajburiy xarakterga ega bo'lgan buyruq, ko'rsatma, yo'riqnoma va nizomlarni qabul qilish kiradi.

Shuningdek, prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish, tavsiya va uslubiy xarakterga ega bo'lgan qonuniylik va jinoyatchilik ahvolini yaxshilashga qaratilgan ichki sohaviy axborot xatlarini, umumlashmalarni, ijobiy amaliyot hamda faoliyatda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar va ularning oldini olish, bartaraf etish yuzasidan o'zaro aloqa xatlarini shakllantiradi va ulardan foydalanadi.

Boshqaruv quyi turuvchi prokurorlar faoliyatini yuqori turuvchi prokurorlar tomonidan bevosita nazorat qilish uslubi bilan ham amalga oshiriladi. Boshqaruvda markazlashganlik, birlik, qonuniylik, oshkoralik hamda mustaqillik tamoyillari faoliyat asosiga negiz qilib olingan. Ya'ni boshqaruvning asosiga O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonunida belgilangan tashkiliy va faoliyat prinsiplari o'zak qilib olingandir.

Boshqaruv prokuratura organlarining tashkiliy tizimini yanada takomillashtirish, qonuniylikni mustahkamlash, prokuratura organlarining har bir bo'g'inida, har bir bo'g'inning boshqaruvida, shu bo'g'inga bo'ysunuvchi boshqarma va bo'limlar faoliyatini yagona talab va tartibda olib borishda juda kata ahamiyatga egadir.

Yuqori turuvchi prokurorlarning quyi turuvchi prokurorlar faoliyati ustidan nazorati boshqaruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Quyi turuvchi prokurorlar tomonidan qabul qilingan qarorlar va prokuror nazorati hujjatlarining qonuniyligi ustidan yuqori turuvchi prokurorlarning nazorati bu hujjatlarning sifatli bo'lishining kafolati bo'lib xizmat qiladi. Yuqori turuvchi prokurorlar tomonidan har oyda hisobot olinishi va quyi turuvchi prokurorlarga vakolat doirasiga kiruvchi turli topshiriqlarni berish va ularning ijrosini ta'minlash, quyi turuvchi prokurorlarga ba'zi prokuratura organlari tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklar va yutuqlar haqida axborot xatlarini yuborish, ijobiy amaliyotni tarqatish ham katta ahamiyatga egadir. Buning natijasida prokuratura organlarida mavjud bo'lgan kamchiliklarni tahlil qilib, bartaraf etish chora va tadbirlari ko'rilishi mumkin.

Boshqaruvning asosiy vazifasi — prokuratura organlari xodimlari faoliyatiga baho beruvchi alohida belgilarni ishlab chiqish va tahrirlash, tartibga solish, shuningdek, jinoyatchilikka hamda boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurash faoliyatini muvofiqlashtirgan holda olib borish hisoblanadi. Prokuror o'z vakolati doirasidagi hududda qonuniylik va jinoyatchilikning ahvoli yuzasidan javobgar hisoblanadi. Qonuniylik va jinoyatchilikning ahvoli, albatta, keng tarmoqli ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy va boshqa xarakterdagi omillarning o'zaro bog'liqligi natijasidir. Har qanday qonun buzilishi holatiga nisbatan prokuror tomonidan tegishli prokurorlik ta'sir chorasini qo'llash, huquqbuzarlikni oldini olish yuzasidan zarur bo'lgan prokuror nazorati hujjatlarining samarali tarzda qo'llashni tashkillashtirish ham boshqaruvning asosiy vazifalaridandir.

Yuqori turuvchi prokurorlar tomonidan quyi turuvchi prokurorlar faoliyatini tahlil qilish yordamida, ular faoliyatida qabul qilingan zarur qarorlarning samaradorligini oshirish, ustuvor faoliyat yo'nalishlarini belgilab olish, reja tuzishda amaliy yordam ko'rsatish, prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirish va prokuratura organlari oldiga qo'yilgan vazifa va funksiyalarni o'z vaqtida, sifatli tarzda amalga oshirish ta'minlanadi.

Prokuratura organlarida boshqaruv predmetlilik va hududiylik prinsipiga hamda bevosita mintaqaviy tamoyilga asosan amalga oshiriladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi sudlarda jinoyat ishlarining ko'rilishida prokuror vakolatini ta'minlash boshqarmasi prokurorlari tomonidan bevosita bir va bir nechta viloyatning prokuraturalarida predmetlilik prinsipiga asosan tashkil etilgan bo'limlarda olib borilayotgan ishlarni muvofiqlashtirish va nazorat qilib borishni misol qilsak bo'ladi.

*Prokuratura organlarida boshqaruv funktsiyalariga.*

- tahliliy ish;
- prognozlashtirish;
- prokuratura organlari va ularning quyi bo'linmalarining o'zaro faoliyati, ijro ustidan nazorat;
- rahbarlik kiradi.

Prokuraturaning tahliliy funksiyasiga prokuratura organlari faoliyatidagi qonuniylik ahvolini tegishli hududlarda qay darajada amalga oshirilayotganligini va uni mustahkamlash va takomillashtirish yo'lida batafsil o'rganib chiqish va ma'lum bir xulosaga kelish kiradi.

?

## NAZORAT SAVOLLARI

1. O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimi.
2. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining vakolatlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining hisobdordligi.
4. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi tizimi.
5. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori kim tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod etiladi?
6. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori kimning oldida hisobdor?
7. Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalarga tegishli prokurorlar kim tomonidan lavozimga tayinlanadilar hamda lavozimdan ozod etiladi?
8. Harbiy prokuraturaning asosiy vazifalariga nimalar kiradi?
9. Hay'at majlisida ko'rish uchun mo'ljallanayotgan hujjatlar nimalardan iborat bo'ladi?
10. Viloyat prokuraturasi tomonidan axborot-uslubiy xususiyatidagi hujjatlar (yo'naltiruvchi xat, ijobiy ish tajribasini ommalashtirish haqidagi xat) nima maqsadda tayyorlanadi?
11. Ijrosi joylardagi barcha prokuratura organlariga taalluqli bo'lgan hujjatlar kim tomonidan imzolanadi?
12. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Soliqqa va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti qachon tashkil etilgan?
13. Departament faoliyatining huquqiy asoslari qaysilar?
14. Departament O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi huzuridagi ixtisoslashtirilgan mustaqil organ hisoblanadi, uning asosiy maqsadini nima tashkil etadi?
15. Departamentga kim rahbarlik qiladi va departament rahbari kim tomonidan lavozimga tayinlanadi?
16. Departamentning asosiy vazifalari etib nimalar belgilangan?
17. Prokuratura organlarining hay'atlari haqida tushuncha bering.
18. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasidagi hay'atning tarkibi kim tomonidan tasdiqlanadi?
19. Viloyatlar, Toshkent shahar va ularga tenglashtirilgan prokuraturalardagi hay'atning tarkibi kim tomonidan tasdiqlanadi?
20. Hay'atning tezkor yig'ilishlari qancha muddatda o'tkaziladi?

## Amaliy mashg'ulotlar

### 1-variant.

*Nazariy savol:* Prokuror nazorati faoliyatining predmeti mazmun va mohiyatini yoritib bering.

#### Amaliy mashg'ulot

*1-vazifa.* Predmetlilik tamoyiliga binoan, Toshkent shahar temir yo'llari shoh bekati hududida qasddan badanga tan jarohati yetkazilganligi fakti bo'yicha kim jinoyat ishi qo'zg'atib, tergov harakatlari olib boradi va bu tergov harakatlarini qonunga muvofiqligini kim nazorat qiladi?

### 2-variant.

*Nazariy savol:* Prokuratura organlari faoliyatining tashkiliy va asosiy prinsiplari mazmunini va mohiyatini yoritib bering.

#### Amaliy mashg'ulot

*1-vazifa.* Prokuratura organlari faoliyatining tashkiliy va asosiy prinsiplari mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib, Toshkent shahar Shayxontohur tumani hududida joylashgan ishlab chiqarish korxonasi xodimlari ish haqlarini o'z vaqtida olmayotganliklari haqida kimga murojaat etishlari mumkin? Shayxontohur tumani hududida joylashgan korxonalarda yo'l qo'yilayotgan qonun buzilishlari, qonunlar ijrosi ustidan nazoratni kim amalga oshiradi?

Aniqlangan qonun buzilishlariga nisbatan kim qanday chora ko'rishi mumkin?

*2-vazifa.* Toshkent harbiy garnizoniga qarashli harbiy qismda o'zganing mulkini o'zlashtirish, mansab vakolatini suiiste'mol qilish jinoyati sodir etildi. Shu jinoyat yuzasidan dastlabki tergov harakatlarini kim amalga oshiradi. Qaysi prokuror qonunlar ijrosi ustidan nazorat qiladi?

*3-vazifa.* Toshkent viloyatining Zangiota tumanida joylashgan tuman, shahar prokuraturasiga tenglashtirilgan jinoyiy jazolarni ijro etish muassasalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi maxsus prokuror kimga bo'ysunadi va kim oldida hisobdor hisoblanadi?

*4-vazifa.* Chilonzor tumani hokimiyati va boshqaruv organlari, o'zini o'zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlar Chilonzor tumani prokuraturasining faoliyati bo'yicha ma'lum bir qarorlarni qabul qilishni talab etib murojaat etdi. Chilonzor tumani prokurorining harakati qanday bo'lishi lozim?

*5-vazifa.* Toshkent shahar harbiy garnizoni hududida joylashgan harbiy qismda harbiy sirga taalluqli bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilgani uchun harbiy shaxs jinoyiy javobgarlikka tortilgan. Ushbu jinoyat ishi yuzasidan dastlabki tergovni amalga oshirayotgan tergovchiga tergov harakatlari yuzasidan intervyu berishni so'rab, matbuot xodimlari murojaat etishdi. Tergovchining harakatlari nimalardan iborat bo'ladi?



### 3-variant.

*Nazariy savol:* Bosh prokuraturaning ish rejasiga doir takliflar loyihagini tayyorlash uchun tashkiliy-nazorat va tahlil boshqarmasiga har yil qaysi oyning qaysi kunlaridan kechiktirmay topshirilishi kerak?

#### Amaliy mashg'ulot

*1-vazifa.* Bosh prokuraturaning ish rejasiga doir takliflar loyihagini tayyorlash uchun tashkiliy-nazorat va tahlil boshqarmasiga kim tomonidan va qanday tartibda berilishini yoritib bering.

*Nazariy savol:* O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida ish rejasi loyihasi tayyorlanishi kerak, kim tomonidan tayyorlanib, kim bilan kelishilganidan keyin hay'at muhokamasiga kiritiladi?

#### Amaliy mashg'ulot

*1-vazifa.* Andijon viloyati prokuraturasining yillik ish rejasini tuzish kerak, qanday amalga oshirilishini yoritib bering.

*2-vazifa.* Toshkent shahar Hamza tumani prokuraturasining joriy rejasi loyihasi qanday tayyorlanishini va tartibini yoritib bering.

*3-vazifa.* Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani prokuraturasining faoliyati yuzasidan hisobot kimga va qaysi muddatlarda berilishi tartibini yoritib bering.

### 4-variant.

*Nazariy savol:* Prokuratura organlari xodimlari bo'lish uchun qanday talablarga javob berishlari kerak?

#### Amaliy mashg'ulot

*1-vazifa.* Farg'ona viloyati prokuraturasi Farg'ona shahar prokurori lavozimiga Samarqand davlat universitetining huquqshunoslik fakultetini bitirgan, 4 yillik ish stajiga ega, kasbiy malakaga ega, lavozimni bajarishi mumkin salomat bo'lgan shaxs, Toshkent davlat universitetining huquqshunoslik fakultetini bitirgan, oliy yuridik ma'lumotli, magistr darajasiga ega, 5 yil 6 oylik ish stajiga, kasbiy malakaga ega, lavozimni bajarishi mumkin salomat bo'lgan shaxs, Toshkent davlat yuridik institutini bitirgan, oliy yuridik ma'lumotli bakalavr, 5 yil 6 oylik ish stajiga, kasbiy malakaga ega, lavozimni bajarishi mumkin salomat bo'lgan shaxs hujjati taqdim etilgan. Shu shaxslarning qaysi birini O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan Farg'ona shahar prokurori lavozimiga tayinlanishi mumkinligini hal qiling.

**O'zbekiston Respublikasi  
prokuratura organlari tizimi**

O'zbekiston Respublikasi Bosh  
prokuraturasi

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
prokuraturasi

Viloyatlar va Toshkent shahar  
prokuraturalari

Tumanlar va shaharlar  
prokuraturalari

Tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan  
harbiy okruglar, hududiy harbiy,  
transport va ixtisoslashtirilgan  
prokuraturalar

O'zbekiston Respublikasi Bosh  
prokuraturasi huzuridagi Soliq,  
valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy  
daromadlarni legallashtirishga qarshi  
kurashish departamenti

**Qoraqalpog'iston Respublikasi  
prokuraturasi**

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
prokurori

Tuman, shahar prokuraturalari va  
ularga tenglashtirilgan prokuraturalar

Qoraqalpog'iston Respublikasi  
prokurorining birinchi o'rinbosari,  
o'rinbosari

Boshqarmalar va bo'limlar

Boshqarmalar va bo'limlarning  
boshliqlari hamda ularning o'rin-  
bosarlari, prokurorning katta yordam-  
chilari, prokurorning ichki xavfsizlikni  
ta'minlash bo'yicha yordamchisi,  
katta prokuror-kriminalist

**Tuman, shahar  
prokuraturalari va ularga  
tenglashtirilgan  
prokuraturalar**

**Harbiy okrug va Harbiy  
garnizon  
prokuraturalari**

**Tuman va shahar pro-  
kuraturalariga tenglash-  
tirilgan ixtisoslashgan  
prokuraturalar**

**Tuman va shahar  
prokuraturalariga  
tenglashtirilgan hududiy  
transport prokuraturalari**

**Bosh prokuratura  
huzuridagi Soliq,  
valutaga oid jinoyatlarga  
va jinoiy daromadlarni  
legallashtirishga  
qarshi kurashish  
departamentining  
joylardagi  
bo'linmalari**

**O'zbekiston Respublikasi  
Bosh prokurorining vakolatlari (1)**

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori prokuratura organlariga rahbarlik qiladi va ular faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qonunchilik tashabbusi bilan murojaat etishi mumkin

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati majlislarida, shuningdek, uning organlari majlislarida ishtirok etadi

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining majlislarida ishtirok etishi, uning ko'rib chiqishi uchun masalalar kiritishi va ko'rilayotgan masala yuzasidan fikr bildirishi mumkin

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi majlislarida ishtirok etadi, ko'rilayotgan ishlar bo'yicha va muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan fikr bildiradi

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi plenumi majlislarida ishtirok etadi, ko'rilayotgan ishlar bo'yicha va muhokama qilinayotgan masalalar yuzasidan fikr bildiradi

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi hay'atining tarkibini tasdiqlash to'g'risidagi takliflarni O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga kiritadi

**O'zbekiston Respublikasi**  
**Bosh prokurorining vakolatlari (2)**

Prokuratura organlari xodimlariga darajali unvonlar beradi va oliy darajada unvonlar berish to'g'risidagi taqdimnoma bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat etadi

Prokuratura organlari xodimlarini O'zbekiston Respublikasi davlat mukofotlariga taqdim etadi

Prokuratura organlari xodimlarini «O'zbekiston Respublikasi prokuraturasining faxriy xodimi» ko'krak nishoni bilan taqdirlaydi

Buyruqlar chiqaradi hamda prokuratura organlarining tarkibiy bo'linmalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi

Chet el davlatlarining tegishli organlari bilan hamkorlik to'g'risidagi bitimlar tuzadi

Qonun hujjatlariga muvofiq, boshqa vakolatlarni amalga oshiradi

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari va boshqa hujjatlari (individual xususiyatga ega bo'lgan hujjatlar bundan mustasno) O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga zid bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining qarori asosida bekor qilinadi

## «PROKUROR NAZORATI» FANIDAN TEST SAVOLLARI

1. *Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori kim tomonidan tayinlanadi?*
  - A) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori;
  - B) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti;
  - C) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi;
  - D) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi.
2. *O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga va jinoyiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti boshlig'i kim tomonidan lavozimga tayinlanadi?*
  - A) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan;
  - B) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinbosari tomonidan;
  - C) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan;
  - D) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan.
3. *Toshkent shahri va viloyat prokurorlari lavozimlariga kim tomonidan tayinlanadilar?*
  - A) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan;
  - B) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'rinbosari tomonidan;
  - C) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan;
  - D) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan.
4. *Tumanlar va shaharlar prokurorlari kim tomonidan tayinlanadi?*
  - A) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan;
  - B) Toshkent shahar va viloyat prokurorlari tomonidan;
  - C) xalq deputatlari viloyat kengashlari tomonidan;
  - D) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan.
5. *O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga qonuniylik va jinoyatchilikka qarshi kurashning ahvoli to'g'risida hisobot beradi:*
  - A) darhol; B) har olti oyda; C) muntazam ravishda; D) har uch oyda.
6. *O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatiga hisobot beradi:*
  - A) tizimli ravishda; B) muntazam; C) har olti oyda; D) besh yilda bir marta.
7. *O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga prokuratura organlari tomonidan amalga oshirilgan ishlar to'g'risida hisobot beradi:*
  - A) muntazam; B) har olti oyda; C) har uch oyda; D) zudlik bilan.
8. *O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga o'ta og'ir jinoyatlar va favqulodda hodisalar haqida hisobot beradi:*
  - A) muntazam; B) zudlik bilan; C) doimiy; D) har oyda.

9. *Prokuratura organlari xodimlariga oliy darajali mansab unvonlari kim tomonidan beriladi?*

- A) Bosh prokuror; B) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti;
- C) Bosh vazir; D) Oliy Majlis.

10. *O'zbekiston Respublikasi hay'ati tarkibini kim tasdiqlaydi?*

- A) Bosh prokuror; B) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti; C) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosari; D) Oliy Majlis raisi.

11. *«O'zbekiston Respublikasi Prokuraturasining faxriy xodimi» ko'krak nishoni bilan prokuratura organlari xodimlarini kim taqdirlashga vakolatli?*

- A) Bosh prokuror; B) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti;
- C) Bosh vazir; D) Oliy Majlis raisi.

12. *O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori lavozimiga qanday tayinlanadi?*

- A) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tayinlaydi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan tasdiqlanadi;
- B) O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vaziri tomonidan tayinlanib, Bosh prokuror tomonidan tasdiqlanadi;
- C) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi bilan kelishgan holda tayinlanadi;
- D) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan Mudofaa vaziri bilan kelishgan holda tayinlanadi.

13. *O'zbekiston Respublikasi Transport prokurori qanday tayinlanadi?*

- A) Bosh prokuror tayinlaydi;
- B) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tayinlaydi;
- C) Bosh vazir O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishgan holda tayinlaydi;
- D) Oliy Majlis raisi tomonidan tayinlanadi.

14. *O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun yangi tahriri qachon qabul qilingan?*

- A) 1999-yil 29-avgust; B) 1992-yil 9-dekabr;
- C) 2001-yil 29-avgust; D) 2000-yil 10-oktabr.

15. *Prokuratura organlarining tashkiliy va faoliyat prinsiplariga qaysilar kiradi?*

- A) birlik, markazlashganlik, demokratizm, qonuniylik;
- B) birlik, qonuniylik, oshkoralik, markazlashganlik;
- C) qonuniylik, birlik, markazlashganlik, mustaqillik, oshkoralik;
- D) qonuniylik, markazlashganlik, birlik, hisobdorlik.

16. *O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi o'z vakolatlariga ko'ra, qaysi prokuraturaga tenglashtirilgan?*

- A) Bosh prokuraturaga tenglashtirilgan;
- B) tuman, shahar prokuraturalariga tenglashtirilgan;
- C) viloyatlar, Toshkent shahar, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasiga tenglashtirilgan;
- D) mustaqil prokuratura hisoblanadi va hech kim oldida hisobdor emas.



17. *Qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilishda quyidagilardan qaysilari prokuror vakolatlariga taalluqli emas?*

A) vazirlik, korxonalar, muassasa, tashkilot va idoralarning hududlariga kirish;

B) rahbarlar va boshqa mansabdor shaxslardan tekshirish va taftish o'tkazishni talab qilish;

C) mansabdor shaxs va fuqarolardan qonun buzilishlar to'g'risida og'zaki va yozma tushuntirishlar olish;

D) idoraviy boshqaruv va nazoratni almashtirish, bevosita xo'jalik faoliyatiga aralashuv.

18. *Ma'muriy huquqbuzarlik darajasidagi fuqaroning huquq va erkinliklarining buzilishi aniqlangan taqdirda prokuror qanday harakatlarni bajarishi kerak?*

A) ma'muriy huquqbuzarlik ishi qo'zg'atadi;

B) zudlik bilan huquqbuzarlik haqidagi xabarni va tekshirish materiallarini ma'muriy huquqbuzarlik ishini ko'rishga vakolatli organ yoki mansabdor shaxsga yuboradi;

C) aybdor shaxslarni ma'muriy javobgarlikka tortishni so'rab sudga murojaat qiladi;

D) A va B javoblari to'g'ri.

19. *Jinoyatchilikka qarshi kurashni amalga oshiruvchi organlar tomonidan qonunlar ijrosi ustidan nazorat predmeti nima?*

A) fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat;

B) jinoyatlar ustidan dastlabki tergovni olib borish;

C) jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish va huquqiy targ'ibot faoliyatida ishtirok etish;

D) tezkor-qidiruv faoliyatini, surishtiruv, dastlabki tergov va jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishni amalga oshiruvchi organlar tomonidan qonunlar ijrosi ustidan nazorat.

20. *Prokurorning taqdimnomasi qancha muddatda ko'rib chiqilishi kerak?*

A) o'n kun muddatdan oshmagan vaqt ichida;

B) o'n besh kun muddatdan oshmagan vaqt ichida;

C) zudlik bilan;

D) bir oylik muddatdan oshmagan vaqt ichida.

21. *Qaysi holatlarda prokuror ayblov xulosasini yoki qarorni tasdiqlab, ishni sudga yuboradi?*

A) bunga asoslar bo'lgan barcha holatlarda;

B) dastlabki tergov prokuratura organlari xodimlari tomonidan amalga oshirilganida;

C) dastlabki tergov MXX xodimlari tomonidan amalga oshirilganida;

D) dastlabki tergov IIB xodimlari tomonidan amalga oshirilganida.

22. *Sudning chiqargan hukmi, qarori, ajrimiga nisbatan kiritilgan apellatsiya, kassatsiya, xususiy va nazorat protestlari kim tomonidan chaqirib olinishi, o'zgartirilishi yoki to'ldirilishi mumkin?*

A) protest kiritgan prokuror;

B) yuqori turuvchi prokuror;

C) kiritilgan protestlarni chaqirib olish, to'ldirish yoki o'zgartirish mumkin emas;

D) A va B javoblari to'g'ri.

23. *Prokuror nazorati hujjati turlari qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?*

A) protest, qaror, taqdimnoma, ariza, ogohlantiruv;

B) protest, qaror, taqdimnoma, amrnoma va ogohlantiruv;

C) protest, qaror, taqdimnoma, amrnoma, ariza va ogohlantiruv;

D) protest, qaror, taqdimnoma, amrnoma.

24. *Mansabdor shaxs yoki davlat organining g'ayriqonuniy qaroriga nisbatan prokuror tomonidan kiritilgan protestga qaysi muddatda javob berilishi kerak?*

A) zudlik bilan;

B) uch kunlik muddat ichida;

C) bir oy muddat ichida;

D) prokuror protestini ko'rib chiqadigan organning ixtiyoriga ko'ra.

25. *Toshkent shahar va viloyat prokuraturalarining ichki xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha prokurorning katta yordamchilari va bo'lim boshliqlari lavozimiga kim tomonidan tayinlanadi?*

A) Toshkent shahar va viloyat prokurorlari tomonidan;

B) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan;

C) Toshkent shahar va viloyat prokurorlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishilgan holda;

D) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan.

26. *Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurorining birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari kim tomonidan lavozimga tayinlanadi?*

A) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori;

B) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori bilan kelishgan holda QRP tomonidan;

C) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan, O'z.R. Bosh prokurori roziligi bilan;

D) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan, Qoraqalpog'iston Respublikasi prokurori bilan kelishgan holda.

27. *Prokuratura organlari tergovchilari va prokurorlarga nisbatan jinoyat ishlari qo'zg'atish kimning vakolatiga taalluqli?*

A) O'zbekiston Respublikasi MXX organlarining mutlaq vakolatiga;

B) prokuratura organlarining mutlaq vakolatiga;

C) O'zbekiston Respublikasi IIV organlarining mutlaq vakolatiga;

D) to'g'ri javob yo'q.

28. *Prokuratura organlari xodimlarining ma'muriy va intizomiy javobgarligi kim tomonidan hal qilinadi?*

A) Bosh prokuror tomonidan;

B) Bosh prokurorning birinchi o'rinbosari tomonidan;

C) yuqori turuvchi prokuror tomonidan;

D) to'g'ri javob yo'q.

29. *Prokuratura xodimlariga yillik pul to'lanadigan ta'tillar muddati:*

- A) 30 kalendar kun; B) 36 kalendar kun;  
C) 24 kalendar kun; D) 18 kalendar kun.

30. *O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori lavozimiga tayinlanish uchun qaysi yoshdan kichik bo'lmashligi kerak?*

- A) yigirma besh; B) o'ttiz besh; C) o'ttiz; D) yoshning farqi yo'q.

31. *Qaysi ishlar bo'yicha prokuror davlat ayblovini quvvatlaydi?*

- A) fuqarolik; B) xo'jalik; C) jinoyat; D) ma'muriy.

32. *Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari hay'atlarining tarkibi kim tomonidan tasdiqlanadi?*

- A) Prezident tomonidan;  
B) Oliy Majlis tomonidan;  
C) xalq deputatlari kengashlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi tomonidan;  
D) Bosh prokuror tomonidan.

33. *O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti boshlig'i o'rinbosari kim tomonidan tayinlanadi?*

- A) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan departament boshlig'ining taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda;

B) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorning taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;

C) departament boshlig'i tomonidan. Bosh prokuror bilan kelishilgan holda;

D) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadi.

34. *Tumanlar, shaharlar va viloyatlar prokurorlari tegishli xalq deputatlari kengashlariga har:*

- A) 3 oyda; B) 6 oyda; C) 12 oyda;  
D) muntazam ravishda axborot berib turishi kerak.

35. *O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlariga zid bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining buyruqlari va boshqa hujjatlarini qaysi organ bekor qila oladi?*

- A) Konstitutsion sud; B) Oliy sud; C) Prezident; D) Oliy Majlis.

36. *Ixtisoslashtirilgan prokuraturalar o'z vakolatlariga ko'ra, qaysi prokuraturalarga tenglashtirilgan?*

- A) Toshkent shahar va viloyat prokuraturalariga;  
B) tuman prokuraturalariga;  
C) mustaqil prokuratura hisoblanadi va hech kim oldida hisobdor emas;  
D) Bosh prokuraturaga tenglashtirilgan.

37. *Transport prokuraturalari o'z vakolatlariga ko'ra, qaysi prokuraturalarga tenglashtirilgan?*

- A) viloyat prokuraturalariga; B) tumanlar va shaharlar prokuraturalariga;
- C) mustaqil prokuratura hisoblanadi va hech kim oldida hisobdor emas;
- D) Bosh prokuraturaga tenglashtirilgan.

38. *O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti boshlig'i o'rinbosari kim tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod qilinadi?*

A) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan departament boshlig'ining taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan kelishilgan holda;

B) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorning taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;

C) Departament boshlig'i tomonidan Bosh prokuror bilan kelishilgan holda;

D) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlanadi va lavozimidan ozod qilinadi.

39. *Tayyorlanayotgan yoki sodir etilgan jinoyatlar haqidagi ariza va xabarlarni qabul qilish, qayd qilish va hal qilish prokurorlar tomonidan qancha muddatda tekshiriladi?*

A) har 10 kunda; B) bir oyda kamida bir marta;

C) bir oyda kamida ikki marta; D) har besh kunda.

40. *Protest kiritish vakolat doirasidan chiqib ketgan prokuror yuqori turuvchi prokurorga nima bilan murojaat qiladi?*

A) protest kiritishni so'rab taqdimnoma bilan; B) protest loyihasi bilan;

C) ariza bilan; D) hech qanday choralar ko'rmaydi.

41. *Prokurorga uning kiritgan protesti natijasi haqida qancha muddatda xabar qilinadi?*

A) uch kunlik muddatda; B) besh kunlik muddatda;

C) o'n kunlik muddatda; D) darhol.

42. *Tuman, shahar, viloyat prokurorligiga quyidagi yoshdan kichik bo'lmagan shaxslar tayinlanadilar:*

A) 30 yosh; B) 35 yosh; C) yoshning farqi yo'q; D) 25 yosh.

43. *Prokurorlar vakolati faoliyatida necha marta kompleks tekshiruv o'tkaziladi?*

A) kamida 2 marta; B) kamida 3 marta;

C) 5 yilda 1 marta; D) umuman tekshirilmaydi.

44. *O'qotar qurol olib yurishi mumkin bo'lgan prokuratura organlari xodimlarining ro'yxatini kim belgilaydi?*

A) Prezident;

B) Ichki ishlar vaziri Bosh prokuror bilan kelishgan holda;

C) Bosh prokuror;

D) viloyat prokurorlari.

45. *O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamentini tashkil etish haqida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qachon qabul qilingan?*

- A) 2002-yil 6-iyun; B) 2001-yil 6-iyul;  
C) 2002-yil 10-aprel; D) 2003-yil 20-oktabr.

46. *Departamentning tuman bo'limlari boshliqlari, boshqarma boshliqlari va ularning o'rinbosarlari kim tomonidan tayinlanadi?*

A) Bosh prokurorning taqdimnomasiga binoan, departament boshlig'i tomonidan;

- B) Bosh prokuror tomonidan, departament boshlig'ining taqdimnomasiga binoan;  
C) departament boshlig'i tomonidan mustaqil;  
D) Prezident tomonidan, departament boshlig'ining taqdimnomasiga binoan.

47. *Bosh prokuratura tomonidan joriy rejalashtirish qaysi muddatga tuziladi?*

- A) 3 oyga; B) bir oyga; C) bir yilga; D) 6 oy muddatga.

48. *O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining «Fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqishda qonuniylikni ta'minlash to'g'risida»gi buyrug'i qachon qabul qilingan?*

- A) 2001-yil 2-dekabrda; B) 2004-yil 10-oktabrda;  
C) 2005-yil 20-aprelda; D) 2003-yil 5-mayda.

49. *Qaror qabul qilishda hay'at bilan kelishmovchilik bo'lganida Bosh prokurorning harakatlari?*

- A) hay'at qarori bilan murosalar qiladi;  
B) o'z qarorini shaxsan qabul qiladi;  
C) o'z qarorini qabul qilib, bu haqda Prezidentga ma'lum qiladi;  
D) o'z qarorini qabul qilib, bu haqda Oliy Majlis raisiga ma'lum qiladi.

50. *Nechanchi yilda O'zbekiston prokuraturasi tashkil topgan?*

- A) 1917-yilda; B) 1918-yilda; C) 1921-yilda; D) 1922-yilda.

51. *O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) qachon qabul qilingan?*

- A) 2001-yil 1-sentabrda; B) 2001-yil 29-avgustda;  
C) 2001-yil 27-oktabrda; D) 2001-yil 29-sentabrda.

52. *Quyida qayd etilganlardan qaysi biri prokuratura faoliyatining maqsadiga taalluqli emas?*

- A) davlat xavfsizligini ta'minlash;  
B) qonunlarning ustuvorligini ta'minlash;  
C) inson va fuqarolarning huquq-erkinliklarini ta'minlash;  
D) davlat va jamiyatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini ta'minlash.

53. *Prokuratura organlari hokimiyatning qaysi tarmog'iga tegishli?*

- A) ijro hokimiyatiga; B) sud hokimiyatiga;  
C) hech qaysisiga; D) qonun chiqaruvchi hokimiyatga.

54. *Quyida qayd qilinganlardan qaysi biri prokuror nazoratining alohida tarmog'ini hisoblanmaydi?*

- A) qonunlar ijrosi ustidan nazorat;
- B) sud organlari tomonidan qonunlar qay darajada ijro etilayotganligi ustidan nazorat;
- C) fuqarolarning huquq va erkinliklariga rioya qilinishi ustidan nazorat;
- D) jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borilishi ustidan nazorat.

55. *Prokurorning mustaqillik prinsipi mazmuni shuni bildiradiki, u o'z vakolatlarini ...*

- A) unga bo'ysunadigan xodimlardan;
- B) yuqori turuvchi prokurordan;
- C) sud qarorlaridan;
- D) davlat hokimiyati organlaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi.

56. *Quyida qayd qilingan subyektlarning qaysi biriga prokuror qonuniylik holati haqida axborot bermaydi?*

- A) aholiga;
- B) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga;
- C) tijorat tashkilotlariga;
- D) viloyat xalq deputatlari kengashiga.

57. *Prokurorlar va tergovchilar saylov organlari a'zolari bo'lishi mumkinmi?*

- A) yo'q, bo'lishi mumkin emas;
- B) bo'lishi mumkin, faqat tumanlar miqyosida;
- C) bo'lishi mumkin, faqat viloyatlar miqyosida;
- D) hamma darajada bo'lishi mumkin.

58. *Prokuror fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari majlislarida ishtirok eta olishi mumkinmi?*

- A) yo'q, chunki bu qonunda nazarda tutilgan emas;
- B) mumkin, qachonki, uni taklif qilishsa;
- C) yo'q, chunki, bu organlar davlat hokimiyati organlari tizimiga kirmaydi;
- D) mumkin, chunki bu qonunchilikda nazarda tutilgan.

59. *O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori quyida qayd etilgan jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar qaysi birining faoliyatini muvofiqlashtira olmaydi?*

- A) O'zbekiston Respublikasi Xavfsizlik kengashi faoliyatini;
- B) O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmati faoliyatini;
- C) O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi faoliyatini;
- D) O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasi faoliyatini.

60. *Prokuratura organlarining yagona tizimiga kirmaydigan prokuratura organlari tuzilishi mumkinmi?*

- A) ha, mumkin, qachonki, Oliy Majlis Senatining topshirig'iga binoan, mustaqil tekshirish o'tkazish talab qilingan hollarda;
- B) ha, mumkin, qachonki, O'zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar va bitimlar doirasida aniq tadbir o'tkazilishi maqsadida;
- C) ha, mumkin, qachonki, viloyat davlat hokimiyatlarining qarorlariga binoan tegishli hududlarda qonuniylikni mustahkamlash maqsadida;
- D) yo'q, mumkin emas.

61. *Prokuratura organlari tizimi nechta bo'g'indan iborat?*

A) uchta; B) ikkita; C) to'rtta; D) beshta.

62. *Quyida qayd qilingan prokurorlardan qaysisi hududiyilar qatoriga kirmaydi?*

A) shahar prokurori; B) tuman prokurori;  
C) viloyat prokurori; D) jinoiy jazolar ijro etish muassasalari maxsus prokurori.

63. *Qayd etilgan qaysi faoliyat bilan prokuratura xodimlari shug'ullanishlari mumkin?*

A) tadbirkorlik faoliyati; B) siyosiy faoliyat;  
C) pedagogik faoliyat; D) vositachilik faoliyati.

64. *Kimlar «Prokuratura xodimlari» toifasiga kiradi?*

A) prokuratura organlarining barcha xodimlari;  
B) faqat prokurorlar;  
C) faqat prokurorlar va tergovchilar;  
D) harbiy va mansab unvonlariga ega bo'lgan prokuraturaning barcha muassasa va idoralari xodimlari.

65. *Qayd qilingan qaysi organ prokuror nazorati ta'siridan chetda qoladi?*

A) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;  
B) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi;  
C) O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi;  
D) O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi.

66. *Prokuror qaysi bir organning huquqiy hujjatiga nisbatan protest kirita olmaydi?*

A) O'zbekiston Respublikasi hukumati;  
B) viloyat hokimiyat organlari;  
C) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari;  
D) shahar va viloyatlar hokimliklari.

67. *Nazoratni amalga oshirish chog'ida, qayd qilingan qaysi bir organ tomonidan prokurorning kiritgan protesti yuzasidan huquqiy hujjatning ijro etilishi to'xtatib turilmaydi?*

A) jinoiy jazoni ijro etish muassasasi;  
B) sud qarorlari va boshqa organlar qarorlarini ijro etish departamenti;  
C) viloyatlar hokimliklari;  
D) A va B javoblari to'g'ri.

68. *Qonun buzilishlarini bartaraf etish yuzasidan kiritiladigan taqdimnomani ko'rib chiqishning qonun bilan belgilangan muddati mavjudmi?*

A) belgilangan, zudlik bilan;  
B) belgilangan, besh kun ichida;  
C) belgilangan, bir oy ichida;  
D) yo'q, belgilangan emas.

69. *Qaysi holatlarda prokurorlar tomonidan qaror chiqarilmaydi?*

A) ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganida;  
B) zarar keltirilganligi aniqlanganda;  
C) intizomiy qilmish sodir etilganligi aniqlanganda;  
D) noqonuniy huquqiy hujjat qabul qilishda.

70. *Prokuror sudda da'vo arizasi bilan buzilgan huquq va erkinliklarni himoya qilish yuzasidan chiqishi mumkin, qachonki ...*

A) jabrlanuvchi sog'lig'i yomonligi munosabati bilan o'z huquqlarini himoya  
ila olmasa;

B) bir qancha fuqarolarning huquqlari buzilganda;

C) xususiy tadbirkorlarning tijorat manfaatlariga doir huquqlari buzilganda;

D) huquqbuzarlik jamiyatda alohida muhim ahamiyatga egaligi tusini olganda.

71. *Quyida qayd qilingan qaysi bir funksiyani prokurorlar jinoiy ta'qib doirasida amalga oshirmaydilar?*

A) dastlabki tergov; B) tezkor-qidiruv faoliyati;

C) davlat ayblovini quvvatlash; D) jinoyatlarning oldini olish.

72. *Qayd etilgan qaysi bir qilmish prokuratura xodimlariga nisbatan intizomiy xarakterdagi jazo chorasi qo'llanishi uchun asos hisoblanmaydi?*

A) xizmat majburiyatlarini bajarmaslik;

B) xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarmaslik;

C) prokuratura xodimlari nomiga dog' tushiruvchi xatti-harakatlarni sodir etish;

D) kommunal xizmat to'lovlarini o'z vaqtida to'lamaslik.

73. *Tuman prokurorining yordamchisi g'ayriqonuniy qabul qilingan hujjatga nisbatan protest kirita oladimi?*

A) ha, kirita oladi;

B) ha, kirita oladi, qachonki, protestni tuman prokurori tasdiqlasa;

C) ha, kirita oladi, agarda g'ayriqonuniy huquqiy hujjatni o'zi aniqlagan bo'lsa;

D) yo'q, kirita olmaydi.

74. *Qayd etilgan qaysi vazifalar prokuratura organlari tomonidan hal qilinadi?*

A) bosh, ikkinchi darajali va qo'shimcha;

B) umumiy, maxsus va xususiy;

C) asosiy, qo'shimcha va maxsus;

D) bosh, maxsus va xususiy.

75. *Qayd etilganlardan qaysi biri prokuratura faoliyatining yo'nalishlari hisoblanmaydi?*

A) sudlar faoliyati ustidan nazorat; B) jinoiy ta'qib;

C) qonunlar ijrosi ustidan nazorat; D) huquq ijodkorligi faoliyati.

76. *Qayd etilgan qaysi prinsip prokuratura organlari faoliyati va tashkil etilishi prinsiplari hisoblanmaydi?*

A) oshkoralik; B) qonuniylik; C) demokratizm; D) mustaqillik.

77. *Prokuror nazoratini amalga oshirishga aralashishga yo'l qo'yiladimi?*

A) ha, yo'l qo'yiladi, faqat O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;

B) ha, yo'l qo'yiladi, faqat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan;

C) ha, yo'l qo'yiladi, faqat Inson huquqlarini himoya qilish vakili tomonidan;

D) yo'q, yo'l qo'yilmaydi.



78. *Qonun ijodkorligi faoliyatida prokurorning ishtiroki, uning qaysi huquqlarini ifoda etadi?*

- A) qonun chiqaruvchi organlardan zarur bo'lgan qonunlarni qabul qilishni talab qilish;
- B) zarur bo'lgan qonunlarni qabul qilish uchun faqatgina qonun chiqaruvchi organga murojaat qilish;
- C) qonun chiqaruvchi organ va qonun ijodkorligi tashabbusi huquqiga ega organlarga qonunlarga o'zgartirish kiritishni yoki boshqa huquqiy hujjatlarni qabul qilishni so'rab murojaat qilish;
- D) qonun ijodkorligi tashabbusiga ega bo'lgan organlardan qonun loyihalarini ishlab chiqishni talab qilish.

79. *Fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqish uchun prokuratura organlarida qancha muddat belgilangan?*

- A) 30 kun; B) 60 kun; C) 20 kun; D) 45 kun.

80. *Prokuratura organlariga qaysi organlar faoliyatini va qaysi masalalar bo'yicha muvofiqlashtirish yuklatilgan?*

- A) davlat hokimiyat organlarining fuqarolarning huquq va erkinliklariga oid masalalari yuzasidan;
- B) davlat nazorati organlarining huquqbuzarlikka qarshi kurash masalalari yuzasidan;
- C) huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyati yuzasidan;
- D) huquqni muhofaza qiluvchi organlarning qonuniylikni mustahkamlash faoliyati yuzasidan.

81. *Prokuratura organlari va muassasalarini tashkil etish kim tomonidan hal etilishi kerak?*

- A) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan;
- B) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan;
- C) O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan;
- D) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan.

82. *O'zbekiston Respublikasida favqulodda prokuraturalarning tashkil etilishiga yo'l qo'yiladimi?*

- A) ha, favqulodda hodisalar sodir bo'layotgan vaqt mobaynida;
- B) ha, agarda ularning vakolatlari qonun doirasidan chiqib ketmasa;
- C) yo'q, yo'l qo'yilmaydi;
- D) ha, agarda joylarda prokuratura organlari o'zlarining oldilariga qo'yilgan vazifalarni uddalay olmayotgan bo'lsalar.

83. *Qayd etilgan qaysi prokuratura ixtisoslashgan prokuraturalar qatoriga kiritilmaydi?*

- A) transport; B) tuman; C) harbiy; D) tabiatni muhofaza qiluvchi.

84. *Tuman prokuraturalarida joriy rejalashtirish qaysi muddatga belgilanadi?*

- A) bir yilga; B) yarim yilga; C) bir yarim yilga; D) uch oyga.

85. *Qayd qilingan qaysi hujjat ustidan prokuror nazoratini o'rnatib bo'lmaydi?*

- A) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni;
- B) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- C) O'zbekiston Respublikasining Qonunlari;
- D) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari.

86. *O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorning o'rinbosari uchun faoliyat muddati belgilanganmi, agarda shunday bo'lsa, qancha?*

- A) yo'q, belgilangan emas; B) ha, to'rt yil; C) ha, besh yil; D) ha, olti yil.

87. *Qayd etilgan qaysi talab prokuratura organlariga ishga kirish uchun to'sqinlik qilmaydi?*

- A) O'zbekiston Respublikasi fuqaroligining yo'qligi;
- B) nikohdan o'tganligini qayd etish guvohnomasining yo'qligi;
- C) oliy yuridik (departament uchun iqtisodiy va moliyaviy) ma'lumotga ega bo'lmaslik;
- D) sudlanganlikning mavjud bo'lishi.

88. *Qayd qilingan prokuratura xodimlaridan qaysi biri «prokuror» degan tushuncha ostiga tushmaydi?*

- A) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining o'rinbosari;
- B) tuman prokurorining katta yordamchisi;
- C) viloyat prokuraturasining bo'lim boshlig'i;
- D) kanselariya mudiri.

89. *Qayd etilgan qaysi shaxslar prokuror nazorati obyekti hisoblanishmaydi?*

- A) mansabdor shaxslar; B) tijorat tashkilotlari rahbarlari;
- C) notijorat tashkilotlari rahbarlari; D) fuqarolar.

90. *G'ayriqonuniy hujjatni aniqlagan prokuror qanday ishni bajarishi kerak?*

- A) taqdimnoma kiritishi; B) ogohlantiruv e'lon qilishi;
- C) protest kiritishi; D) qaror chiqarishi.

91. *Mahalliy hokimiyat organlarining g'ayriqonuniy hujjatlariga nisbatan kiritilgan protestni ko'rish uchun qancha muddat belgilangan?*

- A) kelib tushgandan boshlab, 10 kun muddat ichida;
- B) eng yaqin bo'lib o'tadigan sessiyada;
- C) eng yaqin bo'lib o'tadigan sessiya boshlanishidan 10 kun avval;
- D) prokuror tomonidan navbatdan tashqari sessiya o'tkazilishi talab qilinganida.

92. *O'zbekiston Respublikasi hukumatining huquqiy hujjatini qonunga nomuvofiqligini aniqlagan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining vakolati:*

- A) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga xabar qiladi;
- B) O'zbekiston Respublikasi hukumat raisini bu haqda ogohlantiradi;
- C) ushbu g'ayriqonuniy hujjatga nisbatan protest kiritadi;
- D) O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga bu haqda axborot beradi.

93. *Prokuror o'zidan yuqori turuvchi organga qonun buzilish hollarini bartaraf etish yuzasidan taqdimnoma kirita oladimi?*

A) yo'q, chunki subordinatsiya buziladi;

B) mumkin, agarda bu bilan qonun buzilish holatlarining oldini olishga yordam bersa;

C) yo'q, u o'zidan yuqori turuvchi tegishli prokurorga taqdimnoma bilan murojaat qilishi kerak;

D) yo'q, bu qonun bilan taqiqlangan.

94. *Prokuror kimga nisbatan qonun buzilishning oldini olish yuzasidan ogohlantiruv kirita oladi?*

A) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi raisiga;

B) O'zbekiston Respublikasi hukumati raisiga;

C) fuqarolar va mansabdor shaxslarga;

D) Oliy sud raisiga.

95. *Qayd etilgan qaysi qonuniy hujjatda prokurorning surishtiruv organlari tomonidan qonunlar ijrosi ustidan nazorat vakolati mustahkamlangan?*

A) O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksida;

B) O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksida;

C) O'zbekiston Respublikasining «Militsiya to'g'risida»gi Nizomda;

D) O'zbekiston Respublikasining «Milliy xavfsizlik xizmat to'g'risida»gi Nizomda.

96. *Qaysi sud ish yurituvida prokuror ishtiroki nazarda tutilmagan?*

A) jinoiy sud ish yurituvi; B) fuqarolik sud ish yurituvi;

C) ma'muriy sud ish yurituvi; D) konstitutsion sud ish yurituvi.

97. *Qayd etilgan qaysi bir jazo prokuratura organlarining intizomiy javobgarlikka tortish faoliyatida qo'llanilmaydi?*

A) mansab unvonidan pasaytirish;

B) kam haq to'lanadigan lavozimga o'tkazish;

C) ogohlantirish;

D) prokuratura organlaridan ishdan bo'shatish.

98. *Prokuratura organlarining barcha xodimlari mansab unvonlari va harbiy unvonlarga egami?*

A) yo'q, faqat attestatsiyadan o'tadiganlar;

B) yo'q, faqat prokurorlar va tergovchilar;

C) ha, barchalari;

D) yo'q, faqat prokurorlar.

99. *Viloyat prokurori lavozimida bo'lish uchun qancha muddat belgilangan?*

A) uch yil; B) muddat belgilanmagan; C) besh yil; D) to'rt yil.

100. *Qaysi qatordagilar prokuror nazorati hujjatlari hisoblanadi?*

A) protest, qaror, taqdimnoma, ariza va ogohlantiruv;

B) protest, qaror, taqdimnoma, amrnoma, ariza va ogohlantiruv;

C) protest, qaror, amrnoma, ariza va ogohlantiruv;

D) protest, qaror, prokurorning da'vosi, ariza va amrnoma.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BOSH PROKURATURASI  
SAMARQAND VILOYAT  
PROKURATURASI

140000, Samarqand sh.  
Ko'ksaroy maydoni, 4-uy,  
tel: (8-366) 233-10-45.

Viloyat hokimi \_\_\_\_\_ ga

\_\_\_\_\_ -yil « \_\_\_\_\_ » № \_\_\_\_\_

Viloyat hokimining \_\_\_\_\_ -yil « \_\_\_\_\_ » dagi  
\_\_\_\_\_ -qarorini bekor qilish haqida  
**PROTEST**

Viloyat hokimi tomonidan \_\_\_\_\_ -yil \_\_\_\_\_ da qabul qilingan \_\_\_\_\_ -qarori bilan Samarqand tuman hokimining \_\_\_\_\_ -yil \_\_\_\_\_ -dekabrdagi fuqaro Z. Rahimovga shaxsiy AYOQSH qurish uchun Sh. Rashidov nomli shirkat xo'jaligi hududidan 0,15 gektar yer maydoni ajratish haqidagi \_\_\_\_\_ -qarori tasdiqlangan.

Mazkur qaror amaldagi qonunlar talablariga zid ravishda qabul qilinganligi sababli qo'yidagi asoslarga ko'ra, bekor qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 23-moddasi 4-bandiga asosan «Sanoat korxonalari, temiryo'llar va avtomobil yo'llari, aloqa va elektr uzatish liniyalari, magistral quvurlar qurish uchun, shuningdek, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmagan boshqa ehtiyojlar uchun qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar yoki qishloq xo'jaligi uchun yaroqsiz bo'lgan yerlar, yoxud qishloq xo'jaligining sifati yomon yerlari berilishi ko'rsatilgan bo'sa-da, fuqaro Z. Rahimovga Sh. Rashidov nomli shirkat xo'jaligining 54 bonnitet balli, ya'ni eng unumli bog' yeri hisobidan qonunga zid ravishda yer ajratilgan.

Shuningdek, mazkur kodeksning 46-moddasida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni berishning alohida tartibi belgilangan bo'lib, viloyat hokimi tomonidan yuqorida ko'rsatilgan qaror qabul qilishda ushbu modda talablari buzilgan.

Bundan tashqari, Yer kodeksining 16-moddasiga asosan yerni oldi-sotdi qilish, ayriboshlamaslik, hadya etmaslik, garovga qo'ymaslik belgilangan bo'sa-da, fuqaro Z. Rahimovga ajratilgan yer maydonida qurilish ishlari asossiz ravishda fuqaro S. Halimov tomonidan olib borilmoqda.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 38-moddasini qo'llab,

**S O' R A Y M A N:**

— Samarqand viloyat hokimining \_\_\_\_\_ -yil \_\_\_\_\_ -iyuldagi \_\_\_\_\_ -qarorining Samarqand tuman hokimining \_\_\_\_\_ -yil \_\_\_\_\_ -dekabrdagi fuqaro Z. Rahimovga shaxsiy AYOQSH qurish uchun 0,15 gektar yer maydoni ajratish haqidagi \_\_\_\_\_ -qarorini tasdiqlash haqidagi qismini bekor qilishni;

— mazkur protestni Qonunda ko'rsatilgan 10 kunlik muddat ichida ko'rib chiqib, natijalari haqida yozma ravishda viloyat prokuraturasiga ma'lum qilishni.

**Viloyat prokurori,  
adliya katta maslahatchisi**

\_\_\_\_\_ (imzo)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BOSH PROKURATURASI  
SAMARQAND VILOYAT  
PROKURATURASI

140000, Samarqand sh.  
Ko'ksaroy maydoni, 4-uy,  
tel: (8-366) 233-10-45.

\_\_\_\_\_ -yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_

**Pastdarg'om tuman hokimi**  
\_\_\_\_\_ ga

**Tuman hokimining \_\_\_\_\_ -yil \_\_\_\_\_ -apreldagi  
\_\_\_\_\_ -qarorini bekor qilish haqida**

**PROTEST**

Pastdarg'om tuman hokimi tomonidan \_\_\_\_\_ -yil \_\_\_\_\_ -aprel kuni qabul qilingan fuqaro Normatov Qilichga oshxona hamda avtobekat qurish uchun yer ajratish to'g'risidagi \_\_\_\_\_ -qarori «Gulbahor» shirkat xo'jaligining umumiy vakillar yig'ilishida ko'rib chiqilmaganligi sababli tuman hokimining \_\_\_\_\_ -yil \_\_\_\_\_ -maydagi \_\_\_\_\_ -qarori bilan bekor qilingan.

Mazkur holat yuzasidan \_\_\_\_\_ -yil \_\_\_\_\_ -noyabr kuni jinoiy ishlar bo'yicha Pastdarg'om tuman sudining hukmi bilan sobiq «Gulbahor» shirkat xo'jaligining raisi Ahmedov Komil shirkat xo'jaligi hududidan fuqaro Normatov Qilichga oshxona va avtobekat qurish uchun yer maydoni ajratib berishda hujjatlarni soxtalashtirilganlikda aybli deb topilgan va tegishli jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Shunga qaramasdan, Pastdarg'om tuman hokimi o'zining \_\_\_\_\_ -yil \_\_\_\_\_ -iyul kunidagi \_\_\_\_\_ -qarori bilan fuqaro Normatov Qilichga bekor qilingan qaror asosida ajratilgan yer maydonida qurilish ishlarini davom ettirishga ruxsat bergan.

Mazkur qaror amaldagi qonunlar talablariga zid ravishda qabul qilinganligi sababli quyidagi asoslarga ko'ra, bekor qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 23-moddasi 5-bandiga zid ravishda, yer ajratish to'g'risidagi hujjatlar to'plamisiz Pastdarg'om tuman hokimining \_\_\_\_\_ -yil \_\_\_\_\_ -iyuldagi \_\_\_\_\_ -qarori bilan fuqaro Normatov Qilichga oshxona va avtobekat qurishni davom ettirish uchun ruxsat berilgan.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 38-moddasini qo'llab,

**SO'RAYMAN:**

— Pastdarg'om tuman hokimining \_\_\_\_\_ -yil \_\_\_\_\_ -iyuldagi \_\_\_\_\_ -qarorini bekor qilishni;

— mazkur protestni qonunda ko'rsatilgan 10 kunlik muddat ichida ko'rib chiqib, natijalari haqida yozma ravishda viloyat prokuraturasiga ma'lum qilishni.

**Viloyat prokurori,  
adliya katta maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BOSH PROKURATURASI  
SAMARQAND VILOYAT  
PROKURATURASI**

140000, Samarqand sh.  
Ko'ksaroy maydoni, 4-uy,  
tel: (8-366) 233-10-45

\_\_\_\_-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_

**Viloyat davlat soliq boshqarmasi  
boshlig'i \_\_\_\_\_ ga**

**Viloyat davlat soliq boshqarmasining \_\_\_\_\_-yil \_\_\_\_-apreldagi  
\_\_\_\_-ShT buyrug'ini bekor qilish haqida**

**P R O T E S T**

Viloyat davlat soliq boshqarmasining Siyob tuman davlat soliq inspeksiya bo'limining «Qisqa muddatli tekshirishlarni tashkil etish hamda bozorlar faoliyatini nazorat qilish» sho'basini bosh davlat soliq inspektori P. Rahmonov bilan yangi mehnat shartnomasini tuzib, uni bir yil muddatga Siyob tuman davlat soliq inspeksiya bo'limida yuridik shaxslarni soliqqa tortish bo'limiga Bosh davlat soliq inspektori lavozimiga ko'chirish to'g'risida \_\_\_\_\_-yil \_\_\_\_-apreldagi \_\_\_\_-ShT buyruq qabul qilingan.

Mazkur buyruq amaldagi qonun talablariga zid ravishda qabul qilinganligi sababli qiyidagi asoslarga ko'ra, bekor qilinishi lozim:

Ushbu buyruq uchun asos qilib olingan \_\_\_\_\_-yil \_\_\_\_-apreldagi mehnat shartnomasi O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 76-moddasiga asosan, mehnat shartnomalari bajarilajak ishning xususiyatlari yoki xodimning manfaatlarini hisobga olgan holda nomuayyan muddatga mo'ljallangan mehnat shartnomalarini tuzish mumkin bo'lmagan hollarda tuzilishi ko'rsatilgan.

Xuddi shuningdek, Mehnat kodeksida ta'kidlanishicha, «Mehnat haqidagi kelishuvlar va shartnomalarining xodimlar ahvolini mehnat to'g'risidagi qonunlar va boshqa normativ hujjatlarda nazarda tutilganiga qaraganda yomonlashtiradigan shartlari haqiqiy emas deb belgilangan, ya'ni nomuayyan muddatga tuzilgan mehnat shartnomasini xodimning rozilgisiz muayyan muddatga, shuningdek, muayyan ishni bajarish vaqtiga mo'ljallanib qayta tuzilishi mumkin».

Bundan tashqari, P. Rahmonov \_\_\_\_\_-yil \_\_\_\_-apreldan \_\_\_\_-mayga qadar \_\_\_\_\_-sonli mehnatga layoqatsizlik varaqasida bo'lganligi uchun viloyat davlat soliq boshqarmasi ma'muriyatining \_\_\_\_\_-yil \_\_\_\_-apreldagi \_\_\_\_-ShT buyrug'iga, ya'ni boshqa ishga ko'chirishlariga rozilik berish imkoniyatiga ega bo'lmagan hamda mazkur buyruqlar bilan tilxat asosida tanishmagan. Natijada O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 5, 76, 82 va 92-modda talablari qo'pol ravishda buzilgan.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 38-moddasi va O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 9-moddasini qo'llab,

**TALAB ETAMAN:**

— viloyat davlat soliq boshqarmasining \_\_\_\_-yilgi \_\_\_\_-aprel kungi \_\_\_\_-ShT buyrug'ini bekor qilishni va noilojdan qilingan progul kunlari uchun haq to'lashni;

— mazkur protestni qonunda ko'rsatilgan 10 kunlik muddat ichida ko'rib chiqib, natijalari haqida yozma ravishda viloyat prokuraturasiga ma'lum qilishni.

**Viloyat prokurori,  
adliya katta maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**BOSH PROKURATURASI**  
**SAMARQAND VILOYAT**  
**PROKURATURASI**

140000, Samarqand sh.  
Ko‘ksaroy maydoni, 4-uy,  
tel: (8-366) 233-10-45

\_\_\_\_\_ -yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_

**«Zarvodiyusvnazorat» inspeksiyasi**  
**boshlig‘i \_\_\_\_\_ ga**

**«Zarvodiyusvnazorat» inspeksiyasining \_\_\_\_\_ -yil \_\_\_\_\_ dagi**  
**\_\_\_\_\_ -qarorini bekor qilish haqida**

**PROTEST**

Tayloq tuman suv xo‘jaligi boshqarmasi «Bog‘izag‘on» kanali inshoot nazoratchisi Sh. Hakimov, suv inspektori A. Salimov tomonidan 2003-yil 24-fevral kuni suvdan foydalanish qoidalarini buzgani uchun O‘zbekiston Respublikasi MJTKning 74-moddasi 2-qismi bilan eng kam ish haqining 2 baravari miqdorida deb, 9075 so‘mga jarimaga tortilgan.

Mazkur qaror amaldagi qonunlar talablariga zid ravishda qabul qilinganligi sababli quyidagi asoslarga ko‘ra, bekor qilinishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi MJTKning 74-moddasi 2-qismiga ko‘ra, qonun buzilishiga yo‘l qo‘ygan mansabdor shaxslarga nisbatan eng kam oylik ish haqining 2 baravarigacha miqdorida jarima qo‘llash belgilangan bo‘lib, bu esa 9070 so‘mni tashkil qilsa-da, suv inspektori A. Salimov tomonidan huquqbuzar Sh. Hakimovga nisbatan asossiz ravishda jarima miqdori ko‘paytirib ko‘rsatilgan.

Yuqoridagilarga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining «Prokuratura to‘g‘risida»gi Qonuni 38-moddasini qo‘llab,

**TALAB QILAMAN:**

— «Bog‘izag‘on» kanali inshoot nazoratchisi Sh. Hakimovni ma‘muriy jarimaga tortish haqidagi \_\_\_\_\_ -qarorni bekor qilib, qonunga muvofiqlashtirishni;

— mazkur protestni qonunda ko‘rsatilgan 10 kunlik muddat ichida ko‘rib chiqib, natijalari haqida yozma ravishda viloyat prokuraturasiga ma‘lum qilishni.

**Viloyat prokurori,**  
**adliya katta maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BOSH PROKURATURASI  
SAMARQAND VILOYAT  
PROKURATURASI

140000, Samarqand sh.  
Ko'ksaroy maydoni, 4-uy,  
tel: (8-366) 233-10-45

\_\_\_\_-yil « \_\_\_\_ » № \_\_\_\_ Viloyat hokimi \_\_\_\_\_ ga

Viloyat hokimining \_\_\_\_-yil \_\_\_\_-dagi \_\_\_\_-qarorini bekor qilish haqida

**P R O T E S T**

Viloyat hokimi tomonidan \_\_\_\_-yil \_\_\_\_-dekabr kuni Pastdarg'om tuman hokimining \_\_\_\_-yil \_\_\_\_-oktabrdagi \_\_\_\_-qarori tasdiqlanib, Samarqand harbiy garnizoni o'quv markaziga tegishli 195 gektar yer maydonini Pastdarg'om tumanidagi Q. To'rayev nomli shirkat xo'jaligiga qaytarish haqidagi \_\_\_\_-sonli qarori qabul qilingan.

Mazkur qaror amaldagi qonunlar talablariga zid ravishda qabul qilinganligi sababli quyidagi asoslarga ko'ra, bekor qilinishi lozim.

Aniqlanishicha, ushbu yer maydonlari viloyat ijroiya komitetining \_\_\_\_-yil \_\_\_\_-yanvardagi \_\_\_\_-qaroriga asosan, Pastdarg'om va Samarqand tumanlari yer maydoni hisobidan \_\_\_\_-yil \_\_\_\_-oktabrdagi BN~~o~~ 001751 va \_\_\_\_-oktabrdagi BN~~o~~ 00775-sonli yerdan foydalanish aktiga asosan 13624,27 gektar yer maydoni Samarqand harbiy garnizoniga o'quv mashq maydoni sifatida foydalanish uchun ajratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasi 7-qismida ko'rsatilishicha, «Yer uchastkasidan oqilona foydalanmagan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun hosildorlik darajasi 3 yil mobaynida normativ past bo'lishida ifodalanganda yerdan foydalanish huquqi bekor qilinishi» ko'rsatilgan bo'lib, viloyat hokimligi tomonidan ushbu yer maydonlari qaysi maqsadlarda foydalanish uchun harbiy qismga berilganligiga e'tibor berilmasdan, noqonuniy qaror qabul qilingan.

Shuningdek, mazkur \_\_\_\_-qaror bilan Samarqand harbiy garnizoniga tegishli bo'lgan o'quv markazining jami 195 gektar yer maydoni, shundan Samarqand oliy harbiy qo'mondonlik avtomobil-muhandis bilim yurti yordamchi xo'jaligi hisobidan 142 gektar, N-harbiy qism yordamchi xo'jaligidan 53 gektar yer maydonlarini Pastdarg'om tumanidagi Q. To'rayev nomli shirkat xo'jaligiga qaytarilishida viloyat hokimligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bilan kelishilmagan.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 38-moddasini qo'llab,

**SO'RAYMAN:**

— Samarqand viloyat hokimining \_\_\_\_-yil \_\_\_\_-dekabrdagi \_\_\_\_-qarorini Samarqand harbiy garnizoniga tegishli bo'lgan 195 gektar yerni Pastdarg'om tumanidagi Q. To'rayev nomli shirkat xo'jaligiga qaytarish haqidagi qismini bekor qilishni;

— mazkur protestni qonunda ko'rsatilgan 10 kunlik muddat ichida ko'rib chiqib, natijalari haqida yozma ravishda viloyat prokuraturasiga ma'lum qilishni.

**Viloyat prokurori,  
adliya katta maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BOSH PROKURATURASI  
SAMARQAND TUMANI  
PROKURATURASI

140000, Samarqand tumani  
Xo'ja Ahror q. Tel :335228

\_\_\_\_-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_

**Samarqand tuman hokimligi  
huzuridagi voyaga yetmaganlar  
ishi bilan shug'ullanuvchi  
komissiya raisi**

\_\_\_\_\_ga

**Samarqand tuman hokimligi huzuridagi voyaga yetmaganlar  
ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyaning \_\_\_\_-yil \_\_\_\_-dagi  
\_\_\_\_-qarorini bekor qilish haqida**

**P R O T E S T**

Tuman ichki ishlar bo'limi voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi inspeksiya noziri E. G'ulomov 5-tayanch maktabning 9-sinf o'quvchisi Ashirov Dilshod maktabda o'qishni xohlamasdan darslarni surunkali qoldirib kelishi yuzasidan tekshirish harakatlari o'tkazib, to'plangan hujjatlarni O'zbekiston Respublikasi MJTKning 47-moddasiga asosan ma'muriy javobgarlikka tortishni so'rab, tuman hokimiyati huzuridagi voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyaga 2003-yil 8-yanvarda yuborgan.

Tekshirish materiallari asosida militsiya noziri tomonidan O'zbekiston Respublikasi MJTK ning 279, 281-moddalari asosida ma'muriy huquqbuzarlikka oid bayonnoma tuzilmagan, kim tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgani aniqlanmagan, huquqbuzarning va guvohlarning tushuntirish xatlari olinmagan va kodeksning qaysi moddasida ko'rsatilgan huquqbuzarlik sodir etilganligi ko'rsatilmagan, kimni ma'muriy javobgarlikka tortish so'ralmagan, ma'muriy ish ro'yxatga olinmagan, tikilmagan bo'lsa-da, komissiya ishni qabul qilib olib, O'zbekiston Respublikasi MJTKning 306-moddasi asosida ma'muriy ishni ko'rib chiqish tartibiga amal qilmasdan va 308-moddasi bo'yicha ishni ko'rib chiqish bayonnomasi yurgizmasdan 14.01.03-yilda 3-qaror qabul qilib, Ashirov Dilshodni MJTKning 33-moddasi tartibida ogohlantirish jazo chorasi qo'llagan.

Komissiyaning mazkur qarori qonun talablariga zid bo'lib, bekor qilinishi va ma'muriy ish quyidagilarga asosan harakatdan tugatilishi lozim deb hisoblayman.

Komissiya yuqorida qayd etilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi MJTKning 279, 281, 306 va 308-moddalari talablarini buzib ishni asossiz ko'rishga qabul qilib olib, qonunsiz qaror e'lon qilgan. Bundan tashqari, komissiya Ashirov D. qaysi turdagi ma'muriy huquqbuzarlik sodir etganini va uning harakatlarida ma'muriy huquqbuzarlik bor yoki yo'qligi aniqlanmagan, shuningdek, MJTKda maktabga bormay qo'rganlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilanmagan.

Komissiya o'z qarorining bayon qismida voyaga yetmagan Ashirovning otasi Ashirov Asror, onasi Ashirova Shahnozalar O'zbekiston Respublikasi MJTKning

47-moddasida ko'rsatilgan ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan, deb qayd etgan holda ularning harakatlariga huquqiy baho bermagan.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi MJTKning 13, 14-moddalariga ko'ra, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda 16 yoshga to'lgan shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkinligi belgilangan bo'lib, 1987-yil 30-iyunda tug'ilgan Ashirov D. ma'muriy javobgarlikka tortish subyekti bo'lishi mumkin emas.

Yuqoridagilarga asosan va O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 38-moddasi, O'zbekiston Respublikasi MJTKning 317-moddasini qo'llab,

#### SO'RAYMAN:

— Samarqand tuman hokimligi huzuridagi voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyaning 2003-yil 14-yanvar kungi 3-qarorini bekor qilishingizni;

— voyaga yetmagan Ashirov D.ga nisbatan ma'muriy huquqbuzarlikka oid ish yurituvini tugatishingizni;

— mazkur protestni ko'rib chiqish natijalari haqida belgilangan muddatda tuman prokuraturasiga javob yuborishingizni.

**Tuman prokurori,  
adliya kichik maslahatchisi**

---

(imzo)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BOSH PROKURATURASI  
SAMARQAND TUMANI  
PROKURATURASI

140000, Samarqand tumani  
Xo'ja Ahror q. Tel: 335228

\_\_\_\_-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_

**Samarqand tuman hokimligi  
huzuridagi voyaga yetmaganlar ishi  
bilan shug'ullanuvchi komissiya raisi**  
\_\_\_\_\_ga

**Samarqand tuman hokimligi huzuridagi voyaga yetmaganlar  
ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyaning 2008-yil 21-yanvardagi  
4-qarorini bekor qilish haqida**

**P R O T E S T**

Voyaga yetmagan \_\_\_\_\_-yil \_\_\_\_\_- aprel kuni tug'ilgan, 22-o'rta maktabning 7 «b»-sinf o'quvchisi Mustafoyev Jonibek Jo'raqulovich, 2007-yil 25-sentabrda «Maroqand» jamoa xo'jaligi «Kamchinson» qishlog'idagi uyidan, otasining 10.000 so'm pulini olib chiqib, sinfdoshlari bilan Samarqand shahri hududida sarflab yuborgan.

Uning otasi Po'latov Jo'raqul 2008-yil 2-yanvarda tuman ichki ishlar bo'limiga o'g'li uning pulini so'roqsiz olib, o'rtoqlari bilan sarflab tamomlaganini ma'lum qilib, o'g'liga nisbatan tegishli chora ko'rishni so'ragan. To'plangan materiallar tuman ichki ishlar bo'limi tomonidan tuman hokimiyati huzuridagi voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyasiga yuborilib, komissiya 2008-yil 21 yanvarda 4-qarori bilan Mustafoyev J.ni O'zbekiston Respublikasi MJTKning 183-moddasida ko'rsatilgan ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan, deb hisoblab, MJTKning 33-moddasini asos qilib uni ogohlantirgan.

Komissiyaning mazkur qarori qonun talablariga zid bo'lib, bekor qilinishi va ma'muriy ish quyidagilarga asosan harakatdan tugatilishi lozim deb hisoblayman.

O'zbekiston Respublikasi MJTKning 303-moddasi 2-bandiga ko'ra, ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishni ko'rish oldidan ishni ko'rib boshlagan mansabdor shaxs ish bo'yicha ma'muriy huquqbuzarlikka oid bayonnoma qonuniy tuzilganligini, barcha hujjatlar talab qilib olinganligini aniqlashi lozim bo'lsa-da, ushbu ish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi MJTKning 279, 280, 281, 282-moddalari talablari bajarilmasdan, ma'muriy huquqbuzarlik haqidagi bayonnoma tuzilmagan, ish raqamlanmagan, to'plangan hujjatlar ro'yxati tuzilmagan va tikilmagan bo'lsa-da, ishni ko'rish uchun asossiz qaror chiqargan.

Garchand, voyaga yetmagan Mustafoyev Jonibek harakatlarida mayda bezorilik alomatlari yo'q bo'lsa-da, komissiya uni asossiz O'zbekiston Respublikasi MJTKning 183-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan deb topgan.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi MJTKning 13—14-moddalariga ko'ra, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda 16 yoshga to'lgan shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkinligi belgilangan bo'lib, 1994-yil 25-aprelda tug'ilgan Mustafoyev Jonibek ma'muriy javobgarlikka tortish subyekti bo'lishi mumkin emas.

Yuqoridagilarga asosan va O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 38-moddasi va O'zbekiston Respublikasi MJTKning 317-moddasini qo'llab,

#### SO'RAYMAN:

— Samarqand tuman hokimligi huzuridagi voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyasi 2008-yil 21-yanvardagi 4-qarorini bekor qilishingizni;

— Mustafoyev J.ga nisbatan ma'muriy huquqbuzarlikka doir ish yurituvini tugatishingizni;

— mazkur protestni ko'rib chiqish natijalari haqida belgilangan muddatda tuman prokuraturasiga javob yuborishingizni.

**Samarqand tuman prokurori,  
adliya kichik maslahatchisi**

---

(imzo)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BOSH PROKURATURASI  
SAMARQAND TUMANI  
PROKURATURASI

140000, Samarqand tumani  
Xo'ja Ahror q. Tel. 335228

\_\_\_\_\_ -yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_

**Samarqand tuman hokimligi  
huzuridagi voyaga yetmaganlar ishi  
bilan shug'ullanuvchi komissiya raisi  
\_\_\_\_\_ ga**

**Samarqand tuman hokimligi huzuridagi voyaga yetmaganlar ishi bilan  
shug'ullanuvchi komissiyaning 2003-yil 4-fevraldagi  
7-qarorini bekor qilish haqida**

**P R O T E S T**

Voyaga yetmagan, 1985-yilda tug'ilgan, tuman kasb-hunar kolleji o'quvchisi Jo'rayev Dilmurod o'rtog'i shu kollej o'quvchisi Raupov Dilshod bilan 2003-yil 15-yanvar kuni soat 11 larda kollej hovlisida kursdoshi Nu'monova Sharkiyani sumkasini yirtib tashlab, huquqbuzarlik sodir qilishgan.

Ushbu fakt yuzasidan Nu'monova Sharkiya tuman IIBga murojaat qilib, uchastka noziri Mahmudov surishtiruv harakatlarini sifatli va to'liq olib bormasdan, zarar miqdori qoplanmasdan, O'zbekiston Respublikasi MJTKning 279-moddasi tartibida ma'muriy huquqbuzarlikka oid bayonnoma tuzmasdan to'plangan hujjatlar komissiyaga yuborilgan.

2003-yil 4-fevralda komissiya raisining o'rinbosari \_\_\_\_\_ raisligida ishni ko'rib chiqib, Jo'rayev Dilmurod harakatlarida O'zbekiston Respublikasi MJTKning 183-moddasida ko'rsatilgan huquqbuzarlik mavjud deb hisoblab, MJTKning 33-moddasini asos qilib, uni ogohlantirgan.

Komissiyaning ushbu qarori qonun talablariga zid bo'lib, bekor qilinishi va ma'muriy ish quyidagilarga asosan harakatdan tugatilishi lozim deb hisoblayman.

O'zbekiston Respublikasi MJTKning 303-moddasi 2-bandiga ko'ra, ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishni ko'rish oldidan ishni ko'ra boshlagan mansabdor shaxs ish bo'yicha ma'muriy huquqbuzarlikka oid bayonnoma tuzilganligini, barcha hujjatlar talab qilib olinganligini aniqlashi lozim bo'lsa-da, bu harakatlar bajarilmagan va ushbu ish bo'yicha o'zi ham O'zbekiston Respublikasi MJTKning 280, 281, 282-moddalari talablarini bajarmasdan ish yuritish haqida bayonnoma yuritmasdan, ishni asossiz ko'rishda davom etib qonunsiz qaror e'lon qilgan.

Yuqoridagilarga asosan va O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 38-moddasi va O'zbekiston Respublikasi MJTKning 317-moddasini qo'llab,

**SO'RAYMAN:**

— Samarqand tuman hokimligi huzuridagi voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyaning 2003-yil 4-fevral kungi 6-qarorini bekor qilishingizni va voyaga yetmagan Jo'rayev D.ga nisbatan ma'muriy huquqbuzarlikka oid ish yurituvini tugatishingizni;

— mazkur protestni ko'rib chiqish natijalari haqida belgilangan muddatda tuman prokuraturasiga javob yuborishingizni.

**Samarqand tuman prokurori,  
adliya kichik maslahatchisi**

---

(imzo)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BOSH PROKURATURASI  
SAMARQAND TUMANI  
PROKURATURASI

140000, Samarqand tumani  
Xo'ja Ahror q. Tel: 335228

\_\_\_\_\_ -yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_

**Samarqand tuman hokimligi  
huzuridagi voyaga yetmaganlar ishi  
bilan shug'ullanuvchi komissiya raisi**  
\_\_\_\_\_ga

**Samarqand tuman hokimligi huzuridagi voyaga yetmaganlar ishi bilan  
shug'ullanuvchi komissiyaning \_\_\_\_\_-yil \_\_\_\_ - sentabr kungi  
raqamlanmagan voyaga yetmagan Eshmatov Toshmatga nisbatan  
qarorini bekor qilib, ishni tugatish to'g'risida**

**P R O T E S T**

Samarqand tuman huzuridagi voyaga yetmaganlar komissiyasi, komissiya raisining o'rinbosari M. Marjonovning raisligida, voyaga yetmagan \_\_\_\_\_-yil \_\_\_\_\_-iyunda tug'ilgan 43-maktabning 5-sinf o'quvchisi Eshmatov Toshmatga nisbatan ma'muriy ishni ko'rib chiqib, asossiz uning harakatlarida O'zbekiston Respublikasi MJTKning 47-moddasida ko'zda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlik harakatlari bor deb topib, MJTKning 33-moddasini qo'llab ogohlantirgan.

Komissiyaning mazkur qarori qonun talablariga zid qabul qilingan bo'lib, quyidagi holatlarga asosan, bekor qilinishi va harakatdan tugatilishi lozim deb hisoblayman.

O'zbekiston Respublikasi MJTKning 303-moddasi 2-bandiga ko'ra, ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishni ko'rish oldidan, mansabdor shaxs ish bo'yicha ish raqamlangan va to'plangan hujjatlar ro'yxat qilingan, ma'muriy huquqbuzarlikka oid bayonnoma tuzilganligini, barcha hujjatlar talab qilib olinganligini aniqlashi lozim bo'lsa-da, bu harakatlarni bajarmasdan va ushbu ish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi MJTKning 279, 280, 281, 282-moddalari talablarini bajarmasdan, ish yuritish haqida bayonnoma yuritmasdan, ishni asossiz qabul qilib olib, qonunsiz qaror e'lon qilgan.

Garchand, voyaga yetmagan Eshmatov Toshmat harakatlarida bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish borasidagi majburiyatlarni bajarmaslik alomatlarini yo'q bo'lsa-da, komissiya uni asossiz MJTKning 47-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan deb topgan.

Bundan tashqari, MJTKning 13, 14-moddalariga ko'ra, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda 16 yoshga to'lgan shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkinligi belgilangan bo'lib, 1991-yil 10-iyunda tug'ilgan Eshmatov Toshmat ma'muriy javobgarlikka tortish subyekti bo'lishi mumkin emas.



Yuqoridagilarga asosan va O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 38-moddasi va O'zbekiston Respublikasi MJTKning 317-moddasini qo'llab,

**S O' R A Y M A N :**

— Samarqand tuman hokimligi huzuridagi voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyaning 2002-yil 10-sentabrdagi raqamsiz qarorini bekor qilishingizni;

— voyaga yetmagan Eshmatov Toshmatga nisbatan ma'muriy huquqbuzarlikka oid ish yurituvini tugatishingizni;

— mazkur protestni ko'rib chiqish natijalari haqida belgilangan muddatda tuman prokuraturasiga javob yuborishingizni.

**Samarqand tuman prokurori,  
adliya kichik maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BOSH PROKURATURASI  
SAMARQAND TUMANI  
PROKURATURASI

140000, Samarqand tumani  
Xo'ja Ahror q. Tel: 335228

\_\_\_\_\_ -yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_

**Samarqand tuman hokimligi  
huzuridagi voyaga yetmaganlar ishi  
bilan shug'ullanuvchi komissiya raisi**  
\_\_\_\_\_ ga

**Samarqand tuman hokimligi huzuridagi voyaga  
yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyani  
2003-yil 14-yanvardagi 2-qarorini bekor qilish haqida**

**P R O T E S T**

Tuman ichki ishlar bo'limi voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi inspeksiyasi tomonidan 68-o'rta maktabning 9-sinf o'quvchisi Teshayev Botir maktabda o'qishni xohlamasdan, darslarni surunkali qoldirib kelishi yuzasidan tekshirish harakatlari o'tkazib, to'plangan hujjatlarni 2003-yil 8-yanvarda o'quvchining ota-onasini O'zbekiston Respublikasi MJTKning 47-moddasiga asosan, ma'muriy javobgarlikka tortishni so'rab, tuman hokimiyati huzuridagi voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyaga yuborgan.

Ammo militsiya noziri tomonidan O'zbekiston Respublikasi MJTKning 279, 281-moddalari asosida ma'muriy huquqbuzarlikka oid bayonnoma tuzilmagan, kim tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgani ko'rsatilmagan, huquqbuzarning va guvohlarning tushuntirish xatlari olinmagan bo'lsa-da, komissiya ishni qabul qilib olib, O'zbekiston Respublikasi MJTKning 306-moddasi asosida ma'muriy ishni ko'rib chiqish tartibiga amal qilmasdan va 308-moddasi bo'yicha ishni ko'rib chiqish bayonnomasi yurgizmasdan 2003-yil 14-yanvarda 1-qaror qabul qilib, Teshayev Botirni MJTKning 33-moddasi tartibida ogohlantirgan, uning ota-onasi qismi ochiq qoldirilgan.

Komissiyaning mazkur qarori qonun talablariga zid bo'lib, bekor qilinishi va ma'muriy ish quyidagilarga asosan harakatdan tugatilishi lozim deb hisoblayman.

Komissiya yuqorida qayd etilgan tartibda O'zbekiston Respublikasi MJTKning 279, 281, 306 va 308-moddalari talablarini buzib ishni ko'rishga qabul qilgan. Bundan tashqari, MJTKda maktabga bormasdan qo'yanlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilanmagan bo'lsa-da, komissiya Teshayev Botirni asossiz ravishda MJTKning 33-moddasini asos qilib ogohlantirgan.

Yuqoridagilarga asosan va O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 38-moddasi va O'zbekiston Respublikasi MJTKning 317-moddasini qo'llab,

**SO'RAYMAN:**

— Samarqand tuman hokimligi huzuridagi voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyaning 2003-yil 14-yanvar kungi 2-qarorini bekor qilishingizni va voyaga yetmagan Teshayev Botirga nisbatan ma'muriy huquqbuzarlikka oid ish yurituvini tugatishingizni;

— mazkur protestni ko'rib chiqish natijalari haqida belgilangan muddatda tuman prokuraturasiga javob yuborishingizni.

**Samarqand tuman prokurori,  
adliya kichik maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BOSH PROKURATURASI  
SAMARQAND TUMANI  
PROKURATURASI

140000, Samarqand tumani  
Xo'ja Ahror q. Tel: 335228

\_\_\_\_\_ -yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_

**Samarqand tuman hokimligi huzuridagi  
voyaga yetmaganlar ishi bilan  
shug'ullanuvchi komissiya raisi**

\_\_\_\_\_ga

**Samarqand tuman hokimligi huzuridagi voyaga  
yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyaning  
2003-yil 21-yanvar kungi voyaga yetmagan  
Vahobov Ravshanga nisbatan 5-qarorini bekor qilib,  
ishni tugatish to'g'risida**

**P R O T E S T**

Samarqand tumani hokimligi voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiya, komissiya raisining o'rinbosari \_\_\_\_\_ raisligida 1990-yil 21-noyabrda tug'ilgan, 34-tayanch maktabining 7-sinf o'quvchisi Vahobov Ravshanga nisbatan ichki ishlar bo'limidan kelib tushgan materialni ko'rib chiqib, uning harakatlarida O'zbekiston Respublikasi MJTKning 183-moddasida ko'rsatilgan ma'muriy huquqbuzarlik harakatlari mavjud deb topib, MJTKning 33-moddasini qo'llab, ogohlantirish bilan cheklangan.

Komissiyaning mazkur qarori qonun talablariga zid qabul qilingan bo'lib, quyidagi holatlarga asosan, bekor qilinishi va harakatdan tugatilishi lozim deb hisoblayman.

O'zbekiston Respublikasi MJTKning 303-moddasi 2-bandiga ko'ra, ma'muriy huquqbuzarlikka oid ishni ko'rish oldidan, ishni ko'rib boshlagan mansabdor shaxs ish bo'yicha ish raqamlangan va to'plangan hujjatlar ro'yxat qilingan, ma'muriy huquqbuzarlikka oid bayonnoma tuzilganligini, barcha hujjatlar talab qilib olinganligini aniqlashi lozim bo'lsa-da, bu harakatlarni bajarmasdan va ushbu ish bo'yicha o'zi ham O'zbekiston Respublikasi MJTKning 279, 280, 281, 282-moddalari talablarini bajarmasdan ish yuritish haqida bayonnoma yuritmasdan, ishni asossiz qabul qilib olib, qonunsiz qaror e'lon qilgan.

Garchand, voyaga yetmagan Vahobov Ravshan harakatlarida mayda bezorilik alomatlari yo'q bo'lsa-da, komissiya uni asossiz MJTKning 183-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan deb, bundan tashqari, MJTKning 13, 14-moddalariga ko'ra, ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan paytda 16 yoshga to'lgan shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkinligi belgilangan bo'lib, 1990-yil 21-noyabrda tug'ilgan Vahobov Ravshan ma'muriy javobgarlikka tortish subyekti bo'lishi mumkin emas.

Yuqoridagilarga asosan va O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 38-moddasi va O'zbekiston Respublikasi MJTKning 317-moddasini qo'llab,

**SO'RAYMAN:**

— Samarqand tuman hokimligi huzuridagi voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyaning 2003-yil 21-yanvardagi 5-qarorini bekor qilishingizni;

— voyaga yetmagan Vahobov Ravshanga nisbatan ma'muriy huquqbuzarlikka oid ish yurituvini tugatishingizni;

— mazkur protestni ko'rib chiqib, natijalari haqida belgilangan muddatda tuman prokuraturasiga javob yuborishingizni.

**Samarqand tuman prokurori,  
adliya kichik maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BOSH PROKURATURASI  
SAMARQAND VILOYAT  
PROKURATURASI

140000, Samarqand sh.  
Ko'ksaroy maydoni, 4-uy,  
tel: (8-366) 233-10-45.

\_\_\_\_-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ № \_\_\_\_\_

Pastdarg'om tumani hokimi  
\_\_\_\_\_ga

**Tuman hokimining 2003-yil 4-iyuldagi  
121-qarorini bekor qilish haqida**

**P R O T E S T**

Pastdarg'om tuman hokimi tomonidan 2002-yil 4-aprel kuni qabul qilingan fuqaro Niyozov Qalandarga oshxona hamda avtobekat qurish uchun yer ajratish to'g'risidagi 121-qarori «Navbahor» shirkat xo'jaligining umumiy vakillar yig'ilishida ko'rib chiqilmaganligi sababli, tuman hokimining 2002-yil 11-maydagi 197-qarori bilan bekor qilingan.

Mazkur holat yuzasidan 2002-yil 4-noyabr kuni jinoiy ishlar bo'yicha Pastdarg'om tuman sudining hukmi bilan sobiq «Navbahor» shirkat xo'jaligining raisi Ashurov Kamol shirkat xo'jaligi hududidan fuqaro Niyozov Q.ga oshxona va avtobekat qurish uchun yer maydoni ajratib berishda hujjatlarni soxtalashtirilganlikda aybli deb topilgan va tegishli jinoiy javobgarlikka tortilgan.

Shunga qaramasdan, Pastdarg'om tuman hokimi o'zining 2003-yil 4-iyuldagi \_\_\_\_-qarori bilan fuqaro Niyozov Qalandarga bekor qilingan qaror asosida ajratilgan yer maydonida qurilish ishlarini davom ettirishga ruxsat bergan.

Mazkur qaror amaldagi qonunlar talablariga zid ravishda qabul qilinganligi sababli quyidagi asoslarga ko'ra, bekor qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 23-moddasi 5-bandiga zid ravishda, yer ajratish to'g'risidagi hujjatlar to'plamisiz Pastdarg'om tuman hokimining 2003-yil 4-iyuldagi \_\_\_\_-qarori bilan fuqaro Niyozov Q.ga oshxona va avtobekat qurishni davom ettirish uchun ruxsat berilgan.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 38-moddasini qo'llab,

**SO'RAYMAN:**

— Pastdarg'om tuman hokimining 2003-yil 4-iyuldagi 121-qarorini bekor qilishni;

— mazkur protestni qonunda ko'rsatilgan 10 kunlik muddat ichida ko'rib chiqib, natijalari haqida yozma ravishda viloyat prokuraturasiga ma'lum qilishni.

**Viloyat prokurori,  
adliya katta maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

## Intizomiy ish qo'zg'atish haqida

### QAROR

\_\_\_\_\_ -yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_

Samarqand shahri

Viloyat prokurori, adliya katta maslahatchisi \_\_\_\_\_, ushbu kun «G'alaba» mas'uliyati cheklangan jamiyatning moliyaviy xo'jalik faoliyati bo'yicha o'tkazilgan tekshirish materiallari bilan tanishib chiqib, quyidagilarni

#### ANIQLADIM:

Umarov Rustam Ziyayevich Samarqand shahar Siyob tumanida joylashgan «G'alaba» mas'uliyati cheklangan jamiyatning ombor mudiri lavozimida ishlab kelib, uning javobgarligida bo'lgan moddiy boyliklar sanoqdan o'tkazilganda u 5017 so'mlik kamomadga yo'l qo'yanligi aniqlangan.

R. Umarov o'zining ushbu harakatlari bilan o'zganing oz miqdordagi mulkini talon-taroj qilgan.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 39-moddasiga asosan,

#### QAROR QILDIM:

1. Umarov Rustam Ziyayevichga nisbatan intizomiy huquqbuzarlik to'g'risida ish qo'zg'atilgan.

2. Qarorni ko'rib chiqishlik uchun «G'alaba» mas'uliyati cheklangan jamiyatning rahbariga yuborilgan.

3. Qaror kelib tushgan kundan boshlab, 15 kunlik muddat ichida ko'rib chiqilib, natijasi haqida 3 kun muddatda viloyat prokuraturasiga yozma ravishda ma'lum qilingan.

**Viloyat prokurori,  
adliya katta maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

# Intizomiy huquqbuzarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqida

## Q A R O R

2003-yil 17-sentabr

Samarqand shahri

Samarqand viloyat prokurori, adliya katta maslahatchisi \_\_\_\_\_, ushbu kun «Samarqandgazta'minot» sho'ba korxonasida umumiy nazorat tartibida o'tkazilgan tekshirish hujjatlari bilan tanishib, quyidagilarni

### ANIQLADIM:

«Samarqandgazta'minot» sho'ba korxonasi o'lchash asboblari o'rnatish bo'yicha xizmat bo'limi boshlig'i D. Oqilov o'z xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmagan holda 2003-yil davomida viloyatda 131 ming 800 ta ulgurji iste'molchilar va xonadonlarga gaz o'lchagich asboblari o'rnatilishi rejalashtirilganligiga qaramasdan, joriy yilning o'tgan 7 oyi davomida 51659 ta gaz o'lchagich o'rnatilishini yoki reja 39 foizga bajarilishini ta'minlagan.

D. Oqilov o'z xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmasdan, ulgurji iste'molchilar va xonadonlarga gaz o'lchagich asboblari o'rnatilishini ta'minlamaganligi va boshqa qonun buzilish holatlariga yo'l qo'yganligi sababli unga nisbatan intizomiy huquqbuzarlik to'g'risida ish qo'zg'atish lozim.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 39-moddasini qo'llab,

### QAROR QILDIM:

1. «Samarqandgazta'minot» sho'ba korxonasi o'lchash asboblari o'rnatish bo'yicha xizmat bo'limi boshlig'i D. Oqilovga nisbatan intizomiy huquqbuzarlik to'g'risida ish qo'zg'atilgan.

2. Ushbu qaror ijro qilish uchun «Samarqandgazta'minot» sho'ba korxonasi direktoriga yuborilgan.

3. Qaror kelib tushgan kundan boshlab 15 kunlik muddat ichida ko'rib chiqilib, natijasi haqida 3 kunlik muddatda viloyat prokuraturasiga xabar qilinsin.

**Viloyat prokurori,  
adliya katta maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)



## Ma'muriy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqida

### QAROR

2003-yil 30-iyul

Samarqand shahri

Viloyat prokurori, adliya katta maslahatchisi \_\_\_\_\_, ushbu kun «G'alaba» mas'uliyati cheklangan jamiyatning moliyaviy xo'jalik faoliyati bo'yicha o'tkazilgan tekshirish materiallari bilan tanishib chiqib, quyidagilarni

#### ANIQLADIM:

Samarqand shahar Siyob tumanida joylashgan «G'alaba» mas'uliyati cheklangan jamiyatining moliyaviy xo'jalik faoliyati, to'lov intizomini mustahkamlash, mulkni saqlanishiga qaratilgan va boshqa qonun talablarini ijrosi yuzasidan umumiy nazorat tartibida o'tkazilgan tekshirishda, jamiyat rahbarlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 12-maydagi «Xalq xo'jaligida hisob-kitoblarni o'z vaqtida o'tkazilishi uchun korxonalar va tashkilot rahbarlarining mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1996-yil 24-yanvardagi «To'lov intizomi va o'zaro hisob-kitoblar tizimini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1999-yil 24-yanvardagi «To'lov intizomini va o'zaro hisob-kitoblar tizimini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari talablari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 19-martdagi «Ish haqi o'z vaqtida to'lanishiga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 504-qarori talablari ijrosi to'liq bajarilmasdan kelingan.

2003-yil 1-iyul holatiga ko'ra, korxonalar va tashkilotlardan 5 mln 220 ming 600 so'mlik debitor va 97 mln 507 ming 300 so'mlik kreditor qarzdorlikka yo'l qo'yilgan. Shundan 596 ming 500 so'mlik debitor qarzni muddati o'tgan.

Bundan tashqari, 2002-yil 29-martda 25- va 30-martda 26-to'lov topshiriq-nomalari asosida jamiyat Jomboy paxta zavodiga tegishli 3 mln 500 ming so'mlik aksiyalarini sotib olib, jamiyat rahbarlari shu kunga qadar aksiyalardan kelib tushgan dividendlarni jamiyatning kirimiga olish choralari ko'rishmagan.

Buning natijasida, jamiyatning ishchi va xizmatchilariga 5 mln 274 ming 683 so'm ish haqlari to'lanmay kelinmoqda.

«G'alaba» mas'uliyati cheklangan jamiyatning direktori Zokirova Gulsanam Abdiyevna tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida qayd etilgan Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarori talablari buzilgan.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 39-moddasiga va MJTKning 275-moddasi 1-bandiga asosan,

#### QAROR QILDIM:

1. Zokirova Gulsanam Abdiyevnaga nisbatan O'zbekiston Respublikasi MJTKning 175-moddasi 3-qismi bilan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ish qo'zg'atilgan.
2. Qarorni ko'rib chiqishlik uchun Siyob tuman soliq inspeksiyasi boshlig'iga yuborilgan.
3. Qaror kelib tushgan kundan boshlab 15 kunlik muddat ichida ko'rib chiqilib, natijasi haqida 3 kun muddatda viloyat prokuraturasiga yozma ravishda ma'lum qilinsin.

**Viloyat prokurori,  
adliya katta maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

# Ma'muriy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqida

## QAROR

2003-yil \_\_\_-oktabr

Samarqand shahri

Viloyat prokurori, adliya katta maslahatchisi \_\_\_\_\_ ushbu kun, umumiy nazorat tartibida «Samarqand TTPK» OTAJda moliyaviy xo'jalik faoliyati, to'lov intizomini mustahkamlash, mulkni saqlanishiga qaratilgan, soliq to'lovlari va boshqa qonun talablarini ijrosi yuzasidan o'tkazilgan tekshirish materiallari bilan tanishib chiqib,

### ANIQLADIM:

«Samarqand TTPK» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida moliyaviy xo'jalik faoliyati, to'lov intizomini mustahkamlash, mulkni saqlanishiga qaratilgan va boshqa qonun talablarini ijrosi yuzasidan umumiy nazorat tartibida o'tkazilgan tekshirishda, jamiyat rahbarlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti-ning 1995-yil 12-maydagi «Xalq xo'jaligida hisob-kitoblarni o'z vaqtida o'tkazilishi uchun korxonalar va tashkilot rahbarlarining mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1996-yil 24-yanvardagi «To'lov intizomi va o'zaro hisob-kitoblar tizimini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1999-yil 24-yanvardagi «To'lov intizomini va o'zaro hisob-kitoblar tizimini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 19-martdagi «Ish haqi o'z vaqtida to'lanishiga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 504-qarori talablari ijrosi to'liq bajarilmasdan kelingan.

2003-yil 1-sentabr holatiga korxonalar va tashkilotlardan muddati o'tgan 10 mln 535 ming so'mlik debitor, 26 mln 178 ming so'mlik kreditorlik qarzdorlikka yo'l qo'yilgan. Buning natijasida ishchi va xizmatchilarni ish haqidan ham 2 mln 532 ming so'mlik qarzdorlikka yo'l qo'yilgan.

Bundan tashqari, 2001—2002-yillarda jami 577 ming so'mlik barter operatsiyalari amalga oshirilgan. Shuningdek, qo'shimcha qiymat solig'i bo'yicha jami 2 mln 340 ming 700 so'm, ishchi va xizmatchilar daromad solig'i bo'yicha 31 ming so'm kam hisoblanib, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining talablari buzilganligi aniqlangan.

«Samarqand TTPK» OTAJ bosh hisobchisi I.N. Lochinova tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida qayd etilgan Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarori hamda Soliq kodeksi talablari buzilgan.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 39-moddasiga va MJTKning 275-moddasiga, 264-moddasiga asosan,

### QAROR QILDIM:

1. Lochinova Ilyosa Nishonovnaga nisbatan O'zbekiston Respublikasi MJTKning 175-moddasi 1- va 3-qismi bilan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ish qo'zg'atilgan.

2. Qarorni ko'rib chiqish uchun Bog'ishamol tuman soliq inspeksiyasi boshlig'iga yuborilgan.

3. Qaror kelib tushgan kundan boshlab, o'n besh kun ichida ko'rib chiqilishi va ko'rib chiqish natijalari haqida uch kunlik muddatda viloyat prokuraturasiga yozma ravishda ma'lum qilinishi shart.

**Viloyat prokurori,  
adliya katta maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

(imzo)

2003-yil \_\_\_-aprel

## Jinoyat ishi qo'zg'atish haqida

### Q A R O R

2003-yil \_\_\_-aprel

Samarqand shahri

Viloyat prokuraturasining umumiy nazorat bo'limi prokurori, 2-darajali yurist \_\_\_\_\_, viloyat paxta-urug'chilik birlashmasida shartnoma shartlarini bajarilishi, mulkni saqlanishi hamda budjet va budjetdan tashqari ajratilgan mablag'larni qonuniy sarflanishi yuzasidan umumiy nazorat tartibida o'tkazilgan tekshirish hujjatlarini ko'rib chiqib,

### ANIQLADIM:

Viloyat paxta urug'chilik birlashmasi boshlig'i R. Malikov mansab vakolatlarini suiiste'mol qilib, respublika paxta-urug'chiligi boshqarmasi tomonidan tasdiqlangan, Samarqand viloyat paxta-urug'chilik birlashmasining 2002-yil uchun xarajatlar smetasiga zid ravishda birlashmaga xizmat avtomashinasi olish uchun ajratilgan 8 mln so'mdan 4 mln 870,5 ming so'mini 2002-yil 4-fevral kuni viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi bilan tuzilgan 2-shartnomaga, asosan, 19-to'lov topshiriq-nomasi bilan vaqtinchalik moliyaviy yordam tariqasida o'tkazib bergan va bunga asos qilib, viloyat paxta urug'chilik birlashmasi boshlig'ining shaxsiy farmoyishini ko'rsatgan.

Ushbu shartnoma shartlariga ko'ra, shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kirib, o'tkazib berilgan 4 mln 870,5 ming so'mlik vaqtinchalik moliyaviy yordam pulining har oyda 10 foizi va yakuniy summa 2002-yil dekabr oyida birlashmaga qaytarib olinishi belgilangan bo'lsa-da, pul mablag'lari 2003-yil aprel oyiga qadar qaytarib olinmagan va smeta bo'yicha avtomobil sotib olinmagan, buning oqibatida birlashmaning shu miqdordagi debitor qarzlari paydo bo'lib, pullarni undirish borasida biron-bir chora ko'rilmagan.

Bundan tashqari, birlashma balansida 2003-yil 1-aprel holatiga avtotransport vositalari mavjud bo'lmagan va transport vositalarini ijaraga olish haqida biron-bir tashkilot va korxonalar bilan shartnoma tuzilmagan bo'lsa-da, 2002-yil davomida yoqilg'i moylash materiallari xarid qilish uchun budjet mablag'idan 621 ming so'm, vazirlik ajratmasidan 350 ming so'm, ehtiyot qismlari uchun 978 ming so'm va haydovchi ish haqi uchun 165,8 ming so'm, jami 2 mln 114,8 ming so'm, 2003-yilning birinchi choragida yoqilg'i moylash materiallari uchun davlat budjetidan 50 ming so'm va vazirlik ajratmasidan 150 ming so'm hamda ehtiyot qismlari uchun 465 ming so'm, jami 665 ming so'm, hammasi bo'lib 2002-yil va 2003-yilning o'tgan 3 oyi davomida 2 mln 779,8 ming so'mlik pul mablag'lari noqonuniy sarflangan.

Shunday qilib, viloyat paxta-urug'chilik birlashmasi boshlig'i R. Malikov respublika paxta-urug'chilik boshqarmasi tomonidan avtomashina olish uchun maqsadli ajratilgan pul mablag'larini noqonuniy sarflagani va asossiz ravishda

xizmat avtomashinasi xarajatlariga jami 2 mln 779,8 ming so'mlik pul mablag'larini xarajat qilib, davlat manfaatlariga juda ko'p miqdorda iqtisodiy zarar yetkazilishiga sababchi bo'lgan.

Mazkur holat yuzasidan viloyat paxta-urug'chilik birlashmasi boshlig'i R. Malikovga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning 205-moddasi 2-qismi «a» bandi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilishi lozim.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 39-moddasi va O'zbekiston Respublikasi JPKning 321, 322, 331, 336-moddalarini qo'llab,

### QAROR QILDIM:

1. Viloyat paxta-urug'chilik birlashmasi boshlig'i R. Malikovga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning 205-moddasi 2-qismi «a» bandi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

2. Jinoyat ishi yuzasidan dastlabki tergov harakatlarini olib borishlik viloyat prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga yuklatilgan.

**Umumiy nazorat bo'limi prokurori,  
2-darajali yurist**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

*«Qo'shilaman»*

**Umumiy nazorat bo'limi boshlig'i,  
adliya maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_

(imzo)

\_\_\_\_\_ -yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

## Jinoyat ishi qo'zg'atish haqida

### QAROR

2003-yil \_\_\_\_ -oktabr

Samarqand shahri

Viloyat prokuraturasining umumiy nazorat bo'limi prokurori, 2-darajali yurist \_\_\_\_\_, Siyob tumanidagi «Samplast» savdo uyida mulkni saqlanishiga qaratilgan qonunlar ijrosi yuzasidan umumiy nazorat tartibida o'tkazilgan tekshirish hujjatlarini ko'rib chiqib,

### ANIQLADIM:

«Samplast» savdo uyi mansabdor shaxslari tomonidan 2002-yil dekabr oyida «Umarbank»dan 70 mln so'mlik kredit olgan bo'lsa-da, hozirgi kunga qadar ushbu kredit mablag'ining kredit foizi va mablag'ni o'zini ham qaytarish choralari ko'rilmagan. «Samplast» savdo uyi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yildagi 574-qaroriga zid ravishda, 2001-yilni 3 mln 493 ming so'm va 2002-yilni 11 mln 498 ming so'm iqtisodiy zarar bilan yakunlangan bo'lsa-da, bankdan juda ko'p miqdorda kredit mablag'i olingan.

Bundan tashqari, «Samplast» savdo uyi mansabdor shaxslari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining o'zaro hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan Farmoni va Qarorlari talablariga amal qilinmaganligi, qarzlarni undirish va to'lash choralari ko'rilmaganligi oqibatida 2003-yil 1-sentabr holatiga 10 mln 222,5 ming so'mlik muddati o'tgan debitor qarzlari hamda 38 mln 890 ming so'mlik muddati o'tgan kreditor qarzlari vujudga kelgan.

Shuningdek, «Samplast» savdo uyi mansabdor shaxslari tomonidan xizmat vazifalari suiiste'mol qilinib, 2000—2002-yillar davomida jami 57 mln 399 ming so'mlik barter operatsiyalari amaldagi qonun talablariga zid ravishda amalga oshirilgan.

«Samplast» savdo uyi moddiy tovar boyliklari sanoqdan o'tkazilganida 20 mln so'mlik juda ko'p miqdordagi «Quvonch» va «Nozil» kafel plitkalar, gips, sement va boshqa qurilish materiallaridan kamomad aniqlandi.

Mazkur holat yuzasidan «Samplast» savdo uyi mansabdor shaxslariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning 205-moddasi 2-qismi «a» bandi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilishi lozim.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 39-moddasi va O'zbekiston Respublikasi JPKning 321, 322, 331, 336-moddalarini qo'llab,

### QAROR QILDIM:

1. Siyob tumanidagi «Samplast» savdo uyi mansabdor shaxslariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning 205-moddasi 2-qismi «a» bandi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

2. Jinoyat ishi yuzasidan dastlabki tergov harakatlarini olib borish Samarqand shahar prokuraturasiga yuklatilgan.

**Umumiy nazorat bo'limi  
prokurori, 2-darajali yurist**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

*«Qo'shilaman»*

**Umumiy nazorat bo'limi boshlig'i,  
adliya maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

(imzo)

2003-yil \_\_\_-oktabr

**Jinoyat ishi qo'zg'atish haqida  
Q A R O R**

2003-yil \_\_\_-oktabr

Samarqand shahri

Viloyat prokuraturasining umumiy nazorat bo'limi prokurori 2-darajali yurist \_\_\_\_\_, Siyob tumanidagi «Samplast» savdo uyida mulkni saqlanishiga qaratilgan qonunlar ijrosi yuzasidan umumiy nazorat tartibida o'tkazilgan tekshirish hujjatlarini ko'rib chiqib,

**ANIQLADIM:**

Odilov Erkin Ashrafovich Siyob tumanidagi «Samplast» savdo uyi direktori lavozimida ishlab kelib, 2002-yil 1-may kundan 1-buyruqqa asosan, moddiy javobgarligida bo'lgan, 20 mln so'mlik juda ko'p miqdordagi «Quvonch» va «Nozil» kafel plitkaları, gips, sement va boshqa qurilish materiallarini o'zlashtirish yo'li bilan talon-taroj qilgan.

Bundan tashqari, «Samplast» savdo uyi mansabdor shaxslari tomonidan 2002-yil dekabr oyida «Umarbank»dan 70 mln so'mlik kredit olgan bo'lsa-da, hozirgi kunga qadar ushbu kredit mablag'ining kredit foizi va mablag'ni o'zini ham qaytarish choralari ko'rilmagan. «Samplast» savdo uyi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yildagi 574-qaroriga zid ravishda, 2001-yilni 3 mln 493 ming so'm va 2002-yilni 11 mln 498 ming so'm iqtisodiy zarar bilan yakunlangan bo'lsa-da, bankdan juda ko'p miqdorda kredit mablag'larini olgan.

Bundan tashqari, «Samplast» savdo uyi mansabdor shaxslari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining o'zaro hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan Farmoni va Qarorlari talablariga amal qilinmaganligi, qarzlarni undirish va to'lash choralari ko'rilmaganligi oqibatida 2003-yil 1-sentabr holatiga 10 mln 222,5 ming so'mlik muddati o'tgan debitor qarzlari hamda 38 mln 890 ming so'mlik muddati o'tgan kreditor qarzlari vujudga kelgan.

Shuningdek, «Samplast» savdo uyi mansabdor shaxslari tomonidan xizmat vazifalari suiiste'mol qilinib, 2000—2002-yillar davomida jami 57 mln 399 ming so'mlik barter operatsiyalari amaldagi qonun talablariga zid ravishda amalga oshirilgan.

Mazkur holat yuzasidan E. Ochilov va «Samplast» savdo uyi hamda «Umarbank» mansabdor shaxslariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning 167-moddasi 3-qismi «a» bandi va JKning 205-moddasi 2-qismi «a» bandi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilishi lozim.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 39-moddasi va O'zbekiston Respublikasi JPKning 321, 322, 331, 336-moddalarini qo'llab,

### QAROR QILDIM:

1. Siyob tumanidagi «Samplast» savdo uyi direktori E. Odilov va mansabdor shaxslari hamda «Umarbank» mansabdor shaxslariga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning 167-moddasi 3-qismi «a» bandi va JKning 205-moddasi 2-qismi «a» bandi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

2. Jinoyat ishi yuzasidan dastlabki tergov harakatlarini olib borishlik viloyat prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga yuklatilgan.

**Umumiy nazorat bo'limi  
prokurori, 2-darajali yurist**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

*«Qo'shilaman»*

**Umumiy nazorat bo'limi boshlig'i,  
adliya maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)



\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_-yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

## Jinoyat ishi qo'zg'atish haqida

### Q A R O R

2003-yil \_\_\_\_-oktabr

Samarqand shahri

Viloyat prokuraturasining umumiy nazorat bo'limi prokurori 2-darajali yurist \_\_\_\_\_, Samarqand shahridagi o'quvchilarni harbiy kasblarga yo'naltiruvchi respublika litseyida umumiy nazorat tartibida o'tkazilgan tekshirish hujjatlarini ko'rib chiqib,

#### ANIQLADIM:

Fuqaro Ivanov Ivan Ivanovich O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya institutida o'qimagan va shu institutni bitirmagan bo'lsa-da, jismoniy tarbiya va sport mutaxassisligini 1999-yil bitirganligi to'g'risida berilgan № 223689 qalbaki diplomdan foydalanib, 2000-yil 21-noyabr kundan hozirgi kunga qadar Samarqand shahridagi o'quvchilarni harbiy kasbga yo'naltiruvchi respublika litseyida jismoniy tarbiya o'qituvchisi vazifasida ishlab kelgan.

I.I. Ivanov ushbu diplomni qalbaki ekanligini bila turib, undan foydalanib kelganligi uchun unga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning 228-moddasi 3-qismi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilishi lozim bo'ladi.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 39-moddasi va O'zbekiston Respublikasi JPKning 321, 322, 331, 336-moddalarini qo'llab,

#### QAROR QILDIM:

1. Samarqand shahridagi o'quvchilarni harbiy kasblarga yo'naltiruvchi respublika litseyi o'qituvchisi Ivan Ivanovich Ivanovga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning 228-moddasi 3-qismi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

2. Jinoyat ishi yuzasidan dastlabki tergov harakatlarini olib borish yuklatilgan.

**Umumiy nazorat bo'limi  
prokurori, 2-darajali yurist**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

«Qo'shilaman»

**Umumiy nazorat bo'limi boshlig'i,  
adliya maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

(imzo)

\_\_\_\_\_ -yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

## Jinoyat ishi qo'zg'atish haqida

### Q A R O R

2003-yil \_\_\_\_ -mart

Samarqand shahri

Viloyat prokuraturasi umumiy nazorat bo'limi katta prokurori, adliya kichik maslahatchisi \_\_\_\_\_, viloyat xalq ta'limi boshqarmasida budget va budgetdan tashqari ajratilgan mablag'larni sarflanishi, qurilish va ta'mirlash ishlariga ajratilgan qurilish materiallari, asbob-uskunalar, o'quv jihozlari va pul mablag'larini qonuniy sarflanishi yuzasidan umumiy nazorat tartibida o'tkazilgan tekshirish hujjatlarini ko'rib chiqib,

### ANIQLADIM:

Viloyat xalq ta'limi boshqarmasi mansabdor shaxslari mansab vakolatlarini suiiste'mol qilishib, 2002-yilda boshqarma tizimidagi maktab va maktabgacha muassasalarni joriy ta'mirlash uchun budgetdan ajratilgan mablag'lardan shifer olish maqsadida, amaldagi tender baholariga rioya qilmagan holda pudrat savdolarini tashkil etish — tender bo'yicha respublika boshqarmasining Samarqand viloyat filiali tender komissiyasi orqali olmasdan, bu bilan Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 5-avgustdagi qarori talabiga zid ravishda 2002-yil 13-may kuni Samarqand viloyatidagi «Isolat» O'zbekiston—Bolgariya qo'shma korxonasi bilan tuzilgan 14-hisob shartnomasiga asosan, har bir donasi 3 ming 70 so'mdan 33 ming dona — jami 101 mln 310 ming so'mlik shifer olish to'g'risida shartnoma tuzib, ushbu qo'shma korxonadan 31 ming 781 dona shiferni 97 mln 567 ming 670 so'mga olingan.

Vaholanki, shu davrda 1 dona shiferning tenderdagi narxi 2 ming 563 so'mni tashkil etgan bo'lib, har bir dona shifer uchun 507 so'mdan ortiqcha to'langani natijasida budget mablag'lari noqonuniy sarflanib, viloyat xalq ta'limi boshqarmasi manfaatlariga 16 mln 112 ming 967 so'm juda ko'p miqdorda iqtisodiy zarar keltirilgan.

Shu kabi, 2002-yil 12-avgust kuni Toshkent shahridagi xususiy tadbirkor \_\_\_\_\_ bilan tuzilgan 12-shartnomaga asosan, har bir donasi 3 ming 685 so'mdan 5 ming 855 dona shiferni jami 21 mln 575 ming 675 so'mga olish haqida shartnoma tuzilib, ushbu summa mahsulot olinmasdan oldin 2002-yil avgust oyida to'liq o'tkazib berilgan bo'lsa-da, xususiy tadbirkor \_\_\_\_\_ tomonidan shartnoma shartlariga zid ravishda shifer viloyat xalq ta'limi boshqarmasiga faqatgina 2003-yilning 18-fevral kuni, oradan 5 oydan ko'p vaqt o'tgach 18-yuk xati bilan 3 ming 20 dona shifer olingan. Qolgan 10 mln 446 ming 700 so'm pul mablag'larini 2003-yil 17-mart kuniga qadar to'lov muddati o'tkazib yuborilgan debitor qarz sifatida xususiy tadbirkor \_\_\_\_\_ dan undirish choralari ko'rilmagan va bu bilan amaldagi tender bahosiga rioya qilinmaganligi

oqibatida har bir dona shifer 1 ming 115 soʻmdan ortiqcha narxga xarid qilib olingan va viloyat xalq taʼlimi boshqarmasi manfaatlariga 6 mln 528 ming 325 soʻmlik iqtisodiy zarar keltirilgan.

Bundan tashqari, 2002-yilda viloyat xalq taʼlimi boshqarmasi va «TS Texnologiya» korxonasi oʻrtasida tuzilgan shartnomaga asosan, har birining narxi 9 mln 100 ming soʻm boʻlgan 7 ta komplekt sinf kompyuterlarini jami 63 mln 700 ming soʻmga olish haqida shartnoma tuzilib, ushbu kompyuterlarni amaldagi tender baholardan qimmat narxda olingani oqibatida 14 mln 64 ming 302 soʻmlik iqtisodiy zarar keltirilgan. Shu davrda har bir sinf kompyuterining tenderda belgilangan bahosi 7 mln 90 ming 814 soʻmni tashkil qilgan.

Jami boʻlib, viloyat xalq taʼlimi boshqarmasi mansabdor shaxslari tomonidan budget mablagʻlarini noqonuniy ravishda tender savdolarida amalda boʻlgan narxlardan qimmat narxlarda olingani oqibatida davlat manfaatlariga 37 mln 363 ming 612 soʻmlik juda koʻp miqdorda iqtisodiy zarar keltirilgan.

Bundan tashqari, viloyat xalq taʼlimi boshqarmasi mansabdor shaxslari tomonidan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining oʻzaro hisob-kitoblarni oʻz vaqtida amalga oshirilishini taʼminlashga qaratilgan Farmoni va qarorlari talablariga amal qilinmaganligi, qarzlarni undirish va toʻlash choralarini koʻrilmaganligi oqibatida boshqarmaning 2003-yil mart oyi holatiga 12 mln 18 ming soʻmlik muddati oʻtgan debitor qarzlari, 58 mln 82 ming soʻmlik muddati oʻtgan kreditor qarzlari vujudga kelgan.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 19-martdagi «Ish haqi oʻz vaqtida toʻlanishiga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida»gi qarori talablariga zid ravishda 2003-yil 15-mart holatiga viloyat xalq taʼlimi boshqarmasi tizimi boʻyicha fevral oyi ish haqidagi qarzdorlik 953 mln 500 ming soʻmni tashkil qilgan.

Mazkur holat yuzasidan viloyat xalq taʼlimi boshqarmasi mansabdor shaxslariga nisbatan Oʻzbekiston Respublikasi JKning 205-moddasi 2-qismi «a» bandi bilan jinoyat ishi qoʻzgʻatilib, tergov harakatlari olib borilishi lozim.

Yuqoridagilarga koʻra, Oʻzbekiston Respublikasining «Prokuratura toʻgʻrisida»gi Qonuni 39-moddasi va Oʻzbekiston Respublikasi JPKning 321, 322, 331, 336-moddalarini qoʻllab,

## QAROR QILDIM:

1. Viloyat xalq taʼlimi boshqarmasi mansabdor shaxslariga nisbatan Oʻzbekiston Respublikasi JKning 205-moddasi 2-qismi «a» bandi bilan jinoyat ishi qoʻzgʻatilgan.

2. Jinoyat ishy yuzasidan dastlabki tergov harakatlarini olib borish viloyat prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish boʻlimiga yuklatilgan.

**Umumiy nazorat boʻlimi katta  
prokurori, adliya kichik maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

«*Qoʻshilaman*»

**Umumiy nazorat boʻlimi boshligʻi,  
adliya maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

(imzo)

\_\_\_-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_

## Jinoyat ishi qo'zg'atish haqida

### Q A R O R

2003 yil \_\_\_-fevral

Samarqand shahri

Viloyat prokuraturasi umumiy nazorat bo'limi prokurori, 2-darajali yurist \_\_\_\_\_, Urgut tumani «Matlubotsavdo» aksionerlik jamiyatiga qarashli «Quyiqishloq» savdo korxonasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 14-dekabrda «Respublikada savdoni erkinlashtirish choratadbirlari to'g'risida»gi 604-qarori talablarini bajarilishi yuzasidan umumiy nazorat tartibida o'tkazilgan tekshirish hujjatlarini ko'rib chiqib,

### ANIQLADIM:

F. Sarimsoqov Urgut tumani «Matlubotsavdo» aksionerlik jamiyatiga qarashli «Quyiqishloq» savdo korxonasi boshlig'i rahbari vazifasida ishlab kelib, mansabini suiiste'mol qilib, korxonani yuk tashuvchisi B. Mahmudov javobgarligidagi 21 mln 917 ming 422 so'mlik oziq va nooziq-ovqat mahsulotlarini olib, o'z manfaatlarini uchun sarflab, juda ko'p miqdordagi mulkini o'zlashtirish yo'li bilan talon-taroj qilgan.

Bundan tashqari, A. Sarimsoqov o'zaro hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlamaganligi, qarzlarni undirish choralari ko'rmaganligi oqibatida korxonaning 2002-yil dekabr oyi holatiga 7 mln 287 ming 163 so'mlik muddati o'tgan debitor qarzlari, 7 mln 359 ming 325 so'mlik muddati o'tgan kreditor qarzlari vujudga kelgan, shuningdek, korxonani xodimlariga ish haqi hisobidan asossiz ravishda 2 mln 325 ming 198 so'm debitor qarzdor bo'lishiga sababchi bo'lgan.

Mazkur holat yuzasidan A. Sarimsoqovga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning 167-moddasi 3-qismi «a» bandi va JKning 205-moddasi 2-qismi «a» bandi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilishi lozim.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 39-moddasi va O'zbekiston Respublikasi JPKning 321, 322, 331, 336-moddalarini qo'llab,

### QAROR QILDIM:

1. Urgut tumani «Matlubotsavdo» aksionerlik jamiyatiga qarashli «Quyiqishloq» savdo korxonasi rahbari A. Sarimsoqovga nisbatan O'zbekiston Respublikasi JKning 167-moddasi 3-qismi «a» bandi va JKning 205-moddasi 2-qismi «a» bandi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

2. Jinoyat ishi yuzasidan dastlabki tergov harakatlarini olib borish viloyat prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlar va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga yuklatilgan.

**Umumiy nazorat bo'limi  
prokurori, 2-darajali yurist**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

«Qo'shilaman»

**Umumiy nazorat bo'limi boshlig'i,  
adliya maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BOSH PROKURATURASI  
SAMARQAND VILOYAT  
PROKURATURASI

140000, Samarqand sh.  
Ko'ksaroy maydoni, 4-uy,  
tel: (8-366) 233-10-45.

**Viloyat xo'jalik sudining raisi**  
\_\_\_\_\_ga

2003-yil « \_\_\_\_ » iyun № \_\_\_\_\_

*Da'vogar:* viloyat prokurori Bulung'ur tumani  
mashina-traktor saroyining  
manfaatlarini ko'zlab

*Javobgar:* Payariq tumani «Churash»  
shirkat xo'jaligidan

**Debitor qarzni undirish haqida**

**DA'VO ARIZA**

Bulung'ur tumanidagi mashina-traktor saroyi hissadorlik jamiyati Payariq tumanidagi «Churash» shirkat xo'jaligi bilan tuzilgan 2001-yil 30-oktabr kunidagi 4-A-shartnomaga asosan, 81 mln 144 ming so'm miqdorida qishloq xo'jaligi texnikalari bilan xizmat ko'rsatgan.

Payariq tumanidagi «Churash» shirkat xo'jaligi shartnoma shartlariga zid ravishda, MTS tomonidan ko'rsatilgan texnika xizmati pullarini o'z vaqtida yetkazib bermaganligi oqibatida hozirgi kunga 81 mln 144 ming so'mlik muddati o'tgan debitor qarzlarga yo'l qo'yilgan.

Javobgar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 12-maydagi «Xalq xo'jaligida hisob-kitoblarni o'z vaqtida o'tkazilishi uchun korxonalar va tashkilot rahbarlarining mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1996-yil 24-yanvardagi «To'lovlar intizomi va o'zaro hisob-kitoblar tizimini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1999-yil 19-iyuldagi «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 12-maydagi Farmonini qisman o'zgartirish to'g'risida»gi Farmonlari talablari bajarilmasdan kelingan.

Bayon etilganlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 41-moddasi qo'llanib,

**SO'RAYMAN:**

1. Mazkur da'vo arizani viloyat xo'jalik sudida ko'rib chiqishni va Payariq tumanidagi «Churash» shirkat xo'jaligidan Bulung'ur tuman MTS HJ foydasiga 81 mln 144 ming so'm qarzni undirishni.

2. Da'vo arizani ko'rib chiqishda sud majlisida ishtirok etish uchun viloyat prokuraturasiga xabar qilishni.

3. Davlat bojini javobgar hisobidan undirishni.

Ilova \_\_\_\_\_ varaqda.

**Viloyat prokurori,  
adliya katta maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BOSH PROKURATURASI  
SAMARQAND VILOYAT  
PROKURATURASI

140000, Samarqand sh.  
Ko'ksaroy maydoni, 4-uy,  
tel: (8-366) 233-10-45

2003-yil « \_\_\_ » iyun № \_\_\_\_\_

Viloyat xo'jalik sudi raisi  
\_\_\_\_\_ga

*Da'vogar:* viloyat prokurori Kattaqo'rg'on  
shahridagi 2518-avtokorxonada  
manfaatlarini ko'zlab

*Javobgar:* «Kattaqo'rg'on don mahsulotlari»  
hissadorlik jamiyatidan

**4 mln 53,1 ming so'm debitor qarzni undirish haqida**

**DA'VO ARIZA**

Kattaqo'rg'on shahridagi 2518-avtokorxonada «Kattaqo'rg'on don mahsulotlari»  
hissadorlik jamiyati bilan 2002-yil 10-dekabr kuni tuzilgan avtomobil transportida  
yuk tashish haqidagi 1-shartnomaga asosan, 4 mln 53,1 ming so'm miqdorida  
avtomobillar bilan xizmat ko'rsatgan.

«Kattaqo'rg'on don mahsulotlari» hissadorlik jamiyati shartnoma shartlariga  
zid ravishda, 2518-avtokorxonada tomonidan ko'rsatilgan texnika xizmati pullarini  
o'z vaqtida yetkazib bermaganligi oqibatida hozirgi kunga 4 mln 53,1 ming so'mlik  
muddati o'tgan debitor qarzlarga yo'l qo'yilgan.

Javobgar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil  
12-maydagi «Xalq xo'jaligida hisob-kitoblarni o'z vaqtida o'tkazilishi uchun korxonada  
va tashkilot rahbarlarining mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi,  
1996-yil 24-yanvardagi «To'lovlar intizomi va o'zaro hisob-kitoblar tizimini  
mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1999-yil 19-iyuldagi «O'zbekiston  
Respublikasi Prezidentining 1995-yil 12-maydagi Farmonini qisman o'zgartirish  
to'g'risida»gi Farmonlari talablari bajarilmasdan kelingan.

Bayon etilganlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura  
to'g'risida»gi Qonuni 41-moddasi qo'llanib,

**SO'RAYMAN:**

1. Mazkur da'vo arizani viloyat xo'jalik sudida ko'rib chiqishni va «Kattaqo'rg'on  
don mahsulotlari» HJdan Kattaqo'rg'on shahridagi 2518-avtokorxonada  
foydasiga 4 mln 53,1 ming so'm qarzni undirishni.

2. Da'vo arizani ko'rib chiqishda sud majlisida ishtirok etish uchun viloyat  
prokuraturasiga xabar qilishni.

3. Davlat bojini javobgar hisobidan undirishni.

Ilova \_\_\_ varaqda.

**Viloyat prokurori,  
adliya katta maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BOSH PROKURATURASI  
SAMARQAND VILOYAT  
PROKURATURASI

140000, Samarqand sh.  
Ko'ksaroy maydoni, 4-uy,  
tel: (8-366) 233-10-45

2003-yil \_\_\_-aprel №\_\_\_

Viloyat moliya boshqarmasi  
boshlig'i \_\_\_\_\_ga

**Qonunning buzilishiga yo'l qo'ymaslik xususida  
OGOHLANTIRUV**

Viloyat prokuraturasi tomonidan viloyat xalq ta'limi boshqarmasi va uning quyi tizimlarida budjet va budjetdan tashqari mablag'larning ishlatilishi, ish haqi to'lanishiga doir qonunlar ijrosi yuzasidan tekshirish o'tkazilganda qator qonun buzilish holatlari aniqlandi.

Xususan, viloyat moliya boshqarmasi mansabdor shaxslari tomonidan o'z xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmasdan kelishlari, ish haqi uchun ajratilgan pul mablag'larining maqsadli ishlatilishi yuzasidan tegishli nazoratni olib borilmaganligi natijasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 19-martdagi «Ish haqi o'z vaqtida to'lanishiga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori talablariga rioya qilinmagan holda viloyat xalq ta'limi tizimiga qarashli muassasalari xodimlarining ish haqlardan jami 953 mln 500 ming so'm miqdorda qarzdorlikka yo'l qo'yilgan.

Nurobod tuman xalq ta'limi mansabdor shaxslari tomonidan 2002-yilning avgust va sentabr oylari uchun maktab va maktabgacha muassasalarining o'qituvchi va ishchi xodimlariga to'lanishi lozim bo'lgan 2 mln 850 ming so'm pul mablag'lari asossiz ravishda tuman sug'urta bo'limiga o'tkazib yuborilgan.

O'qituvchi va ishchi-xizmatchilarga oylik ish haqlari va nafaqa pullarini o'z vaqtida to'lash choralari ko'rilmaganligi hamda natura shaklida ish haqi to'langanligi holatlariga ham yo'l qo'yilishi nazorat qilinmagan.

Qayd etilgan qonun buzilishi holatlari moliya boshqarmasi va uning joylardagi bo'limlarining mansabdor shaxslarini o'z xizmat vazifalariga loqaydlik va vijdon-sizlarcha munosabatda bo'lganliklari oqibatida kelib chiqqan.

Yuqoridagilarga ko'ra hamda O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 6, 22-moddalarini qo'llab,

**OGOHLANTIRAMAN:**

— Fuqarolarning, ya'ni viloyat xalq ta'limi boshqarmasi va uning joylardagi tizimlari o'qituvchilarining qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan g'ayriqonuniy xatti-harakatlarni bartaraf etish choralari ko'rmasangiz, O'zbekiston Respublikasi MJTKning 49-moddasi bilan ma'muriy javobgarlikka tortilishingiz mumkin.

**Viloyat prokurori,  
adliya katta maslahatchisi**

**Ogohlantiruv menga e'lon qilindi  
va mohiyati tushuntirildi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

\_\_\_\_\_  
(imzo)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BOSH PROKURATURASI  
SAMARQAND VILOYAT  
PROKURATURASI

140000, Samarqand sh.  
Ko'ksaroy maydoni, 4-uy,  
tel: (8-366) 233-10-45

2003-yil \_\_\_-aprel №\_\_\_

**Markaziy bankning viloyat  
boshqarmasi boshqaruvchisi  
ga**

**Qonunning buzilishiga yo'l qo'ymaslik xususida**

**OGOHLANTIRUV**

Viloyat prokuraturasi tomonidan viloyat xalq ta'limi boshqarmasi va uning quyi tizimlarida budjet va budjetdan tashqari mablag'larning ishlatilishi, ish haqi to'lanishi hamda joriy kapital ta'mirlash va qurilishga ajratilgan mablag'larni sarflanishi to'g'risidagi qonunlar ijrosi yuzasidan tekshirish o'tkazilganida, qator qonun buzilishi holatlari aniqlandi.

Xususan, bankning viloyat va uning joylardagi muassasalarining mansabdor shaxslari tomonidan o'z xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmasdan kelishgani, xalq ta'lim boshqarmasi va uning joylardagi bo'limlari tizimiga qarashli maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarining o'qituvchi va xizmatchilariga ish haqi uchun ajratilgan pul mablag'larini o'z vaqtida to'lab borish imkoniyatlari ko'rilmaganligi, ish haqi uchun ajratilgan pul mablag'larini maqsadli ishlatilishi yuzasidan tegishli nazoratni olib borilmaganligi natijasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 19-martdagi «Ish haqi o'z vaqtida to'lanishiga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori talablari qo'pol ravishda buzilib, o'qituvchi va xizmatchilarga jami 953 mln 500 ming so'm miqdorda pul mablag'lari berilmasdan qolingan.

Jumladan, «Paxtabank» aksiyadorlik jamiyatining Oqtosh bo'limi tomonidan 2003-yil 15-mart holatiga tuman xalq ta'limi bo'limi xodimlariga tegishli bo'lgan 54 mln so'mlik ish haqi va 20 mln 398 ming so'm nafaqa pullarini o'z vaqtida to'lab berish imkoniyatlarini ko'rilmaganligi natijasida o'qituvchilarga oylik ish haqlari o'rniga savdo do'konlari orqali natura shaklida mahsulot berish holatlariga yo'l qo'yilgan.

Qayd etilgan qonun buzilishi holatlari Markaziy bankning viloyat boshqarmasi va uning tizimidagi banklarning mansabdor shaxslari o'z xizmat vazifalariga loqaydlik va vijdotsizlarcha munosabatda bo'lganliklari oqibatida kelib chiqqan.



Yuqoridagilarga ko'ra hamda O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 6, 22-moddalarini qo'llab,

**OGOHLANTIRAMAN:**

— Fuqarolarning, ya'ni viloyat xalq ta'limi boshqarmasi va uning joylardagi tizimlari o'qituvchilarining qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan g'ayriqonuniy xatti-harakatlarni bartaraf etish choralarini ko'rmasangiz, O'zbekiston Respublikasi JKning 184'-moddasi 4-qismi bilan jinoiy javobgarlikka tortilishingiz mumkin.

**Viloyat prokurori,  
adliya katta maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

**Ogohlantirishning mazmuni va  
mohiyati menga tushuntirildi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BOSH PROKURATURASI  
SAMARQAND VILOYAT  
PROKURATURASI

140000, Samarqand sh.  
Ko'ksaroy maydoni, 4-uy,  
tel: (8-366) 233-10-45.

---

2003-yil \_\_\_-iyun №\_\_\_

**«Zarvodiyusvuzorot» inspeksiyasi  
boshlig'i**

\_\_\_\_\_ga

**Qonun buzilishi holatlarini keltirib chiqaruvchi sabab  
va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida**

**TAQDIMNOMA**

Viloyat prokuraturasi tomonidan nazorat qiluvchi organlar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi respublika kengashining 2003-yil 29-martdagi 1/2-G-qarori bilan tasdiqlangan ish rejaga asosan, Samarqand shahridagi «Zarvodiyusvuzorot» inspeksiyasida mulkni saqlanishi, to'lov intizomi, ma'muriy jarimalarni qo'llanishi va undirilishini qonuniyligi yuzasidan tekshirish o'tkazildi.

O'tkazilgan tekshirishda, inspeksiya xodimlari tomonidan suvdan noqonuniy foydalangan shaxslarga nisbatan ma'muriy bayonnomalar tuzishda aniqlangan holatni to'liq yoritmaslik, huquqbuzarlardan tushuntirish xatlari olinmaganligi, qo'llanilgan jarimalarni to'liq undirish choralari ko'rilmaganligi aniqlandi.

Inspeksiyaning 15 nafar suv inspektorlari 2002-yil davomida 353 ta ma'muriy qaror bilan huquqbuzarlarga nisbatan 1 mln 546 ming so'mlik ma'muriy jarima qo'llab, shundan 37 ming 350 so'mini hozirgi kunga qadar undirilmaganligi, bu holatlarga suv inspektorlari B. Toshqulov 2250 so'm, O. Muhammadiyev 9070 so'm, G. Uzoqov 9070 so'm, A. Xoliqov 9070 so'm va N. Xalilovlar 7890 so'mli jarimalarni undirilishini ta'minlamaganliklari sabab bo'lgan.

2003-yilning 15-may kuniga qadar, 10 nafar inspektor tomonidan 27 ta ma'muriy qarorlar orqali huquqbuzarlar 166 ming 717 so'm jarimaga tortilgan bo'lib, shundan atiga 54 ming 460 so'mi undirilgan, qolgan 112 ming 257 so'm hozirgi kunga qadar undirilmasdan qolgan. Inspektorlar F. Bobonazarov va N. Xalilovlar qo'llagan jarimalardan 18140 so'mdan jami 36 ming 280 so'm, O. Muhammadiyev 19954 so'm va L. Boyqobilov tomonidan esa 32 ming 640 so'mlik jarimalar undirilishi ta'minlanmagan.

2003-yilning o'tgan davrida suv inspektorlariga qayd etish kitobi bo'yicha 350 ta ma'muriy qarorlar va bayonnomalar blanklari tarqatilgan bo'lsa-da, inspektorlardan J. Hojiyev, X. Tojiddinov, A. Musayev, F. Boboyev va A. Soataliyevlar ushbu blanklarni olganliklari haqida imzo chekishmagan.

Bundan tashqari, inspeksiya boshlig'i tomonidan har bir suv inspektori tomonidan aniqlangan qonun buzilishlar yuzasidan fuqaro va mansabdor shaxslarga qo'llanilgan ma'muriy kodeksning moddasi hamda jarima miqdorlarining to'g'riligini

yuzasidan xulosa yozib borilmaganligi oqibatida, aybdor shaxslarga nisbatan qonunda belgilangan miqdordan ortiq jarimalar qo'llanishga olib kelgan.

Xususan, Tayloq tumani suv xo'jaligi boshqarmasi «Bog'izag'on» kanali inshoot nazoratchisi Sarvar Hoshimov, suv inspektori O. Sayfullayev tomonidan 2003-yil 24-fevral kuni 102-qaror bilan suvdan foydalanish qoidalarini buzgani uchun O'zbekiston Respublikasi MJTKning 74-moddasi 2-qismi bilan eng kam ish haqining 2 baravari miqdorida deb, 9075 so'mga jarimaga tortilgan.

Mazkur qaror amaldagi qonunlar talablariga zid ravishda qabul qilinganligi sababli quyidagi asoslarga ko'ra, bekor qilinishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi MJTKning 74-moddasi 2-qismiga ko'ra, qonun buzilishiga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslarga nisbatan eng kam oylik ish haqining 2 baravarigacha miqdorida jarima qo'llash belgilangan bo'lib, bu esa 9070 so'mni tashkil qilsa-da, suv inspektori O. Sayfullayev tomonidan huquqbuzar S. Hoshimovga nisbatan asossiz ravishda jarima miqdori ko'paytirib ko'rsatilgan.

Xuddi shuningdek, Tayloq tumani, suv xo'jaligi boshqarmasi «Bog'izag'on» kanali inshoot nazoratchisi Jakbarali Hoshimov, suv inspektori O. Sayfullayev tomonidan 2003-yil 24-fevral kuni 103-qaror bilan suvdan foydalanish qoidalarini buzgani uchun O'zbekiston Respublikasi MJTKning 74-moddasi 2-qismi bilan eng kam ish haqining 2 baravari miqdorida deb, asossiz ravishda 9075 so'mga jarimaga tortilgan.

Tekshirishda, inspeksiya mansabdor shaxslari tomonidan moddiy javobgar shaxslar faoliyati ustidan nazoratni susaytirib yuborilganligi oqibatida tovar moddiy boyliklaridan oshiqcha yoki kamomad chiqish holatlari aniqlandi.

Xususan, yoqilg'i moylash mahsulotlari ombori mudiri A. Saydaliyev 1018 so'm kamomadga yo'l qo'ygan bo'lsa, moddiy javobgar shaxs N. Xayrullina hisobidan 4750 so'mlik ortiqcha tovar qoldig'i aniqlangan.

Zikr etilgan qonun buzilish holatlari «Zarvodiysuvnazorat» inspeksiyasining rahbariyati va mas'ul xodimlarining o'z xizmat vazifalarini lozim darajada bajarmasdan kelishlari natijasida kelib chiqqan.

Bayon qilinganlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 40-moddasini qo'llab,

#### SO'RAYMAN:

1. Ushbu taqdimnomani «Zarvodiysuvnazorat» inspeksiyasining kengaytirilgan yig'ilishida darhol muhokoma qilib, unda ko'rsatilgan qonun buzilishi holatlarini bartaraf etish va kelgusida shu kabi qonunbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik borasida tegishli chora-tadbirlar belgilashingizni.

2. Qonun buzilishi holatlariga yo'l qo'ygan va ularning oldini olish borasida tegishli choralar ko'rmagan, yuqorida nomlari qayd etilgan suv inspektorlari va moddiy javobgar shaxslariga, shuningdek, mazkur masalaga mas'ul bo'lgan shaxslarga nisbatan intizomiy choralar ko'rishni.

3. Taqdimnomani tezda ko'rib chiqib, natijalari haqida qonunda belgilangan bir oy muddat ichida viloyat prokuraturasiga yozma ravishda xabar qilishni.

**Viloyat prokurori,  
adliya katta maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BOSH PROKURATURASI  
SAMARQAND VILOYAT  
PROKURATURASI

140000, Samarqand sh.  
Ko‘ksaroy maydoni, 4-uy,  
tel: (8-366) 233-10-45.

«G‘alaba» mas‘uliyati cheklangan  
jamiyat Bosh direktori

ga

2003-yil \_\_\_-iyul №\_\_\_\_\_

**Qonun buzilish holatlarini keltirib chiqaruvchi sabab  
va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida  
TAQDIMNOMA**

ViLOYAT prokuraturasi tomonidan nazorat qiluvchi organlar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashining 2003-yil 1-iyuldagi 2/2-G-qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi nazorat organlari tomonidan subyektlar moliyaviy xo‘jalik faoliyati bo‘yicha 2003-yil 2-choragida o‘tkaziladigan tekshirishlar rejasi jadvaliga asosan, tegishli mutaxassislar jalb qilingan holda Samarqand shahar Siyob tumanidagi «G‘alaba» mas‘uliyati cheklangan jamiyatning moliyaviy xo‘jalik faoliyati, mulkni saqlanishiga, shartnoma va to‘lov intizomiga rioya qilinishiga qaratilgan va boshqa qonun talablari ijrosi yuzasidan tekshirish o‘tkazildi.

Tekshirish davomida, jamiyatda ishlovchi moddiy javobgar shaxslar tomonidan o‘z faoliyatlari davomida oz miqdorda talon-tarojlikka yo‘l qo‘yganliklari aniqlangan. Jumladan, Samarqand shahar Siyob tumanida joylashgan «G‘alaba» mas‘uliyati cheklangan jamiyatning ombor mudiri lavozimida ishlab kelgan Oripov Rustam Ziyayevich moddiy javobgarligida bo‘lgan mulklardan 5017 so‘m, paxta sexi boshlig‘i lavozimida ishlab kelgan Erdonayev Ikrom moddiy javobgarligida bo‘lgan mulklardan 5900 so‘m kamomadga yo‘l qo‘yganliklari aniqlangan.

Shuningdek, jamiyatining moliyaviy xo‘jalik faoliyati, to‘lov intizomini mustahkamlash, mulkni saqlanishiga qaratilgan va boshqa qonun talablarini ijrosi yuzasidan umumiy nazorat tartibida o‘tkazilgan tekshirishda, jamiyat rahbarlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 12-maydagi «Xalq xo‘jaligida hisob-kitoblarni o‘z vaqtida o‘tkazilishi uchun korxonalar va tashkilot rahbarlarining mas‘uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 1996-yil 24-yanvardagi «To‘lov intizomi va o‘zaro hisob-kitoblar tizimini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 1999-yil 24-yanvardagi «To‘lov intizomini va o‘zaro hisob-kitoblar tizimini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmonlari talablari, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 19-martdagi «Ish haqi o‘z vaqtida to‘lanishiga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 504-sonli qarori talablari ijrosi to‘liq bajarilmasdan kelingan.

2003-yil 1-iyul holatiga ko‘ra, korxonalar va tashkilotlardan 5 mln 220 ming 600 so‘mlik debitor va 97 mln 507 ming 300 so‘mlik kreditor qarzdorlikka yo‘l qo‘yilgan. Shundan 596 ming 500 so‘mlik debitor qarzni muddati o‘tgan.

Bundan tashqari, 2002-yil 29-martda 25- va 30 martda 26-to‘lov topshiriqnomalari asosida jamiyat Jomboy paxta zavodiga tegishli 3 mln 500 ming so‘mli aksiyalarini sotib olib, jamiyat rahbarlari shu kunga qadar aksiyalardan kelib tushgan dividendlarni jamiyatning kirimiga olish choralari ko‘rishmagan.

Buning natijasida, jamiyatning ishchi va xizmatchilariga 5 mln 274 ming 683 so'm ish haqlari to'lanmay kelinmoqda.

«G'alaba» mas'uliyati cheklangan jamiyatning direktori Aliyeva Gulsanam Abdievna va Ahadjonova Afshona tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqorida qayd etilgan Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarori talablari buzilgan.

Bundan tashqari, xodimlar bilan ishlash bo'limi Ismoilova Sayyora Abrorovna-ni ish faoliyati tekshirishdan o'tkazilganda, ayrim holatlarda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi talablari buzilganligi, ya'ni ishga qabul qilingan yoki ishdan bo'shatilgan, mehnat ta'tili berilgan ba'zi bir xodimlar buyruqlar bilan tanishtirilmaganliklari, ish beruvchi va xodim o'rtasida mehnat va moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnomalar tuzilmaganligi, ishga qabul qilish paytida xodimning pasporti yoki uning o'rnini bosadigan boshqa hujjatlarni, turar joyidan ma'lumotnomani, mehnat daftarchasini, harbiy biletini, maxsus ma'lumotga yoki tayyorgarlikka ega bo'lganligini tasdiqlovchi oliy yoki o'rta maxsus o'quv yurtini tamomlaganligi to'g'risidagi diplomini yoki guvohnomasini talab qilib olinmaganligi va shu hujjatlarning nusxasi har bir xodimning shaxsiy yig'ma jildlariga qo'shilmaganligi aniqlandi.

«G'alaba» mas'uliyati cheklangan jamiyatning xodimlar bilan ishlash bo'limi boshlig'i Ismoilova Sayyora Abrorovna o'zining ushbu harakatlari bilan O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 80, 82-moddasi talablarini buzgan.

Bulardan tashqari, «G'alaba» mas'uliyati cheklangan jamiyatning xazinachi lavozimida ishlab kelgan Qurbonova Habiba kassa qoidalari intizomini buzib, 2003-yilning may, iyun oylarida mahsulot sotishdan tushgan jami 464 ming 500 so'm naqd pul mablag'larini bankka topshirmasdan xo'jalik ehtiyojlari uchun ishlatganligi aniqlangan. U o'zining ushbu harakatlari bilan kassa intizomini buzgan.

Yuqorida ko'rsatilgan qonun buzilish holatlarini kelib chiqishiga «G'alaba» mas'uliyati cheklangan jamiyati rahbarlari jamiyatning moddiy javobgar shaxslarini ish faoliyati ustidan tegishli nazorat o'rnatmaganliklari va qonun talablarini mukammal bilmasliklari sabab bo'lgan.

Qayd etilgan qonun buzilishlar bo'yicha ularni zudlik bilan bartaraf etish choralari ko'rilmasa, davlat va jamoat manfaatlariga zarar yetkazilishi mumkin.

Yuqoridagilarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 40-moddasiga asosan,

#### SO'RAYMAN:

1. Ushbu taqdimnomani «G'alaba» mas'uliyati cheklangan jamiyatning kengaytirilgan yig'ilishida, jamiyatning barcha mansabdor va moddiy javobgar shaxslari ishtirokida ko'rib chiqib, bayon etilgan qonun buzilish holatlarini, ularni keltirib chiqargan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish hamda muddati o'tgan qarzdorlikni undirish, ish haqlarini to'lab berish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar ko'rishingizni.

2. Yo'l qo'ygan qonun buzilishi holatlarini bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rmagan mutasaddi hamda moddiy javobgar xodimlarni intizomiy va moddiy javobgarlikka tortish masalasini ko'rib chiqishingizni.

3. Taqdimnomani ko'rib chiqishda qatnashish uchun ko'rib chiqiladigan kun haqida viloyat prokuraturasiga xabar qilishingizni.

4. Taqdimnomani darhol ko'rib chiqib, natijalari haqida qonunda belgilangan bir oylik muddat ichida tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda viloyat prokuraturasiga yozma ravishda xabar qilishingizni.

**Viloyat prokurori,  
adliya katta maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BOSH PROKURATURASI  
SAMARQAND VILOYAT  
PROKURATURASI

140000, Samarqand sh.  
Ko'ksaroy maydoni, 4-uy,  
tel: (8-366) 233-10-45.

2003-yil \_\_\_\_-oktabr № \_\_\_\_

«Samarqand TTPK» OTAJ raisi  
\_\_\_\_\_ga

**Qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat  
yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida  
TAQDIMNOMA**

Viloyat prokuraturasi tomonidan nazorat qiluvchi organlar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashining 2003-yil 1-iyuldagi № 2/2-G-sonli qarori bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi nazorat organlari tomonidan subyektlar moliyaviy xo'jalik faoliyati bo'yicha 2003-yil 3-chorak sentabr oyida o'tkaziladigan tekshirishlar reja jadvaliga asosan, «Samarqand TTPK» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatida moliyaviy xo'jalik faoliyati, to'lov intizomini mustahkamlash, mulkni saqlanishiga qaratilgan va boshqa qonun talablarini ijrosi yuzasidan tekshirish o'tkazildi.

Tekshirishda, «Samarqand TTPK» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati rahbarlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 12-maydagi «Xalq xo'jaligida hisob-kitoblarni o'z vaqtida o'tkazilishi uchun korxon va tashkilot rahbarlarining mas'uliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1996-yil 24-yanvardagi «To'lov intizomi va o'zaro hisob-kitoblar tizimini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 1999-yil 24-yanvardagi «To'lov intizomini va o'zaro hisob-kitoblar tizimini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 19-martdagi «Ish haqi o'z vaqtida to'lanishiga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 504-qarori talablari ijrosi to'liq bajarilmasdan kelingan.

2003-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, korxon va tashkilotlardan muddati o'tgan 10 mln 535 ming so'mlik debitor, 26 mln 178 ming so'mlik kreditorlik qarzdorlikka yo'l qo'yilgan. Buning natijasida ishchi va xizmatchilarni ish haqidan ham 2 mln 532 ming so'mlik qarzdorlikka yo'l qo'yilgan. Bundan tashqari, 2001—2002-yillarda jami 577 ming so'mlik barter operatsiyalari amalga oshirilgan. Shuningdek, qo'shimcha qiymat solig'i bo'yicha jami 2 mln 340 ming 700 so'm, ishchi va xizmatchilar daromad solig'i bo'yicha 31 ming so'm kam hisoblanib, O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi talablari buzilganligi aniqlangan.

Buxgalteriya hisobi va hisobotlarni yuritilishini qonuniyligi tekshirilganda, hisobotlar jamiyat raisi va bosh hisobchi tomonidan tasdiqlangan bo'lsa-da, lekin oylik jurnal orderi hisobotlarini bajaruvchi hisobchilar tomonidan imzolanmaganligi va bosh hisobchi tomonidan tasdiqlanmaganligi aniqlangan.

Bu bilan esa O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustdagi «Buxgalteriya hisobini yuritish to'g'risida»gi Qonuni talablariga rioya etilmagan.

Mol-mulklarni saqlanishi yuzasidan o'tkazilgan tekshirishlarda, moddiy javobgar shaxslar ish faoliyati bo'yicha tegishli nazorat o'rnatilmaganligi sababli, moddiy javobgar shaxs P. Damirov tomonidan jamiyatga tegishli bo'lgan oz miqdordagi 1710 so'mli tovar-moddiy boyliklaridan kamomadga yo'l qo'yganligi aniqlangan.

Yuqorida ko'rsatilgan qonun buzilishi holatlarini kelib chiqishiga «Samarqand TTPK» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyati rahbarlari tomonidan, yuqorida qayd etilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda Soliq kodeksi, «Buxgalteriya hisobini yuritish to'g'risida»gi qonun talablariga rioya etmaganliklari, moddiy javobgar shaxslarni ish yuritishi ustidan tegishli nazorat o'rnatilmaganligi sabab bo'lgan.

Qayd etilgan qonun buzilishi, uning kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish choralari ko'rilmasa, jamiyat manfaatlariga zarar yetkazilishi mumkin.

Yuqoridagilarga asosan, O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni 40-moddasiga asosan,

#### SO'RAYMAN:

1. Ushbu taqdimnomani «Samarqand TTPK» ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatining kengaytirilgan yig'ilishida jamiyatning barcha mansabdor va moddiy javobgar shaxslari hamda aksiyadorlari ishtirokida ko'rib chiqib, bayon etilgan qonun buzilishi holatlarini bartaraf etish va muddati o'tgan qarzdorlikni undirish hamda ish haqlarini to'lab berish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar ko'rishingizni.

2. Yo'l qo'yilgan qonun buzilishi holatlarini bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rmagan mutasaddi hamda moddiy javobgar xodimlarni intizomiy va moddiy javobgarlikka tortish masalasini ko'rib chiqishingizni.

3. Taqdimnomani ko'rib chiqishda qatnashish uchun ko'rib chiqiladigan kun haqida viloyat prokuraturasiga xabar qilishni.

4. Taqdimnomani darhol ko'rib chiqib, natijalari haqida bir oylik muddat ichida tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda viloyat prokuraturasiga yozma ravishda xabar qilishingizni.

**Viloyat prokurori,  
adliya katta maslahatchisi**

\_\_\_\_\_  
(imzo)

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### I. Rahbariy adabiyotlar

1. *I.A. Karimov*. O'zbekiston taraqqiyoti va rivojlanishining o'ziga xos yo'li. T., «O'zbekiston», 1992.
2. *I.A. Karimov*. Yangi uy qurmay, eskisini buzma. T., «O'zbekiston», 1993.
3. *I.A. Karimov*. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1997.
4. *I.A. Karimov*. O'zbekiston — buyuk kelajak sari. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. T., «O'zbekiston», 1998.
5. *I.A. Karimov*. O'zbekiston — buyuk kelajak sari. O'zbekiston — bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T., 1998.
6. *I.A. Karimov*. Xalqimiz jipsligi — tinchlik, taraqqiyot garovi. (Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n ikkinchi sessiyasidagi ma'ruza, 1998-yil 28-avgust.) T., «O'zbekiston», 1998.
7. *I.A. Karimov*. Barqaror taraqqiyotga erishish — ustuvor vazifa. (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 1998-yil 25-fevral.) T., «O'zbekiston», 1998.
8. *I.A. Karimov*. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T. 8. T., «O'zbekiston», 2000.
9. *I.A. Karimov*. Adolat — qonun ustuvorligida. «Xalq so'zi» gazetasi, 2001-yil 30-avgust.
10. *I.A. Karimov*. O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. «Xalq so'zi» gazetasi, 2002-yil 30-avgust.

### II. Qonunlar va normativ materiallar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T., «O'zbekiston», 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. T., 1994.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat protsessual kodeksi. T., «O'zbekiston», 1994.
4. O'zbekiston Respublikasining «Advokatura to'g'risida»gi Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi. T., 1997.
6. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining amaldagi buyruqlari, ko'rsatmalari, nizom va yo'riqnomalari to'plami. T., 1999.
7. O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasining «Sudlar to'g'risida»gi Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasining «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonuni.



10. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi plenumi qarorlari to'plami (1991—2002-y.). Nukus, «Bilim», 2002.

11. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining prokuratura faoliyati yo'nalishlarini tartibga soluvchi 2004—2005-yillarda qabul qilingan buyruqlari, ko'rsatmalari va Nizomlari.

### III. Maxsus adabiyotlar

1. *V.I. Басков*. Прокурорский надзор. М., «БЕК», 1998.

2. *A.J. Davletov*. Prokuror nazorati. Nukus, «Bilim», 1999.

3. Прокурорский надзор в Российской Федерации. (Под общей редакцией А.А. Чувилёва). М., 2000.

4. Jinoyat protsessi (Umumiy qism). (Z.F. Inog'omjonova umumiy tahriri ostida.) T., «Yangi asr avlodi», 2002.

5. Jinoyat protsessi (Maxsus qism). (Z.F. Inog'omjonova umumiy tahriri ostida.) T., TDYI, 2003.

6. Уголовный процесс. Учебник. (Под редакцией Е.Н. Никифоровой.) Т., 2002.

7. *М.А. Ковалёв*. Прокурорский надзор над соблюдением прав личности при рассмотрении преступлений. М., 1981.

8. *О.М. Madaliyev*. Jinoyat ishlarini birinchi instansiya sudlarida ko'rilishida prokuror ishtiroki. T., TDYI, 2005.

9. *О.М. Madaliyev*. Sud tergovi jarayonida prokurorning protsessual mavqeyi va ayblovni isbotlash majburiyati. O'quv-uslubiy qo'llanma. T., TDYI, 2006.

10. *Ф.М. Решетников*. Правовые системы стран мира. Справочник. М., 1993.

11. *В.М. Савицкий*. Государственное обвинение на суде. М., «Наука», 1971.

12. *В.М. Савицкий*. Поддержка государственного обвинения на суде. М., «Юридическая литература», 1978.

13. *Б.Х. Пулатов*. Теоретические основы совершенствования законодательного регулирования и практики участия прокурора при рассмотрении уголовных дел в судах. Т., «Fan», 2002.

14. *М. Esanov, S.Y. Polvonov*. Tergov va surishtiruv ustidan nazoratni tashkil etish. T., 1998.

15. *А.И. Алексеев, В.Б. Ястребов*. Профессия — прокурор. Введение в юридическую специальность. М., 1998.

16. *В.В. Гаврилов*. Сушность прокурорского надзора. Саратов, 1984.

17. *В.Г. Даев, М.Н. Маршунев*. Основы теории прокурорского надзора. Л., 1990.

18. *А.Д. Берензон, В.Г. Мелкумов*. Работа прокурора по общему надзору. М., 1974.

19. Проблемы эффективности прокурорского надзора. (Под ред. К.Ф. Скворцова.) М., 1977.

20. Акты прокурорского надзора. (Под ред. Ю.И. Скуратова.) М., 1997.

21. Правоохранительные органы. Учебник для вузов. (Под редакцией профессора К.Ф. Гущенко, 3-е изд. и перераб.). М., «Зерцало», 1998.

22. *М.Х. Рустамбаев, Е.Н. Никифорова*. Правоохранительные органы Республики Узбекистан. Учебник для вузов. Т., 2003.

23. *А.Х. Halimov*. Prokuraturaning davlat hokimiyati mexanizmi tizimidagi o'rni. T., TDYI, 2006.

24. *Т.А. Васильева*. Административное право Италии. Административное право зарубежных стран. Учеб. пособие (под ред. А.Н. Козирина). М., 1996.
25. *Т. Делла Марра*. Уголовный процесс Италии: реформа и контрреформа. Журнал «Государство и право», 1993, № 1.
26. Законодательство Италии о борьбе с организованной преступностью. Журнал «Законность», 1993, № 11.
27. Италия. Конституция и законодательные акты. М., 1988.
28. *А. Кариола*. Основные права и свободы по Конституции Италии. Защита прав человека в современном мире. Сборник статей. (Отв. ред. И.А. Ледах). М., 1993.
29. *А.И. Лубенский*. Уголовный процесс Италии. М., 1973.
30. *Н.Ю. Попов*. Судебная система Италии. Судебные системы западных государств. М., 1991.
31. *М. Cappelletti*. The Italian Legal System: An Introduction. Stanford, California, 1967.
32. *G. L. Certoma*. The Italian Legal System. L., 1984.
33. *К. Давид, К. Жоффре-Спинози*. Основные правовые системы современности. М., 1996.
34. *Н.А. Крашенинникова*. Индусское право: история и современность. М., 1982.
35. *В.П. Мозолин*. Личность, право, экономика современной Индии. М., 1979.
36. *Б.С. Никифоров*. Уголовное законодательство Республики Индии. М., 1958.
37. *А.Х. Саидов*. Сравнительное правоведение и юридическая география мира. М., 1993.
38. Уголовно-процессуальный кодекс Индии. М., 1959.
39. *К. Свайгерд, Х. Кетс*. Введение в сравнительное правоведение в сфере частного права. В 2 т. Т. 1. Основы. М., 1998.
40. *Irani P. K.* India. International Encyclopedia of Comparative Law. Vol. 1. 1972.
41. The Indian Legal System. Ed. J. Minattur. Bombay, 1978.

#### IV. Qo'shimcha adabiyotlar

1. *Abdulaziz Mansur*. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjimasini. T., TIU, 2001.
2. *Al-Movardiy*. Al-ahkomi as-sultoniya.
3. *Din Gotter*. Ombudsman hamda demokratlashtirish va inson huquqlari. 1999, № 1.
4. Lison al-Arab. 3-kitob. Bayrut, 1997.
5. Zarif al-Hosimiy. Nizom al-hukm fiy shari' va tarix al-IIIslamiy.
6. Internet WWW. Islam.uz@ Islamik-World.Net.
7. *Dr. V.Zuhayliy*. Al-fiad al-islamiy va adillatuhu, 8/ 6263.
8. *Ibn Xaldun*. Al-Muqaddima.
9. *Ibn Taymiya*. Al-Xisbatu fil islam. Qohira, 1935.

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
--------------	---

### • UMUMIY QISM •

#### *Birinchi bo'lim. UMUMIY QOIDALAR*

##### **1-bob. «PROKUROR NAZORATI» FANINING UMUMIY QISMI TUSHUNCHASI, MOHIYATI VA VAZIFALARI**

1.1. «Prokuror nazorati» fanining tushunchasi, predmeti, tizimi, maqsadi va vazifalari .....	8
1.2. «Prokuror nazorati» fanining boshqa yuridik fanlar bilan o'zaro aloqadorligi .....	11
1.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida prokuratura haqida .....	16
1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning VI sessiyasida so'zlagan «Adolat — qonun ustuvorligida» ma'ruzasida qo'yilgan vazifalar .....	22

##### **2-bob. DAVLAT XIZMATINING ALOHIDA TARMOG'I SIFATIDA PROKUROR NAZORATI**

2.1. Prokuror nazoratining mazmuni va vazifalari .....	37
2.2. Qonunlarga rioya etish — prokuror nazoratining predmeti sifatida .....	42
2.3. O'zbekiston Respublikasining «Prokuratura to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri) .....	51
2.4. O'zbekiston Respublikasida prokuratura organlarining tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari .....	55

##### **3-bob. PROKURATURANING TASHKILIV VA FAOLIYAT PRINSIPLARI. PROKURATURA ORGANLARI FAOLIYATINING ASOSIY YO'NALISHLARI. FUQAROLARNING ARIZA VA SHIKOYATLARI HAMDA YURIDIK SHAXSLARNING MUHOJATLARINI KO'RIB CHIQUISH**

3.1. Prokuraturaning tashkiliy va faoliyat prinsiplari tushunchasi .....	83
3.2. Birlik, markazlashganlik, qonuniylik, mustaqillik va oshkoralik prinsiplari. Hududiylik va predmetlilik .....	84
3.3. Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari .....	95
3.4. Prokuror talablari bajarilishining majburiyligi .....	100
3.5. Fuqarolarning ariza va shikoyatlari hamda yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish .....	102

**4-bob. PROKURATURA ORGANLARIDA ISHNI TASHKIL ETISH.  
JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASH FAOLIYATINI  
MUVOFIQLASHTIRISH**

4.1. Prokuratura organlarida ishni tashkil etish .....	124
4.2. Kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va tarbiyalash .....	130
4.3. Prokuraturada ishlarni rejalashtirish .....	158
4.4. Ijro ustidan nazorat va rahbarlik .....	161
4.5. Fuqarolar va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish hamda ularning qabulini tashkil etish .....	167
4.6. Hisobdorlik, hisob va hisobot .....	169
4.7. Jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish .....	174
4.8. Jinoyatchilikka qarshi kurash faoliyatini muvofiqlashtirish tushunchasi va muvofiqlashtirish ishtirokchilari .....	175
4.9. Muvofiqlashtirish prinsiplari .....	177
4.10. Muvofiqlashtirish faoliyatining asosiy yo'nalishlari va shakllari .....	178

**Ikkinchi bo'lim. PROKURATURA ORGANLARI**

**5-bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PROKURATURA  
ORGANLARI TIZIMI**

5.1. O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi .....	189
5.2. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi .....	189
5.3. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining vakolatlari .....	199
5.4. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining hisobdorligi .....	200
5.5. Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi .....	201
5.6. Viloyatlar, Toshkent shahar prokuraturalari va ularga tenglashtirilgan prokuraturalar .....	201
5.7. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valutaga oid jinoyatlar va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti hamda uning joylardagi bo'linmalari .....	218
5.8. Prokuratura organlarining hay'atlari .....	228
5.9. Prokuratura organlarida boshqaruv .....	232
«Prokuror nazorati» fanidan test savollari .....	242
Ilova .....	255
Foydalanilgan adabiyotlar .....	299

M14 **Madaliyev O.M. PROKUROR NAZORATI.** Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. (Umumiy qism.) T.: «ILM ZIYO», 2012. —304 bet.

УДК 347.963(075)  
BBK 67.72(50')

ISBN 978–9943–16–053–8

OBIDJON MELIYO'ZIYEVICH MADALIYEV

## **PROKUROR NAZORATI**

### **Umumiy qism**

*Oliy o'quv yurtlari uchun darslik*

Toshkent — «ILM ZIYO» — 2012

Muharrir *I. Usmonov*  
Badiiy muharrir *Sh. Odilov*  
Texnik muharrir *F. Samadov*  
Musahhih *M. Ibrohimova*

Noshirlik litsenziyasi AI № 166, 23.12.2009-yil.

2012-yil 19-yanvarda chop etishga ruxsat berildi. Bichimi 60x90<sup>1/16</sup>.  
«Tayms» harfida terilib, ofset usulida chop etildi. Bosma  
tabog'i 19,0. Nashr tabog'i 18,0. 500 nusxa. Buyurtma № 20  
Bahosi shartnoma asosida.

«ILM ZIYO» nashriyot uyi. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Shartnoma № 56—2011.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom  
nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.  
Toshkent, Shayxontohur ko'chasi, 86-uy.

200

«ILM ZIYO»

ISBN 978-9943-16-053-8



9 789943 160538